

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

XALQARO VALUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

(Qayta nashri)

Kasb-hunar kolleji talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2013

UO‘K 336.741.242.1
KBK 65.268я722

Taqrizchilar:

D.E. Norbekov — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

O.B. Sattorov — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Xudoyberdiyev Z.

X-87 Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma/ Mualliflar: Xudoyberdiyev Z.Ya., Qahhorov S.Yu., Umarov Z.A., Sohibov O.Q.—T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. —200 b.

Qahhorov S.Yu., Umarov Z.A., Sohibov O.Q.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada xalqaro valuta-kredit munosabatlarining iqtisodiy kategoriyalari, rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari va tashkil etish shakllari haqida fikr yuritilgan.

Qo‘llanmada globallashuv sharoitida valuta va valuta munosabatlari, valuta tizimi hamda uning rivojlanish qonuniyatlari, valuta kursi, valuta bozori, valuta operatsiyalari va valuta risklari hamda ularni boshqarish, xalqaro hisob-kitob shakllari, to‘lov va hisob-kitob balanslari hamda xalqaro kredit munosabatlari kabi masalalar o‘z ifodasini topgan.

UO‘K 336.741.242.1
KBK 65.268я722

ISBN 978-9943-13-172-9
ISBN 978-9943-13-461-4

© «IQTISOD-MOLIYA», 2012
© «IQTISOD-MOLIYA», 2013

KIRISH

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marra(lar)ning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro miqyosda moliya, kredit va valuta munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xalqaro valuta-kredit munosabatlari – bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi va eng murakkab jarayonlaridan biridir. Ko'plab omillar ta'sirida xalqaro valuta-kredit munosabatlari murakkablashmoqda va hozirgi sharoitda o'zining o'ta beqarorligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini pul bozori yoki valuta bozori, undagi valuta operatsiyalarining rivojisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli xorijiy valutarlar bilan bog'liq jahon tajribasini o'rganish O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikning birinchi kunidanoq ushbu masala Respublikamiz Prezidenti va Hukumatining diqqat-e'tiborida bo'ldi. Dastlab O'zbekiston Respublikasida milliy pul birligi «so'm»ni muomalaga kiritish va hozirgi davrga kelib, respublikada valuta tizimini barpo etish, uni rivojlantirish bilan bog'liq bir talay ishlar amalga oshirildi. Natijada Respublikamizda valuta birjasi

shakllandi va u valutarlar oldi-sotdisi bilan bog‘liq operatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga asta-sekin integratsiyalashuvi, Xalqaro Valuta Fondi hamda Xalqaro Taraqqiyot va Tiklanish Bankiga a‘zo bo‘lib kirishi jahonning valuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar hamda oltin bozorlarida qabul qilingan zamonaviy kodeksini bilishni talab etadi.

«Xalqaro valuta-kredit munosabatlari» kursida ushbu munosabatlarning iqtisodiy kategoriyalari, rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari va tashkil etish shakllari o‘rganiladi.

Qo‘llanmada globallashtirish sharoitida valuta va valuta munosabatlari, valuta tizimi hamda uning rivojlanish qonuniyatlari, valuta kursi, valuta bozori, valuta operatsiyalari va valuta risklari hamda ularni boshqarish, xalqaro hisob-kitob shakllari, to‘lov va hisob-kitob balanslari hamda xalqaro kredit munosabatlari kabi masalalar o‘z ifodasini topgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma kasb-hunar ta‘limining «Bank ishi» mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan o‘quvchilarga mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmadan, shuningdek, bank xodimlari, tadbirkorlar va boshqa qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

I bob. VALUTA MUNOSABATLARI VA VALUTA TIZIMI

1.1. Valuta munosabatlari tushunchasi, ularning asosiy ishtirokchilari

Xalqaro valuta munosabatlari — valutaning jahon xo‘jaligida amal qilishi borasida shakllanadigan va milliy xo‘jaliklar faoliyati natijalarining o‘zaro almashuviga xizmat ko‘rsatadigan ijtimoiy munosabatlar yig‘indisidir¹. Yoki davlatlar, jahon valuta bozorining subyektlari, muayyan davlatning rezident yoki norezident shaxslari orasida valutilarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish va boshqa shu kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlardir.²

Valuta munosabatlarining paydo bo‘lishi, o‘zgartirilishi yoki tugatilishining huquqiy asoslari xalqaro kelishuvlar hamda davlatning ichki qonun va qoidalari hisoblanadi.

Valuta munosabatlari nisbatan mustaqil munosabatlar bo‘lgani holda to‘lov balansi, valuta kursi, hisob-kitob operatsiyalari orqali Jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Valuta munosabatlarining holati quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

- milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi;
- siyosiy ahvol;
- jahon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolar va ularning rivojlanish tendensiyalari.

Valuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, davlatlar, davlatlarning rezident va norezident shaxslari maydonga chiqadi.

¹ Красавина Л.Н.Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. —М.: «ФИС». 2001 г. С. 21.

² Платонова И.Н. Валютный рынок и валютное регулирование. — М.: «ФИС». 2004. С. 67.

Rezident shaxslar — bu muayyan davlat hududida yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan hamda shu davlatning fuqarosi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Norezident shaxslar — bu muayyan davlat hududida yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan, lekin shu davlatning fuqarosi bo'lmagan yuridik va jismoniy shaxslardir. Masalan, elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va kompaniyalarining filiallari va shu kabilar.

Shu bilan birga, bu yerda shuni ta'kidlab o'tmoq lozimki, valuta munosabatlarining faol ishtirokchilaridan biri bu — tijorat banklaridir.

Tijorat banklari milliy, hududiy va jahon valuta bozorlarida nafaqat o'z manfaatlari, balki o'z mijozlari manfaatlarining himoyachisidir. Jahonning yirik tijorat banklari o'z mijozlarining topshiriqlarini yaxshi bajarish, ularning moliyaviy manfaatlarini himoya qilish va o'z tijorat maqsadlari uchun jahon moliya bozorining yirik markazlarida o'z filiallarini ochgan.

Tijorat banklarida va mijozlarida turli sabablarga ko'ra hamda turli maqsadlarda xorijiy valutaga ehtiyoj paydo bo'ladi. Masalan, agar tijorat bankining mijozi eksportyor bo'lsa, u xorijiy valuta-da tushum oladi va valuta kursining tebranishi oqibatidagi risklarni hisobga olgan holda, unda shu xorijiy valutada olingan tushumni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Shu sababli, u mazkur eksport tushumini sug'urtalash maqsadida o'z bankiga murojaat etadi. Yoki bank mijozi importyor bo'lsa, kontragenti bilan tuzgan o'zaro shartnoma shartlariga muvofiq, belgilangan muddatda eksportyor bilan hisob-kitob qilish uchun unga muayyan miqdorda xorijiy valuta zarur bo'ladi. Shunga muvofiq, mijoz o'z bankiga xorijiy valuta sotib olish maqsadida murojaat qiladi.

Yuqoridagilardan tashqari tijorat bankining xorijiy valutaga bo'lgan o'z zaruriy ehtiyojlari mavjud. Bularga masalan, jahon valuta bozorida oldi-sotdi baholarining farqi sifatida foyda olish maqsadida xorijiy valutilarni sotib olish va sotish, valuta kursining tebranishi oqibatida vujudga keladigan valuta risklarining oldini olish maqsadida xejerlash bilan bog'liq turli valuta operatsiyalarini amalga oshirish kabi harakatlarni keltirish mumkin.

1.2. Valuta munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi, maqsadlari va shakllari

Har qanday davlatda valuta munosabatlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunda tartibga solish turli qonunlar yordamida amalga oshadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi hududida valuta munosabatlarini tartibga solish maqsadida 1993-yil 7-mayda «O‘zbekiston Respublikasi hududida valuta munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilingan. 2003-yil dekabrda ushbu qonun qayta qabul qilingan. Bundan tashqari, mazkur qonunlar harakatidan kelib chiqqan holda, tijorat banklari, jismoniy shaxslar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qator me‘yoriy hujjatlari va yo‘riqnomalari mavjud.

Zamonaviy sharoitda valuta jarayonlarini tartibga solish valuta cheklovlari va soliqlarni hisobga olmagan holda valuta kurslarini tartibga solish bilan bog‘liq. Bunday tartibga solishning amaliy instrumentlari davlatda unchalik ko‘p emas, ular rasmiy intervensiya deb atalmish valuta bozori mexanizmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri aralashuv va pul-kredit munosabatlarini tartibga solishning an‘anaviy uslublaridan iborat.

Valuta jarayonining muvozanatsizligi, valuta kurslarining nazoratsiz ko‘tarilishi va pasayishi iqtisodiyotga tobora kuchayib boruvchi salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan:

- birlamchi ehtiyoj mollari bahosining oshishiga va mehnatkashlar iqtisodiy ahvolining yomonlashuviga olib keluvchi import qilinayotgan inflyatsiya;

- milliy valuta kursining nisbatan o‘sganligi oqibatida mamlakat tashqi raqobatdoshligining pasayishi;

- valuta zararlarini oqibatida banklar va kompaniyalar moliyaviy holatining muvozanatsizligi;

- rasmiy iqtisodiy siyosat samaradorligining pasayishi va shu kabilar.

Valuta muvozanatsizligini davlat tomonidan cheklash bilan bog‘liq harakatlari amaliyotda qator qiyinchiliklarga duch keladi: barcha iqtisodiy jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘liq va

hamma vaqt u bilan bog'liq qo'shimcha salbiy oqibatlar bo'lish ehtimoli mavjud — davlat ma'lum bir jarayonlarni tartibga solgan holda boshqa jarayonlarga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Valuta bozorida davlat vakillari sifatida ko'p hollarda zimmasiga mamlakatda pul-kredit siyosatini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan Markaziy bank maydonga chiqadi. Markaziy banklar hukumat organlariga valuta operatsiyalari bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishi mumkin yoki milliy valutaga bo'lgan talab va taklif balansini o'zgartirish maqsadida xorijiy valutilarning oldi-sotdi operatsiyalari bilan ham shug'ullanishi mumkin.

Hozirgi sharoitda rasmiy valuta intervensiyasi deganda davlatning valuta bozoridagi valutaga bo'lgan talab va taklifni hamda kurslar nisbatini o'zgartira oladigan, bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati tushuniladi. Biroq amaliyotda valuta intervensiyasi tushunchasi xorijiy valutaning milliy valutaga nisbatan oldi-sotdisi bilan bog'liq rasmiy shartnomalardan iborat (shu jumladan, davlat tashkilotlariga xizmat ko'rsatish, Xalqaro Valuta Fondi bilan munosabatlar, valuta zaxiralari bo'yicha foiz to'lovlari, xorijiy valutada olingan qarzlar va shu kabilar).

Har qanday intervensiyaning hozirgi paytdagi yakuniy maqsadi — valuta bozorida muvozanatli sharoitni ta'minlash, valuta kurslarining keskin tebranishi ehtimolini bartaraf qilishdir. O'z navbatida, valuta bozorining barqarorligi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati va yalpi iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlashi lozim. Har qanday davlat o'z iqtisodiyotining konkret xususiyatlaridan, tashqi iqtisodiy aloqalarda ishtirok etishi uchun uning ochiqlik darajasidan kelib chiqqan holda o'z valuta intervensiyasining vazifalarini belgilaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatib turibdiki, hozirgi sharoitda davlatlar valuta bozoridagi o'z faoliyatida qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni ko'zlamolda. Shu bilan birga, ular tomonidan valuta bozoridagi kursning harakat tendensiyasini o'zgartirishga urinishlar qilinmoqda. Markaziy bank tomonidan mamlakat valuta zaxiralari bilan operatsiyalar o'tkazishda ko'plab davlatlarning ehtiyotkorligi ko'zga tashlanmoqda.

1.3. Valuta tizimi tushunchasi. Milliy valuta tizimi va uning elementlari

Valuta tizimi – milliy qonunchilik yoki davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valuta munosabatlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish shaklidir³.


Valuta tizimi – davlatlararo shartnomalar va kelishuvlar bilan belgilanadigan, xalqaro valuta munosabatlarini tashkil etishning davlat-huquqiy shaklidir⁴.

Valuta tizimi – xo‘jalik aloqalarining baynalmilallashuvi asosida tarixan shakllangan, valuta amali bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir.

Valuta tizimini valuta, valuta munosabatlari, valuta munosabatlarini amalga oshiruvchi va ularni tartibga soluvchi hamda muvofiqlashtiruvchi organlar yig‘indisi sifatida ham tasavvur qilish mumkin.

Valuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va o‘rni jamiyat iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Valuta qonunchiligi – mamlakat ichki valuta qiymatliklari bilan, bir mamlakat tashkilotlari va fuqarolari hamda boshqa mamlakat tashkilotlari va fuqarolari o‘rtasidagi shartnomalarni hamda mamlakat ichkarisidan xorijga va xorijdan mamlakat ichkarisiga milliy va xorijiy valutarlar hamda boshqa valuta qiymatliklarini olib kirish, olib chiqish, o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirilishini tartibga soluvchi qonuniy me‘yorlar yig‘indisidir.



1-chizma. Valuta tizimining asosiy shakllari

³ Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: «ФИС». 2001 г. С. 39.

⁴ Бержанов С.А. Валютная система, валютный рынок и валютные операции. – Нукус. 1996 г.

Valuta tizimi davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga muvofiq valuta munosabatlarini tashkil qilish va boshqarish shakllarini o'z ichiga oladi. Valuta tizimining quyidagi shakllari farqlanadi: milliy, jahon va hududiy valuta tizimlari.

Milliy valuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo'lib, valuta munosabatlarining yig'indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarning faqat qonunchilik hujjatlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi, birinchi navbatda, valuta tizimi elementlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Milliy valuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

- 1) milliy valuta va uning nomi;
- 2) milliy valuta paritetini belgilash;
- 3) milliy valutaning konvertatsiya shartlari;
- 4) milliy valuta kursining rejimi;
- 5) xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanishni chegaralash (reglamentatsiya);
- 6) xalqaro zaxira aktivlari tarkibiy qismlari o'rtasidagi nisbatni aniqlash;
- 7) mamlakat xalqaro hisob-kitoblarini chegaralash (reglamentatsiya);
- 8) milliy valuta va oltin bozorlari faoliyati rejimi;
- 9) valuta cheklovlarini o'rnatish tartibi;
- 10) valuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlar maqomi.

Yuqorida zikr etilgan elementlar yig'indisi xalqaro valuta-kredit va hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilanadigan valuta mexanizmidir.

Milliy valuta va uning nomi milliy valuta tizimining asosi hisoblanadi.

Milliy valuta paritetini belgilash. Valuta pariteti — ikki valuta orasidagi qonuniy asosda belgilangan nisbat. Monometallizm davrida (oltin yoki kumush) valuta kursining asosi tanga pariteti hisoblanadi. Tanga pariteti — turli mamlakatlar pul birliklarini o'zidagi metall sig'imiga ko'ra o'zaro solishtirishdir.

Tanga pariteti tushunchasi valuta pariteti tushunchasi bilan mos keladi.

Oltin monometallizmi davrida valuta kursi oltin paritetiga asoslangan edi. Bunda valutarlar zaminidagi rasmiy oltin miqdorlari bo'yicha o'zaro solishtirilar edi. Mazkur sharoitda valuta kursi ushbu oltin pariteti atrofida, oltin nuqtalar chegarasida stixiyali asosda tebranar edi. Oltin nuqtalarning klassik mexanizmi 2 shartning mavjudligi holatida amal qilar edi, ya'ni oltinning erkin asosdagi oldi-sotdisi va uning chetga cheklanmagan miqdorda erkin olib chiqilishi. Valuta kursining tebranish chegaralari oltinni xorijga olib chiqish (transportirovka) xarajatlar bilan belgilangan va amalda paritetdan $Q; -1\%$ dan ziyod bo'lmagan. Oltinni xorijga olib chiqish xarajatlariga frax, sug'urta, kapitalga foiz yo'qotishlari, probani aniqlash va boshqa shu kabi xarajatlar kiritilgan. Oltin standartining bekor qilinishi bilan oltin nuqtalar mexanizmi o'z harakatini to'xtatdi.

Oltin almashmaydigan kredit pullar sharoitida valuta kursi asta-sekin oltin paritetidan uzoqlasha boshladi, chunki oltin muomaladan xazinaga siqib chiqarilgan edi.

1970-yilning o'rtasigacha valuta kursining asosi sifatida valutarlarning zaminidagi oltin sig'imi, ya'ni rasmiy baho masshtabi va oltin paritetlar xizmat qilgan edi. Valutarlarning rasmiy baho masshtablari va oltin paritetlari, Ikkinchi jahon urushidan so'ng Xalqaro Valuta Fondida qayd etiladigan bo'ldi. Valutarlar o'zaro nisbatining o'lchovi kredit pulda ifodalangan oltinning rasmiy bahosi edi. Ushbu baho boshqa tovarlar baholari bilan birga, milliy valutarlarning qadrsizlanish darajasi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qildi. Davlat tomonidan qayd etiladigan oltin rasmiy bahosining uzoq vaqt davomida qiymatidan uzilib qolishi natijasida oltin paritetining sun'iylik xarakteri kuchaydi.

40 yil mobaynida (1934-1976) baho masshtabi va oltin pariteti oltinning rasmiy bahosi asosida belgilangan edi. Ushbu baho AQSH g'aznaxonasi tomonidan 1934-yilda, 1 unsiya oltin 35 AQSH dollari hajmida belgilangan va dollar devalvatsiyasigacha o'zgarishsiz saqlangan. O'tkazilgan devalvatsiya natijasida 1971-yilning dekabrda oltinning rasmiy bahosi 38 dollargacha va 1973-yil fevralda esa 42,22 AQSH dollarigacha ko'tarildi. Bretton Vuds

valuta tizimida, AQSH dollari standartining hukmronligi sharoitida AQSH dollari boshqa davlatlar valutalari kurslari hisob-kitobining hisoblash nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, davlat tomonidan muvofiqlashtirish natijasida AQSH dollaridagi oltinning rasmiy bahosi ancha pasaytirib ko'rsatilgan va u oltinning bozor bahosidan sezilarli farq qilar edi. Oltinning bozor baholari: 1971-yilda – 40,8 AQSH dollari, 1973-yilda – 97 AQSH dollari, 1975-yilda – 160 AQSH dollari, 1976-yilda – 125 AQSH dollari, 1977-yilda – 148 AQSH dollari, 1978-yilda – 193,2 AQSH dollari edi.

1971-yilda AQSH dollarini rasmiy baho asosida oltinga almashtirish to'xtatilishi natijasida valutalarning oltin sig'imi va oltin paritetlari sof nominal tushunchaga aylandi. Xalqaro Valuta Fondi esa 1975-yil iyul oyidan ularni e'lon qilishni to'xtatdi. Yamayka valuta islohoti natijasida G'arb davlatlari rasmiy tarzda valuta kurslarining asosi sifatidagi oltin paritetidan voz kechdi. Rasmiy oltin paritetlari bekor bo'lgandan so'ng tanga pariteti ham o'z ahamiyatini yo'qotdi. Hozirgi vaqtda valuta kursi valuta paritetiga asoslangan. Valuta pariteti – bu qonuniy asosda belgilangan valutarlar o'rtasidagi nisbat bo'lib, u ushbu paritet atrofida tebranadi.

Xalqaro Valuta Fondining o'zgargan Nizomiga muvofiq valutalarning paritetlari SDR yoki boshqa xalqaro valuta birligida belgilanishi mumkin. 1970-yilning o'rtalaridan boshlab, yangilik sifatida paritetlar valuta savati asosida belgilana boshlandi. Bu bir valutaning o'rtacha tortilgan kursini boshqa qator valutarlar yig'masiga solishtirish uslubidir. Valuta savatining AQSH dollari o'rnida ishlatilishi dollar standartidan ko'p valutali standartga o'tish tendensiyasini aks ettiradi.

Milliy valutaning konvertatsiya shartlari. Konvertatsiya deganda milliy valutaning xorijiy valutilarga almashtirilishi tushuniladi. Konvertatsiya shartlariga ko'ra milliy valutarlar quyidagi turlarga ajratiladi:

– erkin konvertatsiya qilinadigan valuta. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda valuta cheklovlari yo'q bo'lib, milliy valutarlar xorijiy valutilarga erkin konvertatsiya qilinadi. Xalqaro Valuta Fondining yangi tahrirdagi Nizomiga (1978) «erkin

foydalaniladigan valuta» tushunchasi kiritilgan. Xalqaro Valuta Fondi ushbu kategoriyaga AQSH dollari, Germaniya markasi, yapon iyenasi, Buyuk Britaniya funt sterlingi va fransuz frankini kiritdi. Haqiqatda olganda, erkin konvertatsiya qilinadigan valutarlar to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha valuta cheklovlari mavjud bo'lmagan davlatlar valutalari hisoblanadi (bular asosan rivojlangan davlatlar va jahon moliyaviy markazlari shakllangan yoki Xalqaro Valuta Fondi oldida valuta cheklovlarini kiritmaslik majburiyatini o'z zimmasiga olgan ayrim rivojlanayotgan davlatlar);

– qisman konvertatsiya qilinadigan valutarlar valuta cheklovlari saqlanib qolgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, milliy valutaning xorijiy valutilarga konvertatsiyasi davlat iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda birmuncha cheklanadi.

– xorijiy valutilarga konvertatsiya qilinmaydigan (yopiq) valutarlar. Ba'zi davlatlarda siyosiy sabablarga ko'ra milliy valutarlar xorijiy valutilarga umuman konvertatsiya qilinmaydi, ya'ni rezident va norezident shaxslar uchun valuta almashtirishga ruxsat yo'q.

Milliy valuta kursi rejimi. Valuta kursining quyidagi rejimlari mavjud:

– qat'iy belgilangan kurslar rejimi. Davlat o'z iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda, ma'muriy tarzda, milliy valuta kursini qat'iy belgilab qo'yishi mumkin. Masalan, Bretton-Vuds sharoitidagi qat'iy belgilangan kurslar rejimi;

– kichik chegaralarda tebranadigan kurslar rejimi. Bu holatda, davlat o'z iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, milliy valuta kursini ma'lum bir chegaralarda tebranishidan manfaatdor bo'ladi va valuta siyosatining instrumentlaridan foydalangan holda ushbu maqsadga erishadi;

– valuta bo'lgan bozor talabi va taklifining o'zgarishi asosida erkin tebranadigan kurslar rejimi va ularning turli ko'rinishlari. Bunga misol sifatida Yamayka valuta tizimi sharoitidagi erkin suzuvchi valuta kurslari rejimini keltirishimiz mumkin.

Xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanishni chegaralash. Xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanish qoidolari soddalashtirilgan xalqaro me'yorlarga muvofiq amalga oshi-

riladi. Ushbu xalqaro me'yorlarga Jenevaning veksel va chek konvensiyalari kiradi.

Xalqaro zaxira aktivlari tarkibiy qismlari orasidagi nisbatni aniqlash. Yuqorida qayd etilganidek, xalqaro zaxira aktivlari komponenti to'rt qismdan iborat, ya'ni mamlakatning rasmiy oltin va valuta zaxiralari, xalqaro hisob-kitob pul birliklaridagi hisobvaraqlar, Xalqaro Valuta Fondidagi zaxira pozitsiyasi. Albatta, mamlakat xalqaro likvidligini ta'minlash uchun ushbu komponentlar o'rtasida mutanosib nisbat saqlanishi kerak.

Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarni chegaralash reglamentatsiyasi. Xalqaro hisob-kitoblarning cheklovi milliy va jahon valuta tizimlari darajasida, hujjatli akkreditivlar va inkassa uchun sodalashtirilgan qoida va udumlar asosida amalga oshiriladi.

Milliy valuta va oltin bozorlari faoliyatining rejimi. Valuta va oltin bozorlarining rejimi milliy va xalqaro muvofiqlashtirishning obyekti hisoblanadi.

Valuta cheklovlarini o'rnatish tartibi. Valuta cheklovlarining mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi valuta tizimining elementi hisoblanadi. Valuta qiymatliklari bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarga cheklovlar ham Xalqaro Valuta Fondi orqali davlatlararo muvofiqlashtirish obyektiga kiradi.

Valuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlar maqomi. Bu valuta tizimining muhim institutsional elementidir. Gap mamlakat valuta munosabatlarini boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi milliy organlar (Markaziy bank, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, ba'zi mamlakatlarda valuta nazorat organlari) faoliyatini chegaralash haqida bormoqda. Milliy valuta qonunchiligi milliy va xorijiy valutadagi operatsiyalarni (egalik huquqi, olib kirish va olib chiqish, oldi-sotdi) muvofiqlashtiradi.

1.4. Jahon va hududiy valuta tizimlari, ularning elementlari

Jahon valuta tizimi — bu jahon bozori xo'jaligi rivojlanishi asosida shakllangan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valuta munosabatlarni tashkil etish shaklidir. Milliy

valuta tizimi hamda ushbu tizimga kiruvchi har bir mamlakat valuta mexanizmini tashkil etishning davlat-huquqiy shakli jahon valuta tizimining tashkiliy asosi hisoblanadi.

Jahon valuta tizimi XIX asrning oʻrtalariga kelib shakllandi. Jahon valuta tizimi oʻz ichiga milliy valuta tizimi elementlari bilan yaqindan aloqada boʻlgan maʼlum bir elementlarni oladi. Ular quyidagilardan iborat:

1) zaxira valutilari, xalqaro hisob-kitob valuta birliklari (SDR, YEVRO);

2) valutilarning oʻzaro konvertatsiya qilinish shartlari;

3) valuta paritetlarining soddalashtirilgan (unifikatsiya) rejimi;

4) valuta kurslari rejimlarini chegaralash (reglamentatsiya);

5) valuta cheklovlarini davlatlararo muvofiqlashtirish;

6) xalqaro valuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish;

7) xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanish qoidalarini soddalashtirish (unifikatsiya);

8) xalqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiya);

9) jahon valuta va oltin bozorlari rejimi;

10) davlatlararo valuta muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar.

Zaxira valutilari, xalqaro hisob-kitob valuta birliklari (SDR, YEVRO). Jahon valuta tizimi jahon pullarining amal qiluvchi shakllariga asoslangan. Jahon puli deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) xizmat koʻrsatuvchi pullarga aytiladi. Jahon pullarining amaldagi shakllari evolutsiyasi birmuncha kechikib boʻlsa-da, milliy pullarning rivojlanish yoʻlini qayta bosib oʻtadi, yaʼni oltin pullardan boshlab kredit pullargacha. Bunday qonuniyat natijasida jahon valuta tizimi XX asrga kelib jahonning yetakchi mamlakatlarining bir yoki bir nechta milliy valutilariga (anʼanaviy yoki yevrovaluta shaklida) yoki xalqaro valuta birligiga (SDR, YEVRO) asoslanadi.

Xalqaro hisob-kitob valuta birligi xalqaro talab va majburiyatlarni oʻzaro solishtirish, valuta pariteti va kursni belgilash uchun shartli masshtab hamda xalqaro toʻlov va zaxira vositasi sifatida ishlatiladi. Oltinning demonetizatsiyasi jarayoni, yaʼni Yamayka

(1976-1978) valuta islohoti natijasida yuridik jihatdan yakunlanishi, oltinning pul funksiyalarini yo'qotishi, jahon puli sifatida muvozanatsiz milliy pullar ishlatilishining salbiy oqibatlari valuta tizimiga SDR (qarz olishning maxsus huquqlari) va EKYUni (Yevropa valuta birligi) tatbiq etishga sharoit yaratib berdi. Jahon pullarining ushbu yangi shakllari mamlakatlarning maxsus hisobvaraqlarida yozuvlarni amalga oshirishda, naqd pulsiz xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ishlatiladi: SDR – Xalqaro Valuta Fondida, EKYU – valuta hamkorligining Yevropa fondida, 1994 yildan boshlab Yevropa Ittifoqining Yevropa valuta institutida. SDR va EKYUning shartli qiymati o'rtacha tortilgan qiymat va valuta savatiga kirgan valutarlar kurslarining o'zgarishi asosida hisoblanadi. 1999-yildan boshlab Yevropa Markaziy banki EKYUning o'rniga muomalaga YEVRONI chiqarmoqda. Dastlab, u 1999-yilning boshidan naqd pulsiz hisob-kitoblar uchun, 2002-yildan boshlab esa naqd pul shaklida ishlatila boshlandi.

Xalqaro hisob-kitob pul birliklarining kursi savat asosida aniqlanadi. Valuta savatini hisoblashdagi muhim muammolardan biri savatdagi valutarlar tarkibi va ularning solishtirma og'irligi, valuta komponentlarining katta-kichikligi, ya'ni to'plamdagi har bir valuta soni miqdorini aniqlash hisoblanadi. Bunga ko'ra savatning quyidagi turlari farqlanadi: ma'lum bir davrga valutarlar tarkibi qayd etilgan standart savat, o'zgaruvchan tarkibli muvofiqlashtiriluvchi savat, valutarlarning o'zaro teng bo'lgan solishtirma og'irligiga ega simmetrik savat, valutarlarning turli ulushlarga ega asimmetrik savat.

Masalan, SDRning valuta savati 5 valutadan tarkib topgan (1981-yilning 1-yanvarigacha 16 ta valuta bo'lgan). Savatdagi har bir valutaning solishtirma og'irligi mamlakatning xalqaro savdodagi ulushiga qarab aniqlanadi. Ammo AQSH dollari uchun uning xalqaro hisob-kitoblardagi ulushi hisobga olinadi. 1996-2000-yillar davrida savatdagi AQSH dollarining ulushi 39 %ni (1981-yilgacha 33 %ni), qolgan 4 valuta: Germaniya markasi – 21 %, Yapon iyenasi – 18 %, Fransuz franki va Buyuk Britaniya funt sterlingi har biri 11 %ni tashkil etgan.

2001-yilda ushbu savat tarkibi qayta ko'rib chiqildi va 1999-yildan boshlab Germaniya markasi va fransuz franki yevro bilan almashtirildi.

SDR kursining AQSH dollariga yoki savat tarkibiga kirgan boshqa bir valutama nisbatan hisoblanishi 3 asosiy elementni o'z ichiga oladi:

1) taalluqli valuta birliklaridagi valuta komponentlari, ular quyidagicha aniqlanadi: valutaning savatdagi solishtirma og'irligi x uning AQSH dollariga nisbatan so'nggi 3 oy ichidagi o'rtacha bozor kursi (bundan oldingi SDR kursiga tuzatilgan holda);

2) valutalarning AQSH dollariga nisbatan bozor kurslari;

3) valuta komponentlarining dollarli ekvivalenti, u quyidagicha hisoblanadi: valuta komponenti/valuta kursi (funt sterlingdan tashqari), funtning valuta komponenti x dollarga nisbatan valuta kursiga.

Bunda AQSH dollaridagi kross-kurs Angliya bankining Xalqaro Valuta Fondiga SDR kursini hisoblash maqsadida bergan, ish kunining o'rtasiga bo'lgan valutalarning o'rtacha bozor kurslari haqidagi kunlik ma'lumoti asosida aniqlanadi.

Erkin suzuvchi valuta kurslari va ularning muvozanatsizligi sharoitida turli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan valuta savati uslubi qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib (valuta kursini aniqlash, xalqaro valuta birligini yaratish, baho valutasini va qarz valutasini indeksatsiya qilish), valutalarning turli to'plamidan foydalangan holda ishlatilmoqda.

Yevropa valuta ittifoqida valuta paritetlarining asosi sifatida EKYU ishlatilgan. Valuta savati Yevropa ittifoqi mamlakatlari-ning 12 valutasidan iborat. 1999-yildan boshlab Yevropa valuta ittifoqining yagona valutasini yevrodir. Bundan tashqari, bir qator mamlakatlar (taxminan 20 ta davlat) valutalarning kursini bog'lash maqsadida yakka tartibdagi valuta savatidan foydalanmoqda.

Xalqaro valuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish. Xalqaro valuta likvidligini muvofiqlashtirish valuta tizimining elementi sifatida xalqaro hisob-kitoblarni zarur to'lov vositalari bilan ta'minlashdan iborat. Xalqaro valuta likvidligi – mamlakat-

ning (yoki bir guruh mamlakatlarning) o‘z vaqtida xalqaro majburiyatlarni kreditor uchun muqobil bo‘lgan to‘lov vositalarida qondirilishini ta’minlashdan iborat. Jahon xo‘jaligi nuqtayi nazaridan xalqaro valuta likvidligi jahon to‘lov muomalasini moliyalashtirish va kreditlash manbalarining yig‘indisini bildiradi va u jahon iqtisodiyotning xalqaro zaxira aktivlari bilan ta’minlanganligiga bog‘liq.

Xalqaro valuta likvidligi 4 asosiy qismdan iborat:

- mamlakatning rasmiy oltin zaxiralari;
- mamlakatning rasmiy valuta zaxiralari;
- xalqaro hisob-kitob pul birliklaridagi hisobvaraqlar;
- Xalqaro Valuta Fondidagi zaxira pozitsiyasi (a’zo mamlakat o‘z kvotasining 25 foizi chegarasida, xorijiy valutada so‘zsiz kredit olish huquqi).

Xalqaro valuta likvidligining ko‘rsatkichi, odatda, mamlakat rasmiy oltin-valuta zaxiralarining yillik tovar importi summasiga nisbati hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichning qiymati cheklangan, chunki u mamlakat oldida turgan barcha joriy to‘lovlarni hisobga olmaydi, xususan, unga notijoriy xizmatlar hamda kapital va kreditlarning xalqaro harakati bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalar kirmaydi.

Jahon valuta va oltin bozorlari rejimi. Oltin bozorlari – bu oltin savdosining maxsus markazlari hisoblanadi.

Davlatlararo valutaning muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar. Davlatlararo valutaning muvofiqlashtirilishini Xalqaro Valuta Fondi amalga oshiradi (1944-yil). Yevropa valuta tizimida esa – valuta hamkorligining Yevropa fondi (1973-1993), keyinchalik u Yevropa valuta instituti bilan almashtirilgan (1994-1998), 1998-yilning 1-iyulidan boshlab esa Yevropa Markaziy banki tomonidan amalga oshirilmoqda. Zikr etilgan xalqaro institutlar xalqaro valuta-kredit va moliyaviy munosabatlarning xavfsiz, inqirozsiz tartibini ishlab chiqish va ta’minlashga intiladi.

Jahon xo‘jaligi jahon valuta tizimi oldiga quyidagilardan iborat bo‘lgan muayyan talablarni qo‘yadi:

- xalqaro ayirboshlashni ishonch qozongan va miqdor jihatdan yetarli bo‘lgan to‘lov, hisob-kitob vositalari bilan ta’minlash;

– jahon iqtisodiyot sharoitlarining o‘zgarishida valuta mexanizmining nisbiy barqarorligi va tez moslashuvchanligini qo‘llab-quvvatlash;

– barcha a‘zo-mamlakatlar manfaatiga xizmat qilish.

Ushbu talablarning bajarilishiga takror ishlab chiqarishning qarama-qarshiliklari, jahon xo‘jaligining tarkibiy tuzilishi va jahon maydonidagi kuchlar nisbatidagi o‘zgarishlar to‘sqinlik qiladi.

Valuta gegemonligi markazlari, ya‘ni valuta jarayonidagi hukmronlik markazlari davriy ravishda mamlakatlar rivojlanishining notekisligi sababli o‘zgarib turadi. Birinchi Jahon urushigacha valuta gegemonligi jahon ishlab chiqarishi va savdosida, bank va sug‘urta ishida, valuta munosabatlarida hukmron bo‘lgan Buyuk Britaniyaga tegishli edi. Birinchi Jahon urushi natijasida moliyaviy markazning Yevropadan AQSHga ko‘chishi funt sterling va dollar o‘rtasidagi valuta gegemonligi uchun kurashni kuchaytirib yubordi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng AQSH dollari yagona gegemon valuta bo‘lib qoldi. 1970-1990-yillarda 3 ta kuch markazlarining shakllanishi valuta hukmronligi yangi markazlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bular G‘arbiy Yevropa va Yaponiya markazlaridir. Bu, o‘z navbatida, AQSH dollarining monopol holatiga putur yetkazdi.

Jahon valuta tizimining amal qilish xususiyati va muvozanatligi tamoyillarining jahon xo‘jaligi tarkibiy tuzilishi, kuchlarning joylashishi va yetakchi mamlakatlar manfaatlariga mosligi darajasiga bog‘liq. Ushbu sharoitlarning o‘zgarishi natijasida jahon valuta tizimining davriy inqirozi vujudga keladi. Bu inqiroz zikr etilgan valuta tizimining yemirilishi va yangi valuta tizimining barpo etilishi bilan yakunlanadi.

Hududiy valuta tizimi — bu hududiy birlashma a‘zolari bo‘lmish mamlakatlarning davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir.

Jahon va hududiy valuta tizimlari o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, egiluvchan bo‘lishi hamda alohida davlatlar va jahon manfaatlarida muvozanatni saqlash xususiyatiga ega bo‘lmog‘i lozim. Faqatgina shunday sharoitlarda valuta tizimi uzoq muddat davomida muvaffaqiyatli amal qilishi mumkin.

Davlatlararo kelishuvlar bilan o'rnatiladigan valuta munosabatlarini tashkil etishning davlat huquqiy shakli sifatidagi valuta tizimi bir vaqtning o'zida paydo bo'lgani yo'q. Uning pul tizimidan ajralib chiqishi va mustaqil kategoriyaga aylanishi qiymat pul shaklining uzoq rivojlanishi va pulning o'rinbosar ko'rinishlarining paydo bo'lishi jarayonida sodir bo'lgan.

Pul tizimi qiymatning pul shakli paydo bo'lishi, pul vazifasini noyob metallarga va so'ng oltinga o'tishi bilan vujudga keladi. Bunda pul tizimini tashkil etish asoslari barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan. Bu, birinchi navbatda, pul metallidan tangalarning erkin zarb etilishi, to'sqinliksiz qiymat belgilari-ning oltinga almashtirilishi va oltinning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga erkin harakatini ta'minlaydi.

1.5. Jahon valuta tizimining evolutsiyasi. 1867-yilgi Parij valuta tizimi

Valuta tizimi hozirgi shakliga kelgunga qadar uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan. Birinchi jahon valuta tizimi stixiyali ravishda, sanoat inqilobidan so'ng oltin monometallizmi asosida oltin-tanga standart ko'rinishida shakllangan. Yuridik jihatdan esa mazkur tizim 1867-yilda bo'lib o'tgan Parij konferensiyasida davlatlararo kelishuv sifatida rasmiylashtirilgan. Bu birinchi jahon valuta tizimi jahon pulining yagona shakli sifatida oltinni rasmiy tan olgan edi.

XIX asrda xalqaro savdning rivojlanishi bilan ko'pchilik davlatlar o'zlarida «oltin standartini» kiritdilar, ya'ni shu davrdan boshlab mazkur davlatlar valutarining kursi va qiymati, shu valutarlar zaminida yotgan oltin miqdorining qiymati bilan belgilanadigan bo'ldi. Davlatlarning markaziy (milliy) banklari, o'z navbatida, milliy qog'oz pullarni taalluqli oltin miqdoriga (baho masshtabiga asosan) almashtirishga majbur edilar.

Masalan, Buyuk Britaniyaning 1 funt sterlingi (sovereign) 1821-yilda 7,322385 gramm, 1 nemis markasi 1873-yilda 0,385422 gramm, 1 Rossiya rubli 1887-yilda 0,774234 gramm sof oltin qiymatini ifoda etar edi.⁵ Valutalarning bir-biriga nisbatan kursini

⁵ Красавина Л.Н. Международные валютно кредитные и финансовые отношения. — М.: «ФиС». 2004 г.

aniqlash uchun ularning zaminida yotgan oltin miqdorlari solishtiriladi. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga asosan, Buyuk Britaniyaning 1 funt sterlingi 18,9984 (7,322385/0,385422) nemis markasiga yoki 9,4576 (7,322385/0,774234) Rossiya rubliga teng edi. Milliy valutarlar zaminidagi oltin miqdorlari 1914-yilgacha o'zgarmagan va tabiiyki, ular o'zgarmaguncha, ularning bir-biriga nisbatan kurslari ham barqaror edi. Shu sababli, «oltin standarti» qat'iy yoki barqaror valuta kurslari tizimi edi, desak mubolag'a bo'lmas. Bu tizim bir qator ijobiy jihatlarga ega. Xususan, boshqa metallarga qaraganda, oltin tabiatda kam uchraydigan va noyob metall bo'lganligi sababli, davlatlar tomonidan uning miqdorini ko'paytirish nihoyatda mushkul. Binobarin, davlatlar va markaziy (milliy) banklar o'z xohishlari bilan oddiygina pul muomalasi hajmini o'stirishga va inflyatsiyani rag'batlantirish imkoniga ega emas edilar.

Birinci Jahon urushiga qadar dunyoning yetakchi davlatlarida inflyatsiya nisbatan past va yetakchi valutarlar kurslarining keskin tebranishi kuzatilmagan. Bunday holat o'sha yillarda pul sarmoyalari va ishchi kuchi resurslarining erkin, hech qanday to'siqsiz bir mamlakatdan boshqa mamlakatga oqib o'tishi mumkinligi bilan asoslangan.

1880-yildan to 1913-yilgacha, «oltin standart» tizimi davlatlarga o'z xarajatlarini inflyatsiya hisobiga moliyalashtirish imkonini bermaganligi uchun barcha davlatlarda ijtimoiy mahsulotning hajmi tez sur'atlar bilan o'sdi.

Birinci Jahon urushining tugashi bilan aksariyat davlatlar o'zlarida qayta «oltin standart»ni joriy etishga urindilar. Biroq ularning bunday harakatlari zoye ketdi, chunki mavjud sharoitda «oltin standarti»ni joriy etish uchun zarur omillar yo'q edi.

I Jahon urushi oqibatida jahon bozorida davlatlararo munosabatlarda paydo bo'lgan valuta tartibsizligi uzoqqa cho'zilmadi va valuta munosabatlarining «oltin standarti» o'rniga oltin va yetakchi kapitalistik davlatlar valutariga asoslangan «oltin-deviz standarti» maydonga chiqadi. Bunda xorijiy valutadagi davlatlararo hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan to'lov vositalari devizlar deb atala boshlandi.

1.6. 1922-yilgi Genuya va 1944-yilgi Bretton-Vuds valuta tizimlari

Birinchi va ikkinchi Jahon urushlari orasidagi jahon valuta tizimini «oltin-deviz standarti» tizimi deb atasa bo‘ladi. Bu davr, ayniqsa, davlatning iqtisodiyotga kuchli aralashuvi bilan e‘tiborlidir. Deyarli barcha davlatlarda bojxona to‘siqlari kiritilib, oqibatda kapitalga, ishchi resurslarga bo‘lgan talab va taklifning erkin aloqasi jahon bozorida chegaralandi.

Ikkinchi jahon valuta tizimi 1922-yilda Genuya shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyada davlatlararo kelishuv sifatida yuridik jihatdan shakllandi. Mazkur xalqaro konferensiya arafasida, jahonning 30 dan ziyod davlatlarining pul tizimlari oltin-deviz standartiga asoslangan edi. Davlatlarning milliy kredit pullari xalqaro to‘lov va zaxira vositalari sifatida ishlatila boshlandi. Biroq birinchi va ikkinchi jahon urushlari orasidagi davrda zaxira valutasini maqomi rasmiy ravishda biror-bir valutaga hali birlashtirilmagan edi.

Davlatlarning «oltin standarti» tizimidan voz kechishi oqibatida devizli banklar va davlatlar qog‘oz pullar muomalasini kengaytirish imkoniga ega bo‘ldilar. Birinchi jahon urushidan so‘ng ba‘zi davlatlarda qog‘oz pullar emissiyasining hajmi har qanday tarixiy chegaralardan oshib ketdi va bu, o‘z navbatida, inflatsion jarayonlarning gurkirab o‘shishiga olib keldi. Inflyatsiya jarayonlarining kuchayishi pul xo‘jaligidagi barcha zaruriy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumotlarning buzib ko‘rsatilishiga olib keldi. Bir davlat bozoridan boshqa davlatlar bozorlariga bo‘lgan valutarlar oqimining hajmi va sur‘ati keskin kuchaydi. Londonning dunyoning yetakchi valuta bozori sifatidagi mavqeyi pasaydi. Maydonga Nyu-York va Parij singari yangi yetakchi valuta bozorlari chiqib, London uzil-kesil dunyo bankiri vazifasidan ayirildi.

1925-yilda Angliya banki oldingi kurs asosida «oltin standarti»ni joriy etdi. Ammo u mavjud bozordagi sharoitlarga muvofiq emas edi. Amerika va fransuz banklari esa 1931-yilda Buyuk Britaniya funt sterlingidagi zaxiralarini ko‘paytirgan holda «oltin standarti» tizimini qabul qilmadilar.

AQSH o'z to'lov balansining aktiv bo'lishini istagan holda, xorijiy hamkorlariga uzoq muddatli kreditlar berib, iqtisodiy depressiya davrida o'z iqtisodiy mavqeyini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Fransiya davlati esa funt sterlingdagi aktivlarini oltinga almashtirish huquqiga ega ekanligini ta'kidlab, Buyuk Britaniyaga o'z qarorida qat'iyligini bildirdi. Ammo Buyuk Britaniya o'z majburiyatlari bo'yicha javob bera olmay qoldi va 1931-yilning yozida qog'oz pullarning oltinga almashtirilishini bekor qildi.

1926-1929-yillarda ba'zi mamlakatlarda likvid mablag'larning o'sishi va oltinning jamg'arilishi, 30-yillarda jahonda kuchli iqtisodiy inqirozning sodir bo'lishiga sabab bo'ldi.

Ba'zi davlatlar 1929-1930-yillardayoq «oltin standarti»dan o'zlarini chetga tortgan edilar. 1931-yilgacha bo'lgan davrda deyarli barcha valutalar, bir-biriga nisbatan erkin tebranar edi. AQSH o'z valutasining oltin bilan bog'liqligini 1933-yilda bekor qildi. Ammo 1934-yilda u nisbatan pastroq paritet bilan «oltin standarti»ga qaytdi. AQSH dollarining kursi avvalgi kursning 54% ini tashkil qilar edi. Shundan so'ng, ya'ni 1934-yil davomida ko'plab davlatlar o'z valutarini devalvatsiya qildi. Shunday qilib, milliy valutalarning ko'p sonli devalvatsiyasi va savdo cheklovlarini joriy etish davri boshlandi. Oqibatda, dunyo savdo hajmi keskin qisqarib ketdi va deyarli barcha mamlakatlarda ishsizlar soni ko'paydi.

Yuqorida qayd etilgan va jahon tarixiga «Buyuk depressiya» nomi bilan kirgan 30-yillardagi chuqur jahon iqtisodiy inqirozi oqibatida dunyoning barcha davlatlari o'z qog'oz pullarining rasmiy ravishda oltinga almashtirilishini to'xtatdi va bundan keyin hech bir davlat o'z qog'oz pullarining oltinga almash-tirilishini tashkil qila olmadi.

Davlatlar milliy qog'oz pullarining baho masshtabiga asosan oltinga almashtirilishining to'xtatilishi ikkinchi jahon valuta tizimi asosi — «oltin-deviz standarti»ning inqirozini bildiradi. Oqibatda, 1930-yildan to II Jahon urushining oxirigacha jahon valuta bozorida tartibsizlik hukm surdi.

Ikkinchi Jahon urushidan so'ng jahonning yetakchi davlatlari rahbarlari 30-yillar inqiroziga olib kelgan xatolarni amalga

oshirmaslikka harakat qilib, 1944-yilning iyul oyida Bretton-Vudsda keyinchalik «Bretton-Vuds tizimi» nomini olgan qat'iy valutar kurslari tizimini yaratdi.

O'sha davrning muhim masalalaridan biri harbiy yillardagi qarzlar muammosini hal qilish edi. Masalan, Buyuk Britaniya AQSHga yirik miqdorda qarz edi. Nafaqat Buyuk Britaniya, balki Yevropadagi barcha davlatlar urush davrida ko'rgan talafotlari oqibatida yaqin yillar ichida o'z qarzlarini eksportlari hisobiga qoplash imkoniga ega emas edi. Shu sababli, ikkinchi Jahon urushi oqibatida paydo bo'lgan harbiy qarzlar muammosi, qaytmas kreditlar va uzoq muddatli ssudalar tizimini kiritish yo'li bilan hal qilingan edi.

Davlatlarning o'z qarzlarini alohida qismlar bilan uzishga imkoni bo'lmaganligi sababli ularda inflyatsiya hisobiga bunday qarzlardan qutilish ishtiyoqi tug'iladi.

Davlatlar yakkalanishining oqibatlari, ayniqsa, o'zlarini xalqaro raqobat ta'siridan xoli qilish bilan bog'liq xatti-harakatlarida, devalvatsiya ketidan «quvish», turli ko'rinishdagi savdo cheklovlari va to'siqlar, dunyo savdo hajmining pasayishi, ommaviy ishsizlik va siyosiy beqarorlikda o'z aksini topgan bo'lib, o'z navbatida, bu ularning xalqaro hamkorlikka intilishlari kuchayib borayotganligidan dalolat berar edi.

Bretton-Vuds valuta tizimining asl mohiyati qat'iy yoki barqaror, o'zgaruvchanligi sezilmas valuta kurslarini joriy etishdan iborat edi. Ikkinchi Jahon urushidan ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan nihoyatda charchab chiqqan davlatlar jahon bozorida davlatlararo valuta munosabatlarida hukm surayotgan tartibsizlikka barham berish maqsadida 1944-yilda AQSHning Bretton-Vuds shahrida xalqaro valuta-moliya konferensiyasini chaqiradi.

Jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan Bretton-Vuds xalqaro valuta-moliya konferensiyasi 1944-47-yillar mobaynida bo'lib o'tgan. Mazkur konferensiyada qabul qilingan Kelishuv moddalari, urushdan keyingi jahon valuta tizimi tamoyillarini belgilab berdi.

Bu tamoyillar quyidagilardan iborat edi:

1. Oltinga va ikki zaxira valutaga, ya'ni AQSH dollari va qisman Buyuk Britaniya funt sterlingiga asoslangan davlat-

lararo oltin-deviz standarti tizimi o'rnatildi. Bunda oltin-deviz standarti faqatgina davlatlararo munosabatlarda saqlanib qolgan bo'lib, mamlakatlarning pul tizimlari esa oltinga almashmaydigan kredit pullarga asoslangan edi.

Oltinning jahon valuta tizimi asosi sifatida ishlatilishining quyidagi asosiy 4 shakli ko'zda tutilgan edi:

A) Valutalarning oltin paritetlari saqlanib, Xalqaro Valuta Fondida ularning qayd etilish tartibi joriy etilgan edi;

B) Oltin xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha qoldiqni so'ndirish vositasi va ijtimoiy boylikning ramzi, xalqaro valuta likvidligining muhim unsuri sifatida ishlatila boshlandi;

C) AQSH o'zining o'sgan valuta-iqtisodiy qudratiga va kapitalistik dunyoda o'zining eng yirik oltin zaxiralariga tayangan holda, AQSH dollariga asosiy zaxira valutasini maqomini birlashtirish maqsadida dollarni oltinga tenglashtirib qo'ydi;

D) Shu maqsadda AQSH g'aznaxonasi xorijiy davlatlar markaziy (milliy) banklari va hukumat tashkilotlariga AQSH dollarlarini oltinga, bir unsiya oltinni 35 AQSH dollariga rasmiy baho asosida almashtirishni davom ettirdi. Oltinning bunday rasmiy bahosi 1934-yilda AQSH dollarining baho masshtabi asosida joriy etilgan edi.

2. Valutalarning o'zaro solishtirilishi va o'zaro almashuvi Xalqaro Valuta Fondi a'zolari bo'lmish davlatlar orasida rasmiy ravishda o'zaro kelishib olingan va qat'iy belgilangan, AQSH dollarlarida ifodalangan valuta paritetlari asosida amalga oshadigan bo'ldi. O'zaro kelishib olingan bunday paritetlarning o'zgartirilishi faqat Fondning ruxsati bilan amalga oshishi mumkin edi.

3. Valutalarning qat'iy belgilangan kurslar tartibi joriy etildi. Valutalarning bozor kurslari paritetidan kichik miqdorda og'ishi mumkin edi. Xalqaro Valuta Fondining Nizomiga asosan valuta kurslarining bunday og'ishi paritetidan $\pm 1\%$, Yevropa valuta kelishuviga asosan esa $\pm 0,75\%$ (ya'ni, taxminan $1,5\%$) ni tashkil etishi mumkin edi. Valuta kurslari tebranishining bunday chegaralarini saqlash maqsadida mazkur shartnomaga kirgan davlatlar markaziy (milliy) banklari

AQSH dollarida yoki o'z milliy valutalarida valuta intervensiyasini amalga oshirishga majbur edilar.

4. Xalqaro Valuta Fondi orqali davlatlararo valutaning tartibga solinishi joriy etildi. Bunga asosan Xalqaro Valuta Fondi muvozanatsiz valutarlar barqarorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida muayyan bir davlatlarning vaqtincha hosil bo'lgan to'lov balanslari kamomadini qoplash uchun xorijiy valutada kreditlar bera boshladi.

Shunday qilib, Bretton-Vuds valuta tizimi valuta munosabatlarini bozor tomonidan tartibga solishning davlat bilan birga olib borilishiga asoslangan ekan.

Bretton-Vuds valuta tizimi ma'lum bir davr mobaynida o'ziga yuklatilgan funksiyalarni yaxshi bajarib keldi. Biroq bu mazkur valuta tizimining nuqsonsiz ekanligidan dalolat emas, albatta.

Bretton-Vuds valuta tizimi boshidanoq AQSH dollari manfaatlari uchun xizmat qilishga mo'ljallangan valuta tizimi edi. Bu tizim AQSH dollarining boshqa davlatlar valutarlari ustidan hukmronligini ta'minlagan. Ammo AQSHning jahon iqtisodiyotidagi ulushining qisqarishi va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati davlatlari hamda Yaponiya mavqeyining o'sib borishi jarayonida jahon valuta bozoridagi bunday ahvoning saqlanib qolishi amrimahol edi.

1970-yillarning boshida Bretton-Vuds valuta tizimi va jahon iqtisodiyotida kechayotgan o'zgarishlarning realligi orasidagi ziddiyatning keskin kuchayishi valuta munosabatlari borasida qator islohot rejalarining hayotga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Jahon bozorida AQSH milliy valutasini mavqeyining pasayib borishi AQSH dollarining oltin bilan aloqasi borasidagi masalada ham ziddiyatni kuchaytirib yubordi. Natijada, AQSH g'aznaxonasi 1971-yilning 15-avgustida AQSH dollarining davlatlararo munosabatlarda oltinga almashtirilishini to'xtatdi. Bu esa, o'z navbatida, Bretton-Vuds valuta tizimining inqirozini anglatardi.

Bretton-Vuds valuta tizimining inqirozi jahon valuta bozori-da tartibsizliklarga olib keldi. Ammo bunday tartibsizliklar uzoq-qa cho'zilmadi. 1976-78-yillarda AQSHning Kingston (Yamay-

ka) shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro moliya-kredit konferensiyasida to‘rtinchi jahon valuta tizimiga asos solindi.

To‘rtinchi jahon valuta tizimining asosiy tamoyillari quyidagicha edi:

a) oltin-deviz standarti o‘rniga SDR standarti joriy etildi. Ushbu xalqaro hisob-kitob valuta (pul) birligining yaratilishi (O.Emminger loyihasi bo‘yicha) haqidagi kelishuvga 1967-yilda XVFA a‘zolari bo‘lmish davlatlar tomonidan imzo chekildi;

b) oltin demonetizatsiyasi jarayoni yuridik jihatdan yakunlandi. Uning rasmiy bahosi, oltin paritetlari va AQSH dollari ning oltinga almashtirilishi bekor qilindi. Yamayka kelishuviga asosan endi oltin qiymat o‘lchovi va valuta kurslari uchun boshlang‘ich hisob nuqtasi bo‘la olmaydi.

c) mamlakatlarga har qanday valuta kursi rejimini tanlab olish huquqi berildi;

d) XVFA yangi sharoitda davlatlararo valuta muvofiqlashtirishini (tartibga solish) jonlantirishi (kuchaytirishi) lozim edi.

Shu bilan birga, Yamayka valuta tizimi sharoitida valutalar kursi erkin suzuvchi bo‘lib, AQSH dollari standarti o‘rniga ko‘p valutali standart qabul qilindi. Hozirgi kunda biz to‘rtinchi jahon valuta tizimi sharoitida yashamoqdamiz.

1.7. 1976-1978-yillarda Yamayka va 1979-yilgi Yevropa (hududiy) valuta tizimlari

Inqirozga uchragan Bretton-Vuds valuta tizimi o‘rnini bosa oladigan valuta tizimini tartibga solishning yangi tamoyillari 70-yillarda shakllandi. Jahonda integratsiya jarayonlari kuchaydi, rivojlangan davlatlar orasida kuchlar nisbati o‘zgarib, rivojlanayotgan davlatlar ta’sir doirasi kengaydi. Valuta jarayonida to‘lovlar nomutanosibliigi kuchayib, valuta kurslarining beqarorligi va baholar o‘sdi.

To‘rtinchi jahon valuta tizimiga 1976-78-yillarda AQSHning Kingston (Yamayka) sharti XVFAga a‘zo davlatlarning bo‘lib o‘tgan xalqaro valuta-moliya konferensiyasida asos solingan.

1978-yilda bu kelishuv ratifikatsiyalangandan so‘ng XVFA Nizomiga o‘zgartirishlar kiritildi. To‘rtinchi jahon valuta tizimining asosiy tamoyillari:

1. Oltin-deviz standarti o'rniga rasmiy ravishda SDR standarti joriy etildi. Bu yangi xalqaro hisob-kitob pul birligi valuta tizimining, valuta paritetlarining asosi sifatida e'lon qilindi (1985-yilning iyuliga qadar AQSH dollari 31 valutaning asosi, SDR esa 12 valutaning asosi edi).

SDR valuta savatidagi AQSH dollarining ulushi 33% dan 42% gacha ko'tarildi. Bunga sabab 1981-yilda SDR savatidagi valutarlar sonining 12 tadan 5 tagacha kamayishidir. Buning oqibatida AQSH dollari SDR tizimidagi hisob-kitoblarni monopollashtirdi. 1984-yilga kelib rasmiy valuta zaxiralari-dagi AQSH dollarining ulushi 60% dan oshib ketdi, SDR-ning ulushi esa 2,4 %ni tashkil etdi.

XVFga a'zo davlatlarga valuta paritetlarini istagan valutada o'rnatish huquqining berilishi, dollar standartidan ko'p valutali standartga o'tilishini qonuniylashtirib qo'ydi. Zaxira valutası sifatida AQSH dollari bilan birga, maydonga SEK, GPY, CHF, FRF va boshqa shu kabi pul birliklari chiqdi.

2. Oltin demonetizatsiyasi yuridik jihatdan yakunlandi, uning rasmiy bahosi, oltin paritetlari va dollarning oltinga almashtirilishi bekor qilindi. Yamayka valuta kelishuviga asosan oltin endi qiymat o'lchovi va valuta kurslarini aniqlash-ning asosi bo'lib xizmat qilmasligi kerak.

3. A'zo-mamlakatlarga istagan valuta kursi tartibini tanlash huquqi berildi. 1973-yilning martidan qat'iy belgilangan kurslar o'rniga erkin suzuvchi valuta kurslarining joriy etilishi ko'pchilik davlatlarda katta valuta intervensiyalariga qaramay, kurslar barqarorligiga olib kelmadi.

4. XVF orqali davlatlararo tartibga solish kuchaytirildi. Ammo bu ham jahon valuta tizimini barqarorlashtirishga olib kelmaydi.

1979-yilning martida jahon valuta tizimida hukmron bo'lib kelgan AQSH dollariga qarama-qarshi ravishda xalqaro (hududiy) valuta tizimi barpo etildi— Yevropa valuta tizimi (YEVT). Dastlab bu tizimda 12 Yevropa davlatidan 8 tasi ishtirok etgan (Buyuk Britaniya, Gretsiya, Ispaniya va Portugaliya davlatlaridan tashqari).

Yevropa valuta tizimining Yamayka valuta tizimidan farqi quyidagilardan iborat:

1. YEVT SDRga emas, EKYUga asoslangan.
2. Yuridik jihatdan oltin demonetizatsiyasini mustahkamlagan Yamayka valuta tizimidan farq qilgan holda, Yevropa valuta tizimi, a'zo davlatlar rasmiy oltin zaxiralarning 20% ini birlashtirgan holda oltindan EKYUning qisman ta'minoti sifatida foydalanadi.

3. Valuta kurslari rejimi, valuta kurslarining o'zaro bir-biriga nisbatan tebranishining belgilangan chegaralarda (markaziy kursdan Q,- 2,25%, Italiya uchun Q,6%) suzishiga asoslangan.

4. YEVTda davlatlararo hududiy valuta tartibga solinishi YEFVS orqali amalga oshadi. YEFVS a'zo davlatlar markaziy banklariga o'zlarida hosil bo'lgan to'lov balanslari kamomadlari va valuta intervensiyasi bilan bog'liq hisob-kitoblarni qoplash uchun qisqa va o'rta muddatli kreditlarni beradi

Yevropa valuta tizimining barpo etilishi obyektiv reallik edi. Bu valuta tizimi G'arbiy Yevropa integratsiyasi asosida paydo bo'lib, uning asosiy maqsadi Yevropani Yamayka valuta tizimining beqarorligidan himoya qilish edi.

Tayanch iboralar: valuta, valuta munosabatlari, valuta tizimi, valuta kursi, paritet, SDR, rezerv valuta, yevro.

Nazorat uchun savollar

1. Valuta munosabatlari tushunchasining mazmuni.
2. Valutalar va ularning almashinish shartlari.
3. Valuta munosabatlarining yuzaga kelishida xalqaro savdoning o'rni.
4. Valuta tizimi va uning elementlari.
5. Jahon valuta tizimining yuzaga kelishi.
6. Birinchi jahon valuta tizimi.
7. Ikkinchi jahon valuta tizimining yuzaga kelishi.
8. Uchinchi jahon valuta tizimining yuzaga kelishi va ahamiyati.
9. To'rtinchi jahon valuta tizimi va uning ahamiyati.
10. Mintaqaviy valuta tizimi va uning valuta tizimidan farqli jihatlarini ko'rsating.

II bob. VALUTA KURSI VA UNING REJIMLARI

2.1. Valuta va uning iqtisodiy mohiyati

Jahon iqtisodiyotida, jumladan har qanday davlat iqtisodiyotida pul muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ishlab chiqarish, taqsimot, muomala va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi. Pul va iqtisodiyot o'zaro uzviy bog'liq elementlardir. Agar jamiyat iqtisodiyotida muammolar paydo bo'lsa, albatta, bunday muammolar jamiyatning pul muomalasida salbiy aks topadi. Shuning uchun pulni jamiyat iqtisodiy hayotining barometri deb bejiz aytishmagan.

Iqtisodiyot nazariyasida haqiqiy pul, tovar ekvivalent sifatida mavjud bo'lib, iste'molchilarning muomalaga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Qog'oz pullar esa, haqiqiy pullar qiymatining muomaladagi ifodasi yoki vakilidir.

Har qanday mustaqil davlat o'z puliga ega va bunday pul shu davlat uchun milliy pul birligi hisoblanadi. Milliy pul birligi o'zining nomi va ma'lum bir muomala tarixiga ega.

Nazariyada pul va valuta kategoriyalari mavjud bo'lib, pul va valuta ikkalasi bir narsa, ammo hamma vaqt ham pul valuta bo'lavermaydi. Agar muayyan bir davlatning milliy pul birligi jahon bozoriga chiqib, davlatlar o'rtasida muomala, to'lov va jamg'arish vositasi sifatida ishlatilsa, ya'ni xalqaro pul funksiyalarini bajarsa, u valutaga aylanadi.

Valuta – jahon bozorida, davlatlar o'rtasida pul vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birligidir. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari dollari, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Kanada dollari, Fransiya franki, Germaniya markasi va shu kabilar.

Bundan muayyan bir davlatning milliy puli – uning milliy valutasini bo'lishi mumkin. Shu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari esa xorijiy valutar bo'ladi. Masalan,

AQSH dollari, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Kanada dollari, yevro va shu kabi erkin muomalada yuradigan valutalar O'zbekiston Respublikasida xorijiy valutalar hisoblanadi. O'z navbatida, O'zbekiston so'mi bu davlatlar uchun xorijiy valuta hisoblanadi.

Ba'zi bir davlatlarning milliy pul birliklarining, mazkur davlatlarda valuta munosabatlari borasida mavjud va amalda bo'lgan qonun-qoidalariga asosan xorijga chiqishi va u yerda muomalada bo'lishi chegaralanadi. Shunga ko'ra muomaladagi valutar turli maqomlarga, ya'ni erkin muomalada yuradigan, muomalasi qisman yoki butunlay cheklangan, yopiq yoki ekzotik valutilarga bo'linadi.

Bundan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda jahon amaliyotida erkin muomalada yuradigan valutar soni 60 turdan ziyod. Bundan tashqari, MDH davlatlarining valutarlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining so'mi yumshoq valutar toifasiga kiradi. Ekzotik valutar toifasiga Quvayt dinori, Gretsiya draxmasi va shu kabilar kiradi.

«Valuta» kategoriyasi milliy va jahon xo'jaligi orasida aloqa va o'zaro munosabatlarni ta'minlaydi. Jahon valuta tizimi jahon pullarini amaldagi (funktional) shakllariga asoslangan. Jahon pullari deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) xizmat ko'rsatuvchi pullarga aytiladi. Jahon pullari amaliy (funktional) shakllarining evolutsiyasi milliy pullar rivojlanish evolutsiyasini birmuncha kechikib takrorlaydi, ya'ni oltin pullardan — kredit pullarga. Bunday qonuniyat asosida jahon valuta tizimi XX asrga kelib bir yoki bir necha yetakchi davlatlarning milliy valutariga (an'anaviy yoki yevrovaluta shaklida) yoki xalqaro valuta birligiga (SDR, YEYRO) asoslanadi.

Jahon amaliyotida hisob-kitoblarni olib borish uchun valutarlar shartli belgilar orqali ifodalanadi, ya'ni ularga shartli kodlar beriladi. Valutilarga kodlar ISO (Standartlash xalqaro tashkiloti) tomonidan beriladi va e'lon qilinadi. Bu valutani kodlash tizimi yozma ravishda rasmiylashtirilgan barcha valuta operatsiyalari va bitimlarda qo'llaniladi. ISO tizimidagi kodlar juda oson, masalan, ular quyidagicha ifodalanishi mumkin: $A_1A_2A_3$.

Bunda: A_1A_2 – lotin harflari mamlakat nomlarini ifodalaydi;

A_3 – lotin harfi shu mamlakatning milliy valutasini bildiradi.

Masalan, UZ – O‘zbekiston Respublikasi, S – so‘m, UZS – O‘zbekiston Respublikasi so‘mi; RU – Rossiya, R – rubl, RUR – Rossiya rubli; US – Amerika Qo‘shma Shtatlari, D – dollar; USD – Amerika Qo‘shma Shtatlari dollari; GB – Buyuk Britaniya, P – funt sterling, GBP – Buyuk Britaniya funt sterlingi.

Valuta, odatda, ikki turga – milliy va chet el valutariga bo‘linadi. Milliy valuta qonun asosida davlatning pul birligi sifatida belgilanadi va mamlakat hududida barcha hisob-kitoblarda foydalaniladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishlatiladigan pul-lar valutaga aylanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda, odatda, xorijiy valuta, ya’ni boshqa mamlakatlarning pul birliklari ishlatiladi. Ushbu pul birliklari bilan deviz tushunchasi bog‘liq.

Deviz – xorijiy valutadagi har qanday to‘lov vositasidir. Xorijiy valuta valuta bozorida oldi-sotdi obyekti bo‘ladi, xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladi, banklardagi hisobvaraqlarda saqlanadi, ammo ushbu davlat hududida qonuniy hisob-kitob vositasi hisoblanmaydi (kuchli inflyatsiya davrlarini hisobga olmaganda). Mamlakatda kuchli inflyatsiya va inqiroz holatida milliy valutani nisbatan barqaror xorijiy valuta siqib chiqardi, hozirgi davrda bu AQSH dollaridir.

Chet el valutasini quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- valuta bozorida sotish va sotib olishning obyekti hisoblanadi;

- xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladi;

- banklarda valuta hisob raqamlarida saqlanadi.

Jahon amaliyotida yetakchi valutarlar sifatida rivojlangan mamlakatlar valutasidan foydalanilmoqda, jumladan AQSH dollari va Yevropa Ittifoqi YEVROsi.

2.2. Valuta kursining mazmuni va uni kotirovkalash

Turli mamlakatlarning valutarlari hamda xalqaro pul birliklari tuzilgan xalqaro bitimlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida o‘zaro almashtiriladi va har qanday ayirboshlashda bo‘lgani kabi bu

yerda ham ularning bahosini, aniqrog'i, valutalar kursini aniqlash muhim hisoblanadi.

Valuta kursi valuta tizimining asosiy elementi hisoblanadi, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda turli mamlakatlar valutalari nisbatining o'zgarishi ma'lum bir qiymatda ifodalanishini talab qiladi. Valuta kursi tovarlar, xizmatlar savdosida, kapitallar, kredit harakatida valutilarni o'zaro ayirboshlash uchun zarur. Eksportyor chet el valutasidagi tushumini o'z milliy valutasiga almashtiradi, chunki boshqa mamlakatlarning valutasida ushbu davlat ichida qonuniy to'lov va sotib olish vositasi sifatida qatnasha olmaydi. Importyor milliy valutani chet el valutasiga xorijda sotib olgan tovarlarga to'lash uchun almashtiradi.

Jahon bozorida tovarlarni sotganda milliy mahsulot xalqaro qiymat me'yorlariga ega bo'ladi. Shuningdek, valuta kursi jahon xo'jaligi doirasida tovarlarni absolut almashuvini namoyon qiladi. Valuta kursi qiymatining asosi jahon narxlari ostida yotuvchi, jahon bozoriga asosiy mahsulot yetkazib beruvchi mamlakatlarning va boshqa ishlab chiqaruvchilarning milliy narxiga asoslanadi. Xalqaro kapital harakatining keskin o'sishi valuta kursiga nafaqat tovar, balki moliyaviy aktivlar orqali hamda valutilarni sotib olish qobiliyati orqali ham ta'sir ko'rsatadi.

Chet el valutasining milliy valutadagi kursini aniqlash va o'rnatish kotirovka deb ataladi. Kotirovka valutani sotish va sotib olishda, bir valutani ikkinchi valutaga almashtirish jarayonida zarur bo'lib, unga aniq valutaga bo'lgan talab va taklif ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, valuta bozorida valutaga bo'lgan talab va taklif bir valutaning ikkinchi valutaga bo'lgan nisbatining o'zgarishiga ta'sir qiladi va kotirovka asosida valutilarning kursi belgilanadi.

Valuta kursining kelib chiqishi mamlakatlar iqtisodiy faoliyatining muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan xalqaro savdoni rivojlantirish bilan bog'liq. Valuta kursi xalqaro savdoning rivojlaniishi bilan birga ichki iqtisodiyotga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunga sabab valuta kursining holati bilan mamlakat iqtisodiyotidagi barcha sohalar holati o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligidir.

Valuta kursi asosan kapital va kredit harakatini hisobga olish, tovar va xizmatlar savdosida valutilarni o‘zaro ayirboshlash uchun, jahon bozori va milliy bozor narxlarini hamda turli mamlakatlarning milliy va chet el valutasida ifodalangan qiymat ko‘rsatkichlarini taqqoslash, firma va banklarning chet el valuta-sidagi mavjud bo‘lgan davriy qayta baholash va boshqa jarayon-larni amalga oshirish uchun zarur. Shunday qilib, valuta kursi bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklari-da ifodalangan bahosidir.

Tashqi jihatdan valuta kursi jahon bozoridagi talab va taklif asosida aniqlangan bir valutaning boshqa valutaga nisbatan hisob-lab chiqilgan koeffitsiyenti sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo valuta kursining qiymat asosi valutaning xarid qobiliyati hisoblanadi. Bu iqtisodiy kategoriya tovar ishlab chiqarishda ishtirok etadi va tovar ishlab chiqaruvchilar bilan jahon bozori o‘rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Qiymat tovar ishlab chiqarishning iqtisodiy sharoitlarining barcha jihatlarini ifodalaydi. Bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligiga taqqoslanishi ishlab chiqarish va ayir-boshlash jarayonida yuzaga keladigan qiymat munosabatlariga asoslangan. Ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar valuta kursi yor-damida tovar va xizmatlarning milliy narxlarini boshqa davlatlar narxlari bilan solishtiradilar. Bunday solishtirish natijasida ishlab chiqarishni mamlakat ichkarisida rivojlantirish yoki chet elga investitsiya qilishni rivojlantirishga asoslangan foydalilik darajasi yuzaga keladi.

Kapitalning xalqaro harakatiga bog‘liq ravishda valuta kursi-ni o‘zgarishiga valutaning tovarlarni xarid qilish qobiliyati bi-lan birga moliyaviy aktivlarni xarid qilish qobiliyati ham ta’sir ko‘rsatadi.

Qonuniy me’yorlarga va amaliyotga mos holda birjada chet el valutasini kursining, qimmatli qog‘ozlar kursining yohud tovarlar bahosining o‘rnatilishi ham kotirovkalash deb ataladi. Subyekt-lar ishtirokida belgilanishiga qarab kotirovkaning 2 turi: rasmiy va bozor kotirovkasi mavjud. Rasmiy kotirovkada barcha valuta operatsiyalari uchun valuta kursi davlat tomonidan belgilanadi. Banklararo valuta savdosida amalga oshiriladigan bozor kotirovkasi

banklarning to'lovga layoqatlilikiga, ularning pul mablag'i aylanmasi mavqeyiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bozor kotirovkasi rasmiy kotirovkadan farq qiladi. Jahon amaliyotida kotirovkalashni amalga oshirishning 2 xil usuli mavjud:

1) To'g'ri kotirovkalash. Agar xorijiy valuta birligining bahosi milliy valutada ko'rsatilsa, bu to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 2012-yilning 20-martida 1 AQSH dollariga nisbatan o'zbek so'mining kursi 1839,40 so'mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan 62,65 so'mni tashkil etdi. 1 AQSH dollari = 1839,40 so'm. Bu to'g'ri kotirovkalash hisoblanadi va bunday kotirovkalash hozirgi vaqtda jahondagi ko'plab mamlakatlarda qo'llanilmoqda.

2) Milliy valutaning xorijiy valutaga nisbatan bahosi egri kotirovkalash deb ataladi. Egri (teskari) kotirovkalashda bir birlik milliy valutaning xorijiy valutilardagi miqdori o'rnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valutaning xorijiy valutadagi bahosi ko'rsatiladi, masalan:

$$1 \text{ so'm} = \frac{1}{1839,40} \text{ AQSH dollari yoki } 1 \text{ so'm} = 0,00054 \text{ AQSH dollari}$$

Kotirovkaning chap tomonidagi valuta kotirovka bazasi, o'ng tomonidagisi kotirovka valutasini deb yuritiladi.

$$\begin{array}{ccc} 1 \text{ so'm} & = & 1839,40 \text{ AQSH dollari} \\ \text{kotirovka bazasi} & & \text{kotirovka valutasini} \end{array}$$

Valuta kotirovkasi, odatda, 2 asosiy elementni o'zida mujassamlashtiradi.

1) sotib olish kursi (Vid-bid);

2) valutani sotish kursi (offer-offer).

Masalan, 1 AQSH dollari = 18369,40 o'zbek so'mi sotish kursi (offer),

1846,0 o'zbek so'mi sotib olish kursi (Vid).

Valutani sotish va sotib olish o'rtasidagi farq spread (spread) deb nomlanadi va u yuqoridagi misolda 6,4 so'm (1846,0-1839,4) ni tashkil qiladi.

Bank kotirovkasi bilan banklararo bozor kotirovkasi o'rtasidagi farq marja deyiladi va u bankning valuta bo'yicha pozitsiya-

si, uning bitimlarining summasi, salmog'i va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Valuta kurslarining turlari ko'p bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin.

1-jadval

Valuta kurslari tasnifi

Kurs o'rnatish mezonlari	Valuta kursining turlari
1. Fiksatsiyalash turi bo'yicha	Suzuvchi, fiksirlangan, aralash
2. Hisoblash usuli bo'yicha	Paritet, haqiqiy kurs
3. Nisbat bo'yicha	Kross kurs, to'g'ri, egri (teskari), fiksing
4. Bitim turi	Spot-kurs, muddatli bitim (forward) kursi
5. O'rnatish usuli	Rasmiy, norasmiy (erkin)
6. Valutaning sotib olish qobiliyati paritetiga nisbatan	Paritetli, oshirilgan, kamaytirilgan kurs
7. Bitim qatnashchilari bo'yicha	Sotib olish kursi (sotib oluvchi uchun), sotish kursi (sotuvchi uchun)
8. Inflatsiyani hisobga olish bo'yicha	O'rtacha kurs, real, nominal kurs

Demak, yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, doimiyliги yoki o'rnashuviga qarab valuta kursi suzuvchi, fiksirlangan va aralash bo'lishi mumkin.

Suzuvchi valuta kursi deganda milliy va chet el valuta kurslarining o'zaro nisbatini valuta bozoridagi talab va taklifga qarab belgilanishi ko'zda tutiladi. Bu kurs birinchi marta 1971-yilning avgustida AQSH dollarini oltinga ayirboshlash bekor qilindandan keyin qabul qilinib, Kanada, Ispaniya, Meksika, 1972-yil apreldan boshlab esa Yevropa Ittifoqi tizimiga kiruvchi davlatlar amaliyotida qo'llanila boshlangan.

Fiksirlangan valuta kursi oltin, oltin deviz, oltin, dollar standartlariga mos keladi va oltin paritet asosida bir valutani ikkinchi valutaga almashtirishni ko'zda tutadi. Hozirgi kunda fiksirlangan kurs valuta savati yoki yetakchi biror valuta (odatda yevro, dollar) asosida aniqlanadi.

Aralash kurs fiksirlangan va suzuvchi valuta kurslaridan foydalanish bo'lib, u 70-80-yillardan boshlab Avstraliyada qo'llanila boshlangan.

Agar ikki valuta o'rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valutaga nisbat olingan kurslarda aniqlansa, bunday nisbat kross-kurs deb ataladi. Masalan:

$$1 \text{ so'm} = \frac{1}{1839,40} \text{ AQSH dollari yoki} \quad 1 \text{ so'm} = \frac{1}{62,65} \text{ Rossiya rubli}$$

$$\text{Bu yerda} \quad \frac{1}{1839,40} \text{ AQSH dollari} = \frac{1}{62,65} \text{ Rossiya rubli}$$

$$\text{Demak,} \quad 1 \text{ AQSH dollari} = \frac{1839,40}{62,65} = 29,359 \text{ yoki } 29,4 \text{ Rossiya rubli}$$

Ushbu misolda AQSH dollari uchinchi valuta vazifasini bajaradi. Jahon amaliyotida asosan uchinchi valuta sifatida AQSH dollari, Yaponiya iyenasi, yevro kabi valutarlar qo'llaniladi, ya'ni barcha valutarlar jahon ayirboshlashida ko'pincha aynan shu valuta-larga nisbatan kotirovka qilinadi.

Kross-kursdan foydalanish ancha og'ir va risklidir. Ammo ularni qo'llash quyidagi holatda zarur va foydalidir:

– Sizning talabingizdagi valutaga ega bo'lgan sotuvchilarda sizning valutangizga talab mavjud emas. Masalan, so'mni Yaponiya iyenasiga almashtirish kerak. Bu yerda uchinchi valuta AQSH dollari bo'lsin. Yaponiya iyenasi sotayotganlar ichida sizning valutangizni sotib olishni xohlaydiganlar yo'q, shu holda kross-kursdan foydalanish mumkin.

Oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda valuta bozorida quyidagi valuta kurslari ko'rinishlaridan foydalaniladi.

Spot-kurs bu — naqd (kassa) bitimlar kursidir. Spot-kurs bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtda o'rnatilgan baho bo'yicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Bunda valutani valuta bitimi tuzilgan kundan boshlab 2 bank ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi.

Forward kurs — muddatli valuta bitimlari kursidir.

Forward kurs valutani kelgusida aniq bir kunga yetkazib berish sharti bilan sotish va xarid qilish bahosini o'zida ifodalaydi.

Forward bitimlari, odatda, valuta kurslarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan risklarini bartaraf qilish maqsadida ishlati-

ladi. Bitim tuzilayotgan paytda forward kursda aniqlanadi va ana shu kurs bo'yicha valuta sotiladi yoki sotib olinadi. Agar shartnoma muddati tugagan kunda kurs shartnoma kursidan farq qilsa, unda bir tomon foyda ko'radi, ikkinchi tomon esa zarar ko'radi. Masalan, siz 2012-yil 1-yanvarda 2010-yili 1-mart kuni 1 AQSH dollari = 1830 so'm kursida sotib olish bitimini tuzdingiz. Ammo 2012-yil 1-iyun kuni 1 AQSH dollari 1835 so'mni tashkil etdi, natijada siz har bir dollarga 5 so'm miqdorida qo'shimcha foyda ko'rdingiz.

Agar 1-mart kuni 1 AQSH dollari = 1828 so'mni tashkil etsa, unda har bir dollardan 2 so'mdan zarar ko'rasiz.

Muddatli bitimlar bo'yicha valuta kurslari (report) ustama yoki dastxat metodi bo'yicha kotirovka qilinadi va autrayt kurslari deb ataladi.

Valuta operatsiyalari o'tkazilganda forward kurslar bilan spot-kurslar farq qiladi. Bu farq spot-kurslariga diskont yoki mukofot ko'rinishida aniqlanadi.

Umuman olganda, diskont yoki mukofot miqdori spot-kursiga nisbatan barqaror, shuning uchun banklararo bozorda muddatli bitimlar kursi kotirovkalanayotganda ko'pincha mukofot yoki diskont aniqlanadi. To'g'ri kotirovkalashda diskont spot-kursidan ayirib tashlanadi, mukofot qo'shiladi va aksincha teskari kotirovkalashda mukofot spot-kursidan ayirib tashlanadi, diskont qo'shiladi.

Muddatli bitimlar bo'yicha son ko'rinishida kotirovkalandigan valuta kurslari autrayt deyiladi.

Forward kurslari bo'yicha diskont yoki ustama (mukofot) ning mavjudligining asosiy sababi forward bitimi muddatiga teng bo'lgan muddatga mos valutadagi qisqa muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari o'rtasidagi farq mavjudligidir. Ustama (mukofot) yoki diskont quyidagi formula orqali topiladi:

$$M/D = \frac{(DFS_v * SK - DFS_a * FTK) * FBM}{100\% - 360}$$

Bunda: M/D – mukofot (+), diskont (-);

DFS v/a - v/a – valutadagi depozitlar bo'yicha foiz stavkasi;

V, A – kotirovkalanayotgan valutilar;

SK – spot-kursi;

FBM – forward bitimi bo'yicha;

FTK – forward taxminiy kursi.

FTK quyidagi formula bilan topiladi:

$$\text{FTK} = \frac{(\text{DFS}_a - \text{DFS}_v) * \text{SK} * \text{FBM}}{100\% - 360}$$

Forward yoki muddatli bitimlar xalqaro savdoda tijorat operatsiyalarini amalga oshirayotganda valuta riskidan sug'urtalanish imkonini beradi. Tijorat operatsiyalarini sug'urtalashning mohiyati tashqi savdo tijorat banklari bilan birga valuta kursi harakatidan salbiy natijalar, ya'ni riskni yo'qotish maqsadida valutani sotish-sotib olish bitimidan iborat.

Xorijiy valutadagi muddatli operatsiyalar zaruriyati, shuningdek, turli nosavdo, moliya operatsiyalarini sug'urtalash bilan ham shartlanadi.

Ustama yoki diskont ekanligini foiz stavkalari o'rtasidagi farqdan bilish mumkin. Agar valuta bitimi bo'yicha foiz stavkasi baholovchi valutaning foiz stavkasidan past bo'lsa, bu valuta yuqori kurs bo'yicha kotirovka qilinadi va chiqqan ko'rsatkich ustama hisoblanadi. Agar valuta bitimining foiz stavkasi yuqori bo'lsa, bu ko'rsatkich diskont bo'ladi. Agar milliy valutadagi depozitlarning foiz stavkasi bitim valutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, olingan natija diskont hisoblanadi, aksincha bo'lsa, ustama hisoblanadi.

Banklar valuta operatsiyalarini amalga oshirishda valutani sotish va sotib olish kursini o'rnatadi. Bu kurslar sotuvchining kursi va xaridorning kursi deb ataladi.

Sotuvchi kursi – bankning valutani sotish kursi;

xaridor kursi – bankning valutani sotib olish kursi.

Bu kurslar o'rtasidagi farq marja deb ataladi. U xizmat xarajatlarini qoplashga sarflanadi va ma'lum foyda sifatida hisobga olinadi.

Valutaning eng muhim xususiyati uning konvertirlanganligidir.

Konvertirlanganlik — darajasiga ko‘ra valuta kursi 3 ga bo‘linadi.

- erkin suzib yuruvchi;
- cheklangan darajada suzib yuruvchi;
- fiksirlangan valuta kurslari.

Erkin suzib yuruvchi valuta kursi ma’lum valutaga bo‘lgan bozor talabi va taklifi ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Masalan, yevro AQSH dollari, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi va boshqalar. Shu bois bu valutarlar jahon valuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

Cheklangan darajada suzib yuruvchi valuta kurslarining o‘zgarishi ayrim valutarlar yoki bir guruh valutarlar (valuta savati) kursi o‘zgarishiga bog‘liq. Misol uchun «Uchinchi dunyo»-ning aksariyat mamlakatlari o‘z valutarlarini AQSH dollariga, Yevropa mamlakatlarining yevrosiga va boshqa boshqa xorijiy valutarlarga bog‘laydi. Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi valuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o‘z valutarlarini tebratish chegarasini o‘zlari hamkorlik qilayotgan mamlakatlar bilan kelishib oladilar.

Fiksirlangan valuta kursi — bu xorijiy valutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o‘rnatilgan bahosi bo‘lib, unga valuta bozorlaridagi talab va taklifning o‘zgarishi ta’sir qilmaydi. Hozirgi vaqtda fiksirlangan valuta kursi sust rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiyoti tashqi bozorlarga yetarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda moliya tizimi va milliy ishlab chiqarishni kuchli xorijiy raqobatchilardan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qo‘llaniladi.

Xalqaro iqtisodiyot nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, bir davlat o‘z valutarlari milliy valutasining boshqa davlatlar valutasiga nisbatan bir xil valuta kursini saqlashi lozim. XVF Nizomining VIII moddasiga asosan, davlat joriy operatsiyalar bo‘yicha milliy valuta konvertatsiyasi bo‘yicha olgan majburiyatining bajarilishini va bir davlat valutasini bo‘yicha turli xil kurslar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Barcha mamlakatlar ma’lum muddatda o‘z valutarlari kurslari to‘g‘risidagi axborotni e’lon qiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi valuta birjasi ish yakunlari matbuotda, televideniya e’lon qilinadi. Bunda nominal valuta kursi belgilanadi. Lekin

kuchayib borayotgan inflyatsiya sharoitida jahon bozorida milliy mahsulotga bo'lgan talabni, uning raqobatbardoshligini aniqlashda milliy va xorijiy tovarlar baholari o'rtasidagi nisbatni ham bilish kerak bo'ladi. Ya'ni milliy valutaning real almashtirish kursini hisoblab chiqish kerak. Real valuta kursini hisoblashni O'zbekiston va Rossiyada ishlab chiqariladigan gazlama misolida ko'rsatish mumkin. Masalan, 1 m gazlamaning bahosi respublikamizda 1000 so'm, Rossiyada 35 rubl deylik. Valutalarning amaldagi nisbati 1 Rossiya rubli = 35 so'm yoki 1 so'm = 0,0032 Rossiya rubli bo'lganda, 1 m o'zbek gazlamasining bahosi Rossiya rublida $0,032 \cdot 1000 = 32$ rubl turadi. Bunday holda O'zbekiston va Rossiyada ishlab chiqarilgan 1 m gazlama baholari nisbati

$$\frac{0,032 \times 1000}{35} = \frac{32}{35} = 0,9 \text{ ga}$$

teng bo'ladi. Demak, ushbu nisbat o'zbek gazlamasining bahosi Rossiya gazlama bahosining 0,9 va undan arzon ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, mahsulotning real valutadagi bahosi tovarning ishlab chiqarish bahosi va valutaning nominal almash-tirish kursiga bog'liq bo'lib, quyidagi tenglik bilan izohlanadi:

Real kursi = nominal kursi x o'z mamlakatida ishlab chiqarilgan tovarlar bahosi (xorijiy tovarlar bahosi).

Past valuta kursida milliy tovarlar nisbatan arzonroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan qimmatroq turadi. Shuning uchun eksport o'sib, import esa qisqarib boradi. Va aksincha, yuqori real valuta kursida milliy tovarlar nisbatan qimmatroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan arzonroq turadi. Natijada import o'sib, eksport qisqaradi.

Tayanch iboralar: valuta kursi, kotirovka, to'g'ri kotirovka, teskari kotirovka, foiz stavkalari, xarid pariteti, kross-kurs, forvard kurs, spot-kurs, mukofot, diskont, real kurs, inflyatsiya.

Nazorat uchun savollar

1. Valuta kursining mazmuni va ahamiyati.
2. Erkin suzib yuruvchi kurslar. Qat'iy belgilangan kurslar.
3. Boshqariladigan kurslar. Qat'iy belgilanuvchi kurslar va moslanuvchan kurslarni taqqoslash.

4. Valutaning xarid qobiliyati pariteti.
5. Foiz stavkalaridagi farqlarning valuta kursiga ta'siri.
6. Yuqori darajali inflyatsiya sharoitida valuta kursi.
7. O'zbekiston Respublikasida milliy valuta kursi barqarorligini ta'minlash muammolari.
8. Kross-kurslar va ularning qo'llanilishi.
9. Valuta dilingi tushunchasi.
10. Valuta kursi va uning boshqarilishi.

III bob. VALUTA OPERATSIYALARI VA UNING TURLARI

3.1. Valuta bozori, uning turlari va ishtirokchilari

Zamonaviy valuta bozori yalpi jahon xo'jaligi miqyosida amal qiluvchi, murakkab va muntazam iqtisodiy tizim sifatida maydonga chiqadi.

Valuta bozori yangi sharoitlarga moslashgan holda tinimsiz rivojlanib kelgan. U xorijiy valutadagi veksellar bilan savdoning lokal markazlaridan tortib, to birdan bir haqiqiy xalqaro bozor shakligacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Hozirda valuta bozori va valuta operatsiyalarini amalga oshirish texnikasini o'rganish bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Valuta bozorining amal qilish mexanizmini bilish O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy munosabatlari-ning samarali amalga oshirilishi uchun muhimdir.

Valuta bozori – bu mexanizm bo'lib, uning yordamida xorijiy valutilarning oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiyalar amalga oshiriladi. Xorijiy valutilarning oldi-sotdisiga bo'lgan zarurat xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish paytida yuzaga keladi: tashqi savdoda, xorijiy valutada kredit berilganda, xorijiy valutadagi zaxiralarni valuta kursi tebranishidan sug'urta qilganda.

Bir valutani boshqa bir valutaga o'tkazish zarurati shundaki, odatda, xalqaro savdo shartnomalari va kapital bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar o'z milliy valutariga ega mustaqil davlatlarda yashaydilar. Tabiiyki, xalqaro shartnomalarda ishtirok etuvchi har bir taraf hisob-kitoblarni o'z milliy valutasida amalga oshirishdan manfaatdor. Biroq xalqaro savdo shartnomalari va kapital bilan operatsiyalar erkin muomalada yuradigan valutada amalga oshirilmog'i lozim.

Masalan, yaponiyalik eksportyor braziliyalik importyorga «Toyota» avtomobillarini sotmoqchi. Bunda eksportyor import-

yordan to'lovni yapon ieynasida, Braziliya kruzerosida yoki AQSH dollarida amalga oshirishni talab qilishi mumkin. To'lov valutasini oldindan kelishilib, shartnomada qayd etiladi. Ammo yuqoridagi misolda qanday valuta ishlatilishidan qat'iy nazar, u valuta kursidan kelib chiqqan holda boshqa valutaga o'tkazilishi lozim. Agar yapon iyenasi qo'llanilsa, unda braziliyalik importyor o'z milliy valutasini kurs asosida yapon iyenasi bilan aylantirishi lozim. Braziliya kruzerosi qo'llanilganda esa, aksincha, yaponiyalik eksportyor ularni iyenaga aylantirish zarurati tug'ilardi. Agar AQSH dollari qo'llanilsa, braziliyalik importyor kruzeroni AQSH dollarlariga, yaponiyalik eksportyor esa AQSH dollarini iyenaga aylantirishi kerak bo'ladi.

Xorijiy valutar bozorining asosiy vazifasi yuqoridagi misolda keltirilgan valutarlarning o'zaro almashuvini amalga oshirishdir. Valuta bozorida valutarlarni almashuv kursi shu valuta-larga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadi.

Milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ahamiyatining o'sishi, erkin suzadigan valuta kurslarining joriy etilishi valuta-moliyaviy sohaning ko'lamini va ahamiyati, xususan, valuta bozori mavqeyi oshishiga olib keldi.

Valuta bozori quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- tovarlar, xizmatlar va kapitallar xalqaro muomalasiga xizmat ko'rsatish;
- iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadigan talab va taklifni balanslash orqali valuta kurslarini aniqlash;
- valuta risklaridan himoyalash uchun mexanizmni taqdim etish;
- davlat tomonidan pul-kredit va iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda bozordan foydalanish.

Jahon valuta bozorining xususiyatlariga ko'ra, u aniq bir manzilga ega emas yoki ma'lum bir joyda jismonan mavjud emas. Jahon valuta bozori telefon hamda zamonaviy telekommunikatsion tizim orqali savdo amalga oshadigan bozordir. Bu bozorning o'ziga xos xususiyati nafaqat uning jismonan mavjud emasligida, balki uning sutkada 24 soat faoliyat ko'rsatishi,

ochilmasligi va yopilmasligi, muomala hajmi jihatidan nihoyatda yirikligidadir, ya'ni 1 sutkada jahon valuta bozorida 1 trln AQSH dollari sotiladi va sotib olinadi.


Valuta bozori rivojlanishiga xalqaro ssuda kapitallari bozorining kengayishi katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur bozorlarning o'sib, bir-biriga kirishib ketish jarayoni kuchaymoqda.

Hozirda banklararo valuta bozorida banknotalar yoki tangalar yo'q, boshqa to'lov vositalarining, ya'ni veksellar va cheklarining ahamiyati esa minimaldir. Valuta operatsiyasi har qanday moddiy asosni yo'qotdi, ya'ni milliy pul birliklari bir-biriga nisbatan faqat korrespondent hisob raqamlaridagi yozuvlar sifatida mavjud. Bu esa, o'z navbatida, valuta bozori uchun yuqori darajadagi integratsiyaga erishish imkonini berdi.

Valuta bozorining murakkab iqtisodiy tabiati, uning ko'p yo'nalishli tarkibiy tuzilishi, operatsiyalarning tashkil etilishi ularning obyektlari va subyektlari bilan belgilanadi.

Valuta bozori banklararo, mijozlararo va birja bozorlarida, shuningdek, broker va to'g'ridan to'g'ri naqdli, muddatli va shu kabi bozorlarga bo'linadi.

Umumiy olganda, valuta bozorini quyidagi turlarga bo'lish mumkin.



2-chizma. Valuta bozorining turlari

Valuta bozori valuta munosabatlarining subyektlari va unda ishlatiladigan valutilarning soniga ko'ra, milliy, hududiy va jahon valuta bozorlariga bo'linadi.

Milliy valuta bozorlari muayyan davlat hududida rezidentlar va xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi valuta munosabatlarini o'z ichiga oladi. Bu bozorlar milliy valuta kon-

vertatsiya qilinmaydigan va qattiq valuta cheklovlari mavjud bo'lgan paytda davlat tomonidan milliy pul va valuta tizimini shakllantirish bosqichida shakllanadi. Bunday mamlakatlarda faqat vakolatli («devizli» yoki «valutali») banklar jahon valuta bozoriga chiqa oladi.

Jahon valuta bozorining konyunktura mexanizmi deganda, odatda, ushbu bozorda valutilarga bo'lgan talab va taklifning shakllanish mexanizmi tushuniladi. Bozorning konyunktura mexanizmi murakkab bo'lib, uni o'rganish moliyaviy vositachilar uchun nihoyatda muhimdir. Chunki bozorda, operatsiyalar o'tkazish jarayonida qaror qabul qilish uchun moliyaviy vositachilar ma'lum bir tahliliy ma'lumotlarga asoslanishi kerak.

2-jadval

Valuta bozorlari ishtirokchilari va ular o'rtasida tuziladigan bitimlar

Bozor ishtirokchilari	Bitimlar	Asoslar
Tijorat banklari	– mijozlar uchun bitimlar; – o'z mablag'lari asosida savdo	– hisob-kitoblarning o'tkazilishi; – foyda olish yoki mijozlar bitimlari bo'yicha pozitsiyalarning balanslashuvi
Tashkilotlar (eksportyor va importyorlar)	– valutaning sotib olinishi; – valuta risklarini sug'urtalash uchun bitimlar; – xorijiy valutada kreditni olish va berish	– xorijiy valutada to'lovlar; – tannarxning kalkulyatsiyasi, valuta risklarini kamaytirish, imkoniyatlarini qo'llash uchun bazaning yaratilishi; – qulay shartlarning olinishi
Markaziy banklar	– valutani sotish olinishi; – intervensiyalar	– to'lovlar, cheklar inkassatsiyasi, veksellar hisobi va boshqalar; – valuta bozorlarini ushlab turish uchun valutani sotib olish, bozorlarning normal darajadagi faoliyatini amalga oshirish
Brokerlar	– kurslarni o'rnatish hamda valuta va foizli bitimlarda bevosita qatnashish	– bitimlarni amalga oshirishdan olinadigan komission yoki foizli to'lovlar.

Valuta bozorlarining ishtirokchilari ko‘p bo‘lib, ularni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin. Barcha ishtirokchilarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin, bular:

1. Passiv ishtirokchilar. Ular vaqti-vaqti bilan valuta operatsiyalarini amalga oshirish ehtiyoji yuzaga keluvchi subyektlar bo‘lib, ko‘pincha yirik bitimlarga murojaat qilishadi. Banklarda o‘rnatilgan narx bo‘yicha hisob-kitobni amalga oshiradilar.

2. Aktiv ishtirokchilar. Ular «Market Makers» deb ham ataladi. Asosan yirik va kam sonli bitimlarda ishtirok etib, o‘z bo‘limlariga va juda katta dilerlik shtatlariga egadirlar. Aynan ular bozorni shakllantiruvchilari hisoblanadi va passiv ishtirokchilar aynan ularga murojaat etadilar. Passiv ishtirokchilarga o‘z narxlarini o‘rnatadilar.

3.2. Valuta operatsiyalari va ularning turlari. **SPOT operatsiyalari yoki kassa bitimlari**

Valuta operatsiyalari — bu xorijiy valutada va valutaviy qimmatliklar bilan bo‘ladigan oldi-sotdi operatsiyalaridir.

Xorijiy valuta deganda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning banknotalari va almashinuvchi tangalari tushuniladi.

Valuta qimmatliklariga quyidagilar kiradi:


— xorijiy valutada yozilgan qarz majburiyatlari, ya‘ni oddiy veksellar va trattalar;

— xorijiy valutada yozilgan qimmatli qog‘ozlar;


— oltin, platina va boshqa qimmatbaho metallar, toshlar.

Valuta operatsiyalari asosan valuta bozorlarida amalga oshiriladi. Rasmiy valuta-moliya bozorining eng yirik jahon markazlari London, Nyu-York, Frankfurt Mayn va Tokio kabi yirik shaharlarda ko‘p sonli bo‘limlar tarmog‘iga va chet el valutasini zaxirasiga ega bo‘lgan taniqli tijorat banklari faoliyat ko‘rsatadi.

Valuta bozorlarida amalga oshiriladigan valuta operatsiyalari mohiyatiga ko‘ra quyidagicha bo‘linadi.



3-chizma. Valuta bozorlarida amalga oshiriladigan valuta operatsiyalari



4-chizma. Valuta operatsiyalarining tasnifi

Kengroq ma'noda valuta operatsiyalarining tasnifini 4-chizma ko'rinishida ifodalash mumkin.

O'z navbatida, barcha valuta qimmatliklari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar o'z xarakteri va namoyon bo'lish usuliga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- 1) spot tipidagi valuta operatsiyalari;
- 2) muddatli valuta operatsiyalari:
 - Forvard tipidagi valuta operatsiyalari;
 - valuta opsionlari bilan bog'liq valuta operatsiyalari;
 - valuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valuta operatsiyalari.

- 3) svop tipidagi valuta operatsiyalari.

SPOT operatsiyalari yoki kassa bitimlari (naqd bitimlar).

SPOT operatsiyasi – bu bitim kunini hisobga olmagan holda ikki ish kuni davomida valuta ayirboshlash bo'yicha operatsiyadir.

Spot-kurs – bu spot bitim tuzilayotgan vaqtda bir mamlakat valutasini boshqa bir mamlakat valutasidagi bahosidir. Spot-kurs uning suzib yuruvchi yoki qat'iy belgilangan rejimda ishlashdan qat'iy nazar operatsiya amalga oshirilayotgan vaqtda milliy valutaning chet ellardagi qadri qancha ekanligini o'zida aks ettiradi.

Asosan spot bitimlarining kursi – bu telegraf o'tkazmasi kursidir. Spot-kurs ikki xil yo'l bilan aniqlanadi:

- valuta birjasida dilerlarning yuzma-yuz savdo qilishi orqali;
- birjadan tashqari savdoda dilerlarning o'zaro telefon orqali savdosida.

Valuta kursi sotib olish kursi (xaridor kursi) va sotish kursi (sotuvchi kursi) ga bo'linadi. Valuta kotirovkasini amalga oshiruvchi bank valuta bitimini har doim o'zi uchun foydali kurs bo'yicha amalga oshiradi. Banklar xorijiy valutani har doim qimmatga sotib (sotish bahosi), arzonroqqa sotib olishga (sotib olish bahosi) harakat qiladilar. Bu valuta-tijorat operatsiyalarning asosiy tamoyilidir.

Sotish va sotib olish kurslari orasidagi farq marja deb atalib, bank xarajatlarini qoplash va qisman valuta riskini sug'urtalashga yo'naltiriladi. Agar bank amalga oshirilgan bitimni xuddi shu

kurslar asosida taklif qilingan kontrbitim hisobiga qoplasa, u marja hisobiga foyda ko'radi. Shuning asosida banklar valuta operatsiyalari bo'yicha mijozlarni ko'proq jalb qilishdan manfaatdor.

Spot operatsiyalaridan keladigan foyda marjaga (albatta komissiya haqini chegirib tashlasa) teng bo'lishi ham mumkin.

Umuman olganda, spot operatsiyalari bir tomondan qisqa vaqtda yuqori foyda olishga imkon bersa, ikkinchi tomondan mavjud valuta operatsiyalari orasida risk darajasida eng yuqori bo'lgan valuta operatsiyasi hisoblanadi. Sababi shuki, spot operatsiyalarini amalga oshirish vaqti qisqa bo'lganligi tufayli, odatda, u sug'urta qilinmaydi. Shuning uchun banklar payshanba va juma kunlari spot operatsiyalarini katta hajmda amalga oshirmaydi, chunki bunda spot operatsiyasi muddati uzayib ketadi. Xuddi shu sababga asosan, banklar uzun va qisqa valuta pozitsiyalarini ham maksimal darajada qisqartirishga harakat qiladi.

Naqd valuta operatsiyalari asosan spot shartlarida amalga oshiriladi. Buning mohiyati shundaki, valuta sotish-sotib olish bitimi tuzilgandan keyin tuzilayotgan vaqtdagi kurs bo'yicha ikkinchi ish kunida naqd valuta yetkazib beriladi. Bu operatsiyalar keng tarqalgan bo'lib, jami valuta bitimlarining 90 foizga yaqinini tashkil etadi.

Valuta bozorining ishtirokchilari bo'lgan banklar o'z nomidan o'zi uchun, yana o'z nomidan mijozlari uchun valuta sotib olishi yoki sotishi mumkin. Agar banklar o'z hisobiga valutani sotsa yoki sotib olsa, bu operatsiyalar ular yoki foyda olish uchun, yoki o'z likvidligini ushlab turish uchun, yoki chet eldan bank uchun jihozlar sotib olish va boshqa maqsadlar uchun amalga oshiradi.

Spot bitimlari bo'yicha valuta oluvchi bank tomonidan ko'rsatilgan hisobvaraqlarga yetkazib beriladi. Bitimda ko'rsatilgan kurs spot-kurs deyiladi. Xuddi mana shu kurslar asosida valuta bozoridagi muddatli kurslar ham, valutani yetkazib berish bo'yicha qisqaroq muddatli bir martalik bitimlar uchun kurslar ham aniqlanadi.

Spot operatsiyalari yordamida banklar o'z mijozlarining chet el valutasidagi ehtiyojlarini, kapitallarning harakatini, shu-

ningdek, bir valutaning boshqa valutaga oqib o'tishini ta'minlaydi, arbitraj va spekulativ operatsiyalarni amalga oshiradi. Spot operatsiyalari risk darajasi eng yuqori operatsiya hisoblanadi.

Foyda olish uchun banklar arbitraj va spekulativ bitimlarini amalga oshirish mumkin. Arbitraj bitimlar turli valuta bozorlarida mavjud bo'lgan valuta kurslari o'rtasidagi farqlardan foyda olish maqsadida chet el valutasini qayta sotish (sotib olish) bo'yicha tuzilgan qarshi bitimdir. Agar valuta bir valuta bozori-dan sotib olinsa va boshqa valuta bozorida sotilsa — bu keng tarqalgan arbitraj deyiladi. Agar foyda vaqt o'tishiga qarab kurslar o'zgarishidan yuzaga keladigan bo'lsa, vaqtinchalik arbitraj deyiladi.

3.3. Muddatli valuta operatsiyalari va ularning amalga oshirilishi

Muddatli valuta operatsiyalari — bitim tuzilgandan keyin bitimdagi kurs bo'yicha kelishilgan xorijiy valutani ma'lum muddat o'tgach yetkazib berishga kelishiladigan valuta bitimlaridir. Bundan muddatli valuta operatsiyalarining ikki xususiyati kelib chiqadi:

1. Bitim tuzilishi bilan bajarilishi o'rtasida ma'lum davr-vaqt bor.

2. Muddatli valuta operatsiyalari bo'yicha valuta kursi ma'lum muddat o'tganidan keyin foydalanilsa ham, bitim tuzilayotgan paytda belgilanadi.

Odatda, bu operatsiyalar valuta kursi o'zgarishidan himoyalaniş yoki qo'shimcha foyda olish maqsadida amalga oshiriladi. Muddatli valuta operatsiyalarining quyidagi turlari mavjud:

- forvard operatsiyalari;
- fyuchers operatsiyalari;
- opsionlar bilan operatsiyalar;
- SVOP operatsiyalari;
- valuta arbitraji.

Forvard operatsiyalari. Muddatli valuta operatsiyalari deb belgilangan, ammo ikki ish kunidan oshiq bo'lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi.

Forvard valuta bitimi — bu voz kechib bo‘lmaydigan va bank bilan uning mijozi o‘rtasidagi ma’lum miqdordagi kelishilgan valutani bitim tuzilayotgan vaqtda qayd qilingan ayirboshlash kursida kelgusi muddatlarda amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishidir. Bu vaqt aniq bir sana yoki ikki sana orasida namoyon bo‘ladi. Forvard valuta bitimining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

a) bu voz kechib bo‘lmaydigan va majburiy shartnomadir. Bitim tuzilgandan keyin mijoz bitimdan voz kechishga haqqi yo‘q. Mijoz shartnomada ko‘rsatilgan chet el valutasini sotib olishi yoki sotish shart;

b) bitim chet el valutasidagi aniq bir miqdorni tashkil etadi. Mijoz bitimda ko‘rsatilgan miqdordan ko‘proq valutani sotib olishga ham, sotishga ham haqqi yo‘q;

v) bitim kelishilgan aniq bir sanada bajarilishi shart. Mijoz forvard bitimining bajarilish sanasini uzoqlashtira yoki yaqinlashtira olmaydi.

Agar bank sotish va sotib olish haqida bitim tuzsa, u faqat mijoz bilan kelishmay, balki tashqi valuta bozori bilan aloqa qiladi. Bu shuni anglatadiki, bank mijoz yoki bir qancha mijozlar bilan tuzgan forvard bitimlari uchun, albatta, valuta bozori orqali valutaning sotib olinishi yoki sotilishi qoplanishini ta’minlashi kerak. Dilerning pozitsiyasi har qanday ma’lum kun yoki davr oxirida doimo teng holga kelishi shart. Bu shuni anglatadiki, sotib olinayotgan va sotilayotgan valutaralar balanslashtiriladi.

Agar mijoz qandaydir sabab bilan bitim shartlarini bajara olmagan holda bank, baribir, bozor bilan tuzgan bitimini bajarishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun bank mijozidan bitimda kelishilgan barcha shartlar bajarilishini talab qilishi shart. Mijoz shartlarni bajara olmagan taqdirda bank bitimning muddatini «uzaytiradi» yoki «yopadi».

Forvard valuta bitimi qat’iy belgilangan yoki opsionli bo‘ladi.

a) qat’iy belgilangan valuta bitimi — kelgusida aniq bir sanada bajarilishi shart bo‘lgan bitim.

b) opsiyonli valuta bitimi — mijozning xohishiga ko‘ra yoki bitim tuzilgan vaqtdan uning bajarilishigacha bo‘lgan davr ichida xohlagan kunda amalga oshiriladi.

Forward kursi spot-kursidan forward marjasi miqdoriga farq qiladi. Marja mukofot ko‘rinishida bo‘lishi mumkin, bunda forward-kurs spot-kursdan yuqori bo‘ladi; yoki diskont (chegirma) ko‘rinishida bo‘lishi mumkin, bunda forward kurs spot-kursdan past bo‘ladi.

Forward valuta bitimi asosan to‘lovlarni sug‘urtalash uchun qo‘llaniladi.

Muddatli bitimlar bo‘yicha son ko‘rinishida kotirovkalandigan valuta kurslari autrayt deyiladi.

Forward yoki muddatli bitimlar xalqaro savdoda tijorat operatsiyalarini amalga oshirayotganda valuta riskidan sug‘urtalanish imkonini beradi. Tijorat operatsiyalarini sug‘urtalashning mohiyati shundaki, tashqi savdo, tijorat banklari bilan birga valuta kursi harakatidan salbiy natijalarni, ya‘ni riskni yo‘qotish maqsadida valutani sotish-sotib olish bitimi ham tuziladi.

Xorijiy valutadagi muddatli operatsiyalar zaruriyati, shuningdek, turli nosavdo, moliya operatsiyalarini sug‘urtalash bilan ham shartlanadi:

- xorijiy valutadagi qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalar, pul bozoridagi depozitlar, xorijdagi filiallarga berilgan qarzarlar, to‘g‘ri investitsiyalar va boshqalar valuta aktivlarini tashkil etadi va ular mos valutani muddatli, sotish yo‘li bilan sotilishi kerak;

- chet el valutasida xorijiy kapitallar bozoridan olingan qarzarlar valuta passivlarini tashkil etadi va sug‘urtalash mos valutani muddatga sotish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Chet el valutasidagi muddatli bitimlar quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- tijorat maqsadlarida valuta konversiyasi, ya‘ni valuta riskini sug‘urtalash uchun valuta tushumlarini oldindan sotish yoki to‘lovlar uchun xorijiy valutani sotib olish;

- xorijga portfel va to‘g‘ri investitsiyalarni, ular amalga oshirilgan valuta kursining mumkin bo‘lgan pasayishi natijasidan ko‘riladigan zararlardan sug‘urtalash;

– kurslar o‘rtasidagi farqdan spekulativ foyda olish.

Muddatli valuta operatsiyalarini konversiya, sug‘urtalash va chayqovchilik operatsiyalarga bo‘lish mumkin. Ularning barchasida chayqovchilik elementi mavjud.

Fyuchers operatsiyalari. Muddatli valuta operatsiyalaridan yana biri bo‘lgan moliyaviy fyuchers bitimlari 1970-yilda xalqaro valuta bozorida birinchi bor qo‘llanilishining o‘zidayoq keng tarqaldi. Bu operatsiya aktivlarni bitim imzolanayotgan paytdagi narxlar bo‘yicha biror vaqt o‘tishi bilan sotib olishni yoki sotishni ifodalaydi.

Bu oldi-sotdi operatsiyasi fyuchers shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Unda operatsiyaga muddati, mijozlarning hisob raqami, qatnashchilari, kontragentlar, oldi-sotdi obykti, mol yetkazib berish muddati, mol miqdori va narxlari ko‘rsatiladi.

Valuta fyuchersi esa kelgusi valuta oldi-sotdisiga tuzilgan shartnoma bo‘lib, u bo‘yicha sotuvchi ko‘rsatilgan muddatda o‘rnatilgan kurs bo‘yicha aniq bir valuta miqdorini sotish, xaridor esa mazkur valutani shu shartlarda sotib olish majburiyatlarini oladi.

Fyuchers shartnomasi uning bajarilish muddati yetib kelgunga qadar xaridor tomonidan sotilib, keyingi xaridorlarga ham qayta sotilishi mumkin. Shuning uchun fyucherslar savdosida:

1. Valuta bo‘yicha kelajakda valuta kursi o‘zgarishini ko‘ra bilish;

2. Fyuchers amal qilish muddatida doimo kurs o‘zgarishlarini kuzatib borish va noxush holat ko‘rina boshlanganda undan o‘z vaqtida xalos bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fyuchers shartnomalari ikki vazifani amalga oshiradi:

a) investorlarga bozorda valuta kursining noxush o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lgan riskni xeirlashga imkon beradi;

b) birjadagi chayqovchilarga bundan foyda olishga imkon beradi.

Fyuchers operatsiyalaridan olinadigan foyda marja deb ham yuritiladi.

Fyuchers bitimlari forvard bitimlaridan farq qilgan holda:

– juda oddiy bekor qilinadi;

– valutaning qat’iy belgilangan summasida tuziladi;

– rasmiy birjalarda sotiladi va bunda faqat og‘zaki oldi-sotdi qilish tan olingan;

– Fyuchers sotuvchilari fyuchers majburiyatlarining bajarilishini kafolatlash uchun birja dilerlariga pullik marjali to‘lashni ko‘zda tutishlari kerak.

Opsionlar bilan bitimlar. Muddatli valuta operatsiyalarining yana bir turi – bu valuta opsionlaridir.

Opsion – lotincha so‘z «optio»dan olingan bo‘lib, «tanlov» ma‘nosini beradi. Opsion – bu ma‘lum bir aktivni shartnomada qayd etilgan bahoda, oldindan kelishilgan sanada yoki kelishilgan ma‘lum bir davr ichida sotib olish yoki sotish huquqini (sotib oluvchi opsioni uchun) boshqa shaxsga berilishi haqidagi ikki taraflama shartnomadir.

Mazkur shartnoma bo‘yicha bir broker (diler) yozib, opsionni boshqa brokerga beradi, boshqa broker esa uni sotib oladi va opsion shartlari ko‘zda tutgan muddat ichida uni («strayk» baho) o‘rnatilgan kurs asosida opsionni yozib bergan shaxsdan (sotib oluvchi opsioni) ma‘lum bir miqdordagi valutani sotib olish yoki unga bu valutani sotish (sotuvchi opsioni) huquqiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, opsion sotuvchisi valutani sotishga (yoki sotib olishga) majbur, opsionni sotib oluvchi shaxs esa buni qilishi shart emas. Ya‘ni u valutani sotib olishi yoki sotib olmasligi (sotishi yoki sotmasligi) mumkin. Demak, opsion sotib oluvchini almashuv kursini kelishilgan «strayk» bahodan oshiq yoqimsiz o‘zgarishidan himoya qiluvchi, valuta risklarini sug‘urta qilish shaklidir. Agar almashuv kursi «strayk» bahodan oshib, ijobiy tomonga o‘zgarsa, opsion daromad olish imkonini beradi.

Opsionning «strayk» bahoga nisbatan almashuv (joriy) kursining o‘sishi «apsayd» (inglizcha «upside» – yuqori tomoni) deb ataladi. Uning «strayk» bahoga nisbatan pasayishi esa «daun-sayd» (inglizcha «downside» – pastki tomoni) deb ataladi.

Opsionning 3 turi mavjud, ya‘ni:

1. Sotib olishga opsion («call option») – bu opsionni sotib oluvchi shaxsning, valuta kursining o‘shish xavfidan (yoki ma‘lum bir sanaga hisob-kitob qilishdan) o‘zini himoya qilish maqsadida

uning mazkur valutani sotib olish (yoki hisob-kitobni amalga oshirish) huquqidir (majburiyati emas).

2. Sotishga opsiyon («put option») – bu opsiyonni sotib olgan shaxsning valuta qadrsizlanishidan oʻzini himoya qilish maqsadida shu opsiyonni sotishga (yoki maʼlum sanaga hisob-kitob qilish) huquqini (majburiyatini emas) bildiradi.

3. Opsiyon stellaj (nemischa «stellage») yoki («put-call option») – bu opsiyon egasiga valutani bazis bahosi boʻyicha sotib olish yoki sotish huquqini beradi (bir vaqtning oʻzida sotib olish va sotishni emas). Opsiyonda uning muddati koʻrsatiladi.

Opsiyonning muddati – bu sana yoki maʼlum bir davr boʻlib, sana yoki davr muhlati oʻtib ketsa, mazkur opsiyonni ishlatib boʻlmaydi.

Opsiyonning 2 andozasi mavjud: a) yevropacha va b) amerikacha.

Yevropacha andozasi – bunda opsiyon faqat maʼlum bir belgilangan sanaga ishlatilishi mumkin.

Amerikacha andozasi – bunda opsiyon davrining istalgan paytida opsiyon ishlatilishi mumkin.

Opsiyon oʻz kursiga ega. Opsiyon kursi – bu strayk bahodir (inglizcha «strike price»). Bu valutani, yaʼni opsiyon aktivini sotib olish («put») yoki sotish («call») mumkin boʻlgan bahosidir.

Opsiyonga egalik qilish uni sotib olgan shaxsga oldindan bilib boʻlmaydigan kelgusidagi oʻzgarishlardan oʻzini himoya qilish imkonini beradi. Opsiyon shartnomasi opsiyon egasi uchun ijro etilishi majburiy boʻlgan shartnoma emas. Shuning uchun ham, agar opsiyon amalga oshmasa, egasi uni berib yuborishi yoki ishlatmasdan qoldirishi mumkin.

Svop shartnomalari. Svop (ingl. «swap», «swop») – almashuv, almashtirish maʼnosini bildiradi. Svop operatsiyasi – bu hisob-kitob sanalari turlicha boʻlgan, taxminan teng hajmdagi xorijiy valutaning bir vaqtning oʻzida sotilishi va sotib olinishidir. Svop valuta operatsiyasi valutaning «spot» shartlari asosida milliy valuta evaziga sotib olinishi va keyinchalik uning qayta sotib olinishini koʻzda tutadi. Demak, svop operatsiyasi – bu valutaning miqdor jihatidan teng summalarga, ular boʻyicha hisob-kitoblarni turli sanalarda amalga oshirish sharti bilan bir vaqt-

ning o'zida sotib olinishi va sotilishidir. Svop — bu so'nggi sotuv kafolati bilan valutani vaqtinchalik sotib olishdir.

Amaliyotda svop bir vaqtning o'zida valuta almashuvi bilan bog'liq ikki alohida shartnomaning imzolanishini ko'zda tutadi. Bu shartnomalar qarama-qarshi yo'nalishlarga va turli hisob-kitob sanalariga ega. Bu shartnomalarning biri bo'yicha birinchi valuta ikkinchi valuta hisobiga ma'lum bir sanada yetkazib berish sharti bilan sotib olinadi. Ikkinchi shartnoma bo'yicha esa birinchi valuta ikkinchi valutaga boshqa sanada yetkazib berish sharti bilan sotib yuboriladi.

Svop valuta operatsiyalarini ko'p hollarda banklar amalga oshiradi. Bunda ikki bank orasida ikki valuta bilan almashuv ma'lum bir davrda bo'lib, shartnoma oxirida dastlabki valutar banklarga qaytariladi. Valutar bilan almashuv bir vaqtning o'zida tuziladigan, ammo valutarlarning turli sanalarda yetkazib berilishi ko'zda tutilgan ikki qarama-qarshi shartnoma shaklida amalga oshadi: «spot» bir shartnoma bo'yicha va «forvard» boshqa shartnoma bo'yicha. Buning natijasida ikkala bank ham «spot» shartlari asosida sotib olingan valutani to u «forvard» shartlari asosida sotilgunga qadar o'z ixtiyoriga oladi. Barqaror iqtisodiyot va kapitallarning erkin harakati sharoitida forvard bozoridagi baholar foizlar farqlariga bog'langan.

Svop shartnomalarining boshqa shartnomalarga nisbatan qulayligi shundaki, ular valuta riskini to'la bartaraf etadi. Turli sanalarda sotib olingan va sotilgan valutar teskari svopni tashkil etgan holda sotilishi yoki sotib olinishi mumkin. Shuning uchun hisob-kitob sanalaridagi farqlar hisobiga qoplanmagan pozitsiya hosil bo'lsa, u osongina to'la qoplanishi yoki kamaytirilishi mumkin. Svop — bu joriy foiz stavkalari ta'siri ostida, bir valutaning o'zgarib turadigan forvard marjasini boshqa valuta forvard marjasiga qanday ta'sir etishi yuzasidan turli fikrga ega bo'lgan brokerlarning (diler) o'zaro aloqasidir.

Amaliyotda foiz stavkasining svopi va valuta svopi farqlanadi. Foiz stavkasining svopi — bu kreditning asosiy shartli summasi bo'yicha AQSH dollaridagi foiz to'lovlari bilan ma'lum bir muddatga ikki taraf orasida ayirboshlash to'g'risidagi kelishuv-

dir. «Kreditning asosiy summasi» yoki «prinsipial» atamasi svopni belgilovchi nazariy asosga tegishlidir. Shunday qilib, kreditning asosiy shartli summasi — bu foizlar nisbatan hisoblanadigan oddiy summadir. Asosiy summa bilan almashilmaydi. Muddat bir yilgacha muddatdan to 15 yilgacha bo'lishi mumkin. Biroq aksariyat shartnomalar 2 yildan 10 yilgacha muddatga tuziladi.

Foiz to'lovlari svopining asosiy 2 shakli mavjud bo'lib, bular kuponli svop va bazaviy svop hisoblanadi. Kuponli svopda ishtirokchi taraf, shartnoma paytida ma'lum bir g'aznachilik obligatsiyasiga nisbatan marja sifatida hisoblangan, qat'iy belgilangan stavkani to'laydi. Shu vaqtning o'zida boshqa taraf shartnoma muddati davrida o'rnatilgan indeksga nisbatan davriy asosda o'zgarib turadigan, erkin o'zgarib turuvchi stavkani to'laydi.

Bazaviy svopda esa shartnomada ishtirok etuvchi ikki taraf turli stavkalarga asoslangan, erkin o'zgarib turuvchi foiz to'lovlari bilan o'zaro almashadilar. Asosan ushbu nisbatan ochiq (to'g'ri) mexanizmdan foydalangan holda, foiz stavkasining svopi obligatsiyalar chiqarilishi, aktivlar, passivlar va har qanday naqd pul oqimining bir turdagi ko'rinishdan boshqa turdagi ko'rinishga hamda ba'zi bir variantlarda shartnoma tarkibidagi bir valutani boshqa valutaga transformatsiya qiladi.

Svop bozori moliyaviy resurslar manbalari orasidagi aloqaning ulkan (global) hajmga oshishiga sabab bo'ldi. Institutlar tomonidan moliyaviy qarorlar qabul qilinishining tahlil etish uslublarini keskin o'zgartirib yubordi. Bu, albatta, svoplarning aktivlar va majburiyatlarini boshqarishning yangi samarali yo'llarini ta'minlash bilan ham bog'liq.

Valuta svopi. Valuta svopi foizli svop foydalangan uslub orqali naqdli oqim tarkibini qat'iy belgilangan stavkadan erkin suzuvchiga o'zgartirishi hamda svop mexanizmi orqali valutaning o'zini ham o'zgartirishi mumkin. Bunday tusdagi shartnoma foizli-valuta svopi yoki oddiy valuta svopi deb ataladi. Foiz svopi va valuta svopi orasidagi asosiy farq shundaki, valuta svopi nafaqat

foiz to'lovlari bilan almashinishni, balki asosiy summa (prinsipial) bilan birlamchi va yakuniy almashuvni ham o'z ichiga oladi.

Birlamchi almashuv svopning boshida, yakuniy almashuv esa svop muddatining tugash sanasida amalga oshadi. O'zining bu mazmuniga ko'ra valuta svopi kompensatsion kredit yoki parallel zayomlarga juda o'xshab ketadi.

Svoplardan foydalanish keng tarqalgan: bu endi bir nechta tanlov instrumentlaridan iborat ixtisoslashgan moslama emas. Svoplardan kapital qiymatini pasaytirish, risklarni boshqarish va yalpi iqtisodiyotda katta miqyosda ishlatish maqsadida foydalaniladi.

Svoplar jahonning turli kapitallar bozorlarida arbitrajni olish uchun ham qo'llaniladi. Qarz oluvchilar va kreditorlar sintetik instrumentlarni yaratib, yangi bozorlarga svop texnologiyasidan foydalangan holda kirib boradilar. Masalan, yangi, «potolok/pol» singari kelishuv ko'rinishidagi opsion xarakteristikallari bilan svop tarkibiy tuzilmalari va svop hosilalari ishlab chiqilgan edi.

Valuta arbitraji — bu foyda olish maqsadida valutilarning oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiyalardir. Arbitraj 2 shaklda bo'ladi: a) valuta arbitraji va b) foiz arbitraji.

Valuta arbitraji (fransuzcha «arbitrage») — bu valutaning, uning bir vaqtning o'zida sotilishini hisobga olgan holda, valuta kurslari farqlari sifatida foyda olish maqsadida sotib olinishidir.

Oddiy valuta arbitraji — bu bir xorijiy valuta va o'zbek so'mi bilan yoki ikki xorijiy valutilar bilan amalga oshiriladigan arbitrajdir.

Murakkab valuta arbitraji — ko'p turdagi valutilar bilan amalga oshiriladigan arbitrajdir.

Muvaqqat valuta arbitraji — ma'lum bir vaqt davomida valuta kurslarining farqi sifatida foyda olishga qaratilgan operatsiyadir. U o'z ichiga quyidagi operatsiyalarni oladi:

- valutaning birinchi spot-kursi asosida sotib olinishi;
- depozitning ochilishi;
- valutaning depozitda saqlanishi;
- valutaning depozitdan olinishi;
- valutaning ikkinchi spot-kurs asosida sotilishi.

Arbitraj ko'p hollarda spread shartnomalarining yakuni sifatida maydonga chiqadi. Spread shartnomasi doimo bir vaqtning o'zida bir valutaning sotib olinishi va boshqa bir valutaning sotilishini ko'zda tutadi. Bunday valutar kurslari albatta birga, ammo turli sur'atlarda ko'tariladi yoki pasayadi. Bunda diler bir operatsiyada pul yo'qotishini va boshqa bir operatsiyada foyda olishini hisobga oladi.

Fazoviy valuta arbitraji — bu turli valuta bozorlarida (turli birjalarda), mazkur valuta kursi farqlari hisobiga foyda olish maqsadida o'tkaziladigan operatsiyadir. Boshqacha aytganda, bir vaqtning o'zida bir birjada valuta sotib olinadi va boshqa birjada shu valuta nisbatan yuqori kursda sotiladi.

Fazoviy valuta arbitraji o'z ichiga quyidagi operatsiyalarni oladi:

1. Birinchi spot-kursi asosida valutani sotib olish.
2. Sotib olingan valutaning boshqa joyga o'tkazilishi.
3. Valutaning ikkinchi spot-kursi asosida sotilishi.
4. Valutaning sotilishidan olingan pulni boshqa joyga o'tkazish.

Foiz arbitraji — turli valutar bo'yicha foizlar farqi sifatida foyda olish maqsadida xo'jalik subyektlarining (arbitrajyorlarning) o'z qisqa muddatli aktivlari va passivlari valuta tarkibini tartibga solishga qaratilgan valuta (konversiya) va depozit operatsiyalarini o'zida mujassam etgan shartnomadir. Foiz arbitraji pul bozorida bir vaqtning o'zida pullarning ma'lum bir foizga olinishi va nisbatan yuqori foiz asosida kreditga berilishi shaklida keng qo'llaniladi. Foiz arbitraji ikki shaklga ishlatiladi: a) forvardli qoplanish bilan va b) forvardli qoplanishsiz.

Forvardli qoplanish bilan foiz arbitraji — valutaning spot-kursi asosida sotib olinishi, muddatli depozitga joylashtirilishi va shu vaqtning o'zida forvard kursi bo'yicha sotib yuborilishidir. Foiz arbitrajining bu shakli valuta risklaridan holi. Bu operatsiya bo'yicha foyda manbayi, forvard marjasi hajmi bilan belgilanadigan, valutar bo'yicha foizlar farqi sifatida va valuta risklarini sug'urta qilish qiymati hisobiga olinayotgan daromadlar darajalarining farqi hisoblanadi.

Tayanch iboralar: valuta bozori, milliy, mintaqaviy, jahon valuta bozorlari, kross-kurs, mukofot, diskont, pozitsiya, spot, forvard, fyuchers, arbitraj, svop,

Nazorat uchun savollar

1. «Valuta bozori» tushunchasining mazmuni.
2. Valuta bozorining subyektlari. Valuta bozorining turlari.
3. Milliy valuta bozorlari.
4. Hududiy valuta bozorlari.
5. Jahon valuta bozorlari.
6. «Valuta operatsiyalari» tushunchasining mazmuni.
7. Valuta operatsiyalarining asosiy turlari.
8. Spot operatsiyalari va spot-kurslari.
9. Mukofot va diskontlar to'g'risida tushuncha.
10. Forvard operatsiyalari va ularni qo'llash doirasi.
11. Fyuchers operatsiyalari.
12. Opsion shartnomalari.
13. Svop operatsiyalari.
14. Tijorat banklari va markaziy banklarning valuta operatsiyalaridagi o'zaro farqlar.

IV bob. VALUTA SIYOSATI VA UNING ASOSIY SHAKLLARI

4.1. Valuta siyosati va uning mohiyati

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro valuta munosabatlari bozor va davlat tomonidan tartibga solinadi.

Valuta bozorida valutaning talab va taklifi hamda ularning kurslari nisbati shakllanadi. Bozor tomonidan tartibga solish qiymat qonuni, talab va taklif qonunlariga bo'ysunadi. Valuta bozorlarida raqobat sharoitida bu qonunlarning harakati valuta almashuvining harakati tovarlar, xizmatlar, kapitallar hamda kreditlar harakati bilan bog'liq bo'lgan jahon xo'jaligining xalqaro valuta ehtiyojlari oqimlarining muvofiqligini ta'minlaydi. Bozorlardagi baholar mexanizmi va valuta kurslarining o'zgarishi sabablari orqali iqtisodiy agentlar valuta xaridorlarining ehtiyojlari va taklifining imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot oladilar.

Shunday qilib, bozorni valuta operatsiyalarining holati haqida axborot beruvchi manba sifatida ham ko'rish mumkin. Lekin davlat qadim zamonlardan valuta munosabatlariga aralashib kelmoqda, avval bilvosita, keyinchalik esa bevosita (davlatlarning jahon xo'jaligi aloqalarida o'rinlarining muhimligini hisobiga olgan holda). XX asrning 70-yillarida oltin standarti bekor qilinishi bilan oltin pullarning valu-ta kursini tartibga soluvchi sifatida ishlashi to'xtatildi. Kurslarning kuchli tebranishlari va valuta inqirozlari iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarga ega bo'lib, milliy va jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etdi.

Valutaning bozor va davlat tomonidan tartibga solinishi bir-birini to'ldirib keladi. Bozor tomonidan tartibga solish esa valuta munosabatlarini tartibga solishdagi salbiy oqibatlarning oldini olishga qaratilgan. Bu ular o'rtasidagi foyda va zararlar bilan belgilanadi. Inqirozlar, urushlar, urushdan keyingi vaziyatlar-

da davlat tomonidan tartibga solish ustunlik qiladi. Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi bilan esa valuta operatsiyalarining erkinligi vujudga kelib, bu sohada bozor raqobati qo'llab-quvvatlanadi. Ammo davlat har doim valuta munosabatlari ustidan nazorat qilish va uni tartibga solish maqsadida o'z valuta nazoratini saqlab qoladi.

Valuta siyosati bozor iqtisodiyotini tartibga solish tizimida muhim o'rin egallaydi. Valuta siyosati — mamlakatning joriy strategik maqsadlarga muvofiq xalqaro valuta va boshqa iqtisodiy munosabatlari sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasidir. U iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan, ya'ni iqtisodiy o'sishining barqarorligi, inflyatsiya va ishsizlikning o'sishini to'xtatish, to'lov balansi tengligini ushlab turish va boshqalarni ta'minlashga qaratilgan.

Valuta siyosatining yo'nalishi va shakllari mamlakatning valuta bo'yicha iqtisodiy vaziyati, jahon xo'jaligi evalutsiyasi, jahonda ishlab chiqarish kuchlari joylashtirilishiga ko'ra aniqlanadi. Har xil taraqqiyot bosqichlarda birinchi o'rinda valuta siyosatining aniq maqsad va masalalari chiqadi. Bular:

- valuta inqirozini bartaraf etish va barqarorligini ta'minlash;
- valuta cheklovlari;
- valutani erkin ayirboshlashga o'tish;
- valuta operatsiyalarining erkinligi va boshqalar.

Hukumatning valuta siyosati valuta qonunchiligi bilan rasmiylashtiriladi. Bu qonunchilik o'z ichiga mamlakat ichida va tashqarisida valuta qimmatliklari bilan operatsiyalarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar majmuasi, shuningdek, valuta muammolari bo'yicha davlatlararo kelishuvlar (ikki tomonlama va ko'p tomonlama) ni oladi.


Valuta siyosatini amalga oshirish yo'nalishlaridan biri — bu valutani tartibga solishdir. Valutani tartibga solish valuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va xalqaro hisob-kitoblarni davlat tomonidan aniq belgilab berishdir. Bu, o'z navbatida, milliy, davlatlararo va hududiy darajada bajarilishi mumkin.

Valuta siyosati valuta muammolari bo'yicha qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

4.2. Valuta siyosatining maqsadi, vazifalari va asosiy shakllari

Valuta siyosatining maqsadi zaruriy iqtisodiy erkinlik, ijtimoiy xavfsizlik hamda iqtisodiy rivoj va o'sishni ta'minlovchi bozor iqtisodiyotini yaratishdan iborat bo'lgan o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim qismi hisoblanadi.

Aksariyat rivojlangan, industrial mamlakatlarda Markaziy bank pul-kredit siyosatini yurituvchi asosiy organ sanaladi. Markaziy bankning pul-kredit va valuta siyosati birlamchi hisoblanadi. Demak, Markaziy bankning valuta siyosati pul-kredit siyosatining asosiy klassik instrumentlaridan biri bo'lib, mamlakatdagi valuta munosabatlarini tartibga soluvchi va amalga oshiruvchi tadbirlarning majmuyidir. Valuta siyosati o'zi ham maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi.



5-chizma. Valuta siyosatining tarkibi

Chizmadan ko'rinib turibdiki, valuta siyosati maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- diskont siyosati;
- deviz siyosati.

Diskont (foiz stavkasi) siyosati – Markaziy bank hisob stavkasini o'zgartirish yo'li bilan milliy valuta kursiga ta'sir etish maqsadida amalga oshiradigan valuta siyosati shaklidir.

Deviz siyosati Markaziy bank tomonidan xorijiy valuta (deviz) ning oldi-sotdisi orqali milliy valuta kursiga ta'sir o'tkazish metodidir. Markaziy bank milliy valuta kursini oshirish uchun chet el valutasini ayirboshlaydi va aksincha, milliy valuta kursini tushirish maqsadida chet el valutasini sotib oladi. Deviz siyosatining milliy valuta kursiga ta'sir etishining quyidagi instrumentlari mavjud. Bular:

- valuta intervensiyasi;
- devalvatsiya;
- revalvatsiya;
- valuta rezervlarini diversifikatsiyalash.

Valuta intervensiyasi Markaziy bank deviz siyosatining keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Markaziy bankning milliy valuta kursiga ta'sir etish maqsadida valuta bozorida chet el valutarini sotib olish yoki aksincha, sotish valuta intervensiyasi deyiladi.

Hozirgi davrda valuta intervensiyasidan ko'zlangan asosiy maqsad valuta kursining qisqa vaqt oralig'ida kutilmaganda yuzaga keladigan keskin tebranishlariga barham berish hisoblanadi.

Deviz siyosatining instrumentlaridan yana biri devalvatsiya-dir. *Devalvatsiya* – (lotincha so'zdan olingan bo'lib, «qadrining tushishi» degan ma'noni anglatadi) milliy valutaning chet el valutariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadri tushishidir. Inflyatsiyaning kuchayishi va mamlakat to'lov balansining salbiy qoldiqqa ega bo'lishi devalvatsiyaning kelib chiqishiga sabab hisoblanadi. Uning yuzaga kelishida quyidagi 2 xil sabab qayd qilinadi:

- eksportni rag'batlantirish;
- milliy valutaning rasmiy kursi bilan uning real xarid quvati o'rtasida sezilarli tafovutning paydo bo'lishi.

Revalvatsiya – (lotincha so'zdan olingan bo'lib, «qadrini oshirish» ma'nosini anglatadi) milliy valutaning chet el valutariga erkin, xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrining

oshishidir. Uning kelib chiqishiga sabab inflyatsiyaning nihoyatda past darajada bo'lishi va uzoq vaqt davomida mamlakat to'lov balansining aktiv qoldiqqa ega bo'lishi, milliy firma va kompaniyalarning jahon savdo bozorida raqobatbardoshligidadir.

Jahon amaliyotida revalvatsiya devalvatsiyaga nisbatan kam qo'llaniladi, bu jarayonni faqat dunyoning eng rivojlangan industrial mamlakatlari amaliyotidagina uchratish mumkin.

Deviz siyosatining yana bir muhim instrumentlaridan biri — bu valuta rezervlarini diversifikatsiya qilishdir.

Valuta rezervlarini diversifikatsiya qilish deganda bir vaqtning o'zida bir necha valutada rezervlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu valuta rezervlarining tarkibi barqaror bo'lgan valutarlar hisobidagina amalga oshiriladi.

4.3. O'zbekistonda valuta siyosatining asosiy yo'nalishlari

Fan-texnika taraqqiyotining o'ziga xosligi, ixtisoslashuv va u bilan bog'liq xalqaro mehnat taqsimoti haqida milliy ishlab chiqarishlar kooperatsiyaning yanada chuqurlashuvini talab qilmoqda. Buning oqibatida esa xalqaro savdo rivojlanib, davlatlar o'rtasida kredit-moliya, valuta munosabatlari yanada takomillashmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, keyingi yillarda tovarlar eksportining sur'atlari sanoat ishlab chiqarish sur'atlariga nisbatan sezilarli ravishda o'sgan.

Ustuvor yo'nalishlar eksportga yo'naltirilgan va asosiy tarmoqlarga, kichik va xususiy, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan tuzilmasi qayta o'zgarishlar va iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, respublikada o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Tanlangan ustuvor yo'nalishlarning to'g'riligi shu bilan tasdiqlandiki, jahon bozorlarini qamrab olgan salbiy jarayonlardan saqlangan holda ichki moliya bozorini har qanday ta'sirlardan saqlab qolishga muvaffaq bo'lindi.

1999-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati valutaning barqarorligini saqlagan holda, uning mavjud o'sish yo'nalishini mustahkamlashga, joriy xalqaro ope-

ratsiyalar bo'yicha uning konvertatsiyalashi uchun zarur sharoitlarni yaratishga va valuta zaxiralaridan ishlab chiqarishning ustuvor yo'nalishlarida samarali foydalanishga yo'naltirilgan edi.

Valuta siyosatining ikkita asosiy, o'zaro qarama-qarshi omillari mavjud, ya'ni valuta kursidan moliyaviy barqarorlashtirish quroli sifatida foydalanish lozim. Birinchi holatda valuta kursi barqaror va qaysidir ma'noda bahosi ko'tarilgan bo'lishi (bu narsa baholar o'sib ketishining oldini oladi) kerak.

Ikkinchi holatda esa u ancha qayishqoq va bahosi pasaytirilgan bo'lishi (eksportni rag'batlantirish maqsadida) lozim. Valuta siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri valuta rejimlari sanaladi. Valuta rejimlari, ma'lumki, ayirboshlash kursi belgilangan yoki erkin suzuvchi kurslardan iborat bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, «boshqariladigan suzuvchi» deb ataladigan kurs ham mavjud. Birinchi holda milliy valutaning nominal kursi qandaydir barqaror valutaga nisbatan belgilanadi (masalan, AQSH dollariga). Markaziy bank esa bu darajani valuta intervensiyalari orqali ushlab turadi. Bunday rejimni inflyatsiyani kamaytirish va moliyaviy barqarorlikka erishish uchun qo'llash maqsadga muvofiq.

Biroq o'rta muddatli davrda barqaror valutaga ega bo'lgan mamlakatda inflyatsiyaning nisbatan yuqori sur'atlari saqlanib turgan bo'lsa, unda bu rejim real ayirboshlash kursining oshishiga va eksportning destimulatsiyalashishiga olib keladi. Chunki milliy valutaning real kursi pasayib ketadi. Bunday holda spekulativ hujumlarga duchor bo'lish ehtimoli paydo bo'ladi. Agar valuta bozori ishtirokchilari kelajakda kursning devalvatsiyalanishini kutishayotgan bo'lsa, «erkin suzish» rejimida, ya'ni Markaziy bank valuta bozori faoliyatiga aralashmagan taqdirda va ayirboshlash kursi talab va taklif asosida belgilanayotgan holatda kursning aytib bo'lmaydigan keskin tebranishlari oqibatida milliy iqtisodiyotning va tashqi savdoning izdan chiqish xavfi paydo bo'ladi.

Valuta siyosatining yana bir yo'nalishi — bu valuta ayirboshlash kursidir. Odatda, iqtisodiyotda bundan qisqa muddatli davrda inflyatsiya bilan kurashish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Biroq bunday valuta rejimini joriy etish uchun quyidagilarni

nazarda tutish kerak: talabda sakrashlar yuzaga kelganda valuta intervensiyasi orqali kursning kerakli darajasini tutib turish imkonini beradigan yetarli miqdordagi oltin-valuta zaxiralarining mavjudligi: qat'iy monetar va fiskal siyosatning o'tkazilishi.

Agar bu shartlardan birortasi bajarilmaydigan bo'lsa, unda belgilanadigan ayirboshlash kursini joriy qilish mutlaqo mumkin emas.

Moliyaviy barqarorlikka erishilgach va inflyatsiya darajasi yiliga 10-15 foizgacha pasaysa, «boshqariladigan suzuvchi» rejim eng maqbul rejim bo'lib qoladi. Chunki u eksportni rag'batlantirish vazifasini hal qilishga imkon yaratadi. So'm nominal kursining sirg'aluvchi pasayishi sharoitida «Valuta yo'lagi»ni belgilash, baholar barqarorligi va ularning oldindan bashorat qilinishini ta'minlashga imkon yaratadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, milliy valutaning konvertatsiyalanishiga erishish — monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatlari sohalarida qator o'zaro bog'liq choratadbirlar majmuasini talab qiluvchi juda murakkab jarayondir. Konvertatsiya tovarlar, xizmatlar va moliya aktivlari oqimlarining xalqaro harakati bilan chambarchas bog'liq. Konvertatsiyalashni joriy qilish tashqi savdoga va sarmoyalar harakatiga bo'lgan cheklovlarni olishga teng bo'lgan natijani beradi. Konvertatsiyalashga bo'lgan cheklovlarni olib tashlash iqtisodiyot uchun qator afzalliklarni ta'minlaydi, biroq buning uchun ma'lum bir to'lov to'lash kerak bo'ladi, u esa erkinlashtirishning tezligiga bevosita bog'liq.

2003-yil oktabr oyida milliy valutani konvertatsiya qilish bo'yicha XVF talablari asosida XIII bandning imzolanishi mamlakat valuta siyosatida muhim o'zgarishlarga olib keluvchi qadam bo'ldi. Bu konvertatsiyalash barcha iqtisodiy agentlarga xorijiy valuta rejimini qabul qilishni anglatadi.

Milliy valutaning konvertatsiyalanishiga erishishning boshlang'ich bosqichida quyidagilarni ta'minlash lozim:

- to'lov balansining muvozanatiga zid kelmaydigan ayirboshlash kursini belgilash;

- yaqin istiqbolda to'lov balansida keskin buzilishlar ro'y berib qolganda xalqaro likvidlik (xorijiy valutilarning zaxirasi,

xorijiy valuta qarzlariga bo'lgan yo'lning ochiqligi) yetarli bo'lishi zarur.

Xorijiy valuta zaxiralari o'lchamlarining ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'pincha oylarning soni qo'llaniladi (qoidaga ko'ra ikkitadan kam bo'lmasligi lozim), ya'ni mana shu oylar ichida mamlakatga zarur bo'lgan barcha import uchun to'lov to'lash imkoniyati mavjud bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-iyundagi 263-sonli «Valuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi va 2001-yil 10-iyuldagi 294-sonli «Birjadan tashqari valuta bozori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari mamlakatimiz moliya tizimini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur qarorlar valuta bozorida o'zgarishlarni tezlashtirib, iqtisodiyotimizning jahon kapital bozoriga chiqishiga ko'maklashadi.

Oliy Majlisning 2003-yil dekabrda sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi qonun loyihasi yangi tahrirda ko'rib chiqilishi ham hukumat valuta siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanishini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan qator qarorlar, xo'jalik subyektlarining valuta bozoridagi faoliyatlarini ancha kengaytirib, chet el valutasini sotib olish tartibini soddalashtirmoqda.

O'zbekistonda valuta bozorini o'z vaqtida erkinlashtirish iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 10-iyuldagi 294-sonli «Birjasidan tashqari valuta bozori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq qarzga olingan mablag'lar hisobidan konvertatsiyani amalga oshirish taqiqlanadi. Kreditga olingan mablag'larga chet el valutasini sotib olish bozorda chet el valutasiga bo'lgan talabni sun'iy ravishda oshiradi. Bu esa milliy valuta barqarorligini izdan chiqaradi. Respublika hukumati va Markaziy bank milliy valuta barqarorlashuvidan manfaatdordir. Bu esa, o'z navbatida, makroiqtisodiy barqarorlikni kafolatlaydi.

Valuta bozorini yanada erkinlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natija berishi kerak.

Birinchidan, mahsulot eksport qiluvchilarning moddiy manfaatdorligi oshadi va buning natijasida eksportning umumiy hajmi ortadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda yanada qulay investitsiya iqlimi yaratiladi, xorijiy va ichki investorlarning eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga investitsiya kiritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Uchinchidan, iqtisodiyotning boshqa sohalarida o'tkaziladigan islohotlarni tezlashtirish imkoniyatlari yaxshilanadi.

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, albatta, moliya tizimi va valuta bozorini yanada erkinlashtirishni talab qiladi. Shu sababli, birjadan tashqari valuta bozorida operatsiyalar hajmini kengaytirish zarurati paydo bo'ldi.

Hozirgi paytda birjadan tashqari valuta bozori banklararo valuta bozorini, vakil banklar bilan ularning mijozlari o'rtasidagi operatsiyalarni, shuningdek, valuta almashtirish punktlari orqali naqd pul, chet el valutasini sotib olish va sotish operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda valuta bozorini yanada erkinlashtirish maqsadida birjadan tashqari, valuta bozorini kengaytirish, keyinchalik talab va taklif asosida ayirboshlash kursini shakllantirish to'g'risida muhim hukumat qarorlari qabul qilindi. Valuta bozorida faoliyat yuritayotgan barcha xo'jalik subyektlari uchun teng sharoitlar yaratish, shuningdek, mijozlarning chet el valutasidan foydalanishlari to'g'risida qarorlar qabul qilishlari uchun tijorat banklariga vakolatlar berish:

Respublika ichki valuta bozorini valuta operatsiyalari talab va taklif asosida yuzaga keladigan ayirboshlash kursi bo'yicha amalga oshiriladigan real bozorga aylantirishga o'tilmoqda.

Valuta operatsiyalari bozori qatnashchilariga aylanishni istagan mahalliy tijorat banklari, avvalo, o'zlarini yaxshi mijozlar bilan ta'minlashi kerak. Banklar uchun xorijiy valuta bilan savdo qiladigan zarur tashkiliy tuzilma-diling bo'limini tashkil etish ham juda muhim. U front-ofis (mijozlar bilan ishlash), bek-ofis (ma'muriyat) va buxgalteriyaga bo'linishi kerak. Bu vazi-

falarni aniq taqsimlash imkonini beradi. Valuta operatsiyalari bitimini tuzishni tashkil etish va uning texnologiyasiga yetarli e'tibor berish kerak.

Hozirgi zamon valuta dilingini kompyuter va telekommunikatsiya texnikasiz, maxsus uskunalar va axborot agentliklarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bank uchun o'z mablag'lari hisobidan xorijiy valutani sotib olish va sotishdan maqsad valuta kurslari o'zgarishidan foyda olishdir.

Valuta va foiz bitimlarida banklararo vositachilikni ko'pincha brokerlik idoralari o'z zimmalariga oladilar. Banklar bilan brokerlar hamkorligining afzalligi ular telefon yoki boshqa kommunikatsiya vositalari orqali doimiy aloqada bo'lishidadir. Broker bilan hamkorlik qiluvchi banklar unga valutani sotib olish va sotish haqida topshiriqlar beradi va kurslarni belgilaydi. Shu tariqa tez bitimlar tuzish uchun real imkoniyatga ega bo'ladi.

Hozirgi O'zbekistonda xorijiy valuta bilan savdo qilishning asosiy qismi birmuncha barqaror moliyaviy munosabatlar tarkib topgan eng yirik banklar qo'lida jamlangan. Ular tashqi iqtisodiy munosabatlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalar va ichki valuta operatsiyalarining aksariyat qismini amalga oshirmoqda. Yirik bo'lmagan tijorat banklari xalqaro operatsiyalarni yoki xorijiy vakil banklar bilan yirik banklarning O'zbekistondagi vakillik hisobvaraqlari orqali olib boradilar. Ularning ayrimlari esa valuta operatsiyalarini o'zlashtirishda dastlabki qadamlarni tashlamoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan chora-tadbirlar asosan birjadan tashqari valuta bozorining qatnashchilari bo'lgan xo'jalik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi lozim. Hukumat qabul qilgan qarorlarga muvofiq korxona va tashkilotlarga chet el valutasini sotib olish tartibi ancha soddalashtirilgan, ya'ni korxona va tashkilotlar ularga xizmat ko'rsatuvchi vakil banklarga o'zlarining so'mdagi mablag'larini chet el valutasiga ayirboshlash xususida talabnoma topshiradilar.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, vakil banklar banklararo savdo sessiyalarida talab va taklifga ko'ra yuzaga keladigan erkin kursga asos-

lanib, ayirboshlash shoxobchalarida chet el valutasini sotib olish va sotish kursini belgilaydi.

Birjadan tashqari valuta bozorida operatsiyalarning quyidagi turlari amalga oshiriladi:

- eksportchilarning valuta tushumini majburiy ravishda sotishlari;

- uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo materiallar va xizmatlar importi uchun chet el valutasini sotib olish;

- jalb qilinadigan chet el kreditlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha hisob-kitoblar;

- chet ellik kreditorlar bilan hisob-kitoblar;

- chet ellik investorlar bilan oladigan foyda, dividendlar va boshqa daromadlarni repatriatsiyalash uchun chet el valutasini sotib olish.

Birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishga oid operatsiyalar:

- xizmat safarlari xarajatlarini to'lash uchun chet el valuta-sini sotib olish va boshqa operatsiyalar.

Jamg'arma mablag'laridan birjadan tashqari valuta bozorida valuta ayirboshlash kursining ehtimoly oshishi uchun foydalanish mumkin. Jamg'arma valuta bozoridagi ehtimoliy salbiy holatlar ro'y berishidan himoyani ta'minlashi lozim.

Banklararo savdo sessiyalarida birjadan tashqari valuta bozoridagi kurslar shakllantiriladi. Korxona va tashkilotlar chet el valutasini sotib olish uchun so'mda yetarli hajmda mablag'ga ega bo'lishlari va uni vakil bankda maxsus hisobvaraqda zaxirada saqlashlari kerak. Valuta munosabatlarini yanada erkinlashtirishni amalga oshirib, milliy valutamizni konvertatsiyalanishini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratishga intilmoqdamiz. Izchil ravishda, qadam-baqadam amalga oshiriladigan ushbu chora-tadbirlar barcha mo'ljallangan islohotlarning aholi uchun bezarar tarzda amalga oshirilishiga imkon beradi va O'zbekiston jahon iqtisodiyotida o'zining munosib o'rnini egallaydi.

Tayanch so'zlar: valuta cheklovlari, diskont siyosati, deviz siyosati, valuta intervensiyasi, devalvatsiya, diversifikatsiya, konvertatsiya.

Nazorat uchun savollar

1. Valuta siyosatining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Valuta siyosatining tarkibiy tuzilishini gapirib bering.
3. Diskont siyosati nima?
4. Deviz siyosatining instrumentlari nimalardan tashkil topgan va ularga ta'rif bering.
5. Valuta cheklovlari deganda nimani tushunasiz?
6. Valuta konvertatsiyasi to'g'risida so'zlab bering.
7. Mamlakatimizda valutani tartibga solish va valuta siyosatini amalga oshirishning qanday huquqiy asoslari mavjud?

V bob. MARKAZIY BANKNING VALUTA SIYOSATI

5.1. Markaziy bankning valuta siyosati mohiyati

«O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida: «Markaziy bankning asosiy maqsadi milliy valuta barqarorligini ta‘minlashdan, uning qadrini oshirish va shu orqali baholar barqarorligini ta‘minlashdan iborat» deb yozib qo‘yilgan.

«Valuta barqarorligi» atamasi pul massasi, narx-navo va milliy valuta ayirboshlash kursining barqaror bo‘lishi tushunchasini o‘z ichiga oladi. Bu esa Markaziy bankning iqtisodiyotni boshqarishdagi ahamiyatini aks ettiradi. Albatta, pul massasiga, narxlarga, ayirboshlash kurslariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar ko‘p bo‘lib, shulardan ayrimlari Markaziy bankning bevosita nazorati va ta‘sirostidadir.

Markaziy bankning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- monetar siyosat va valutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantrish, qabul qilish hamda amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta‘minlash;
- bank faoliyatini tartibga solish va banklar ustidan nazorat o‘rnatish;
- O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valuta zaxiralari-ni, shuningdek, hukumat zaxiralarini kelishuvga ko‘ra saqlash va boshqarish;
- Moliya vazirligi bilan birga davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish.

Markaziy bank o‘zi belgilangan eng kam miqdorda rezervlar saqlash to‘g‘risida banklarga ko‘rsatma beradi. Majburiy rezervlar Markaziy bankda naqd pul yoki omonatlar ko‘rinishida, Markaziy bank belgilangan tartibda depozitga o‘tkaziladi.

Vakolatli banklarning moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlash, kreditorlar va mablag'larni bankka qo'ygan mijozlarning manfaatini himoya qilish maqsadida MB chet el valuta-sidagi operatsiyalar bo'yicha iqtisodiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqqan.

Valuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun obyektiv asos sifatida tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati xizmat qiladi. Xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi va rivojlanishi eksport-import operatsiyalarining yuzaga kelishi va takomillashishiga asosiy sabab bo'ladi.

Valuta operatsiyalarining keng ko'lamda rivojlanishi markaziy banklarga ushbu bozorda erkin harakat qilishga va ayni vaqtda ularni tartibga solishga imkon yaratdi.

Markaziy bankning valuta operatsiyalarini amalga oshirishga imkon beruvchi bir qator asoslar mavjud bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) Markaziy bankning yetarli miqdorda oltin-valuta zaxiralariga ega bo'lishi.

Bizga ma'lumki, ko'plab rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSH, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniyada davlatga tegishli barcha oltin-valuta zaxiralari Markaziy (Federal, Rezerv) bank balansiga o'tkazilgan. Markaziy bankning vazifasi ushbu rezervlardan oqilona foydalanish bilan birga ularni oshirib borish hisoblanadi. Demak, u o'z balansida chet el valuta zaxiralariga suyangan holda, hukumat tomonidan belgilangan valuta siyosati doirasidagi barcha operatsiyalarni amalga oshiradi. Masalan, valuta investitsiyasini amalga oshirish uchun valuta kursi-ning tebranishlariga barham bera oladigan miqdorda likvid mablag'larga ega bo'lishi lozim (Angliya Markaziy banki ana shu maqsadga xizmat qiluvchi 40 milrd AQSH dollaridagi zaxiraga ega).

b) Markaziy bankning xorijiy mamlakatlarning banklari bilan korrespondent munosabatlarining mavjudligi.

Markaziy bankning xalqaro valuta bozorlaridagi barcha operatsiyalari uning o'z milliy va xorijiy valutalardagi korrespondent hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Har bir valuta turiga bittadan korrespondent hisobvarag'i ochiladi va Markaziy bank boshqa mamlakatlarning Markaziy banklarida o'z huquqiy ho-

latidan kelib chiqqan holda erkin tarzda korrespondent hisobvaraqlarini yuritishga haqlidirlar.

Hozirgi kunda Markaziy banklar xalqaro valuta bozorida tijorat banklari bilan raqobat qila olmaydi. Tijorat banklari har yili ulkan miqdordagi mablag'larni valuta kursining o'zgarishini chamalash, valuta riskini boshqarish maqsadiga sarflaydi. Buning ustiga, Markaziy banklar bevosita tijorat tizimlari bilan kredit, hisob-kitob xizmati ko'rsatish operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi. Bunga sabab, ular tijorat strukturalariga xizmat ko'rsatmaydilar.

Markaziy bankning dilerlariga, odatda, korrespondent hisobvaraqlarining qoldig'i minimal bo'lishi kerak, degan majburiy shart qo'yiladi. Yuqorida keltirilgan omillarning mavjudligi ana shu shartlar bajarilishini taqozo qiladi.

c) Markaziy bankka valuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlarning mavjudligi.

Respublikamizda «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi, «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari Markaziy bankning valuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning VI bobida valutani tartibga solish va xalqaro rezervlarni boshqarish masalalari belgilab berilgan. Ushbu me'yoriy hujjatlarga muvofiq, Markaziy bank rasmiy valuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlat organi sifatida faoliyat ko'rsatadi. U o'z balansidagi rasmiy oltin-valuta rezervlarini mustaqil tarzda boshqarish huquqiga ega, ayni vaqtda esa ularni samarali boshqarish yuzasidan ham javobgardir.

d) Chet el valutalari bilan savdo qilishda mavjud bo'lgan savdo qoidalariga rioya qilish.

Xalqaro valuta savdosidagi qonunlarda yoki shartnomalarda belgilab qo'yilmaydigan, ammo hamisha unga rioya qilinadigan ana shunday muhim qoidalar toifasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Spot bitimlari bo'yicha valutilarni 2 ish kuni mobaynida o'tkazish. Ushbu muddatda ulgurmagan tomon, albatta, jarima to'laydi.

e) Kotirovkalarni e'lon qilish.

Diler valuta sotmoqchi yoki sotib olmoqchi bo'lsa, avvalo, o'zining bankidagi xalqaro ma'lumotlar tizimidan foydalanadi. U kompyuterning displeyidan xalqaro valuta bozorlaridagi kotirovkalarni kuzatishi mumkin. Shundan keyingina valuta kursi o'ziga ma'qul bo'lgan bankka murojaat qiladi. Qabul qilingan qoida shundan iboratki, hech qaysi diler hech qachon birdan valutani sotmoqchi yoki sotib olmoqchi ekanligini aytmaydi. Faqat sotish yoki sotib olish kursini so'raydi.

Kurslar to'g'risidagi ma'lumotni olgandan so'ng, o'z fikrini izxor qiladi. Bunda bozorda qabul qilingan minimal bitimlar summasi, albatta, e'tiborga olinishi kerak. Masalan, 500 ming AQSH dollari, 1 mln Germaniya markasi, 1 mln Shveysariya franki bo'lishi mumkin. Amalda valuta savdosi minimal summadan bir necha barobar yuqori summada amalga oshiriladi.

Shunisi e'tiborliki, yetakchi valutalar verguldan keyin 4 raqamgacha aniqlikda kotirovka qilinadi.

f) Bitimning yozma tarzda shartnomalarsiz amalga oshirishi.

Valuta savdosi asosan telefon yoki telegraf orqali amalga oshirilgan kelishuvlar asosida sodir bo'ladi. Birjada esa og'zaki tarzda bitimlar tuziladi. Ammo ularni bajarish tomonlar uchun majburiy bo'lib, so'zsiz bajariladi. Gap yirik summalar ustida ketayotganligi sababli, bitimlarning imzolanishi darhol hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Bu esa ularning ishonchliligini oshiradi.

Bitimning imzolanishi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ayirboshlanadigan valutilarni aniqlash;
- kurslarni belgilash;
- yirik, ixchamlashtirilgan bitim summasini belgilab olish;
- valutada to'lash;
- valuta o'tkazilishi lozim bo'lgan manzilni ko'rsatish;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valuta operatsiyalari, hozirgi kunda, Respublika Oliy Majlisi va hukumatimiz tomonidan aniqlangan monetar siyosatning asosiy yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirilmoqda. Ta'kidlab o'tish joizki, valuta savdosida maqsadlilik va ustuvorlik prinsipiga ko'proq e'tibor berilmoqda. Ushbu maqsadlarga quyidagilar kiradi:

– eksport uchun mahsulot ishlab chiqarish bilan mashgʻul boʻlgan korxonalar;

– chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarning Oʻzbekistonda ishlab chiqarish faoliyati natijasida olgan foydalari va dividendlari;

– Respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridagi ustuvor loyihalarda qatnashayotgan korxonalarning soʻm mablagʻlari;

– xalqaro turizm xizmati, xalqaro aloqalar boʻyicha xizmat, xizmat safari va xorijda taʼlim olish bilan bogʻliq xarajatlar.

Ushbu maqsadlar uchun valuta savdosini amalga oshirish tartibi faqat Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Shunday qilib, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki valuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan barcha asoslarga ega.

5.2. Markaziy bank valuta siyosatining asosiy shakllari

Markaziy bank foyda olish maqsadida faoliyat yuritmaydi. Lekin qonunda uning xarajatlari oʻz daromadlaridan qoplanishi qayd etilgan. Markaziy bank budjet tashkiloti hisoblanmaydi.

Amaliyotdan maʼlumki, Markaziy bankning bosh maqsadi – milliy valuta barqarorligini taʼminlash va shu orqali mamlakatda narx barqarorligiga erishishdan iborat.

Markaziy bankning valuta siyosati shu bosh maqsadga erishishning muhim vositasidir.

Markaziy bankning valuta siyosati deganda uning valuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish sohasidagi tadbirlarining majmuyi tushuniladi.

Markaziy bank valuta siyosatining asosiy shakllariga quyidagilar kiradi:

– diskont siyosati;

– deviz siyosati;

a) valuta intervensiyasi;

b) devalvatsiya;

c) revalvatsiya;

d) valuta rezervlarini diversifikatsiyalash.

Diskont siyosati — bu Markaziy bankning hisob stavkasini oʻzgartirish yoʻli bilan milliy valuta kursiga va toʻlov balansining holatiga taʼsir etish maqsadida amalga oshiriladigan valuta siyosatidir.

Markaziy bankning diskont siyosati kapitallarning davlatlararo harakatini jadallashtiradigan muhim vositadir. Ammo ushbu qoidani MDH davlatlariga nisbatan qoʻllab boʻlmaydi. Valutalarning konvertirlashtirish muammosini toʻlaqonli hal etilganligi kapitallarning erkin harakat qilishidagi jiddiy toʻsiqdir. Shuning uchun bu mamlakatlarda hisob stavkasining oʻzgarishi kapitallarning harakatiga bevosita taʼsir qilmaydi.

Markaziy bankning milliy valuta kursiga taʼsir etish maqsadida valuta bozorida chet el valutararini sotib olishi va sotishi valuta intervensiyasi deyiladi.

Hozirgi davrda valuta intervensiyasidan koʻzlangan maqsad valuta kursining qisqa vaqt oraligʻida kutilmaganda yuzaga keladigan keskin tebranishlariga barham berish hisoblanadi. Markaziy banklar valuta kursini istalgan darajada oʻzgartirish imkoniga ega emas, chunki ular valuta bozorlarida tijorat banklari bilan raqobat qila olmaydi. Shu sababli, valuta intervensiyasidan maqsad valuta kursining keskin tebranishlari oqibatlarini yumshatish hisoblanadi.

Valuta intervensiyasi rasmiy oltin-valuta zaxiralari yoki markaziy banklarning banklararo «svop» bitimlari hisobiga amalga oshiriladi.

Intervensiyaning psixologik effekti katta ahamiyatga ega: Markaziy bankning operatsiyalarining oshkoralik darajasi qanchalik yuqori boʻlsa, valuta bozoridagi subyektlar organlarining tazyiqiga shunchalik darajada boʻysunishini taxmin qilish mumkin.

Devalvatsiya — milliy valuta kursining qonuniy asosda pasaytirilishidir. Uning yuzaga kelishiga quyidagi ikki omil sabab boʻladi:

- eksportni ragʻbatlantirish zarurligi;
- milliy valutaning rasmiy kursi bilan uning real xarid quvati oʻrtasida sezilarli farqning paydo boʻlganligi.

Devalvatsiyani mamlakat toʻlov balansi yomonlashganda va mamlakatga import oqimi kuchayganda amalda qoʻllash iqtisodiyotga ijobiy taʼsir etish mumkin.

Revalvatsiya — lotincha soʻzdan olingan boʻlib, milliy valutani xalqaro hisob-kitob pul birliklari sanalgan chet el valutariga (SDR, EKYU) nisbatan qadrini oshirishdir.

Revalvatsiya qadri kuchli valutalarga nisbatan qoʻllaniladi. Masalan, Yevropa davlatlarining valutariga nisbatan qoʻllash mumkin. Revalvatsiyaning kelib chiqishiga sabab inflyatsiyaning nihoyatda past darajada boʻlishi, uzoq vaqt davomida mamlakat toʻlov balansining aktiv boʻlishi hamda milliy firma va kompaniyalarning jahon bozorida juda raqobatbardoshligidir. Revalvatsiya devalvatsiyaga nisbatan jahon amaliyotida kamroq qoʻllanilgan.

Valuta rezervlarini diversifikatsiyalash deganda bir vaqtning oʻzida bir nechta valutada rezervlar tashkil qilish tushuniladi. Bu valuta rezervlarining tarkibi barqaror valutarlar hisobiga yangilanadi. Masalan, hozirgi kunda Germaniya markasi, Yaponiya iyni, Shveysariya franki devalvatsiya quroli hisoblanmoqda.

Hozirgi kunda valuta siyosatining iqtisodiy konyunkturaga va pul massasiga taʼsirchanligini oshirish Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu dolzarb masalani hal qilishiga koʻmaklashish uchun, birinchidan, Markaziy bankning svop operatsiyalarini rivojlantirish, ikkinchidan, eksportga yoʻnaltirilgan korxonalarga chet el valutasida kreditlar berish va ularni ragʻbatlantirish zarur.

Markaziy bankning valuta operatsiyalarining asosiy qismi svop operatsiyalariga toʻgʻri keladi. Svop operatsiyalarining pul bozoriga taʼsiri sezilarlidir. Markaziy bank tijorat banklaridan svop bitimlari boʻyicha chet el valutasini, masalan, AQSH dollarini sotib oldi. Bunda u banklar ixtiyoriga Markaziy bank pullarini maʼlum davrga berib qoʻyadi. Aksincha, u svop bitimi boʻyicha banklarga AQSH dollarini sotdi, unda mamlakat pul bozori maʼlum vaqtgacha ancha likvidlikdan mahrum boʻladi.

Markaziy bank valuta siyosatining muhim jihatlaridan biri shundaki, u orqali kredit institutlarining likvidligiga taʼsir etishning muhim usullaridan biri garov evaziga ssudalar berish bilan bogʻliq valuta operatsiyalarini amalga oshirishdir. Ushbu operatsiyalarni amalga oshirish uchun tijorat banklariga Markaziy

bankning chet el valutasidagi aktivlaridan vaqtinchalik foydalanish huquqi beriladi. Aktivlarning o'zi esa Markaziy bankning mulki bo'lib qolaveradi, shu sababli unga foiz hisoblanadi.

Markaziy bank xo'jaligidagi taklif va holatlarning tarkibiga asoslanib, shuningdek «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning qoidalariga muvofiq o'z faoliyatining maqsadlari, ustuvor yo'nalishlarini tanlaydi, pul-kredit siyosatining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi. Ular qo'yilgan maqsadlarga erishishning muayyan usullari, dastaklari hamda vositalarini tanlashda aniqlanadi.

Markaziy bank valuta siyosatini amalga oshirish jarayonida kreditlar va pul massasi miqdorlarining zarur darajada kengayishini ta'minlashga harakat qiladi.

Markaziy bank hukumat bilan munosabatlarga kirishadi hamda jahon amaliyotga muvofiq uning bankiri, fiksall agentlari hisoblanib, mamlakat rasmiy oltin-valuta zaxiralarini saqlab, xalqaro hisob-kitoblarda zaxira aktivi va kafolat-sug'urta fondi vazifasini bajarish uning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanayotgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valuta siyosati o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi tabiiy.

Hozirgi vaqtga kelib barcha rivojlangan mamlakatlar valuta cheklovlarini mutlaqo bekor qilgan. Qisman valuta cheklovlari qolgan davlatlarda esa bu jarayon davom etmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada 1979-yildan beri valuta cheklovlari mutlaqo yo'q.

Erkin suzuvchi valuta kurslari tizimida Markaziy bankning valuta siyosatining iqtisodiyotga ta'siri kapitallarni eksport va import qilishni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Uning mazmuni milliy valuta kursini barqaror saqlab turish bilan belgilanadi. Shu bilan birga, Markaziy bank o'zining balansidagi valuta rezervlarini diversifikatsiya qilishi lozim. Bu ham valuta siyosatiga ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valuta siyosati pul bozoriga sezilarli darajada ta'sir qilish imkoniyatiga ega emas. Chunki birinchidan, u yetarli miqdorda chet el valutasidagi rezervlarga endigina ega bo'lmoqda; ikkinchidan, haqiqiy

ma'nodagi pul bozorining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgani yo'q.

O'zbek so'mining hozirgi vaqtda cheklangan ichki konvertirlikka ega ekanligini va respublika valuta bozorining holati O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valuta siyosatining maqsadi va yo'nalishlarining o'ziga xosligini yuzaga keltiradi. Bu o'ziga xoslik, eng avvalo, so'mning AQSH dollariga nisbatan kursini barqarorlashtirish va ichki valuta bozorini rivojlantirish valuta siyosatining birlamchi vazifalaridan ekanligida namoyon bo'ladi.

Mamlakat oltin-valuta rezervlarining to'liq Markaziy bank balansiga o'tkazilishi bilan uning valuta siyosati ta'sirchanligi oshadi. Shu bilan birga, 1995-yil 1-yanvardan boshlab markazlashgan resurslarni eksport qilishdan tushgan valuta tushumlari to'liq Markaziy bankka sotilayotganligi uning valuta bazasini yanada (maksimal) mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayni vaqtda, Xalqaro Valuta Fondi tomonidan respublikamizga 160 mln AQSH dollari miqdorida reabilitatsion zayomning berilishi va uning asosiy qismi valuta birjasi orqali realizatsiya qilinishi Markaziy bank valuta siyosati ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Respublikada valuta bozorini rivojlantirish sohasidagi jiddiy tadbirlardan yana biri — tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va chetga chiqariladigan mahsulotlar uchun ruxsatnoma berish tartibining ancha soddalashtirilganligi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valuta siyosati doirasidagi amalga oshiradigan asosiy vazifalaridan biri mamlakatda tijorat xarakteridagi valuta operatsiyalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish hisoblanadi. Hozirgi kunda muddatli operatsiyalarni rivojlantirish juda dolzarb va murakkab masala bo'lib qolmoqda. Buning uchun esa valuta bozorini rivojlantirish lozim. Chunki har qanday turdagi valuta operatsiyasi — svop, forvard, valutaviy opsionlar va fyu-cherslar bilan bog'liq operatsiyalar pirovard natijada spot bozorining likvidligiga bog'liq. Agar valuta birjasida va birjadan tashqari valuta bozorida erkin ayirboshlanadigan valutalar

bo'yicha to'liq likvidlik ta'minlansa, ya'ni barcha talablar muvofiq ravishda o'z vaqtida qondirilsa, bu milliy valuta — so'mning qadrini oshirishga xizmat qiladi.

Markaziy bankning valuta siyosati orqali muomaladagi pul massasiga ta'sir qilish imkoniyatini kuchaytiruvchi muhim omillardan biri tashqi savdo aylanmasini o'sish tendensiyasiga ega ekanligidir. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ushbu omilning ahamiyati juda katta. Chunki xalqaro savdo respublika to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limining mutlaq asosiy qismini tashkil etadi va to'lov balansining umumiy hajmida katta salmoqni egallaydi.

Respublikamizda valuta tizimidan soliq olishning bekor qilinishi va uning o'rniga valuta tushumining 30 %i vakolatli banklarga hamda markazlashgan eksportdan tushgan tushumning 100 %ini Respublika Markaziy bankiga majburiy sotish joriy etilganligi tashqi savdo omilining Markaziy bank valuta siyosatidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Shunday qilib, valuta siyosatining asosiy richagi bo'lgan valuta bozorini respublikada rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

— valuta va tashqi savdo tizimini yanada liberallashtirish. Vakolatli banklar imkon qadar erkin ayirboshlanadigan valuta qo'shimcha resurslar jalb qilishga, shu jumladan jismoniy shaxslarning xorijiy valutadagi jamg'armalarini rag'batlantirish orqali harakat qilishlari lozim. Bunga erishish uchun esa, birinchidan, valuta sohasidagi xizmat turini ko'paytirish lozim; ikkinchidan, xizmat xarajatlarini kamaytirish, uchinchidan, xorijiy valutadagi depozitlar uchun bank tomonidan to'lanadigan foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqish kerak;

— korrespondent munosabatlarni rivojlantirish. Milliy valutadagi korrespondent aloqalarni rivojlantirish bevosita xalqaro savdo aloqalariga milliy valutamiz — so'mdan keng miqyosda foydalanishga asos bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo tizimi va oliy darajada qulayliklar yaratilishini ko'zda tutuvchi bitimlar imzolagan davlatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlari bilan milliy valutada tovarlar, ish va xizmat-

larni eksport va import qilish uchun respublikamiz korxona va tashkilotlar tomonidan shartnomalar imzolanishi maqsadga muvofiq.

Tayanch soʻzlar: Markaziy bank, valuta siyosati, xalqaro operatsiyalar, valuta cheklovlari.

Nazorat uchun savollar

1. Markaziy bank valuta siyosati va uning asosiy turlari.
2. Markaziy bank valuta siyosatining asosiy shakllari.
3. Valuta cheklovlarining maqsadi.
4. Markaziy bankning xalqaro operatsiyalari.
5. Diskont siyosati va uning iqtisodiyotga taʼsiri.
6. Oʻzbekiston Respublikasida pul-kredit tizimi.

VI bob. XALQARO HISOB-KITOBLAR VA ULARNING ASOSIY SHAKLLARI

6.1. Xalqaro hisob-kitoblar haqida tushuncha. Tashqi iqtisodiy shartnomalardagi valuta-moliyaviy va to'lov shartlari

Xalqaro hisob-kitoblardagi o'zgartirishlarning paydo bo'lishi hamda ularning yanada takomillashuvi tovar ishlab chiqarish va muomala jarayonining rivojlanishi hamda baynalmilallashuvi bilan bog'liq. Tovarlar ishlab chiqarish va ularni sotish davrlarining o'zaro muvofiq kelmasligi hamda iste'mol bozorlarining uzoqligi tufayli xalqaro muomaladagi qiymatlar harakatining nisbatan mustaqil bo'lib qolgan shakli xalqaro hisob-kitoblarda o'z aksini topadi. Xalqaro hisob-kitoblar tovarlar va xizmatlar bilan tashqi savdo hamda notijorat operatsiyalar, kreditlar va mamlakatlararo kapitallar harakati bo'yicha hisob-kitoblarni qamrab oladi.

Xalqaro hisob-kitoblar — turli mamlakatlar fuqarolari va yuridik shaxslari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar tufayli vujudga keladigan pul talablari va majburiyatlardan bo'yicha to'lovlarni muvofiqlashtirishdir.⁶ Xalqaro hisob-kitoblar bir tomondan, amaliyotda shakllangan va xalqaro hujjatlar hamda qoida bilan mustahkamlangan to'lovlarni amalga oshirish shartlari va tartibini, ikkinchi tomondan, ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish yuzasidan kunlik amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Hisob-kitoblarning eng katta hajmi bank hisobvaraqlarida yozuvlarni amalga oshirish orqali naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda jahonning eng yirik banklari xalqaro hisob-kitoblarda yetakchilik mavqeyiga ega

⁶ Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. — М.: «ФиС», 2001 г.

bo'ladi. Mazkur banklarning xalqaro hisob-kitoblarga bo'lgan ta'sir darajasi ular joylashgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari, milliy valutasining ishlatilish ko'lamini, ixtisoslashganligi, moliyaviy ahvoli, ishbilarmonlik mavqeyi, vakil-banklar tizimiga bevosita bog'liq.

Banklar hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun o'zlarining xorijiy bo'limlari va xorijiy banklar bilan o'rnatilgan vakillik munosabatlaridan foydalanadi. Xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o'rnatilganda «loro» (xorijiy banklarning mazkur bankda ochilgan hisobvarag'i) va «nostro» (mazkur bankning xorijiy banklarda ochilgan hisobvarag'i) hisobvaraqlari ochiladi. Vakillik munosabatlari hisob-kitoblar tartibi, vositachilik haqining hajmi, ishlatib bo'lingan mablag'larni to'lash uslublarini belgilab beradi. Xalqaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish uchun banklar, odatda, kutilayotgan to'lovlarning tarkibiy tuzilishi va muddatlariga muvofiq ravishda zarur bo'lgan va turli valutalarda ifodalangan valuta pozitsiyalarini ta'minlaydi va o'z valuta zaxiralarini diversifikatsiyalash siyosatini o'tkazadilar. Banklar nisbatan yuqori foyda olish maqsadida o'z valuta aktivlarini jahon ssuda kapitallari bozorida, shu jumladan yevrobordda joylashtirishni afzal ko'rgani holda «nostro» hisobvaraqlaridagi minimal qoldiqlarni ta'minlashga harakat qiladi.

Xalqaro hisob-kitoblar borasidagi banklar faoliyati, bir tomondan, milliy qonunchilik bilan muvofiqlashtiriladi, boshqa tomondan esa – o'rnatilgan qoidalar va tartiblar yoki alohida hujjatlar bilan mustahkamlangan ko'rinishda mavjud bo'lgan, shakllangan amaliyot bilan belgilanadi.

Xalqaro hisob-kitoblarda asosan milliy valutilarning ishlatilishi ulardan foydalanish samaradorligini kurs tebranishlari hamda ushbu valutarlar emitentlari bo'lmish mamlakatlarning iqtisodiy va valuta siyosatiga bog'liqligini kuchaytiradi. Xalqaro hisob-kitoblarning holati qator omillarga bog'liq: mamlakatlar orasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, valuta qonunchiligi, xalqaro savdo qoidalari va tartiblari, bank amaliyotlari, tashqi savdo shartnomalari va kredit bitimlarining shartlari.

Tashqi iqtisodiy bitimlarning valuta-moliyaviy va to'lov shartlari. Xalqaro savdo shartnomalari bo'yicha hisob-kitob-

lar o'ta murakkab bo'lib, bank xodimlarining yuqori malakaga ega bo'lishini talab etadi. To'lov olinishining tezligi va kafolati hamda banklar orqali operatsiyalar o'tkazishning xarajatlar summasi hisob-kitoblar shakllari va shartlarining tanloviga bog'liq. Shu sababli, tashqi savdo bo'yicha hamkorlar muzokaralarda to'lov shartlarining unsurlarini kelishib oladi, so'ngra ushbu shartlar shartnomaga kiritilib, rasmiylashtiriladi. Shartnomalarning valuta-moliyaviy va to'lov shartlari tuzilayotgan paytda eksportyor manfaatlarining importyor manfaatlariga teskari ekanligi ko'zga tashlanadi. Bunda eksportyor valutaning maksimal summasiga nihoyatda qisqa vaqt ichida ega bo'lishni xohlaydi, importyor esa, aksincha, iloji boricha kam miqdordagi valuta hajmini to'lash, tovarlar olinishini tezlashtirish hamda mazkur tovarlar to'la sotilgunga qadar to'lov muddatini kechiktirishdan manfaatdordir. Bitimlarning valuta-moliyaviy va to'lov shartlari tanlanishiga mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarining xarakteri, kontragentlar kuchlarining o'zaro nisbati, ularning ushbu sohadagi malakasi hamda mazkur tovar bilan savdo qilish an'analari va qoidalari bog'liq. Hukumatlararo kelishuvlar hisob-kitoblarning umumiy tamoyillarini belgilaydi, tashqi savdo shartnomalarda esa ushbu hisob-kitoblar amalga oshirilishining batafsil shartlari ko'rsatiladi. Mazkur shartlar quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: baho valutası, to'lov valutası, to'lov shartlari, to'lov vositalari, hisob-kitob shakllari hamda ushbu hisob-kitoblarni amalga oshiradigan banklar.

Baho valutası va to'lov valutası. Baho valutası va to'lov valutası tanlovi (baho darajasi, kredit bo'yicha foiz stavkasi katta-kichikligidan farqli o'laroq) muayyan darajada bitimning valuta samaradorligiga bog'liq. Eksport va import shartnoma baholari turlicha hamda ular ushbu shartnomalarga kiritiladigan tovarlarning eksportyordan importyorga yetkazilishi bilan bog'liq (eksportyor mamlakat omborida saqlanishi, portgacha bo'lgan yo'l va portdagi saqlash, chet eldagi yo'l, xorijdagi ombor hamda importyorga tovarlarni yetkazish xarajatlari) qo'shimcha xara-

jatlarga bog‘liq. Tovarlar baholarini aniqlashning beshta asosiy tamoyili mavjud:

1. Shartnoma tuzilayotgan vaqtda baholarning qat’iy belgilanishi hamda ushbu shartnoma ijrosi mobaynida belgilangan baholar o‘zgarmasligi. Ushbu uslub jahon bozorida baholarning pasayishi tendensiyasi mavjud bo‘lgan paytda qo‘llaniladi.

2. Shartnomaga imzo qo‘yilayotgan paytda bahoni (tovar yetkazilish kuniga bo‘lgan u yoki bu tovar bozorining kotirovkalari asosida) belgilash tamoyili qayd etiladi, bahoning o‘zi esa bitimning ijrosi mobaynida belgilanadi. Ushbu uslub, odatda, bozor baholarining ko‘tarilishi tendensiyasida qo‘llaniladi.

3. Shartnoma tuzilayotgan paytda baho qat’iy belgilanadi, ammo bozor bahosi shartnomadagi bahoga nisbatan, aytaylik, 5% dan ziyod hajmga o‘zgarsa, u o‘zgarishi mumkin.

4. Xarajatlarni tashkil etuvchi elementlar hajmining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan sirpanuvchan baho. Masalan, jihoz (asbob-uskuna) lar yetkazib berilishiga buyurtma berilganda. Yuqori konyunktura sharoitlarida buyurtmachi manfaatlarida cheklovlar joriy etiladi (baho o‘zgarishining umumiy chegarasi yoki baho «sirpanishi»ning xarajatlarning bir qismiga va qisqa muddatga tarqalishini).

5. Aralash shakli: bahoning bir qismi qat’iy belgilanadi, bir qismi esa sirpanuvchan shaklda o‘rnatiladi.

Baho valutası – bu tovar bahosi ifodalanadigan valutadir. Tovarning bahosi qat’iy belgilanadigan valutani tanlashda tovarning turi va yuqorida aytib o‘tilgan xalqaro hisob-kitoblarga ta’sir etuvchi omillar, ayniqsa, hukumatlararo kelishuvlarning shartlari va xalqaro qoidalar katta ahamiyat kasb etadi. Ba’zida valuta risklarini sug‘urtalash maqsadida shartnomaning bahosi bir nechta (ikki va undan ko‘p) valutada yoki standart (SDR, EKYU – 1999-yilda «yevro»ga o‘zgartirilgan) valuta savatida ko‘rsatiladi.

To‘lov valutası – bu importyor (yoki qarz oluvchi) majburiyatlari so‘ndirilishi kerak bo‘lgan valutadir. Valuta kursining beqarorligi sharoitida baholar nisbatan barqaror bo‘lgan valutada, to‘lov esa, odatda, importyor mamlakat valutasida belgilanadi. Agar baho valutası va to‘lov valutası o‘zaro muvofiq kelmasa, unda shartnomada bir valutani ikkinchi valutaga qayta hisoblash

kursi o'zaro kelishiladi (yoki XVF SDR negizida qayd etiladigan pariteti, yoki valutalarning bozor kursi bo'yicha). Shartnomada qayta hisoblash shartlari belgilanadi: 1) ma'lum bir turdagi to'lov vositasining kursi — trattasiz to'lovlar bo'yicha telegraf pul o'tkazmasi yoki kredit bilan bog'liq hisob-kitoblar bo'yicha vekselni; 2) ma'lum bir valuta bozorida (sotuvchi, sotib oluvchi yoki uchinchi tarafning) tuzatish va muvofiqlashtirishlar vaqti aniqlab olinadi (masalan, to'lov amalga oshirilishidan bir kun avval yoki to'lov kuni); 3) qayta hisoblash amalga oshiriladigan kurs kelishib olinadi: odatda, o'rtacha kurs, ba'zan valuta bozorining ochilishiga, yopilishiga bo'lgan sotuvchi yoki sotib oluvchi kurslari yoki kunning o'rtacha kursi.

Baho va to'lov valutarining o'zaro muvofiq kelmasligi — bu valuta riskini sug'urta qilishning eng oddiy usullaridan biridir. Agar baho valutasining kursi (masalan, AQSH dollarining) pasaygan bo'lsa, unda to'lov summasi (fransuz franklarida) proporsional ravishda kamayadi va aksincha. Baho valutasining pasayishi riski eksportyor (kreditor) zimmasiga, uning ko'tarilish riski esa importyor zimmasiga tushadi.

To'lov shartlari — tashqi iqtisodiy bitimlarning muhim elementidir. Ularning ichida quyidagilar farqlanadi: naqdli to'lovlar, kredit taqdim etilishi bilan hisob-kitoblar, naqdli to'lov bo'yicha opsionli kredit (tanlov huquqi bilan).

Xalqaro hisob-kitoblardagi naqdli to'lov tushunchasi eksport tovarlari sotib oluvchiga yetkazib berilganidan so'ng ularga pul to'lanishini yoki tovarlar shartnoma shartlariga muvofiq yetkazib berilganligi to'g'risida guvohlik beruvchi hujjatlarga qarshi bo'lgan to'lov ko'zda tutiladi. Biroq zamonaviy sharoitlarda tovar importyor mamlakatiga ko'p holatlarda to'lov amalga oshirilishi lozim bo'lgan hujjatlardan avval yetib keladi va sotib oluvchi tovarlarni ularga haq to'lanishidan avval saqlash (trast) tilxati, bank kafolati evaziga olishi mumkin. Shunday qilib, tovarlar so'nggi manzil portiga yetkazib berilganidan so'ng to'lov amalga oshiriladi, tovarlar jo'natilganligi to'g'risidagi xabarnomaga ko'ra amalga oshiriladigan to'lovlar bundan mustasno. Kontragentlar kelishuviga hamda sotilayotgan tovarlar xususiyatlariga bog'liq holda importyor ma'lum bir bosqichda to'lovni amalga oshiradi:

joʻnatish portida tovarlarni yuklash ishlari yakunlanganligi tasdiqlangandan soʻng; tovar hujjatlarining komplekti (schyot-faktura, konosament, sugʻurta polisi va boshqalar) ga koʻra; baʼzida toʻlovni 5-7 kunga, neft yetkazib berish boʻyicha esa — 30 kunga kechiktirish bilan; soʻnggi manzil boʻlgan portda importyor tomonidan tovar qabul qilingandan soʻng. Tovarining turiga bogʻliq holda ayrim holatlarda hisob-kitoblarning aralash shartlaridan foydalaniladi: qisman hisob-kitob — tovar hujjatlari topshirilganidan soʻng amalga oshadigan toʻlov; yakuniy hisob-kitob — tovarlar qabul qilib olinganidan soʻng (tovarlar soʻnggi manzil portiga yetib kelganidan soʻng sotib oluvchi tomonidan qabul qilib olinadi va ularning sifat xarakteristikalarini tekshiriladi, chunki transportirovka davrida ularning sifati buzilgan boʻlishi mumkin).

Xalqaro toʻlovlar valutalarning oʻzaro ayirboshlanishi hamda tashqi savdo ishtirokchilari tomonidan bir-biriga kreditlar taqdim etish jarayonlari bilan chambarchas bogʻlanib ketadi. Xalqaro valuta-kredit va hisob-kitob operatsiyalarining oʻzaro bogʻliqligi quyida oʻz ifodasini topadi. Sotilayotgan tovarning turiga (masalan, mashinalar va jihozlar) hamda sotuvchilar bozorida raqobatning kuchayishi va yangi mahsulot isteʼmol bozorlarini kengaytirish maqsadida ularning kreditdan foydalanishga qaratilgan intilishlariga qarab tashqi savdo operatsiyalari boʻyicha hisob-kitoblar tijorat kreditidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Tijorat krediti tovar sotuvchisi tomonidan sotib oluvchiga bir necha oydan 5-8 yilgacha, alohida holatlarda esa bundan ham ortiq muddatga taqdim etiladi. Tashqi savdo operatsiyalarida importyor tijorat krediti evaziga uni soʻndirishga qaratilgan, oddiy veksellik shaklidagi qarz majburiyatini yozib beradi yoki eksportyor tomonidan berilgan oʻtkaziladigan veksellar-trattalarda toʻlovni amalga oshirishga yozma rozilik (aksept) beradi.

Tovar qiymatining maʼlum bir qismiga tijorat hujjatlari taqdim etilganidan soʻng, qolgan qismiga esa — shartnomada belgilangan davrdan keyin haq toʻlanganda, tijorat krediti shaklidagi tovarlar uchun hisob-kitoblar naqdli toʻlovlar bilan birga amalga oshirilishi mumkin. Tashqi savdo shartnomasi ijrosining maʼlum bir bosqichida shartnomadagi taraflar tijorat kreditidan

tashqari bir-birini majburan kreditlashi mumkin. Masalan, bo‘nak shaklidagi to‘lovlarda importyor eksportyorini, ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblarda sotuvchi sotib oluvchini kreditlaydi.

Hisob-kitoblar shartlarining muqobil shakli — bu naqd to‘lovning opsiyonli kreditidir. Agar importyor sotib olingan tovar uchun to‘lovni kechiktirish huquqidan foydalansa, unda u naqd to‘lovda taqdim etiladigan diskont (chegirma) dan mahrum bo‘ladi. Hisob-kitoblar xalqaro muomalada ishlatiladigan turli xil to‘lov vositalari — veksellar, to‘lov topshiriqnomalari, bank o‘tkazmalari (pochta va telegraf), cheklar, plastik kartochkalari yordamida amalga oshiriladi. Xorijiy instrumentlar (*Foreign items*, ingl.) — boshqa mamlakatda deponirlangan hamda ushbu mamlakatda to‘lanishi lozim bo‘lgan cheklar, veksellar (oddiy va o‘tkaziladigan) va muomalaning boshqa kredit vositalari. Shartnoma to‘lov shartlarining eng murakkab qismi hisob-kitob turini tanlash hamda ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish yo‘llarini shakllantirib izohlash hisoblanadi. Kontragentlarning bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan manfaatlarini xalqaro iqtisodiy munosabatlarda o‘zaro bog‘lash va ularning to‘lov munosabatlarini tashkil etish hisob-kitoblarning turli shakllaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

6.2 Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllari va ularning tavsifi

Xalqaro hisob-kitoblar ikki guruhga bo‘linadi: hujjatlashtiriladigan, hujjatlashtirilmaydigan to‘lovlar.

Hujjatlashtiriladigan to‘lovlarga:

- 1) hujjatlashtirilgan akkreditiv;
- 2) inkassa bilan amalga oshiriladigan barcha to‘lovlar kiradi.

Hujjatlashtirilmaydigan to‘lovlarga:

- 1) to‘lov topshiriqnomasi;
- 2) cheklar;
- 3) SWIFT (SWIFT) kiradi. Hujjatlashtirilmaydigan to‘lovlarni turkumlashda mezon shartlari sifatida to‘lov shartlari olinadi. Agar har qanday hisob-kitob quyidagi 3 to‘lov asosida

amalgga oshirilsa, bu hujjatlashtirilmaydigan hisob-kitob hisoblanadi:

- 1) oldindan to'lash;
- 2) tovarni olgandan so'ng to'lash;
- 3) ochiq hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblar.

Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakli sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) inkassa;
- 2) hujjatlashtiriladigan akkreditiv;
- 3) cheklar;
- 4) to'lov topshiriqnomalari.

Bank o'tkazmasi bir bankning boshqa bir bankka oluvchiga (benefitsiarga) muayyan bir summani to'lash haqidagi topshirig'ini o'zida ifodalaydi. O'z mablag'larini ma'lum bir maqsadda o'tkazmoqchi bo'lgan mijozning ko'rsatmasiga asoslangan holda bank bunday topshiriqni berishi mumkin. Bunda valuta mablag'lari benefitsiarga hech bir shartsiz yoki ma'lum bir hujjatlarni taqdim qilish asosida berilishi mumkin.

Bank o'tkazmasi shaklida tijorat operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar quyidagicha amalga oshiriladi (6-chizma):

1) Eksportyor va importyor tomonidan shartnoma imzolanaadi. Shartnomada hisob-kitob shakli va shartlari belgilanadi.

2) Eksportyor bitimda ko'rsatilgan vaqt ichida tovarni jo'natadi.

3) Eksportyor yuk tashuvchi tashkilotlardan transport hujjatlarini oladi.


4) Transport hujjatlarini boshqa hujjatlar to'plami bilan birga importyorga yuboradi.

5) Hujjatlarni olgandan so'ng tovarga egalik huquqi importyorga o'tadi va u o'z bankiga pulni o'tkazish to'g'risidagi arizani taqdim qiladi.

6) Importyorning banki arizaga asoslangan holda to'lovni bajarish topshirig'ini eksportyorning bankiga pochta yoki telegraf orqali uzatish yo'li bilan o'tkazmani amalga oshiradi.

7) Eksportyorning banki to'lov topshirig'ini olgandan keyin uning to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi (agar benefitsiarning nomi, manzili noaniq yoki xato ko'rsatilgan bo'lsa, bank

to'lovni bajarmay qaytarib yuborishi ham mumkin) va eksport tushumini benefitsiarning hisobvarag'iga o'tkazadi, so'ngra eksportyorga xabar beradi.



6-chizma.

Shartnomada importyor tomonidan eksportyorga kredit berilishi, ya'ni yetkazib beriladigan tovar uchun oldindan avans to'lovni amalga oshirish kerakligi ko'zda tutilgan bo'lishi ham mumkin. Bunday holatlarda importyor bitimda ko'rsatilgan vaqt ichida eksportyorga valutani o'tkazish to'g'risida o'z bankiga ko'rsatma beradi. Shundan so'ngina eksportyor tovarni jo'natadi va hujjatlar to'plamini importyorga yuboradi.

Bank o'tkazmasi shaklidagi hisob-kitoblarda shartnomada qatnashuvchi tomonlardan biri doimo ma'lum darajada riskka tortilgan bo'ladi. Eksportyor uchun tovar to'liq jo'natilgandan so'ng yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilmay qolish riski va importyor uchun esa avans to'lovlari bajarilgandan so'ng tovar yet-

kazilmay qolish riski mavjud. Shuning uchun ham, jahon amaliyotida yetkazib berilgan tovarlar uchun hisob-kitobning ushbu shakli ma'lum darajada cheklangan bo'lib, har doim ham qo'llanilavermaydi, odatda, xalqaro hisob-kitobda boshqa hisob-kitob shakllari (hujjatlashtirilgan akkreditiv va inkasso) bilan birga qo'llaniladi. Masalan, yetkazilib beriladigan tovarlar uchun akkreditiv bo'yicha inkassoga olingan hujjatlar bo'yicha tovar summasining 10-15 %i to'lanib, 75-80 % summasiga esa veksellar yozilishi va qolgan 5-10 %i bank o'tkazmasi tariqasida oldindan avans sifatida yoki importyor tomonidan tovarlar tekshirilgandan so'ng to'lanishi ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, olingan tijorat kreditlarini qoplashda va inkassoni to'lashda ham bank o'tkazmasidan foydalanilishi mumkin.

Bank o'tkazmasi shaklidagi hisob-kitoblar qo'llanilishiga ko'ra o'zining soddaligi bilan boshqa hisob-kitob shakllaridan ajralib turadi, chunki valuta mablag'larini o'tkazuvchi mijozga arizadan boshqa tijorat hujjatlarini rasmiylashtirish va bankka taqdim etishni talab qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda vakolatli banklar eksport va import operatsiyalari bo'yicha bank o'tkazmasi shaklida hisob-kitoblarni amalga oshirmoqda. Vakolatli banklar eksport qilingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirayotganda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan benefitsiar foydasiga to'lovni o'tkazish to'g'risidagi xorijiy banklar topshirig'ini bajaradi, bunda to'lanayotgan summaning qanday qoplanilishi ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi.

To'lov topshirig'i benefitsiar tomonidan ma'lum tijorat yoki moliyaviy hujjatlar taqdim qilingandan keyingina (hujjatlashtirilgan o'tkazmada) unga to'lanishini ko'zda tutishi mumkin. Bunday holatlarda tegishli hujjatlar taqdim qilinguncha benefitsiar hisobvarag'iga shartli ravishda summa o'tkaziladi. Agar summa o'tkazilgan kundan boshlab 15 kun ichida eksportyor hujjatlarni taqdim qilmasa, uning hisobvarag'idagi o'tkazma summasi hisobdan chiqariladi va xorijiy bankka o'tkazma xususida ko'rsatma berilishi haqida so'rov yuboriladi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda eksport va import bo'yicha bank o'tkazmasi orqali to'lovlar keng tus olgan. Bunga asosiy sabab mamlakatimiz banklarida bunday operatsiyani bajarish va hujjatlarni rasmiylashtirish soddaligidadir. Bundan tashqari, shuni ham aytilish kerakki, respublikamizda shartnoma summasining 15 %igacha oldindan avans sifatida to'lashga ruxsat berilgan. Bu esa o'zbek importyorlariga nisbatan to'lovga qobillik nuqtayi nazaridan hali ham xorijiy firmalarning ishonchsizligi mavjud bo'lganligi sababli katta ahamiyatga ega. Bunday shart-sharoitlarda aksariyat import shartnomalari quyidagicha amalga oshiriladi: qarshi tomon bankining kafolati evaziga shartnoma summasining 15 %i oldindan avans sifatida to'lanadi va qolgan 85% iga esa akkreditiv ochiladi. Bunday ketma-ketlik o'zbek importyorlariga shartnomada ko'rsatilgan sifat va hajmda tovarning yetib kelmaslik riskining oldini olishga imkon beradi.

Biroq shunday bo'lsa-da, importyorlar uchun haqiqatda yetib kelgan tovarlar bo'yicha hisob-kitob qilish shakllari ichida eng qulayi bank o'tkazmasi hisoblanadi, chunki importyor tovar va hujjatlarni bank orqali emas, bevosita o'zi qabul qiladi va shundan keyingina to'lovni bajaradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar amaliyotida ochiq hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblar ma'lum darajada keng tus olgan (ayniqsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bunday hisob-kitoblar tez-tez uchraydi). Firmalar o'z qayd kitoblariga hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish uchun kontragentlarining qarzdorligi aks ettiriladigan hisobvaraqlarni bir-birlariga ochadilar. Odatda, ochiq hisobvaraqlar bo'yicha olib boriladigan hisob-kitoblar banklarning ishtirokisiz amalga oshiriladi, banklar bunda faqat operatsiyaning yakuniy bosqichida — to'lovni amalga oshirishdagina qatnashadi. Tovarlarni jo'natish uchun yuklatilgandan so'ng sotuvchi xaridorga tovar va transport hujjatlarini yuboradi, so'ngira yuklangan tovarlar summasini uning hisobiga yozib qo'yadi. Xaridor o'z qarzdorligini qoplash maqsadida (agar shartnomada barter hisob-kitobi ko'rsatilgan bo'lsa) tovar yetkazib berishi yoki xizmat ko'rsatishi, yoki (agar sotuvchi va xaridor o'rtasida o'zaro qarz va majburiyatlar mavjud bo'lsa) o'zaro qarz va majburiyatlarini kechib yuborishi (kliring), yoki bank o'tkazmasi

orqali qarzini to'lab berishi, yoki o'z majburiyatlarini qoplash uchun chek yoki oddiy veksel yozib berishi, yoki sotuvchi tomonidan taqdim qilingan o'tkazma veksel (tratta) ni akseptlashi mumkin.

Hisob-kitobning ushbu shakli qo'llanilayotganda, odatda, xaridor haqiqatda ham tovar uchun to'lov amalga oshirilishini kafolatlashini sotuvchi talab qilishi lozim. Chunki sheriklar o'rtasidagi doimiy aloqa va o'zaro ishonchni qozonish hamma vaqt ham yetarli bo'lavermaydi. Shu sababli shartnomada tovar uchun to'liq summa to'lanmagunga qadar tovarga egalik qilish huquqi sotuvchida ekanligi qayd qilinishi mumkin.

Ba'zi hollarda to'lovni ta'minlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi tomonlar yetakchi korxona aksiyalarini garovga qo'yishlari ham mumkin. Bu toifadagi majburiyatlarni bajarishning ta'minlash shakli yetarli darajada ishonchli hisoblanadi. Bunday holatda tomonlar o'rtasida alohida garov shartnomasini tuzishga ehtiyoj tug'ilmaydi, balki tashqi savdo shartnomasida garov berilayotgani, garovning summasi, qay holatda garovga qo'yilgan aksiyalar to'lovni qoplash uchun majburan sotilishi ko'rsatilsa, bas. Lekin aksiyalar garovga olinganda ularning haqiqiy qiymatini tegishli hujjatlar bilan tasdiqlash talab qilinishi lozim. Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan aksiyalar narxi o'zgarishini ham e'tiborga olish kerak.

Ochiq hisobvaraq bo'yicha hisob-kitob xaridorga tijorat krediti sifatida tovar yetkazib berishni o'zida ifodalaganligi uchun u eksportyorning manfaatlariga mos kelavermaydi, chunki bunday hisob-kitob usuli yuqori risk darajasiga ega. Shuning uchun ham, ochiq hisobvaraq bo'yicha hisob-kitoblarni uzoq vaqt davomida o'zaro biznes aloqada bo'lgan va o'zaro ishonchni qozongan firmalar, goh sotuvchi, goh xaridor sifatida aloqa qiladigan xo'jalik subyektlari, yirik kompaniyalarning filiallari va boshqalar qo'llashi mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan korxonalar bunday talabga javob bermaganligi uchun ochiq hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblar deyarli qo'llanilmaydi.

Hisob-kitoblarning inkasso shakli bank o'tkazmasiga nisbatan ancha ishonchliroq. Inkassoga shartli ravishda quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Inkasso eksportyorning (kreditorning) o'z bankiga import-yordan (qarzdordan) bevosita yoki boshqa bank (lar) orqali ma'lum bir summani to'latib olish yoki belgilangan muddat ichida summa to'lanishini tasdiqlatish to'g'risidagi topshirig'ini o'zida ifodalaydi.

Bugungi kunda xalqaro savdoda akseptli inkasso shaklidagi hisob-kitoblar keng tus olgan. Bunda inkasso ham naqd to'lov shaklida olib boriladigan hisob-kitoblarda, ham tijorat krediti shaklida olib boriladigan hisob-kitoblarda qo'llaniladi.

Ma'lumki, xalqaro hisob-kitoblar xalqaro miqyosda o'zaro kelishilgan qonun-qoidalarga asoslangan holda olib boriladi. Shu jumladan, inkasso shaklidagi hisob-kitoblar ham Parijdagi Xalqaro Savdo Palatasi tomonidan ishlab chiqilgan «Inkasso bo'yicha umumlashtirilgan qoida va an'analar»ga tayangan holda amalga oshiriladi. Mazkur qoidada inkassoning turlari: to'lov hujjatlarini taqdim qilish, to'lovni amalga oshirish va akseptlash tartibi, to'lovning bajarilganligi, akseptlanganligi yoki to'lov bajarilmaganligi (akseptlanmaganligi) haqidagi xabarni uzatish tartibi kabi muhim masalalar batafsil yoritilgan. Garchi ushbu qoidani amalda qo'llash har bir mamlakat uchun majburiy emas, balki tavsiya xarakterida bo'lsa-da, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida inkasso bo'yicha operatsiyani amalga oshirishda asos sifatida qo'llaniladi.

Umumlashtirilgan qoidada har bir inkassoning turi bo'yicha ta'rif berilgan, inkasso operatsiyasini amalga oshirish usuli va tartibi ko'rsatilgan, inkasso operatsiyasida ishlatiladigan turli atamalarga yagona izoh berilgan va boshqa muhim masalalar ko'rib chiqilgan. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi banklar amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarni hal qilish va ularning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Inkasso bo'yicha hisob-kitobda qatnashuvchi manfaatdor tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan mazkur qoidadan chetga chiqishga ruxsat beriladi, biroq bu holda agar tomonlar o'rtasida biron kelishmovchilik yuz bersa, Xalqaro xo'jalik (arbitraj) sudiga murojaat qilish huquqidan mahrum bo'ladilar.

Inkasso ta'rifi. Umumlashtirilgan qoidaga muvofiq inkasso bu bank operatsiyasi bo'lib, u:

- 1) akseptni yoki to'lovni qabul qilish;
- 2) qarshi tomondan aksept yoki to'lov amalga oshirilsagina hujjatlarni taqdim etish;
- 3) boshqa shartlarda hujjatlarni taqdim etish maqsadida hujjatlardagi olingan ko'rsatmalarga asoslangan holda amalga oshiriladi (har bir holat uchun alohida).

Boshqacha aytganda, inkasso bu hisob-kitob bank operatsiyasi bo'lib, bunda emitent-bank o'z mijozining ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilgan holda va mijozi taqdim etgan hujjatlariga ko'ra qarzdordan (importyordan) akseptni yoki to'lovga qarshi tijorat hujjatlarini berish yoki har bir holat uchun alohida o'zga shart bilan hujjatlarni berish va operatsiyani amalga oshirish bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatdir.

Odatda, emitent-bank mijozining ko'rsatmalarini bajarish uchun boshqa (inkassolovchi) bank xizmatidan foydalanadi. Mijozning ko'rsatmasida belgilangan bank, agar bunday ko'rsatma berilmagan bo'lsa, emitent-bank tanlagan ixtiyoriy bank yoki aksept va to'lov sodir bo'layotgan mamlakatda joylashgan boshqa bir bank inkassolovchi bank sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Inkassolovchi bank qarz to'lovchiga hujjatlarni bevosita taqdim qiladi va shuning uchun taqdim qiluvchi bank deb ham yuritiladi.

Bank mijozining ko'rsatmasini bajarish uchun boshqa bir bankning xizmatidan foydalanar ekan, u inkassolovchi bankning xizmat haqini o'z mijozi hisobidan to'lab beradi. Bundan tashqari, agar chet el qonun-qoidalariga va odatlariga ko'ra muayyan majburiyatlar mijozning topshirig'ini bajaruvchi bank zimmasiga yuklatilsa, u holda mijoz bu majburiyatlarni pul ko'rinishida qoplab berishi shart.

Inkasso operatsiyasida qo'llaniladigan hujjatlar Umumlashirilgan qoidalarda ikki guruhga ajratiladi:

I. Moliyaviy hujjatlar (o'tkazma veksel (tratta), oddiy veksel (solo), chek, to'lov tilxati va to'lovni amalga oshirish uchun ishlatiladigan boshqa hujjatlar).

II. Tijorat hujjatlari (yukni ortish hujjatlari, mulkka egalik huquqini beruvchi hujjatlar, sifat sertifikati, kelib chiqish ser-

tifikati, sugʻurta polisi va boshqa moliyaviy hujjat xarakteriga ega boʻlmagan hujjatlar).

Shu sababli inkassoning 2 turi mavjud:

– «sof» inkasso, yaʼni faqat moliyaviy hujjatlar qoʻllaniladigan inkasso;

– «hujjatlashtirilgan» inkasso, yaʼni moliyaviy hujjatlar bilan tijorat hujjatlari birga yoki faqat tijorat hujjatlarining oʻzi qoʻllaniladigan inkasso.

Umumlashtirilgan qoidalardan foydalanishning qulayligi shundaki, u inkasso boʻyicha hisob-kitob operatsiyasini bajarish amaliyotida yuzaga keladigan koʻpgina masalalar va atamalarni yagona talqin qilish imkonini yaratadi.

Xalqaro Savdo Palatasi qoidalariga amal qilish majburiy hisoblangan mamlakatlarda inkasso shaklidagi hisob-kitoblarni qoʻllashda banklar va ushbu banklarning mijozlari uchun ham umumlashtirilgan qoidalarga rioya qilish majburiydir.

Inkasso boʻyicha hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi quyidagicha (7-chizma):

1. Eksportyor va importyor oʻrtasida shartnoma tuziladi. Mazkur shartnomada, odatda, qaysi banklar vositasida hisob-kitob amalga oshirilishini tomonlar kelishib oladilar.

2. Bitimga muvofiq eksportyor tovarlarni joʻnatish uchun yuklatadi.

3. Eksportyor yuk tashuvchi tashkilotdan transport hujjatlarini oladi va oʻzining banki orqali importga yuboriladigan hujjatlar toʻplamini tayyorlaydi. Ushbu toʻplamga, agar bitim shartida koʻzda tutilgan boʻlsa, xaridor tomonidan akseptlanishi zarur boʻlgan oʻtkazma veksel ham kiritiladi.


4. Eksportyor hujjatlar toʻplamini inkasso topshirigʻi bilan oʻz bankiga taqdim qiladi. Umumlashtirilgan qoidaga koʻra inkassoga hujjatlarni taqdim qilgan eksportyor – «ishonuvchi», eksportyorning banki esa remitent-bank deb yuritiladi.

5. Remitent-bank dastlab taqdim qilingan hujjatlarni inkasso topshirigʻi va shartnoma shartlariga mos kelishini tekshiradi, soʻngra hujjatlarni topshiriq bilan birga xorijiy vakil-bankka joʻnatadi. Inkasso topshirigʻida remitent-bank importyordan olinadigan mablagʻlarni oʻtkazish va agar shartnomada trattaning ishtirok

etishi qayd qilingan bo'lsa) o'tkazma vekselni akseptlash xususida importyorning bankiga ko'rsatma beradi.

6. Inkasso operatsiyasida qatnashuvchi importyorning banki («inkassalovchi bank») importyorga («to'lovchiga») hujjatlarni tekshirish hamda bitimga muvofiq to'lovni amalga oshirish yoki vekselni akseptlash maqsadida inkassa topshirig'ini va hujjatlar majmuyini taqdim qiladi.

Agar eksportyorning banki bilan importyorning banki o'rtasida bevosita vakillik munosabatlari o'rnatilmagan bo'lsa, eksportyorning banki importyorning mamlakatida joylashgan va vakillik munosabatlari o'rnatilgan boshqa bir uchinchi bankka murojaat qiladi. Bunday holatda uchinchi vositachi bank «inkassalovchi bank» hisoblanadi va u bevosita o'zi yoki importyorning banki orqali hujjatlarni to'lovchiga taqdim qiladi. Hujjatlarni to'lovchiga taqdim qilgan bank «taqdim qiluvchi bank» deb yuritiladi.



7-chizma

7. Inkassolovchi bank importyordan to'lovni yoki trattani qabul qiladi.

8. Inkassolovchi bank remitent-bankka telegraf (teleks) orqali valuta mablag'larini o'tkazadi yoki akseptlangan vekselni pochta orqali jo'natadi.

9. Remitent-bank valuta mablag'larini eksportyorning joriy valuta hisobvarag'iga o'tkazib qo'yadi yoki (agar veksel ishtirok etgan bo'lsa) akseptlangan vekselni eksportyorga taqdim qiladi (ushbu vekselni eksportyor muddati yetib kelguncha o'zida saqlab turishi yoki indossament yozuvi bo'yicha boshqa bir shaxsga to'lov vositasi sifatida o'tkazib yuborishi mumkin).

Inkasso topshirig'ida hujjatlar xususida quyidagi ko'rinishidagi ko'rsatmalar berilgan bo'lishi mumkin:

- 1) importyorga hujjatlarni to'lovga ko'ra taqdim qilish;
- 2) importyorga hujjatlarni akseptga ko'ra taqdim qilish;
- 3) to'lov amalga oshirilmasdanoq hujjatlarni taqdim etish.

Yuqorida to'lovga ko'ra hujjatlarni taqdim etish ko'rsatmasi qo'llanilgan inkasso bo'yicha hisob-kitobni olib borish ketma-ketligi ko'rsatildi.

Akseptga ko'ra hujjatlarni taqdim etish ko'rsatmasi beriladigan inkasso tijorat krediti bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilayotganda qo'llaniladi. Bunda importyor inkasso topshirig'i bilan birga yuborilgan o'tkazma vekselni akseptlagandan keyingina to'varga egalik huquqini beruvchi hujjatlarni oladi. Aksept vositasida importyor belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi banklar vositachi sifatida faoliyat olib boradilar va ular qarzdor tomonidan to'lovning amalga oshirilishi yoki trattalarning akseptlanmasligi uchun javobgar hisoblanmaydi, balki ularning mas'uliyati importyorga yoki (agar shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa) boshqa uchinchi bankka yo to'lov, yo aksept uchun hujjatlarni (trattani) taqdim etish bilan cheklanadi. Agar importyor to'lovni amalga oshirishdan bosh tortsa yoki vekselni akseptlamasa, importyor banki bu haqda eksportyorga va uning bankiga o'z vaqtida xabar berishi lozim.

Inkasso shaklidagi hisob-kitoblardan importyor manfaatdorligi ko'proq hisoblanadi, chunki banklar uning tovarga egalik qilish huquqini hujjatlar to'plami yoki trattaning akseptlanishiga qadar himoya qiladi. Bundan tashqari, inkasso bo'yicha operatsion xarajatlar nisbatan yuqori emas. Tovarga egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlar to'lov amalga oshirilganidan so'ng importyor tasarrufiga o'tadi.

Tekshiruv uchun importyor qabul qilgan hujjatlar to'lov amalga oshirilmaguncha yoki vekselsiz akseptlanmaguncha bankning ixtiyorida qoladi. Agar pul to'lanmasa yoki tratta akseptlanmasa, sababi ko'rsatilgan holda bankka hujjatlar qaytarib beriladi.

Ba'zi hollarda hujjatlar banklar orqali yetib kelguncha importyor tovarni qabul qilgan bo'lishi mumkin (masalan, konsament originallaridan biri eksportyor tomonidan importyor bilan o'zaro kelishuvga binoan banklar orqali emas, balki bevosita pochtdan yuborilganda). Bunday holatlarda eksportyor uchun to'lov asossiz ushlanib qolishi yoki umuman to'lov amalga oshirilmaligi kabi risklar ehtimoli ortadi.

Inkasso shaklidagi hisob-kitoblar banklar uchun to'lovning o'z vaqtida olinishi ustidan nazorat o'rnatishga imkon yaratadi, biroq ular bo'yicha to'lovni yoki akseptni tezlashtirish maqsadida ta'sir ko'rsatishning real dastagiga ega bo'lmaydi.

Importyor korxonaning rahbari hamda bosh buxgalteri tomonidan imzolangan va muhrlangan bosh majburiyat asosida O'zbekiston bankiga inkasso va hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha kelib tushgan va inkassoga olingan tovarga egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlarni importyor tekshirish uchun oladi. Ushbu majburiyatda hujjatlar va chet eldan keltirilgan tovarlar bankning ixtiyorida to'lov amalga oshirilmaguncha qolishini importyor korxona tasdiqlaydi.

Hujjatlashtirilgan akkreditiv xalqaro savdoda to'lovni sug'urtalash borasida eng samarali va ko'p yoqlama usul hisoblanadi. Tashqi savdo hukumat nazorati ostida bo'lgan mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari olib borilayotganda ko'pincha hujjatlashtirilgan akkreditivni qo'llamay eksport va import bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishning imkoni bo'lmaydi.

Eksportyor uchun eng qulay hisob-kitob shakli hujjatlashtirilgan akkreditiv hisoblanadi, chunki hujjatlashtirilgan akkreditivda eksport tushumini o'z vaqtida olish muammosi to'liq hal qilingan bo'ladi. Xalqaro miqyosda banklararo hisob-kitobda akkreditivni tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha qo'llash Xalqaro Savdo Palatasi tomonidan ishlab chiqilgan «Hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha umumlashtirilgan qoida va an'analari» qonun-qoidasi asosida tartibga solinadi. Bugungi kunda ushbu qonunning 1993-yilda nashr qilingan MTP №500 shakli qo'llaniladi.

Umumlashtirilgan qoidada hujjatlashtirilgan akkreditivga ta'rif berilgan, uning turlari, amalga oshirish usullari va tartibi, tomonlarning majburiyati, akkreditiv hujjatiga qo'yiladigan talab va shartlar, amaliyotda qo'llaniladigan turli atamalarga yagona izoh, shuningdek, akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar olib borilganda yuzaga keladigan turli muammo va masalalar keng yoritilgan. Mazkur qoidani qo'llashga qo'shilgan barcha banklar va ularning mijozlari mazkur qonunda ko'rsatilgan barcha talablarga rioya qilishlari shart.

Hujjatlashtirilgan akkreditiv importyorning topshirig'i asosida eksportyor foydasiga hal qilingan bankning pul majburiyatini o'zida aks ettiradi. Hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha majburiyatni taqdim qiluvchi bank eksportyorga to'lovni (yoki trattalar akseptlanishini) amalga oshirishi yohud uchinchi bir vositachi bank orqali to'lovni (yoki trattalar akseptini) ta'minlashi shart. Bunday majburiyat shartli xarakterga ega, chunki uni amalga oshirishda eksportyor tomonidan ham ma'lum shartlar bajariishi talab qilinadi (eng avvalo, eksportyor akkreditiv bo'yicha barcha shartlarni bajarayotganini tasdiqlovchi hujjat bankka taqdim qilinishi zarur).

Umumlashtirilgan qoidada hujjatlashtirilgan akkreditiv qanday nomlanishi yoki belgilanishidan qat'iy nazar kelishuv deb qaraladi. Unga ko'ra hujjatlashtiriladigan akkreditivda bank o'z mijozining ko'rsatmasiga muvofiq ravishda agar akkreditivning barcha shartlariga rioya qilingan bo'lsa, uchinchi shaxsga (ya'ni eksportyorga) yoki uning buyrug'iga ko'ra boshqa bir shaxsga to'lovni, yoki ushbu shaxs taqdim qilgan trattalarning to'lovini

yo akseptlanishini, yoki boshqa bir bankka to'lovni amalga oshirish yohud trattalarni yo to'lash, yo akseptlash, yo neogosiatsiya qilish (ya'ni sotib olish yoki hisobga olish) borasida vakolat berilishini ta'minlashni ko'zda tutiladi.

Hujjatlashtirilgan akkreditiv shaklida hisob-kitoblar naqd to'lovni nazarda tutuvchi yoki qisqa muddatli (1 yilgacha) tijorat krediti asosida tuzilgan shartnomalar uchun ko'proq xos. Hujjatlashtirilgan akkreditivdan o'rta va uzoq muddatli tijorat krediti sifatida yetkazib berilgan tovarlar uchun hisob-kitobda foydalanish holatlari bank amaliyotida kam uchraydi. Yetarli darajada uzoq muddatga tijorat kredit sifatida yetkazib berilgan tovarlar bo'yicha hisob-kitobda akkreditiv shakldan foydalanishga tomonlar kelishgan bo'lsa, odatda, akkreditiv hisob-kitobning boshqa shakllari bilan birga qo'llaniladi va undan asosan bankka tijorat hujjatlari taqdim qilishga qarshi to'lov (ya'ni naqd to'lov) amalga oshirilayotgan tovar qiymatining qismini qoplashda ishlatiladi.

Tijorat krediti bo'yicha hisob-kitobda akkreditivni ijro etuvchi bankka yoki importyorga taqdim qilingan benefitsiarning (eksportyorning) muddatli trattasini akseptlash uchun ham akkreditiv ochilishi mumkin. Bunday holatlarda akkreditivni ijro etuvchi bank trattalarni akseptlaydi (yoki akseptni ham, to'lovni ham amalga oshiradi). Aksept vositasida bank akkreditiv bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaradi. So'ngra tomonlar veksel bo'yicha huquq me'yorlari asosida huquqiy munosabatlarga kirishadi (bunday munosabat eksportyor uchun ham qulay, chunki jahonning ko'plab mamlakatlarida veksel qonunchiligi umumlashtirilgan).

Emitent-bank akkreditivni o'zi bajarishi yoki eksportyorning bankiga yo benefitsiarga to'lovni o'tkazish, yo negosiatsiya qilish, yo uning trattalarini akseptlash orqali akkreditivni bajarish borasida vakolat berishi mumkin. Bunday holatda akkreditivni ijro etuvchi bank emitent-bankdan yoki (emitent-bank ko'rsatgan) uchinchi bankdan eksportyorga to'lanadigan summani qoplab berishni iloji boricha tezkor usulda (masalan, SWIFT teleksi orqali) amalga oshirishni

talab qiladi. Akkreditiv bo'yicha to'lovni talab qilish ramburs deyiladi.

Hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish ketma-ketligi quyidagicha (8-chizma).

1. Eksportyor va importyor o'rtasida bitim tuziladi. Ushbu bitimda yetkazib berilgan tovarlar uchun hujjatlashtirilgan akkreditiv shaklida hisob-kitob olib borish kerakligi ko'rsatiladi. Shartnomaning to'lov tartibini aniqlashtiruvchi bo'limida akkreditivni qaysi bank ochishi va qaysi bank orqali ushbu akkreditiv eksportyorga avizolanishi (xabar berilishi) belgilanadi. Bundan tashqari, bitimda akkreditivning turi, eksportyor to'lovni olishi uchun akkreditiv bo'yicha bankka taqdim qiladigan hujjatlar ro'yxati, xarakteri va ularni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar va boshqa savollar kelishib olinadi.

2. Shartnoma imzolangandan keyin eksportyor tovarni jo'natishga tayyorlaydi va importyorga (odatda teleks orqali) xabar beradi.

3. Xaridor bunday xabarni olgandan keyin o'z bankiga akkreditiv ochish to'g'risida ariza beradi va arizada akkreditivning barcha shartlarini (jumladan, kimning foydasiga akkreditiv ochilganligi, muddati, summasi, hujjatlar ro'yxati, tovarni yetkazib berish muddati va hokazo) ko'rsatadi. Akkreditiv ochish uchun ariza beruvchi importyor — buyruq beruvchi deb, akkreditivni ochuvchi bank esa — emitent-bank deb yuritiladi.

4. Akkreditiv ochilgandan so'ng emitent-bank eksportyorning (benefitsiarning) bankiga bu haqda xabar beradi.

5. Benefitsiarning banki emitent-bankdan akkreditiv bo'yicha ma'lumot olgandan keyin uning haqiqiyligini tekshiradi. So'ngra benefitsiarning banki eksportyorga akkreditivni avizolaydi (xabar beradi). Shuning uchun ham, benefitsiarning banki avizolovchi bank deb yuritiladi.

Avizolovchi bank benefitsiardan akkreditiv bo'yicha hujjatlarni qabul qilishga, ularni tekshirishga va emitent-bankka jo'natishga vakolatli hisoblangani uchun akkreditiv xatini yoki teleksini qabul qiladi.


6. Benefitsiar akkreditivni olgandan so'ng bitim shartlariga mos kelishini tekshiradi. Agar bitim shartlariga nisbatan nomu-

vofiqlik aniqlansa, benefitsiar akkreditivni shartli ravishda qabul qilishi yoki undan umuman voz kechishi mumkin. Agar akkreditiv shartnomaga to'la mos kelsa va undan benefitsiar rozi bo'lsa, eksportyor tovarlarni jo'natishga yuklatadi.

7. Yuk tashuvchi tashkilotdan transport hujjatlarini oladi.

8. Akkreditiv bo'yicha talab qilinadigan boshqa hujjatlar bilan birga (spetsifikatsiya, sifat va kelib chiqish sertifikatlar, sug'urta polisi, tratta va boshqalar) transport hujjatlarini o'z bankiga topshiradi.

9. Avizolovchi bank ushbu hujjatlarni shartnoma bilan taqqoslab tekshiradi, so'ngra emitent-bankka tratta va hujjatlarni to'lov, aksept yoki negosiatsiya uchun ilova xat bilan birga jo'natadi (ilova xatda valuta tushumi qanday o'tkazilishi ko'rsatiladi).



8-chizma

10. Emitent-bank hujjatlarni olgandan keyin ularni tekshirib chiqadi, soʻngra oʻz importyor mijozining hisobvaragʻini toʻlov summasiga debetlab benefitsiarning banki vakillik hisobvaragʻini kreditlaydi va SWIFT kanali orqali benefitsiarning bankiga teleks xabarini uzatadi.

11. Eksportyorning banki tushumni benefitsiar hisobvaragʻiga oʻtkazadi.

12. Importyor emitent-bankdan hujjatlarni olgandan soʻng barcha tovarga egalik huquqi unga oʻtadi.

Agar shartnomaga koʻra xaridorga qisqa muddatli kredit berish nazarda tutilgan boʻlsa, importyorga hujjatlar toʻlov summasi hisobvaragʻidan olinmasdanoq beriladi. Biroq bunday holat eksportyor uchun toʻlovning kafolatlanish darajasi kamayganligini anglatmaydi. Akkreditiv bankning shartli ravishdagi pul majburiyatini ifodalaydi. Shu bois agar eksportyor oʻz majburiyatlarini bajarsa, toʻlovni soʻzsiz har qanday holatda ham olishi taʼminlangan boʻladi. Bu yerda eng muhimi, akkreditiv muddati tugagunga qadar eksportyor oʻz majburiyatlarini bajarganligini tasdiqlovchi hujjatlarni bankka taqdim qilishidir, aynan shundagina mazkur hujjatlar toʻplami boʻyicha bankning toʻlovni bajarish toʻgʻrisidagi majburiyati (ushbu fursatga kelib akkreditivning muddati tugaganligi yoki tugamaganligidan qatʼiy nazar) kuchga kiradi.

Hujjatlashtirilgan akkreditivning quyidagi koʻrinishlari mavjud:

- chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan akkreditiv;
- tasdiqlangan va tasdiqlanmagan akkreditiv;
- oʻtkazma (transferabel) akkreditiv;
- qayta tiklanadigan (revolver) akkreditiv;
- qoplangan va qoplanmagan akkreditiv.

Chaqirib olinadigan akkreditiv emitent-bankning akkreditiv shartlariga ixtiyoriy vaqtda tomonlarni ogohlantirmasdanoq oʻzgartirish kiritishi yoki hatto bekor qilib yuborishi mumkinligini anglatadi.

Chaqirib olinmaydigan akkreditivda esa, aksincha, akkreditivning biron-bir shartiga oʻzgartirish kiritish yoki bekor qilish uchun barcha tomonlarning roziligi talab qilinadi. Shuning uchun

ham, xalqaro savdoda asosan chaqirib olinmaydigan akkreditiv qo'llaniladi.

Tasdiqlangan yoki tasdiqlanmagan akkreditiv emitent-bank hisoblanmagan boshqa bank tomonidan to'lovning qo'shimcha kafolati tasdiqlanishini ko'zda tutadi. Akkreditivni tasdiqlovchi bank akkreditiv shartiga ko'ra, agar to'lovni emitent-bank amalga oshirishdan bosh tortsa, o'z hisobidan akkreditiv summasini to'lab berish majburiyatini oladi. Xalqaro hisob-kitob amaliyotida importyor banki tomonidan ochiladigan akkreditivlarni, odatda, eksportyorning banki tasdiqlaydi.

O'tkazma (transferabel) akkreditiv eksportyorning o'z banki va emitent-bank orqali importyorga yuborgan tovarga egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlari asosida (ba'zan hali tovar yetib kelmasidanoq) importyor tomonidan tovarlar boshqa bir yoki bir necha xaridorlarga qayta sotib yuborilishini (ya'ni qayta eksport operatsiyasi sodir bo'lishini) ifodalaydi. Bunday akkreditiv shartnomasida importyor ikkinchi benefitsiar sifatida namoyon bo'ladi.

Qayta tiklanadigan (revolver) akkreditiv shartnomada qayd qilingan grafik bo'yicha vaqti-vaqti bilan tovar yetkazib turish ko'zda tutilgan holatlarda akkreditivni har safar yangi ochmaslik uchun qo'llaniladi. Revolver akkreditiv qo'llanilgandan so'ng avtomatik tarzda har safar dastlabki akkreditiv summasi (kvotasi) qayta tiklanishi ko'zda tutilishi mumkin. Akkreditivda asosan kvotadan foydalanish muddati (har oyda bir, har chorakda bir marta va h.k.) ko'rsatiladi. Odatda, revolver akkreditiv ochilganda banklar kvotaning summasini, akkreditivning necha marta va qanday chegaragacha (limitgacha) qayta tiklanishini ko'rsatadi.

Qoplangan akkreditiv ochilganda emitent-bank o'z majburiyatlari kuchga kirgan muddat davriga ijro etuvchi bank ixtiyoriga akkreditiv summasida valuta mablag'larining to'lovini amalga oshirish uchun ishlatib yuborish mumkinligi sharti bilan (qoplash maqsadida) taqdim qiladi. Akkreditivni qoplash tariqasida valuta mablag'larini taqdim qilish uchun emitent-bank ijro etuvchi bank bilan vakillik aloqasini o'rnatgan bo'lsa, vakillik hisobvarag'ini kreditlaydi. Agar bunday aloqa o'rnatilmagan bo'lsa,

uchinchi bank orqali pulni o'tkazadi. Shu yo'sinda emitent-bank akkreditivni bajarish vaqti kelganda ijro etuvchi bankda yuritiladigan hisobvaraqlari debetlash orqali to'lovni benefitsiarga o'tkazish huquqini oladi. Emitent-bank akkreditivni valuta mablag'lari bilan qoplash uchun ijro etuvchi bankda depozit ochishi mumkin.

Hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha bitimni amalga oshirish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Importyor va eksportyor o'rtasida ma'lum tovarlarni yetkazib berish (yoki xizmat ko'rsatish) shartnomasi tuziladi va bu shartnomada akkreditiv orqali hisob-kitob qilinishi belgilanadi. Akkreditivning muhim shartlari shartnomaning o'zidayoq ko'rsatilishi lozim.

2. Importyor o'z bankiga akkreditiv ochish to'g'risida ariza beradi.

3. Akkreditiv ochgan bank (emitent-bank) eksportyorning mamlakatidagi vakil bankka importyorning topshirig'i haqida xabar beradi.

4. Bank akkreditivni benefitsiarga (eksportyorga) avizolaydi.

5. Eksportyor tovarni jo'natishga yuklaydi.

6. Eksportyor yuk tashuvchi tashkilotdan transport hujjatlarini oladi.

7. Eksportyor avizolovchi bankka akkreditivda ko'rsatilgan hujjatlarni topshiradi.

8. Avizolovchi bank hujjatlarning akkreditiv shartlariga muvofiqligini tekshiradi. Agar bankka to'lovni amalga oshirish vaqolati berilgan bo'lsa va akkreditiv shartlarini eksportyor to'liq hamda benuqson bajargan bo'lsa, hujjatlar bo'yicha tegishli summani benefitsiarga to'lab beradi.

9. Avizolovchi bank emitent-bankka hujjatlarni yuboradi.

10. Benefitsiarga to'langan summa to'lovchi-bankdan remitent-bankka oldindan kelishilgan yo'l bilan o'tkaziladi (yuqorida qayd qilinganidek, ba'zan bunday banklararo hisob-kitobda uchinchi bank ham ishtirok etishi mumkin).

11. Emitent-bank hujjatlarni importyorga topshiradi va bir vaqtning o'zida uning joriy valuta hisobvarag'ini akkreditiv summasiga debetlaydi.

12. Importyor tovarlarni olishda hujjatlardan foydalanadi va shu vaqtdan boshlab tovarga egalik huquqi to'raligicha unga o'tadi.

Ishtirok etuvchi tomonlar bitimda aks ettirilgan muayyan tijorat shartlariga ko'ra akkreditivni quyidagi usullarda amalga oshirishlari mumkin:

- belgilangan hujjatlar benefitsiar tomonidan ijro etuvchi bankka taqdim qilinishiga qarshi to'lovni amalga oshirish (ijro etuvchi bank sifatida avizolovchi bank yoki emitent-bank vakolat bergan boshqa bir bank bo'lishi mumkin);

- ijro etuvchi bank tomonidan akkreditivda belgilangan muddatga kechiktirish ko'zda tutilgan to'lovni amalga oshirish;

- taqdim qilinish muddatiga (yoki shartnomada ko'rsatilgan boshqa muddatga) ko'ra akkreditivning buyruq beruvchisiga (ya'ni importyorga) yoki emitent-bankka yoki ushbu bank vakolat bergan boshqa bankka benefitsiar taqdim qilgan tratalarni ijro etuvchi bank tomonidan negosiatsiya qilinishi;

- benefitsiar ijro etuvchi bankka yoki (trattada ko'rsatilgan muddatda to'lovni yoki akseptni ta'minlash majburiyati emitent-bankka yuklatish sharti bilan) akkreditivning buyruq beruvchisiga (importyorga) taqdim qilgan tratalarni akseptlash.

Akkreditivda ijro etuvchi bank aniq ko'rsatilishi lozim. Emitent-bankning o'zi, avizolovchi bank, tasdiqlovchi bank yoki emitent-bank vakolat bergan boshqa bank ijro etuvchi sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Akkreditivning maxsus turlari mavjud bo'lib, eng ko'p uchraydigan turlari quyidagilardan iborat:

1. O'tkazma akkreditiv (Transferable Credit).

2. Qayta tiklanadigan akkreditiv (Revolving Credit).

3. Zaxirali akkreditiv (Standby Letter of Credit).

4. Qarama-qarshi akkreditiv (Vask-to-bask).

5. Qizil hoshiyali akkreditiv (Racking Credit «Red Clause»).

6. Yashil hoshiyali akkreditiv (Racking Credit «Green Clause»).

Transferabel akkreditivi bo'yicha benefitsiar akkreditivdan qisman yoki to'raligicha bir yo bir necha shaxslar (ikkilamchi benefitsiarlar) foydalanishi mumkinligini ko'zda tutuvchi huquqni aksept yoki to'lov amalga oshirayotgan bankka, shu-

ningdek, negosiatsiya qilishga vakolat berilgan ixtiyoriy bankka taqdim qiladi.

Qayta tiklanadigan (revolver) akkreditivda (agar boshqa shart ko'rib chiqilmagan bo'lsa) hujjatlarni taqdim qilish muddati va o'rnatilgan umumiy summa limitida har bir to'lovdan so'ng akkreditiv summasi (kvotasi) avtomatik ravishda qayta tiklanadi. Revolver akkreditiv shartida kvotadan foydalanish muddati (bir marta har oyda, kvartalda va hokazo) ko'rsatiladi.

Zaxirali akkreditiv (yoki stend-bay akkreditiv) akkreditivning maxsus turi bo'lib, ba'zan sof akkreditiv deb ham yuritiladi. O'z mohiyatiga ko'ra u ko'proq bank kafolatining maxsus ko'rinishini aks ettiradi. Bunday akkreditivlar (30-yillardagi jahon inqirozidan so'ng) AQSHda yuzaga kelgan, chunki AQSH qonunchiligiga ko'ra banklarga bevosita kafolat operatsiyasi bilan shug'ullanishga ruxsat berilmaydi, shuning uchun ham, ular kafolat o'rnini qoplaydigan boshqa yangi usulni qo'llashgan. Birinchi galda eksportyorning manfaatlarini himoya qiluvchi akkreditivning boshqa turlaridan farqli o'laroq stend-bay akkreditiv to'lovni ta'minlovchi instrument sifatida nisbatan universal xarakterga ega.

Xususan, zaxirali akkreditiv inkassa va bank o'tkazmasi shaklidagi hisob-kitoblarda to'lovning qo'shimcha ta'minoti sifatida qo'llanishi ham mumkin. Shu bilan birga, zaxirali akkreditiv importyor tomonidan oldindan to'langan avans to'lovlarining qaytarilishida yoki eksportyor bitim shartlarini tegishli tartibda bajarmaganda unga solinadigan jarimalarni to'latishni ta'minlashda (ya'ni importyorning manfaatlarini himoya qilgan holda avans kafolati yoki shartnomani bajarish kafolati sifatida) ham qo'llanishi mumkin.

Zaxirali akkreditivda benefitsiar tomonidan trattalar taqdim qilinishiga yoki akkreditiv bo'yicha buyruq beruvchi kontragentning o'z majburiyatlarini bajarmaganligini tasdiqlovchi hujjat (ariza) taqdim qilinishiga qarshi banklar to'lovni amalga oshiradi. Bu holatda banklar bunday arizaning asosligini (ya'ni importyor haqiqatda ham to'lovni (akseptni) bajargan yoki bajarmaganligini) tekshirishga majbur emaslar (odatda buni is-

tamaydilar ham), ya'ni aslida to'lovni hech bir shartsiz, so'zsiz bajaradilar.

Qizil hoshiyali akkreditivda tovarlar yuklanmasdanoq to'lovni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Muayyan bir summagacha avans to'lovini eksportyorga ijro etuvchi bank tomonidan berilishi nazarda tutilgan akkreditivning ixtiyoriy turi (chaqirib olinadigan, chaqirib olinmaydigan, tasdiqlangan, tasdiqlanmagan va boshqalar) qizil hoshiyali akkreditiv bo'lishi mumkin.

Benefitsiarga bunday avanslar (tovarlar xaridor uchun jo'natishga yuklanishdan avval) tovarlarni eksport qilish uchun zaruriy xarid va to'lovlarni amalga oshirish uchun kerak bo'lib qolishi mumkin (masalan, yuk tashuvchi tashkilotlar xizmatidan foydalanish uchun). Banklar avans to'lovini eksportyor tomonidan «tovarlar yuklatilishini bajarish majburiyati» yoki shunga o'xshash boshqa hujjat berilsagina amalga oshirishlari mumkin. Qizil hoshiyali akkreditiv ochilganda emitent-bank tovarlar, hatto jo'natishga yuklatilmagan taqdirda ham, to'langan avans summasini ijro etuvchi bankka qoplab berish majburiyatini o'z bo'yniga oladi. Banklar uchun bu turdagi akkreditivlar ta'minlanmagan kredit sifatida qayd qilinadi va shu sababli ularga kamdan kam holatlarda murojaat etiladi.

Chek mijozning joriy hisobvarag'ini olib boruvchi bankka mijoz tomonidan berilgan buyruq bo'lib, unga ko'ra bank chekni taqdim qiluvchiga yoki chekda ko'rsatilgan boshqa shaxsga muayyan summani to'lab berishi ko'zda tutiladi. Mijoz bankda joriy valuta hisobvarag'ini ochganda chek daftarchasini oladi. Ushbu kitobcha bo'yicha mijoz joriy hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'i doirasida chek yozish huquqiga ega bo'ladi (agar bank bilan mijoz o'rtasida overdraftga ijozat berish to'g'risida o'zaro kelishuv mavjud bo'lsa, chek orqali mijoz hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'idan ham ortiqroq sarflashi mumkin).

Chekda quyidagi rekvizitlar ko'rsatilishi shart:

- bankning nomi;
- summani to'lash to'g'risida buyruq;
- pulni qabul qiluvchi benefitsiar;
- chek yozib berilgan sana va joy;
- chek yozib beruvchining shaxsiy imzosi.

Chek ixtiyoriy, erkin shaklga ega bo'lishi va oddiy qog'ozga yozilishi mumkin. Biroq bank amaliyotida, odatda, chek shaklining maxsus o'rnatilgan andozasi, ayniqsa, xalqaro hisob-kitoblarda chekning maxsus shakli qo'llaniladi.

Chek blankasining o'ng burchagi yuqorisida bankning kod raqami ko'rsatiladi. Ushbu kod raqami chekni taxlashda ishlatiladi. Chekning pastki qatorida magnit siyohida yozilgan va kompyuterda qayta ishlash uchun qo'llaniladigan raqamlar yoziladi:

Chapdan o'ngga qarab – chek raqami, bankning kod raqami, mijoz hisobvarag'ining raqami, chek summasi yoziladi.

Chek kimning nomiga yozilganligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

– nomlangan chek (pay to the name of N) – faqat Nga to'lang;

– orderli chek (pay to the order of N) – Nga yoki uning buyrug'iga ko'ra to'lang;

– taqdim qilish cheki (pay to the bearer) – taqdim qiluvchiga to'lang.

Orderli chek chekni qabul qilgan shaxsga o'tkazma yozuv – indossament (endorsement) yordamida pulni olish huquqini boshqa shaxsga o'tkazish imkonini beradi. Aytaylik, orderli chekda: «Pay to the order of John Wild» ko'rsatmasi berilgan bo'lsin. Chekning orqa tarafida Jon Uayld: «Pay to the name of Robert Green» ko'rsatmasini berishi, imzolashi va sanasini ko'rsatishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, pulni bankdan olish huquqi indossament yozuvi bo'yicha boshqa shaxsga (Robert Gringa) o'tdi.

Indossamentning to'rt turi mavjud. Ular:

Blankali indossament. Chekni qabul qilgan shaxs chekning orqa tarafiga o'z imzosini qo'yadi va shundan so'ng taqdim qilish chekiga aylanadi. Buning natijasida chekni ushlab turuvchi ixtiyoriy shaxs bankdan chekda ko'rsatilgan summada pulni olishi mumkin bo'ladi.

Nomlangan indossament. Chekni qabul qilgan shaxs chekning orqa tarafiga o'z imzosini qo'yadi va chek bo'yicha pulni olish huquqini o'tkazayotgan shaxsning nomini ko'rsatadi.

Maqsadli indossament. Chekni qabul qilgan shaxs chekning orqa tarafiga boshqa shaxsga nima sababdan chekni o'tkazganini ko'rsatadi va chek bo'yicha pulni olish imkoniyatini ma'lum darajada cheklab qo'yadi. Ko'pgina hollarda bunday chek «faqat deponent uchun» belgisiga ega bo'ladi. Ayrim hollarda ushbu indossament nomlangan turi bilan birga qo'llanishi ham mumkin («Janob . . . ga to'lang, faqat deponent uchun»).

Aylanmaydigan indossament. Agar chekni qabul qilgan shaxs chek bo'yicha pul to'lanmay qolish holati yuz berganda unga nisbatan e'tiroz bildirish imkoniyatini cheklamoqchi yoki umuman oldini olmoqchi bo'lsa, indossament yozuviga «aylanmaydigan» so'zini kiritadi. Biroq bunday indossament qonuniy kuchga kirishi uchun chek bo'yicha pul o'tkazilayotgan bank o'z indossamenti yordamida tasdiqlashi zarur.

Bank indossamentlarning ketma-ketligini tekshirib chiqishi shart, ammo u indossamentlarning sifati uchun javobgar hisoblanmaydi, ya'ni indossantlar imzosining soxta yoki haqiqiyliги uchun mas'ul hisoblanmaydi.

Krosslangan chek (crossed check). Chekning old tomoniga ikkita parallel chiziqlar qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, chek bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summa chekni taqdim qilgan shaxsning hisobvarag'iga shu bankning o'zida yoki boshqa bankka naqd pulli to'lov bilan emas, balki naqd bo'lmagan pulni o'tkazish orqali to'lanishi ko'zda tutiladi. Cheklarni krosslash cheklar o'g'irlanganda ulardan foydalanishni murakkablashtiradi, chunki bunday cheklar bo'yicha naqd pul olish mumkin emas. Cheklar tipografik yo'l bilan oldindan krosslangan bo'lishi mumkin, ya'ni bank mijozi chek kitobchasini olganda undagi barcha cheklar krosslangan bo'ladi.

Cheklarni krosslashning turli shakllari mavjud. Masalan, chek «maxsus» shaklda (special crossing) krosslanishi mumkin. Bunda chiziqlar orasiga bankning nomi va pulni oluvchi shaxs hisobvarag'ining raqami aniq qilib ko'rsatiladi yoki bankning nomi hamda «aylanmaydi, qabul qiluvchining hisobvarag'i» yozuvi («Smalltown Bank, not negotiable, account of payee») qayd qilingan bo'ladi. Ayrim hollarda, ya'ni pul o'tkazilayotgan bank-

ning nomi noma'lum bo'lsa, chiziqlar orasiga quyidagicha yozuvlar kiritiladi: «and So», «Not negotiable», «A/s rauee» (umumiy krosslash).

Tasdiqlangan chek (certified check). Bank o'zining maxsus yozuvi bilan mijozning imzosi haqiqiyligini va chek bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summaning mavjudligini tasdiqlaydi. Bank bunday chek bo'yicha to'lovni amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi va to'lovdan voz kechishiga ruxsat berilmaydi. Gap shundaki, chek tasdiqlanayotgan vaqtda chekni yozib beruvchi mijozning hisobvarag'idan tegishli summa olinadi va maxsus hisobvaraqqa kiritiladi. Chekning old tarafiga «certified» muhri bosiladi va sana, bankning nomi hamda mas'ul xodimning imzosi qo'yiladi. Garchi bank chekni tasdiqlashi shart bo'lmasa-da, jahonning yirik banklarida ushbu operatsiya keng tarqalgan. Ayniqsa, naqd pullarga muqobil vositalarga ega bo'lish muhim bo'lgan joylarda mazkur chekdan (masalan, qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan operatsiyalarda) keng foydalaniladi.

Xazinachining cheki (cashier's check) — bu bank xazinachisining imzosiga ega bo'lgan chek bo'lib, u bank tomonidan (o'z majburiyatlarini to'lash, o'z ehtiyojlari uchun asbob-uskunalarni sotib olish va boshqa sabablarga ko'ra) muomalaga chiqariladi. Ushbu cheklar nihoyatda ishonchli hisoblanadi va to'lov vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Ayrim hollarda banklar o'z mijozlariga nisbatan qimmat hisoblanadigan tasdiqlangan cheklar o'rniga bunday cheklarni sotadilar.

Ma'lumki, chekning ikki ko'rinishi mavjud:

I. Iste'mol cheki.

II. Bank cheki.

Ushbu chekning har bir ko'rinishi bo'yicha olib boriladigan hisob-kitob operatsiyasining tartibi ham o'zaro farq qiladi.

I. Iste'mol cheki yordamidagi hisob-kitoblar tartibi:

1. Eksportyor va importyor o'rtasida savdo shartnomasi tuziladi. Bitimda chek vositasida hisob-kitob yuritilishi qayd qilinadi.


2. Eksportyor tovarlarni jo'natishga yuklatgandan so'ng yuk tashuvchi tashkilotdan transport hujjatlarini oladi.

3. Tovar hujjatlarini transport hujjatlari bilan birga import-yorga jo'natadi.

4. Importyor bitim shartiga ko'ra hujjatlarni olgandan keyin yoki tovarlarni qabul qilgandan keyin eksportyor nomiga chek yozadi va unga jo'natadi.

5. Ushbu chek nomlangan chek turi bo'lmasa, eksportyor uni qabul qilgandan so'ng qimmatli qog'ozlar bozorida sotib yuborishi yoki o'z qarzlarini to'lashda mazkur chekni to'lov vositasi sifatida ishlatib yuborishi mumkin. Agar eksportyor nomlangan chekni qabul qilgan bo'lsa, ushbu chekni o'z bankiga taqdim qiladi.

6. Oxirgi holatda eksportyorning banki importyorning bankiga chek bo'yicha to'lovni bajarish to'g'risida topshiriq beradi.



9-chizma.

7. Importyorning banki topshiriq olganidan keyin importyorga xabar beradi va uning joriy valuta hisobvarag'idan tegishli summani hisobdan chiqaradi.

8. Importyorning banki benefitsiarning bankiga pulni o'tkazadi.

9. Benefitsiarning banki pulni eksportyorning joriy valuta hisobvarag'iga o'tkazadi va bu haqda unga xabar beradi.

II. Bank cheki yordamidagi hisob-kitoblar tartibi:

1. Eksportyor va importyor o'rtasida savdo shartnomasi tuziladi. Bitimda chek vositasida hisob-kitob yuritilishi qayd qilinadi.

2. Eksportyor tovarlarni jo'natishga yuklatgandan so'ng yuk tashuvchi tashkilotdan transport hujjatlarini oladi.

3. Tovar hujjatlarini transport hujjatlari bilan birga importyorga jo'natadi.

4. Bitim shartiga ko'ra importyor tovar hujjatlarini olgandan so'ng o'z bankiga eksportyor nomiga chek yozish to'g'risida ko'rsatma beradi.

5. Importyorning banki chekni yozadi va eksportyorga jo'natadi.

6. Benefitsiar bank chekining turiga qarab uni fond birjasida sotib yuboradi, to'lov vositasi sifatida uchinchi shaxsga o'tkazadi yoki o'z bankiga taqdim qiladi.

7. Oxirgi holatda eksportyorning banki to'lov uchun importyorning bankiga chekni taqdim qiladi.

8. Importyorning banki bu haqda importyorga xabar beradi va uning schyotidan tegishli summani hisobdan chiqaradi.


9. Importyorning banki pulni eksportyorning bankiga o'tkazadi.

10. Eksportyorning banki to'lov summasini benefitsiarning joriy valuta hisobvarag'iga o'tkazadi va unga xabar beradi.

Chek shaklidagi hisob-kitoblar yuqori darajadagi risk bilan kuza-tilganligi uchun ularni qo'llash doirasi ma'lum darajada chegara-langan.

Shulardan kelib chiqqan holda xalqaro hisob-kitoblarning turli shakllari quyidagilarni ta'minlaydi, deyish mumkin:

– sotuvchi va xaridor uchun tovar va xizmatlar, kreditlar, sarmoyalar va boshqalar bo'yicha hisob-kitoblarni qulay shaklda amalga oshirish;



10-chizma.

- tashqi savdo ishtirokchilarning har biri uchun qulay vaqtda hisob-kitoblarni bajarish;
- tomonlarning o‘z majburiyatlarini to‘la-to‘kis ado etishlarini ta’minlash;
- tashqi savdoda xorijiy valutalardan mumkin qadar unumli foydalanishga sharoit yaratish.

Albatta, xalqaro hisob-kitob operatsiyalarining rivojlanishi va hajmining kengayishida yangi zamonaviy elektron vositalardan foydalanish hamda ularni takomillashtirish jarayoni katta ta’sir ko‘rsatadi. Yangi texnik vositalarning qo‘llanilishi tufayli dunyoning ixtiyoriy chekkasi bilan sanoqli daqiqalarda hisob-kitobni bajarish imkoniyati yaratildi hamda ushbu operatsiyalarni bajarish muddatining cho‘zilib ketishi va buning natijasida yuzaga keladigan valuta kurslarining o‘zgarishi riskini ma’lum darajada oldini olishga imkon tug‘ildi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasida xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilishda sezilarli ijobiy siljishlar yuz berdi, bunga yorqin dalil sifatida nafaqat Oʻzbekistonning SWIFT telekommunikatsiyasiga aʼzo boʻlganini taʼkidlash, balki qator xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalarning oʻrnatilishi, koʻplab yirik chet el banklarining Oʻzbekistonda oʻz vakolatxonalarini ochishi, Oʻzbekistondagi banklarning xorijiy banklar bilan vakillik aloqalarini kengaytirishlari va shu kabi ijobiy holatlar yuz berayotganini taʼkidlash joiz.

6.3. Xalqaro hisob-kitoblarda SWIFT tizimi

Jahon bozorining rivojlanishi valuta, kredit, moliya hisob-kitob operatsiyalari hajmining oshishiga olib keladi. Hujjatlar aylanishi oshadi, biznes toʻlov qogʻozlari soni va bir xil shaklga keltirilgan moliyaviy hamda tijorat hujjatlari soni koʻpayadi. Bozor ishtirokchilari oʻrtasida axborot almashuvi, qimmatli qogʻozlar va valuta kurslari haqidagi maʼlumotlar, foiz stavkalari, turli bozorlarning holati, hamkorlarning ishonchliligi va shu kabi boshqa maʼlumotlarning uzatilishi yuz beradi. Axborot oqimi milliy chegaralardan chiqadi. Shuning natijasida xalqaro miqyosdagi axborot xizmatlar bozorida bank maʼlumotlari yuzaga keladi. BMT doirasida hukumatlararo va boshqa iqtisodiy, tijorat, moliyaviy tashkilotlar ishini koordinatsiyalash uchun tashkiliy tuzilma yaratildi. Doimiy ishchi guruhi yangi standartlar ishlab chiqarmoqda va xalqaro valuta, kredit, moliya hisob-kitob operatsiyalarida amalda qoʻllanilayotganlarini takomillashtirmoqda. Vaqtincha ishchi guruhi davriy tarzda qimmatli qogʻozlar, yoʻl cheklari, oltin va boshqa qimmatbaho metallar bilan boʻladigan operatsiyalarda SWIFT tarmoqlaridan foydalanib, bank operatsiyalarini amalga oshirish muammolarini muhokama qilmoqdalar. Axborot almashuvi tizimi nafaqat tor doiradagi mutaxassislar, balki bozor iqtisodiyotining barcha ishtirokchilari foydalanishlari uchun moʻljallangan.

Xalqaro banklar tarmogʻi doimiy oʻsib bormoqda. Maʼlumotlar va telekommunikatsiya xizmatiga nisbatan ortib borayotgan talabni qondirish uchun xalqaro tarmoq tashkil etilmoqda.

U to'lovlarni o'tkazish, aktivlarni boshqarish va ma'lumotlar bilan ta'minlash bo'yicha kompleks xizmat ko'rsatadi. Ular ichida HEBS (Hexagon Electronic Banking System) kabi mashhur tarmoqlar mavjud. Lekin dunyoda eng yirik moliyaviy xabarlar tarmog'i SWIFT hisoblanadi. Bu tizimga qo'shilgan har qanday bank o'zini jahon moliya uyushmasining to'laqonli a'zosi deb hisoblashi mumkin.

70-yillar boshida G'arbiy mamlakatlardagi yirik moliyaviy muassasalar jadal sur'atda hajmi ortayotgan xalqaro to'lov xabarlarini qayta ishlashni avtomatlashtira boshladi. Tijorat telekommunikatsiya tarmoqlari soni ko'paydi. Ularning har biri o'z shaxsiy formatlari, aloqa vositalaridan, ma'lumotlarni qayta ishlash tartibidan va kirishdan himoyalaniish usullaridan foydalandi.

1973-yil Yevropa va Amerikaning 250 ta yirik banki Xalqaro Banklararo moliyaviy Telekommunikatsiyasi — SWIFT (Society For Worldwide Interbank Financial Telecommunication) ga asos soladi. Jamiyatning vazifasi — yagona bank xabarlarini tizimini yo'lga solish va qo'llab-quvvatlash edi. U ishtirokchilarga sutka davomida dunyoning har qanday nuqtasidagi moliyaviy ma'lumotlarni standart shaklda kiritish imkonini beradi. SWIFT xalqaro tarmog'i 1977-yildan boshlab faoliyat ko'rsata boshladi. Ma'lumotlar tarmoq bo'yicha standartga muvofiq tizimlashtirilgan ma'lumotlar ko'rinishida uzatiladi. Hozirgi kunda SWIFT tizimi 70 davlatning 4000 ortiq bankini o'z ichiga oladi.

Bank xabarlarini standartlarini yaratish va qayta ishlashda SWIFT tizimi firma — mutaxassislarigina emas, shuningdek, standartlar bo'yicha xalqaro qo'mita, Xalqaro savdo palatasi (ICC) ham ishtirok etadi. Natijada banklarning moliyaviy va tijorat operatsiyalari haqidagi namunaviy xabarlar standartlari ishlab chiqildi. Ularning ayrimlari xalqaro miqyosda tan olindi. Misol sifatida banklarning identifikatsiya kodlari — BIC kodlarni keltirish mumkin.

SWIFT tarmog'i standartlarida uzatiladigan ma'lumotlarning kategoriyasi, guruh va tillari aniq belgilangan. Xabarlarini uzatishdan tashqari tizim IFT (Interbank File Transfer) xizmati darajasida banklararo fayllar bilan almashishni qo'llab-quvvat-

laydi. Standartlarni jahon banklari amaliyotiga kiritish SWIFT-ning eng asosiy yutuqlaridan biridir. Bu jarayon moliyaviy muassasalarga hujjatlar bilan almashishda nizo va xatoliklarni chetlab o'tishga imkon beradi. Hozirda tarmoq asosini uchta kommuni-katsiya stansiyalari tashkil etadi. Ular Amsterdamda (Gollan-diya), Bryusselda (Belgiya), Kopengagenda (Daniya) joylash-gan. Bundan tashqari, o'z mamlakatlaridagi mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi mintaqaviy stansiyalar mavjud. Zamonaviy tex-nologiya va talablar SWIFT tarmog'ini zamonaviylashtirishni muvofiqlashtiradi. Natijada arxitekturasini to'rt darajadan iborat yangi – SWIFT-II yaratildi.

SWIFT qoidalari unga a'zo tashkilotlar amalga oshiradigan biznes bilan shug'ullanishi va xalqaro telegrafik moliyaviy ma'lumotlar almashinuvida ishtirok etishini talab qiladi.

SWIFT tashkiloti rasman Belgiyaning kooperativ jamiyati bo'lib, Bryusselda ro'yxatga olingan. U to'laqonli SWIFT a'zo-banklariga tegishli, uning aksiyalari esa banklarga sotilgan.

Banklar 1 standart ma'lumot yuborish uchun oyiga 3,5 yevro hisobida to'lov to'laydi.

SWIFT tizimi quyidagi turdagi operatsiyalarni bajaradi:

- mijoz to'lovlari;
- bank to'lovlari;
- hisobvaraqlar bo'yicha tasdiqnomalar (debet, kredit);
- valuta-konversiya operatsiyalar;
- debet kredit operatsiyalar;
- foizlar to'lovi;
- hisobvaraqlar ko'chirmalar.

Har tur ma'lumot uchun maxsus format ishlangan, unda majburiy va ixtiyoriy rekvizitlar mavjud bo'ladi.

SWIFT dan foydalanishning qisqacha sxemasini misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

1. To'lov operatsiyalarini amalga oshiruvchi tomonlar. Ular qabul qiluvchi tomon nomiga pul o'tkazishni hal qiladilar. Kor-poratsiyalar, tashkilotlar, banklar, jismoniy shaxslar to'lov operatsiyalarini amalga oshiruvchilar hisoblanadi.

2. To'lov operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmi qu-yidagicha bo'lib, yuqorida keltirilgan tomonlar banklarga telegraf

to'lovni amalga oshirish uchun telefon, yozma ravishda (teleks, teletayp, pochta, faks, telegraf) orqali xabar beradilar. Tekshirish uslublari topshiriq berish usullariga bog'liq. Teleks va teletayp avtojavoblar va mijoz imzosini solishtirish kalitlariga ega. Telegraf tizimlari mijoz imzosini solishtirish kalitlari, parollari va boshqa shaxsni aniqlovchi maxsus shakllarga ega bo'ladi. Telefondan berilgan topshiriqlarni tekshirish ularga qo'ng'iroq qilish yo'li bilan tekshiriladi. Pochta orqali kelgan topshiriqlarda bank imzolarni tekshirishi shart.

3. To'lovni qayta ishlash va yetkazish. Bank to'lov operatsiyasini quyidagi telegraf liniyalaridan birida amalga oshirishi mumkin: «Fedwire», «Bankware», «CHIPS», «SWIFT».

Bunda operatsiyalar to'lovni bankning operatsion tizimiga kiritadi, birinchi pog'ona tekshiruvchi ma'lumotlarni tekshiradi, ikkinchi pog'ona tekshiruvchi esa tayyor swift formatini tekshiradi va avtorizatsiya qiladi. Shundan so'ng to'lov swift formatida SWIFT tizimi orqali avval SWIFT markazlaridan biriga boradi (o'z navbatida, bank bu ma'lumotni SWIFT o'z ishloviga olganligi to'g'risida tasdiq oladi) va qabul qiluvchi bankga yuboradi.

Hozirgi kunda ma'lumotlar 10 kategoriyaga bo'lingan:

1-kategoriya — mijozlar to'lovlari;

2-kategoriya — banklarning to'lovlari;

3-kategoriya — valuta operatsiyalari;

OPTION, FOREX, SWAP, OVERNITGHT

4-kategoriya — cheklar va naqd pullar;

5-kategoriya — qimmatli qog'ozlar;

6-kategoriya — qimmatbaho metallar va toshlar;

7-kategoriya — savdo moliyalash akkreditiv, inkasso, garantiya;

8-kategoriya — yo'l cheklari;

9-kategoriya — umumiy kategoriya bo'lib debet, kredit tasdiqnomalar (avizo) hisobvaraq bo'yicha to'lovlar.

Ma'lumotning matni ikkilik kod bilan belgilangan maydonchalar ketma-ketligidan tashkil topadi.

Misol uchun:

32: Summa;

- 50: Mablag‘ yuboruvchi tomon;
- 59: Benefitsiar;
- 70: Maqsad;
- 71: Komissiya hisobvarag‘i;
- 72: Bankning axboroti.

Valutani belgilash uchun ISO (International Standards Organization) ishlab chiqqan uch harfli koddan foydalaniladi (masalan, USD, UZS). SWIFTning asosiy yutuqlaridan biri Xalqaro standartlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan maxsus standartlarni yaratish va foydalanishdan iborat. Bank hujjatlarini unifikatsiyalash, har xil davlatlardagi hujjatlarni to‘ldirish an‘-analarining har xilligi va til muammolari bilan bog‘liq xato va qiyinchiliklarni yengib o‘tishga imkoniyat berdi.

SWIFT standartlarini ustunliklari banklar uchun shunchalik mos ediki, bunda boshqa o‘xshash tizimlar (Londonning CHAPS, Parijning SAGITTAIRE, Nyu-Yorkning SHIPS tizimlari) ularni o‘zida qo‘llaydi.

SWIFT ma’lumotlarni yuqori darajada himoyalashni ta’minlaydi. SWIFTning asosiy talabi – terminallarni ulash tartibidir. Tizim har bir foydalanuvchi uchun alohida yashirin kod bilan qayd etish orqali tizimli xabarlar nazoratini tashkil etish asosida har bir ulangan terminalni aniqlashi (tanishishi) kerak. Bu xabar maxsus qurilma yordamida shifrlanadi. Qurilmada modul bo‘lib, u tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda shifrllovchi kalitini hosil qiladi.

Foydalanuvchiga keyingi qayd qilish uchun yangi kod beriladi. Bu – kalitlar almashishi tartibi deb yuritiladi. Terminal aniqlanganligi tasdiqlangandan so‘ng tarmoqda qayd etiladi. Barcha kodlar va kalitlar SWIFT terminaliga mikroprotssessor karta (MK) yordamida kiritiladi. MKni xavfsizlik tizimi (User Security Enhancement – USE) ishlab chiqadi. Terminalni tarmoqqa ulash tartiblaridan birortasi buzilgan taqdirda (shovqin, liniya uzilishi aniq, uzatishda xato aniqlansa yoki xabar formati tizimiga kiritish tartibi noto‘g‘ri bo‘lsa va hokazo) terminal avtomatik ravishda o‘chadi. Maxsus faylda bu hol qayd etiladi. Shu orqali past sifatli liniya aniqlanadi.

Foydalanuvchining imtiyozini farqlash vositasi axborot xavfsizligini ta'minlovchi qo'shimcha chora hisoblanadi. Bundan tashqari, tizimda tez-tez to'xtab qolishdan himoyalash uchun axborotlarni zaxira nusxalab qo'yish hisobga olingan. SWIFT tarmog'i uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish, maxsus dasturiy apparatli interfeys mavjud. Bugungi kunda SWIFT tarmog'i uchun terminal komplekslarni taklif etuvchi 100 dan ortiq firma mavjud. SWIFT atamaal komplekslari uchun platforma ishlab chiqaruvchilar o'rtasida Digital Equipment (VAX va Alpha tizimi), IBM (PS/2, S370, RS/6000), Newlett Packard (Apollo 9000), Sun Microsystems (SPARC oilasiga mansub protsessorli kompyuterlar) kabi kompaniyalar mavjud. Bugungi kunda SWIFT terminal komplekslar bozorida Digital va IBM nisbatan mashhur hisoblanadi.

Hozirda SWIFT tizimi bank operatsiyalari, valuta va pul bozori, qimmatli qog'ozlar savdosi, savdo operatsiyalariga xizmat ko'rsatish, xalqaro to'lovlarni amalga oshirish kabi muhim moliyaviy faoliyat sohalarida ma'lumotlar bilan tezkor almashuvni ta'minlaydi. Vosita va xizmat haqi yuqori bo'lishiga qaramasdan SWIFT tarmog'i abonentlari soni ko'payib bormoqda. Bu hol SWIFT jamiyatiga kelgusida moliya faoliyatining boshqa sohalarini qamrab olgan holda tarmoqni yanada kengaytirish imonini beradi.

SWIFTning asosiy vazifasi har qanday bank ma'lumotlari va moliyaviy ma'lumotlarni hisob-kitob texnika vositalari orqali tezkor uzatish hisoblanadi. Birinchi uzatishlar 15 mamlakatning 513 bankini qamrab olgan. 1993-yilga kelib SWIFT xizmatlaridan 92 mamlakatning 3700 bank va moliyaviy muassasalari foydalangan. SWIFTdan nobank muassasalar — brokerlik va dilerlik firmalari, kliring, sug'urta, moliyaviy kompaniyalar ham foydalanishi mumkin. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida jahon moliya bozori operatsiyalarini standartlashtirish muammolari ham yechilmoqda. U yerda sotish, xarid qilish, kafolat va qimmatli qog'ozlar bo'yicha boshqa muomalalar amalga oshiriladi.

SWIFT valuta kliring funksiyasini bajarmaydi. SWIFT tizimi-ning avtomatik ishlashi nazoratni, jo'natuvchi va qabul qiluvchining haqiqiyligini tekshirishni, xabarlarini tezlik bilan taqsimlashni va ma'lumotlarni shifrlashni qamrab oladi. Agar u qabul

qiluvchi tarmoqqa ulangan bo'lsa, xabar to'g'ridan to'g'ri aloqa kanali orqali uzatiladi yoki talab qilib olingunga qadar umumiy bozorda turadi. Ma'lumotlarning uzatilishi va ishlashi 20 soniya davom etadi. SWIFT ning asosiy yutug'i xalqaro axborot tashkiloti — ISO tomonidan tan olingan bank hujjatlashtirish standartlari, uning yaratilishi va qo'llanishidadir. Bank hujjatlarining bir xil shaklga keltirilishi ko'plab qiyinchiliklar va xatolarni istisno qilishga imkon beradi. Banklararo kommunikatsiya tizimi standartlarining yutug'i shunchalik yaqqol ko'rina boshladiki, milliy darajadagi analogik tizimlar buni o'ziga qurol qilib oldi (CHAPS — Buyuk Britaniya banklararo kliring hisob-kitoblari tizimi. U o'z ichiga 200 ta bank va bir nechta hisob-kitob markazlarini oladi: Amerika CHIPS, Shveysariya SINi va boshqalar).

70-yillardan boshlab SWIFT tizimida ma'lumotlar va manzillar standart formatlari tashkil qilina boshladi. 1974 yilda xalqaro qo'mita mijozlar to'lovlari harakati, banklararo to'lovlar harakati, valuta va kredit bo'yicha ma'lumotlar, banklarning joriy hisob raqamlaridan bir kunlik ko'chirmalar kabi ma'lumot va xabarlarining qayta ishlov berilishi tugatildi, ya'ni mukammallashtirildi. 1988-yilda qimmatli qog'ozlarni sotish va rasmiylashtirish, inkasso va akkreditiv operatsiyalari, mijozlar uchun balans hisoboti, qimmatbaho metallar savdosi, yo'l cheklari, kafolatlar va boshqa operatsiyalarni standartlashtirish ishlari tugatildi.

SWIFT orqali kompyuterlar bank va moliya xabarlarini 7 kategoriyaga bo'lib ko'rsatadi. Ular esa o'zida 70 xil turdagi ma'lumotlarni jamlagan. Har bir turdagi bank va moliya muassasalari talab qiladigan elementlarning barchasini to'liq va aniq beradi.

Xavfsizligi. O'tkazish xavfsizligi falsifikatsiya, yo'qotishlar va javobsiz qolishdan to'lov topshiriqnomalarini va moliyaviy ma'lumotlarini saqlash (muhofaza) yuqoridagi tizimga bog'liq.

SWIFT hisoblash markazlarida xavfsizlikni ta'minlovchi dasturlardan tashqari, an'anaviy to'lov tizimlaridan farqli o'laroq tizimning maxsus choralari joylashtirilgan:

— sessiyaning boshlanishi va oxirida tizim terminalidan foydalanishni tekshirish;

- hamma kirish va chiqish ma'lumotlarini avtomatik raqamlash, raqamlash tarkibini tizimning o'zi nazorat qiladi;
- individual kalitlarga qarab ikki bank o'rtasida avtomatik ma'lumot almashinish;
- qabul qiluvchi bank tomonidan axborotlarni avtomatik tekshirish.

SWIFT aloqa liniyalari va operatsion markazlarini ruxsatsiz tashriflardan muhofaza qilish maxsus kodirovka qilish moslamalari (tasodifiy sonlar generatori prinsipida) tomonidan ta'minlanadi.

Shunday qilib, SWIFT tizimi xavfsizligini ta'minlovchi to'liq muhim ko'p pog'onali fizik xavfsizlik o'tkazish liniyalari xavfsizligi, funksional xavfsizlik va ijroiyl xavfsizliklar kombinatsiyasidan xavfsizliklar kombinatsiyasi tashkil topadi.

Ma'lumotlar almashishdagi xavfsizlikni yanada kuchaytirish maqsadida banklar o'z hisobidan uni takomillashtirishi mumkin.

Tezlik SWIFT yordamida tezkorlik bilan ma'lumotlar yuborish, banklarning o'z mablag'larini tez qayta joylashtirishga imkon yaratadi. SWIFT orqali yuborilgan ma'lumotlar teleks yoki boshqa aloqa vositalaridan farqli o'laroq, ancha tez yetib boradi, qayta ishlanadi (bank tizimida) va mijoz hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Baxtga qarshi bu tizim kamchiliklardan xoli emas. Bulardan biri ikki tashkilotni juda murakkab texnik tizimga tobeligi va shu bilan bog'liq texnik muammolar va ishdan chiqishlardir.

Yana bir kamchilik sifatida juda yuqori narx-navolarni keltirish mumkin, bular kichik banklarni juda qiyin ahvolga solib qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasida SWIFT tizimiga ulanish (a'zo bo'lish) va faoliyat yuritish muammolari. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida so'mda bo'ladigan to'lovlar Markaziy bankda joylashgan yagona hisobvaraqlar (tijorat banklariga tegishli) orqali bajarilsa, valutalarda bo'ladigan operatsiyalar (mijozlarning ko'pini ko'chirish, o'z mablag'larini o'tkazish va h.k). SWIFT tizimi orqali bir-biridagi hisobvaraqlarda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, hatto ichki to'lovlarda (agar ularning soni ko'proq bo'lsa, aks holda qog'oz to'lov topshiriqnomalarida ishlasa ham bo'ladi) SWIFT ning o'rni beqiyosdir.

Tayanch soʻzlar: Xalqaro operatsiyalar, xalqaro hisob-kitoblar, nostro, vostro schyoti, oddiy veksel, oʻtkazma veksel, toʻlov tilxati, schyot-faktura, bank oʻtkazmasi, ochiq hisobvaraqa, inkasso, aksept, sof inkassa, hujjatlashtirilgan akkreditiv, avans, avizo, emitent bank, benefitsiar, sugʻurtalash, fraxta toʻlovlari, chek, orderli chek, indossament, krosslangan chek, isteʼmol cheki, bank cheki, swift, swift formati.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro hisob-kitob deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro operatsiyalarning turlari.
3. Xalqaro hisob-kitoblarning qanday shakllarini bilasiz?
4. Bank oʻtkazmasi boʻyicha hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?
5. Bank oʻtkazmasining boshqa hisob-kitoblardan farqi.
6. Oʻtkazma avizoda mijoz nimalarga eʼtibor berishi lozim?
7. Ochiq hisobvaraqa boʻyicha hisob-kitoblarning amalga oshirilish tartibi qanday?
8. Ochiq hisobvaraqlar boʻyicha hisob-kitoblarning Oʻzbekistonda qoʻllanilmasligining sababi nimada?
9. Hisob-kitoblarning inkasso shakli va uni amalga oshirish tartibi.
10. Inkasso operatsiyasida hujjatlarning qanday guruhlari mavjud?
11. Akkreditiv boʻyicha bitimni amalga oshirish bosqichlarini asoslab bering.
12. Akkreditivning maxsus turlarini koʻrsating va izohlang.
13. Chek nima va u boshqa xalqaro hisob-kitob shakllaridan nimasiga koʻra farq qiladi?
14. Chekda qanday rekvizitlar koʻrsatiladi?
15. Indossament deganda nimani tushunasiz?
16. SWIFT tizimi va uning tashkil etilishi tarixi.
17. SWIFT tizimi bajaradigan operatsiyalar.
18. SWIFT maʼlumotlarini kategoriyalarga ajratib koʻrsating.

VII bob. TO'LOV VA HISOB-KITOB BALANSLARI

7.1. To'lov balansi, uning mohiyati va tarkibi

Har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi dunyoda mavjud bo'lgan ilg'or an'analarni o'zida joriy qilishga, mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashtirishga, umumjahon xo'jalik komplekslarini yuzaga keltirishda faol ishtirok etishga bog'liq. Natijada umumiy erkin savdo hududlari yuzaga keladi. Kapital, xizmatlar va boshqa moliyaviy resurslar harakati bo'yicha xalqaro bitimlar tuziladi. Tovarlar, xizmatlar, kapital va pul mablag'lari harakati bo'yicha yagona jahon bozori yuzaga keladi hamda bu hol xalqaro mehnat taqsimoti va raqobatga asos soladi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, ijobiy va salbiy jihatlari, kamchiliklari va uning ochiqligi davlatlarning to'lov balansida yaqqol o'z ifodasini topadi.


To'lov balansi — bu mamlakatning turli tashqi iqtisodiy munosabatlar bo'yicha chetga to'laydigan valuta va chetdan kelib tushadigan valutalarining haqiqiy nisbatini o'zida ifodalovchi, jamlovchi balans hujjatidir.

To'lov balansi mamlakat rezidentlarining boshqa mamlakat rezidentlari bilan ma'lum bir davrda amalga oshiradigan iqtisodiy bitimlarining natijalarini o'zida mujassamlashtiradi. Odatda, to'lov balansi bir yilga tuziladi va shu muddat ichida mamlakatga haqiqatga kelib tushgan barcha valuta tushumlari va barcha valuta chiqimlarini ifodalaydi.

To'lov balansi mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlar holatini, milliy iqtisodiyotning holatini belgilab beradi. To'lov balansining holati mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlari ishonchliligi, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va sifat darajasini ko'rsatadi va mamlakat iqtisodi-

yotida mavjud muammolar va ularning oldini olish bo'yicha choralar ishlab chiqishga asos soladi.

To'lov balansini tuzish uslubi Xalqaro Valuta Fondi tomonidan ishlab chiqilgan va har bir bitim bo'yicha ikkiyoqlama yozuv (transaksiya) tamoyili asosida olib boriladi. To'lov balansini bo'yicha hisob raqamining kredit tomonida eksport, olingan daromad, passivlarning oshishi va aktivlarning kamayishi, debet tomonida import, to'langan valuta, passivlarning kamayishi va aktivlarning oshishi (ko'payishi) aks ettiriladi. To'lov balansida chetga to'lovlar summasi va Σ – chetdan tushumlar summasi ko'rsatiladi. To'lov balansining umumiy qismlarini quyidagi chizmada ta'riflash mumkin.



11-chizma. To'lov balansining tarkibiy qismlari

Yuqoridagi bo'limlar bo'yicha bir vaqtning o'zida mamlakatga valutarlar kelib tushadi va mamlakatdan valutarlar chiqib ketadi. Bu esa mamlakatdagi valuta zaxirasining ko'payishiga yoki kamayishiga olib keladi. Odatda, joriy operatsiyalar va kapital bilan moliyaviy operatsiyalar bo'yicha yuzaga keluv-

chi nomutanosiblik mamlakatlarning rasmiy valuta rezervi hisobidan qoplanadi.

To'lov balansi mamlakatning geografik chegarasiga qarab emas, balki rezident, ya'ni bitim qatnashchilarining milliy joylashuv o'rniga qarab tuziladi. Bitim qatnashchilarining milliy iqtisodiy va huquqiy hududi, undagi xo'jalik subyektlarining faoliyatini o'zida ifodalovchi iqtisodiy manfaatlar markazi transaksiyalar, tovarlarni va xizmatlarni sotish va sotib olish yoki turli pul o'tkazmalari (kredit), qimmatli qog'ozlar, qarzlarini, foiz, dividendlarni to'lash, bitimlarning bozor bahosi kabi tushunchalarni mujassamlashtiradi.

To'lov balansi mamlakat rezidentlari bilan chet el rezidentlari o'rtasida bo'ladigan transaksiyalarning barchasini o'zida ifodalaydi, ya'ni operatsiyalari, ko'rsatiladigan xizmatlar, qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish, moliyaviy bitimlar, sovg'alar, moliyaviy yordamlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy mohiyati bo'yicha to'lov balansi ma'lum davrga va aniq bir sanaga tuziladigan balanslarga bo'linadi. Odatda, ma'lum bir davrga (1 yil, chorak) tuzilgan to'lov balansi mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlari bo'yicha to'liq ma'lumot beradi va tahlil qilish uchun qulay hisoblanadi.

To'lov balansi — mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarining ko'lami, tarkibi va xususiyati to'g'risida miqdor va sifat tavsifini beradi.

To'lov balansi — aniq bir vaqt mobaynidagi chet eldan kelgan tushumlar va chet elga qilingan to'lovlar miqdorining nisbatidir.

To'lov balansi davrli va fursatli bo'ladi. Davrli to'lov balansi aniq bir vaqt (yil, oy, chorak) oralig'ida tushumlar va to'lovlarning o'zgarishini va davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati sohasidagi o'zgarishlar va iqtisodiyotning holati, rivojlanishini ifodalaydi. Fursatli (aniq bir muddatdagi) to'lov balansi statistik ko'rsatkichlarni chop etish shaklida e'lon qilinmasa ham, ma'lum bir vaqtda bajarilishi lozim bo'lgan kunlik to'lov va tushumlar nisbatini ifodalaydi.

Agar valuta tushumlari to'lovlardan oshsa, balans aktiv, aks holda passivdir. Hisob-kitob balansi va to'lov balansi orasidagi farqlar quyidagidan iborat:

- to'lov balansida mamlakatning valuta tushumlari va to'lovlari o'z ifodasini topadi, hisob balansida esa davlatning tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha talab va majburiyatlari hisobga olinadi;

- to'lov balansi faqat real tushum va to'lovlarni ifodalaydi, hisob-kitob balansi esa hali to'lanmagan qarz va majburiyatlarni ham o'z ichiga oladi;

- to'lov balansida hisob-kitob balansida o'z ifodasini topgan hali «uzilmagan» berilgan va olingan kreditlar hisobga olinmaydi;

- to'lov va hisob-kitob balanslarining oxirgi qoldiqlari – aktiv yoki passiv bo'lishi mohiyati jihatdan mos kelmaydi va qarama-qarshidir. Chunki kreditor davlatlarning hisob-kitob balanslari asosan aktiv, to'lov balanslari esa passiv (AQSH, Germaniya, Yaponiya va boshqalar) bo'lishi mumkin. Qarzdor mamlakatlarda esa passiv hisob-kitob balansi qoldig'i ba'zi vaqtlarda aktiv to'lov balansi qoldig'iga to'g'ri keladi;

- to'lov balansi faqat to'langan eksport va importni o'z ichiga oladi, hisob-kitob balansi esa hali to'lanmagan, kreditga berilgan tovar aylanmasini ham o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, to'lov va hisob-kitob balanslari orasidagi farq xalqaro kredit munosabatlarining rivojlanishi bilan aniqlanadi. E'lon qilinuvchi to'lov balanslariga xos operatsiyalar xususiyatiga ko'ra ikki asosiy bo'limni o'z ichiga oladi:

1-bo'lim – joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi:

- tashqi savdo operatsiyalaridan tushumlar va savdo balansi;

- xizmatlar (xalqaro yuk tashishlar, fraxt, sug'urta va boshqalar) va notijorat (patentlar bo'yicha hisob-kitoblar, texnik yordam) balansi, investitsiya bo'yicha daromad va to'lovlar.

2-bo'lim – kapital va kredit harakati balansi (qisqa va uzoq muddatli operatsiyalar).

Tarixan tashqi savdo xalqaro iqtisodiy aloqalarni olib borish va rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasi hisoblangan.

Shuning uchun ham, tashqi savdo to'lov balansida asosiy o'rin egallaydi. Tovarlarini eksport va import qilish jarayoni tashqi savdo balansida o'z ifodasini topadi. Alohida olingan davlatning tashqi savdo balansi aktiv yoki passiv bo'lishi mumkin. Bu hol mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish darajasiga, mamlakatning jahon bozoridagi mavqeyiga, uning eksport qudratiga va boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi. Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo balansining aktiv qoldiqqa ega bo'lishi bu davlatlarning boshqa xorijiy mamlakatlar zaminida ham o'z iqtisodiyotini rivojlantirishga asos bo'lmoqda.

Xizmatlar balansi yuklarni yetkazib berish, sug'urtalash, elektron, telegraf, telefon, aloqaning boshqa turlari, xalqaro turizm, tajriba almashish, diplomatik xizmatlar, ilm-madaniyat sohasida anjumanlar o'tkazish, yarmarka, reklamalar o'tkazish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar bo'yicha bo'ladigan chet el valutasidagi to'lovlar va tushumlarni o'z ichiga oladi.

Kapital va kreditlar harakati balansi davlat va xususiy kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishi hamda xalqaro kreditlar berish va olish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni ifodalaydi. O'zining muddatlilikiga ko'ra kapital va kreditlar oqimi qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Kapital va kredit oqimi balansiga «xatolar va hisobga olinmagan» moddasi birlashtiriladi. U qisqa muddatli kapitalning hisobga olinmagan harakatini ifodalaydi. Valuta zaxiralarining o'zgarishi Markaziy banklarning xalqaro valuta operatsiyalarini belgilaydi, ular to'lov balansini tenglashtirish va milliy valuta kursini bir maromda saqlash bilan bog'liq. AQSHda joriy to'lov balansi «doimiy» passivdir. Manfiy qoldiq 1988-1994-yillarda 100 mln AQSH dollar (yiliga) atrofida bo'ldi, tashqi qarzning tabiiy to'planishi yuz bermoqda. Shu bilan birga, AQSHda boshqa mamlakatlarning majburiyatlari yig'ilmoqda. Bir qator davlatlarda (Germaniya, Yaponiya, Shveysariyada) aktiv qoldiq ko'zga tashlanadi. Shu davr ichida yillik sof aktiv Germaniyada 51 mln. AQSH dollari, Yaponiyada 40,8 mln. AQSH dollar. Shimol-Janub o'zaro moliyaviy aloqalari natijasida «uchinchi dunyo» mam-

lakatlarining qarzi 90-yillar boshida 1,5 trln AQSH dollariga yetdi.

To'lov balansining qoldig'i aniqlanganda, uning moddalari asosiy va balanslovchilariga bo'linadi. Asosiy moddalarga to'lov balansi qoldig'iga ta'sir etadigan va nisbiy mustaqillikka ega operatsiyalar kiradi: joriy operatsiyalar va uzoq muddatli kapital harakati.

Balanslovchi moddalarga mustaqillikka ega bo'lmagan yoki cheklangan mustaqillikka ega operatsiyalar kiradi. Bular to'lov balansi qoldig'ini tugatish manbalari va vositalari bo'lib, ularga:

- valuta zaxiralari harakati;
- qisqa muddatli aktivlarning o'zgarishi;
- xorijiy yordamning ba'zi bir turlari;
- tashqi davlat zayomlari va boshqalar kiradi.

Asosiy va balanslovchi moddalarning yakuniy ko'rsatkichlari bir-birini qoplaydi, ya'ni to'lov balansi rasman muvozanatlashadi.

Agar to'lovlar tushumlardan oshsa, taqchillikni qoplash muammosi paydo bo'ladi. Buning uchun an'anaviy manbalar va usullar, ya'ni zayom va tadbirkorlik kapitalini kiritishdan foydalaniladi. Bu vaqtinchalik usuldir, chunki qarzdor davlat foiz, dividend va zayom summasini to'lab berishi lozim.

Passiv qoldiq balansini qoplashning yangi usuli Markaziy banklarning milliy valutada beradigan svop kelishuvi bo'yicha qisqa muddatli kreditidir.

To'lov balansining vaqtinchalik taqchilligini qoplash uchun XVF a'zo davlatlarga rezerv (shartsiz) kreditini beradi (kvotaning 25 % i chegarasida).

Rivojlangan davlatlar o'z to'lov balansi taqchilligini qoplash uchun bank konsorsiumlari kreditlari, obligatsiyali zayomlardan foydalanadi.

To'lov balansi taqchilligini vaqtinchalik qoplash usullariga shuningdek, «xorijiy yordam» liniyasidan olingan imtiyozli kreditlar kiradi.

To'lov balansini balanslashtirishning oxirgi usuli rasmiy oltin-valuta zaxiralaridan foydalanishdir.

To'lov balansini yakuniy balanslashning asosiy usuliga konvertirlanadigan chet el valuta zaxirasi kiradi.

To'lov balansini balanslashning yordamchi usullariga chet el va milliy qimmatli qog'ozlarni chet el valutasiga sotish ham kiradi.

7.2. To'lov balansini tuzish tartibi

Xalqaro iqtisodiy aloqalar natijasini baholash va ko'lamini hisoblashga urinishlar XIV asr oxirlariga to'g'ri keladi.

XX asr boshlarida AQSH va Angliyada to'lov balansini tuzish usullari keng rivojlandi. 1923-yilda AQSHda 1922-yilgi ko'rsatkichlar natijalari bo'yicha to'lov balansini tuzish va uni e'lon qilishga urinish bo'lgan. 1943-yili amerikalik iqtisodchi X.Leri AQSHning 1919-1939-yilgi to'lov balansini tuzdi. Uning asosida ikkinchi Jahon urushidan keyin to'lov balansi tuzildi. 1946-yildan boshlab chorak va yillik to'lov balanslari hisobotlari AQSH savdo vazirligi jurnalida chop etila boshladi.

1947-yili BMT hujjati sifatida to'lov balansi sxemasi yaratildi. U XVFnning to'lov balansini tuzish shakllari va tamoyillarini ishlab chiqishga asos bo'ldi. XVF «to'lov balansi bo'yicha qo'llanma» chiqarib, rivojlantirishni davom ettirdi. Ular o'z sxemalarini universallashtirishga harakat qilishdi, chunki bu rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar balanslarini solishtirish imkonini beradi. Joriy ma'lumotlarni qayta ishlab, XVF ekspertlari ularga aniqliklar kiritadi. Norasmiy ma'lumotlardan foydalana-di, to'lov balanslari moddalarini qayta guruhlashadi va boshqa ishlarni bajarishadi. Bu tekshirilayotgan jarayonni ko'lamini to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

XVF qo'llanmasiga binoan to'lov balansi moddalarini tasnifi.

*A. Joriy operatsiyalar **

Tovarlar

Xizmatlar

Investitsiyalardan daromadlar

Boshqa xizmatlar va daromadlar

Xususiy bir tomonlama o'tkazmalar

Rasmiy bir tomonlama o'tkazmalar

Jami A: joriy operatsiyalar balansi.

B. To'g'ri investitsiyalar va uzoq muddatli kapital

To'g'ri investitsiyalar

Portfel investitsiyalar

Boshqa uzoq muddatli kapital

Jami: AQV (AQSHning bazis balansi konsepsiyasiga muvofiq)* *

C. Boshqa uzoq muddatli kapital.

D. Xato va hisobga olmaydigan qismlar

Jami; AQVQSQD (AQSH likvidlik konsepsiyasiga muvofiq)*

E. Balanslovchi moddalar.

Oltin-valuta rezervlarining qayta baholanishi

SDRning taqsimlanishi va ishlatilishi

Oltin-valuta rezervi harakati

F. Qoldiqni qoplashning favqulodda manbalari.

G. Xorijiy rasmiy qo'mitalarning valuta rezervlarini tashkil etuvchi majburiyatlar.

Jami: $A+V+S+D+E+F+G$ (AQShning bazis balansi konsepsiyasiga muvofiq)*

N. Rezervlarning yakuniy o'zgarishlari.

Oltin

SDR

XVFning rezerv holati

Xorijiy valuta

Boshqa talablar

XVF kreditlari

To'lov balansi sxemasi oldingi paragrafda keltirilgan to'lov balansining tarkibiy qismlari valuta harakati bo'yicha to'lov balansi valuta tushumi va valutarlar chiqimi yoki xarajati ifodalaniшни ko'rsatadi. Xalqaro valuta fondining ko'rsatmasiga asosan aksariyat davlatlar to'lov balansini ikki asosiy yo'nalish bo'yicha: joriy operatsiyalar balansi va kapital bilan moliyaviy operatsiyalar (kapital harakati) balansini tuzadilar. Bu balanslar aktiv yoki passiv qoldiq bilan yakunlanishi mumkin.

Joriy operatsiyalar balansi — tovarlar, xizmatlar, joriy

transfertlar va daromadlar bo'yicha, tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha valuta tushumi va xarajati o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Bu balansning ijobiy (aktiv) qoldig'i mamlakatning boshqa mamlakat uchun kreditor ekanligini, passiv yoki salbiy qoldiq mamlakatlarning boshqa mamlakatlardan qarzdor ekanligini ko'rsatadi.

Joriy operatsiyalar balansi savdo balansi, xizmatlar balansi, joriy transfert to'lovlar balansi, chetdan tushum kabilarni o'z ichiga oladi.

Savdo balansi tovarlar eksporti va importini o'zida ifodalab, yil oxirida ijobiy yoki salbiy qoldiqqa ega bo'ldi. Balansni tuzganda eksport «+» belgisi bilan, import «-» belgisi bilan ifodalanadi va «+» mamlakatga valuta kelib tushushini «-» mamlakatdan valuta chiqib ketishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, savdo balansidan eksport qanchalik darajada importni qoplay olishi to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

3-jadval

Joriy operatsiyalar balansi

Tushum	Chiqim
1. Tovarlar va xizmatlar eksporti	1. Tovarlar va xizmatlar importi
2. Transfertlar:	2. Transfertlar:
– chet eldagi investitsiyalardan tushum	– mamlakatdagi chet el investitsiyasidan kelgan daromadlarning to'lanishi
– mazkur davlatdagi chet el fuqarolarga to'lovlar (pensiya, aliment, sovg'alar, pul o'tkazmalari va b.)	– chet elliklarga transfert to'lovlari
3. Chet eldan moliyaviy yordam	– rezidentlarning chet eldan aktivlar sotib olinishi
	3. Chet elga moliyaviy yordam
Joriy operatsiyalar qoldig'i +	Joriy operatsiyalar qoldig'i –

Kreditga sotib olingan tovarlar bu yerda aks ettirilmaydi. Savdo balansining aktivligi yoki passivligi iqtisodiy ahamiyatga ega va uning talqini davlatlarning jahon xo'jaligida tutgan o'rnini, hamkorlar bilan aloqalari xarakteri va umumiy iqtisodiy siyosatiga bog'liq. Bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya va boshqalar) uchun savdo balansining aktiv qoldig'i xorijda ikkinchi iqtisodiyotni yaratish uchun qo'llaniladi.

To'lov balansining passiv qoldig'i, odatda, davlatning jahon xo'jaligida mavqeyi zaif ekanligini bildiradi. Bu hol valuta tushumlarining tanqisligini sezayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa xosdir. Sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun bu boshqacha ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, AQSHning savdo balansidagi taqchillik murakkabroq tovarlarni ishlab chiqarayotgan uning xalqaro raqobatchilarining (G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Gonkong, Tayvan, Janubiy Koreya va boshqalar) bozorda faol oldingi o'rinlarni egallashi bilan bog'liq, deb tushuniladi.

— xizmatlar va tijorat xarakteriga ega bo'lgan to'lovlar balans. Bu balansda quyidagi operatsiyalar bo'yicha yuzagi keladigan to'lovlar va tushumlar summasi aks ettiriladi.

1. Xorijiy davlatlarda diplomatik va savdo vakolatxonalarini ochish va ularni saqlash.

2. Xorijiy davlat hududida harbiy qismlarni saqlash.

3. Sport aloqalari.

4. Madaniy aloqalar.

5. Xalqaro kreditlarga foiz to'lash va foiz olish.

6. Pul o'tkazmalari.

7. Ilmiy texnika aloqalari.

8. Yuk tashish va jo'natish.

9. Boshqa to'lovlar va tushumlar.

Hozirgi kunda G'arbiy Yevropada 10 mln dan ortiq xorijlik ishchilar mavjud. Ular asosan Turkiya, Germaniya, Portugaliya kabi davlatlarning fuqarolaridir. Bu emigrant ishchilarning 80 %i Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarda ishlaydi. Ular ishlab topgan pullarining bir qismini o'z davlatiga jo'natib turadi.

Bu balans mamlakat nafaqat tovar eksport qilishdan, balki transport, brokerlik, sayyohlik, ilm-fan sohasida va boshqa sohalarida boshqa davlat jismoniy va yuridik shaxslariga turli xizmatlar ko'rsatishdan va boshqa davlatlar turli subyektlarining xizmatlaridan foydalanish mumkinligidan dalolat beradi. Xizmatlar balansida shu xizmatlar bo'yicha valuta tushumlari va chiqimlari hisobga olib boriladi.

Mamlakat savdo balansida salbiy qoldiqqa ega bo'la turib, xizmatlar balansida ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi mumkin va aksincha.

Transfert to'lovlari aholi va davlatlarning pul o'tkazmalari, turli hadya va sovg'a-in'omlarni o'zida aks ettiradi va shu jaryonlar bo'yicha mamlakatga kelib tushuvchi va mamlakatdan chiqib ketuvchi valutalar oqimini o'zida mujassamlashtiradi. Bu bo'limga yana turli pensiya, stipendiya, nafaqa kabi to'lovlar, xalqaro yordam, grantlar, subsidiya kabilar ham kiradi.

Kapital bilan moliyaviy operatsiyalar balansi — kapital (qarz, investitsiya, kredit) ning mazkur davlatdan chet elga va aksincha chet eldan mazkur davlatga harakatini ifodalaydi. Bu balans moddiy va moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish bilan bog'liq kapital oqimini aks ettirib, u uzoq muddatli investitsiyalar (to'g'ri va portfel investitsiyalari), qisqa muddatli mablag'lar migratsiyasini ham o'z ichiga oladi.

To'lov balansida to'g'ri va portfel investitsiyalar turkumiga kiritilmagan boshqa investitsiyalar, rezervlar, bo'naklar, muddati o'tgan to'lovlar xalqaro valuta fondlarining uzoq muddatli kreditlari ham o'z ifodasini topadi. To'lov balansini tuzish jaryonida barcha tuzilgan bitimlar, kapital yoki xizmatlar sohasida baholar va vakolatlarning bir xilmasligi, turli xato va tashlab ketishlarga yo'l qo'yishga olib kelish mumkin. Shu sabab to'lov balansida «Xato va tushib qolishlar» degan modda mavjud bo'lib, unda statistik xatolar, qayd etilmagan operatsiyalar inobatga olinadi.

Odatda, bu modda summasi har yili barqaror, minimal miqdorda bo'ladi. Agar uning miqdori sezilarli darajada bo'lsa, u holda bu:

- to'lov balansini tuzish uchun taqdim qilingan tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo bo'yicha hujjatlarda xatolar mavjud ekanligidan;

- yoki ro'yxatdan o'tmagan kapital oqimi mavjud ekanligidan dalolat beradi.

To'lov balansining ikki asosiy qismi: joriy operatsiyalar va kapitallar xarajati balansi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Joriy

operatsiyalarning taqchilligi tovarlar va xizmatlarni eksport qilish tovarlar va xizmatlarni import qilishni to'lashga yetarli emasligini ko'rsatadi. Bu taqchillik chetdan yordam (qarz) olish yo'li bilan yoki chetga moliyaviy yoki moddiy aktivlarni sotish yo'li bilan moliyalashtiriladi. Oxirgi jarayon esa kapitallar harakati balansida o'z ifodasini topadi va aksincha, birinchi balansning ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi chetdan moliyaviy va moddiy aktivlar sotib olish, ya'ni ikkinchi balans bo'yicha pul mablag'lari chetga chiqib ketishini o'zida aks ettiradi.

7.3. To'lov balansini tuzishning metodologik asoslari

To'lov balansini tuzish XVF tavsiya qilgan usul asosida har bir bitim bo'yicha ikkiyoqlama buxgalteriya yozuviga asosan olib boriladi. Balans hisob raqamining kreditida eksport, olingan daromad, passivlarning oshishi va aktivlarning kamayishi, debet tomonida — import, to'langan daromad, passivlar kamayishi va aktivlar ko'payishi aks ettiriladi.

To'lov balansida bitim bajarilish vaqti ikkiyoqlama yozuvda aks ettiriladi, ya'ni valuta tushumi va chiqimini ko'rsatadi.

To'lov balansida mahalliy va chet ellik rezidentlar o'rtasida amalga oshiriladigan barcha savdo operatsiyalari, xizmatlar, qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish, hadya va yordamlar hamda boshqa moliyaviy munosabatlar aks ettiriladi. Barcha operatsiyalar bo'yicha yuzaga keladigan valutarlar oqimi balansning tushumlar va chiqim (xarajat)lar qismlarida o'z ifodasini topadi. To'lov balansini ko'pincha 1 yilga, ba'zi hollarda choraklik uchun ham tuzilishi mumkin.

Umumiy holda to'lov balansida keltiriladigan barcha operatsiyalarni joriy operatsiyalari (eksport, import, foiz to'lovlari va hokazo) va kapital harakatiga bo'lish mumkin. Aniqroq tarzda bu moddalarni quyidagi jadvalda keltirishimiz mumkin.

To'lov balansining umumlashgan shakli

To'lov balansini moddalar
1. Joriy operatsiyalar balans (1.1+1.2+1.3)
1.1. Savdo balans.
– tovarlar eksporti;
– tovarlar importi
1.2. Xizmatlar balans.
– nofaktor operatsiyalar (fraxta, sug'urta, turizm va boshqalar);
– kapital bo'yicha xizmat (foydani o'tkazish, foizlar olish);
– mehnat bo'yicha xarajatlar (chet elda ishlab topilgan pullarni uyiga yuborish va boshqalar)
1.3. Bir tomonlama transfertlar:
– xususiy pul o'tkazishlar va hadyalar;
– davlat transfertlari
2. Kapital harakati balans (2.1+2.2)
2.1. Xorijdan olingan sof investitsiyalar
2.2. Xorijdan olingan sof kreditlar:
– qisqa muddatli;
– uzoq muddatli
3. Xato va tushirib qoldirilgan moddalar.
4. To'lov balans jami (1+2)
Chet el valutasining sof rasmiy (davlat) zaxirasining o'zgarishi.

To'lov balansining kreditida mamlakat rezidentlari oladigan tushumlar, debetida mamlakatga kelib tushgan tovar yoki xizmatlar uchun rezidentlar tomonidan to'langan valutar oqimi aks ettiriladi.

To'lov balansining debeti ma'lum bir davlatga kirib kelayotgan boyliklarni ko'rsatadi. Chet elliklarni kreditlash debet operatsiyasi sifatida qaraladi, shuningdek, xalqaro import majburiyatlari sifatida ifodalanadi. Shuning uchun ham, mamlakatning maxsus rezervlarini ko'payishi debetda aniqlanadi, kamayishi esa kreditda bo'ladi.

To'lov balansida jami kredit summasi jami debet summasiga teng bo'lishi talab etiladi.

Joriy operatsiyalar balans faqatgina savdo balans qoldig'i haqida ma'lumot bermasdan, shu bilan birga, eksport va import xizmatlari, shuningdek, bir tomonlama transfertlar (pensiya, sovg'alar, pul o'tkazishlar yoki boshqa chet el hukumatidan yordamlar) kabilarni ham ifodalaydi.

5-jadval

To'lov balansining taxminiy strukturasi

Kredit	Debet
1. Iste'mol tovarlari eksporti	3. Iste'mol tovarlari importi
2. Harbiy mudofaa mahsulotlari eksporti	4. Harbiy mudofaa mahsulotlari importi
Savdo balans = 1+2-3-4	
5. Xizmatlar eksporti (investitsiyalardan tushum, chet el turizmdan tushum va boshqalar)	6. Xizmatlar importi (ma'lum bir mamlakatga investitsiyalardan foyda o'tkazish, chet elga turizm uchun to'lovlar va boshqalar)
	7. Chetdan sof o'tkazmalar
Joriy operatsiyalar balans=savdo balans+5-6-7	
8. Norezidentlarning qarzlar	9. Norezidentlarga shaxsiy kreditlar
Kapital harakati balans=8-9	
Umumiy balans=joriy to'lov balans+kapital harakati balans	
10. Chet el hukumatining qarzlar	11. Davlat rezervlarini ko'payishi (kengayishi)
Jami kredit	Jami debet

Ijobiy balans qoldig'i joriy operatsiyalarda mamlakatning sof investori sifatida boshqa mamlakatlar bilan munosabatini anglatadi, aksincha holat esa joriy operatsiyadagi taqchillikni bildiradi. Bu o'z navbatida mamlakatdagi chet el investitsiyalarini qisqartiradi va mamlakat import mahsulotlarining pulini to'lash, yetkazib berilgan va ko'rsatilgan xizmatlar, o'tkazmalarni to'lash bo'yicha sof qarzdor bo'lib qoladi.

Umuman olganda, joriy operatsiya balans o'zida milliy daromad va milliy xarajatlar o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

Kapital oqimi mamlakatdan mamlakatga kapital harakatini ifodalovchi kapital harakati balansida ko'rsatiladi.

Shu nuqtayi nazardan kapital harakati hisobvarag'ida aktivlar bilan xalqaro oldi-sotdi kelishuvlari, ya'ni aksiyalarni, obligatsiyalarni, ko'chmas mulklarni va boshqalarni sotishdan tushgan tushum chet elliklarga ham xarajat, chetdan aktiv sotish, sotib olish natijalari ko'rsatiladi. Boshqacha aytganda, bu fikrni quyidagi tenglik bo'yicha ifodalash mumkin.

Kapital		Aktivlarni		Chetdan aktivlarni sotib
harakati	=	sotishdan	—	olish uchun qilingan
balansi		tushumlar		xarajatlar

Chet elga aktivlarini sotish mamlakatning chet el valuta zaxiralarini ko‘paytiradi, aksincha, sotib olish ularni kamaytiradi.

Kapital harakati hisobvarag‘idagi ijobiy qoldiq mamlakatga sof kirib keladigan kapital oqimini aniqlab beradi.

Aktivlarni sotib olish uchun qilingan xarajatlar chetga ularni sotishdan tushgan daromadlardan yuqori bo‘lsa, kapitalning oqib ketishi hisobvarag‘idagi taqchillikni ko‘rsatadi.

Joriy to‘lov balansidagi kapital harakati balansi haqidagi ma‘lumot umumiy yoki rasmiy balansda umumlashtiriladi.

Aynan umumbalans qoldig‘i, odatda, to‘lov balansi qoldig‘i deb ham ataladi.

To‘lov balansining taqchilligini Markaziy bankning rasmiy rezervlarni qisqartirish hisobidan moliyalashtirish mumkin. Bu holatda ichki bozorda xorijiy valutaga bo‘lgan taklif oshadi. Bu operatsiyalar eksportga monand hisoblanadi, balansning kredit tomonida qo‘shuv ishorasi (hatto bu operatsiya tufayli Markaziy bankning valuta zaxirasi kamaysa ham) bilan hisobga olinadi. Bunday holda ichki bozordagi xorijiy valuta nisbatan taklifining bir muncha kamayishi, uning almashuv kursining oshishiga olib keladi. Bu iqtisodiyotning mutanosiblashuviga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Aksincha, to‘lov balansining aktiv qoldig‘i Markaziy bank rasmiy valuta rezervlarining o‘sishi bilan kuzatiladi. Bu bo‘lsa, debetda minus ishora bilan aks ettiriladi, chunki bu operatsiya ichki bozordagi xorijiy valuta taklifini kamaytiradi va importga monand hisoblanadi. Bunda ichki bozordagi milliy valuta taklifining nisbatan ko‘payishi, uning almashuv kursi esa bir muncha pasayishiga olib keladi. Bu esa iqtisodiyotga rag‘batlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi.

Markaziy bankning xorijiy valutani bunday oldi-sotdilari ras-

miy rezervlar bilan operatsiyalar deyiladi. Bu operatsiyalar qoidaga ko'ra Markaziy bank tomonidan belgilangan valuta kursi rejimini ushlab turish uchun o'tkaziladi. Rasmiy rezerv bilan operatsiyalar natijasida joriy hisoblar qoldig'ining summasi kapital harakati hisobvaraqlar va rezerv miqdorining o'zgarishi nolgacha teng bo'lishi kerak.

Umumiy balans taqchilligi mamlakatga xorijiy valuta oqimining ko'payishiga, profitsiti esa uning kamayishiga olib keladi.

Mamlakat umumiy balansida taqchillik mavjudligi uning Markaziy bank faoliyati bilan bog'liq. Agar Markaziy bank xorijiy valutani sotib olmagan va sotmagan bo'lsa, u valutaralar almashuv kursini to'lov balansida taqchilligi yoki ijobiy qoldig'ini bartaraf qilish darajasida avtomatik ravishda belgilashi mumkin. Kapital harakati balansining ijobiy qoldig'i joriy qoldiq operatsiyalarini moliyalashtirish, aksincha, joriy operatsiyalar aktiv kapital harakati balansida taqchilligini moliyalashtirayotgan bo'lar edi.

To'lov balansini tuzishda quyidagi qoidalar qabul qilingan:

– Eksportdan olinadigan daromadlar va xorijdan keladigan, to'lanadigan foizlar to'lovlaridan daromadlar joriy operatsiyalar hisobvarag'idan «plus» ishora bilan belgilanadi.

– Importga to'lovlar va xorijiy majburiyatlar bo'yicha foiz to'lovlari joriy operatsiyalar hisobvarag'ida «minus» ishora bilan belgilanadi.

– Xorijliklarga moliyaviy talablarning o'sishi, xorijliklar oldidagi majburiyatlarning kamayishi va kapitalning chiqib ketishi kapital harakati balansida «minus» ishora bilan belgilanadi.

– Xorijliklarga moliyaviy talablarning kamayishi va xorijliklar oldidagi majburiyatlarning ko'payishi kapital harakati balansida «plus» ishora bilan belgilanadi.

Ba'zan statistik hisob-kitoblardagi har xilliklar ham to'lov balansining nollik natija olmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Agar xalqaro bitim alohida belgilanganda, unda moddalar sabablarga ko'ra balanslashgan (tenglashgan) bo'lishi mumkin. Lekin bitimlar amalga oshirilishiga qarab balansda aks ettiriladi. Balans

tuzish bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar aksariyat hollarda savdo (eksport va import) oqimlarini va kapital oqimlarini (qolgan dunyoga nisbatan haqiqiy moliyaviy talablarning o'zgarishi) alohida hisobga oladilar. Ular xalqaro tovar oqimlari to'g'risida bojxona xizmatlaridan hisobotlar, moliya bozorlaridan – talablarni o'zgarganligi to'g'risida va xorijliklar oldidagi majburiyatlar to'g'risida hisobotlar oladilar. Lekin ko'plab savdo-moliya bitimlari ayrim hollarda bu hisobotlardan tashqarida qolib ketadi, chunki bu bitimlarning soni ko'p va ularning barchasini hisobga olish qiyin. Ba'zan bu bitimlarni yashirish hollari (pullarni yashirish, noqonuniy pullarning kelib tushishi, shubha tug'diruvchi holatlarni berkitish yoki soliqlardan qochish) ham uchrab turadi. Mazkur sabablarga ko'ra to'lov balansida maxsus modda mavjud (xatolar va tushirib qoldirilganlar). Unda joriy operatsiyalar hisob raqamidagi teng summa va kapital harakati balansi aks etgan, lekin qarama-qarshi belgi bilan va hisob raqamlardagi barcha moddalar xususan, «Xatolar va tushirib qoldirilganlar» moddasi nollarga tenglashtiriladi. Odatda, bu moddadagi ko'rsatilgan summalar katta emas va o'zgarmasdir.

Agar «Xatolar va tushirib qoldirilganlar»ning summasi tez o'sib ketsa, to'lov balansini tuzayotganda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining hisobotlari to'liq taqdim etilganligidan, nazorat sust olib borilayotganligidan va kapital chiqimi yoki kirimining to'liq ro'yxatdan o'tkazilmayotganligidan dalolat beradi.

Misol uchun AQShda o'tgan oxirgi o'n yillikda «Xatolar va tushirib qoldirilganlar» moddasi «+» belgisi bilan berilgan. Juda ko'p mutaxassislar buni xorijliklar AQShga o'z aktivlarini joylashtirayotganligidan dalolatdir, deb xulosa qilishmoqda. Lekin ko'p hollarda kerakli tashkilotlarga bu haqda xabar berishmaydi. Natijada, ko'rsatib o'tilgan kapital oqimlari past bo'lib chiqadi, kapital harakati balansida muhim hisob-kitoblar chetda qolishiga olib keladi.

Tayanch soʻzlar: toʻlov balansi, savdo balansi, hisob-kitob balansi, kapital, transfert, kapitallar harakati balansi.

Nazorat uchun savollar

1. Toʻlov balansi nima maqsadda tuziladi?
2. Toʻlov balansi va hisob-kitob balansining farqlarini sanang.
3. Toʻlov balansi operatsiyalari xususiyatiga koʻra necha turga boʻlinadi?
4. Toʻlov balansi moddalarini sanab oʻting.
5. Joriy operatsiyalar balansida nimalar aks ettiriladi?
6. Qanday holda toʻlov balansi ijobiy hisoblanadi?
7. Oʻzbekiston Respublikasi toʻlov balansi haqida nimalarni bilasiz?
8. Toʻlov balansi taqchilligini bartaraf etishning qanday yoʻllarini bilasiz?

VIII bob. VALUTA INQIROZLARI VA ULARNING SHAKLLARI

8.1. Valuta inqirozi, uning mohiyati va turlari

Mamlakat iqtisodiyotining ma'lum jabhalarida yuzaga keluvchi nomutanosibliklar iqtisodiyotning notekis rivojlanishiga, unda inqirozlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Jahon banki va Xalqaro Valuta fondi tomonidan olib borilgan kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarning iqtisodiyoti ochiq, ishlab chiqarishi bir tekis bo'lganligi sabab ularda iqtisodiy inqirozlarning turli shakllari kam uchraydi. Rivojlanayotgan davlatlarda ishlab chiqarish omillarida kamchiliklarning mavjudligi, kapital va zamon talabiga mos keluvchi ish kuchining yetarli emasligi bu mamlakatlar iqtisodiyotida muammolar va qiyinchiliklar tug'diradi. Ishlab chiqarish omillarining yetarli va samarali emasligi mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlarning tushib ketishiga, bu esa mamlakatda ishlab chiqarish ko'lamining qisqarishiga olib keladi.

80-90-yillarda Lotin Amerikasining Argentina, Braziliya, Chili, Meksika, Afrikaning Nigeriya, Keniya kabi davlatlari ichki va tashqi qarashda valutaviy inqirozining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Muayyan mamlakat valutasining inqirozga uchrashi nafaqat shu mamlakat iqtisodiyotiga, balki qo'shni davlatlar, shu davlatlar bilan jahon bozorida munosabatda bo'lgan boshqa davlatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Valuta inqirozi qimmatli qog'ozlar bozori, davlat qarzlari va obligatsiyalari, kapital va investitsiyalar oqimiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro bozorlarda turli xil shov-shuvlarga va tushunmovchiliklar bo'lishiga olib keladi. Mamlakatlar o'rtasida defolt (o'z majburiyatlarini, ayniqsa, kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lay olmaslik) ga olib keladi.

Valuta inqirozi davlat tomonidan xarajatlarni oshirishga undaydi. 1970-yillardagi neft inqirozi Bretton-Vuds valuta tizimi

mevasi bo'lgan fiksirlangan valutaga barham berilishi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining tushib ketishi va valuta inqiroziga olib kelgan. Natijada davlat ijtimoiy tengsizlikning yo'qotish maqsadida katta xarajatlar qilishga, qo'shimcha pul chiqarishga kirishgan. Bu esa pul birligining yuqori darajada qadrsizlanishiga sabab bo'lgan. 1978-yilda Argentina, Chili, Urugvay kabi davlatlar inflyatsiyaning oldini olish uchun Tablita nomli yangi valuta strategiyasi ishlab chiqishgan, ya'ni mamlakat tovarlarining bahosini ichki bozorda juda yuqori belgilash yo'li bilan pul qadrini oshirish rejalashtirilgan, lekin bu reja yuqori samara bermagan va bu 3 davlat savdoni erkinlashtirish, banklar va boshqa moliya institutlari faoliyatiga erkinliklar berish, chetdan boshqa investitsiyalar kirib kelishi uchun eshiklarni ochish yo'li bilan iqtisodiyotni qisman bo'lsa-da, yaxshilashga erishgan.

Ko'plab davlatlar valuta inqirozidan valuta qalqonini qo'llash orqali o'zini himoyalashga, o'z valutasining barqarorligiga erishishga harakat qilishgan. Bu holda Markaziy bank juda ko'p miqdorda mahalliy aktivdan ko'ra chet el valutasiga ega bo'lishi, o'z valutasining rasmiy kursini belgilashi va shu kurs bo'yicha aholiga chet el valutasini sotishi, bankdan chiqadigan valutarlar to'liq miqdorda chet el valutasini bilan ta'minlangan bo'lishiga erishishi lozim.

Kapitalizm pul-kredit tizimining inqirozi va valuta inqirozi oltin standartining yemirilishida, inflatsion qog'oz-pul muomalasiga o'tishda o'z aksini topadi va alohida kapitalistik mamlakatlarning ichki muomalasiga hamda xalqaro hisob-kitoblarga ta'sir ko'rsatadi. Qamrab olish xususiyatiga ko'ra umumiy va xususiy valuta inqirozlari mavjud.

Umumiy valuta inqirozi kapitalizmning umumiy inqirozining ajralmas qismi hisoblanadi va parlament xususiyatiga ega bo'ladi. Jahon kapitalistik valuta tizimi jahon bozorining ajralmas qismi sifatida 1914-1918-yillarda, birinchi Jahon urushi davrida tiklanib takomillashgan bo'lsa, kapitalizmning umumiy inqirozi davrida o'z kuchini yo'qotadi va tez-tez tanazzulga uchraydi.

Umumiy valuta inqiroziga xos muhim xususiyat — oltin «demonetizatsiyasi» hisoblanadi, ya'ni oltinning metall pul sifatidagi

ahamiyati yo‘qoladi va valuta qadrsizlanadi. Qator kapitalistik mamlakatlarda birinchi Jahon urushi davrida qog‘oz pullarni oltinga almashtirishning man etilishi (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya va boshqalar) va oltinning ichki muomaladan chiqarilishi sababli oltin «demonetizatsiyasi» boshlandi. Birinchi Jahon urushidan keyin kapitalistik mamlakatlarda oltin standartini bo‘laklar (kesilgan) shaklda oltin deviz shaklida va oltin quymasi shaklida tiklashga harakat qilindi. Bu harakat 1929-33-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi davrida tugadi. 1929-1930-yillarda Argentina, Boliviya, Braziliya va qator agrar mamlakatlarda oltin standartidan voz kechildi. 1931-yilda Buyuk Britaniya, 1933 yilda AQSHda, 1934-1936-yillarda Fransiya, Belgiya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda oltin standarti bekor qilindi. 1936-yilning oxirida butun kapitalistik olamni inflyatsiya qamrab oldi. Bu vaziyat ikkinchi Jahon urushi davrida 1939-1946-yillarda kuchaydi. 60-yillarning oxirida faqat AQSHdagina valutani oltinga almashtirish rasmiy ravishda saqlangan. Lekin AQSH faqat kapitalistik mamlakatlarning Markaziy banklarigagina dollarni oltinga almashtirgan, AQSHda esa fuqarolarga oltin pullarni saqlash man etilgan.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar borasida valuta inqirozi quyidagilarda: ya’ni kapitalistik mamlakatlarning to‘lov balansining muntazam ravishda nomuvofiqligi yoki passivligida, oltin-valuta zaxirasining notekis taqsimlanishi, ko‘p mamlakatlarning valuta kursi tushib ketganligi va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Ko‘plab mamlakatlarning oltinni chetga olib chiqishni cheklashi, dollar standartiga o‘tishi oltinning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilishini qisqartirdi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin AQSH rahbariyatining kapitalistik mamlakatlarga oltin o‘rniga dollardan xalqaro pul sifatida foydalanishni taklif qilishi natijasida bu jarayon yanada kuchaydi. AQSH oltin bahosini sun’iy ravishda pasaytirish siyosatini yuritdi. Bu esa urushdan keyingi dastlabki yillarda AQSHning boshqa mamlakatlardan oltin sotib olishini ancha yengillashtirdi. 1949-yilning oxirida AQSH kapitalistik olam oltin zaxirasining 70 foizidan ortig‘iga egalik qilgan. Natijada AQSH dollari xalqaro hisob-kitoblarda keng qo‘llanildi, bu esa xalqaro kapitalistik valuta tizimi barqarorligiga putur yetkazdi. 1934-yilda

oʻrnatilgan oltinning rasmiy past narxini AQSH 1961-yildan 1968-yilgacha «Oltin pul» koʻmagida saqlab keldi, «Oltin pul»ga AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya (1967-yilning iyunigacha), Italiya, Shveysariya, Belgiya, Niderlandiya aʼzo boʻlgan. Bu oltin qazib olinishini toʻxtatish va fuqarolarning oltiniga boʻlgan talabi oshishiga olib kelgan.

Valuta inqirozini 3 turga ajratish mumkin:

1) toʻlov balansining makroiqtisodiy siyosati maqsadlarining bir-biriga toʻgʻri kelmasligi oqibatidagi valuta inqirozi;

2) tashqi qarzlarning koʻpayib ketishi natijasida valuta inqirozi;

3) ichki qarzlarning oʻzgarishi natijasida yuzaga keluvchi valuta inqirozi.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida valuta inqirozi valuta kursining oʻzgarishi bilan ham bogʻliq boʻladi.

Osiyoda esa valuta inqirozi boshqa koʻrinishda namoyon boʻlgan.

1) Valuta kursi baland emas.

2) Barcha makroiqtisodiy koʻrsatkichlar meʼyorida.

3) Valuta inqiroziga yana bir sabab, bu valuta korrelatsiyasidir. Korrelatsiya ham ushbu valuta inqirozi sabablarini ochib berishi mumkin.

Rivojlangan davlatlarda 2001-yilda tahlikali holat boshlandi. Uzoq vaqt davom etgan yapon muammolari Yaponiya iyenining 30 % tushishiga olib keldi. Xitoy bozori iyenning tushishiga yetarlicha salbiy munosabatda boʻldi. Yuqori darajadagi korrelatsiya iyen va shanxay kompozit indeksi orasida aniqlandi.

1980-90-yillarda Braziliya, Turkiya va Argentina mamlakatlari valuta inqirozini boshidan kechirdi.

2000-yillarda Rossiya va boshqa koʻplab davlatlarda yuqori investitsiyalar neftni qazib olishga talabni oshirdi va iqtisodiy tanglik energiya tashuvchilarga talabni kamaytirdi. Neftning yuqori narxi energiyani tejashga olib keldi. Shuning uchun OPEKning urinishlariga qaramay, neft narxining oʻsish imkoniyatlari kengaydi va u bir barel uchun 16-14 dollarga yetdi. Neft eksportyorlari orasida neftni yetkazish boʻyicha shartnomalardagiga nisbatan narx oʻzgarishi yuzaga keldi. Masalan, Rossiyada 1998-yildagidek yuqori inflyatsiya bilan barqaror kurs siyosati rublni

mustahkamlashni talab qildi. Importning o'sishi va eksportning kamayishi savdo va to'lov balansini yomonlashtirdi.

MDH davlatlari ichida Rossiyada bo'lgan ko'pgina o'zgarishlar uning budjetining daromad qismi tarkibining o'zgarishiga olib keldi. Oxirgi paytlarda soliq orqali daromadlarning o'sishi energiya tashuvchilarga eksport bojlarining pasayishiga olib kelgan. Oldindan rejalashtirilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimi susaygan. Monopollashgan muhit energiya tashuvchilariga narxni yuqori darajada tutib turishga yordam beradi. Bu ba'zi davlatlarda biznesning usiz ham past raqobatbardoshligini susaytiradi. Afsuski, bunday holatda yuqori valuta kursiga ega bo'lishga sharoit yaratib bo'lmaydi. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun ko'plab davlatlar ta'lim sohasiga sezilarli investitsiya vositalarini jalb qilish lozimligini, shunda 10-15 yildan keyin yoshlar biznesni yuqori darajaga ko'tarishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Bu jarayonlarning barchasi mamlakatda va jahonda valuta siyosatining qanchalik optimal olib borilishiga va valuta kurslarining barqarorligiga bog'liq.

8.2. Valuta inqirozida valuta kurslarining o'zgarishi va valutani boshqarish siyosati

Valuta kurslarining o'zgarishi valuta inqirozi davrida muhim o'rin tutadi va doimiy ravishda kurslar o'zgarishiga e'tibor berishi lozim.

Fiksirlangan kurslarga nisbatan suzuvchi kurslar rejimining afzalligi va zarurligini, uchta iqtisodiy ko'rsatkichga — pul massasi, narxlar va ishlab chiqarish quvvati hamda davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi o'rniga qarab asoslab berish mumkin.

Taniqli iqtisodchi olim M.Fridmenning fikricha, bozorning o'zi valuta chayqovchiligi bilan bog'liq ishlarni hukumatdan ko'ra birmuncha yaxshiroq olib boradi. Neoklassik yo'nalish tarafdorlari iqtisodiyotni valuta kurslarini shakllantirish, bozor omillarini kuchaytirish va suzuvchi kurslarni xalqaro hisob-kitoblarda avtomatik qo'llashga o'tish yo'li bilan barqarorlashtirish mumkin deb hisoblashadi. Valuta inqirozlarining oldini olishga yo'naltirilgan bir nechta nazariyalar mavjud.

Masalan, optimal valuta zona nazariyasida haqqoniy valuta kurslarini o'rnatishda, ularning o'zgarish ko'lamini va zarurligini aniqlovchi obyektiv ko'rsatkichlarni topishga harakat qilingan holda mezonlar ishlab chiqilgan.

Valuta kurslarining normativ nazariyasi esa valuta kursini iqtisodiyotni boshqarishdagi qo'shimcha instrument sifatida ko'rib chiqadi va bunda o'zgaruvchan kurs rejimini qo'llashni tavsiya etadi, ya'ni davlat tomonidan boshqariluvchi, bu nazariya asoschilarining fikricha, valuta kurslari xalqaro tashkilotlar o'rnatgan paritetlar va kelishuvlar asosida shakllanishi kerak.

Shunga qaramay, yuqorida aytib o'tilgan nazariyalar valuta kursiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olmaydi, balki ma'lum moliyaviy holat sharoitida ko'proq yoki kamroq moslashuvchan bo'lishi mumkin bo'lgan valuta siyosatining yo'nalishlari haqida tasavvur berishga imkon beradi.

1997-yil davomida Ukrainada 1 AQSH dollari 1,8-1,9 grivenga teng barqaror kurs hukm surgan. Lekin bunday barqarorlik iqtisodiyotdagi barqarorlikka emas, balki davlatning mohirona tarzda kursni ushlab turish uchun o'tkazgan tadbirlarining natijasi bo'lgan.

Bunday barqarorlikning zaruratiga davlatning Xalqaro Valuta Fondi va Jahon bankidan kredit resurslarini olishga bo'lgan intilishi sabab bo'lgan. Buni esa ichki iqtisodiyotdagi ko'rsatkichlarni XVF talablarining bajarilishiga bog'liqligi bilan tushuntirish mumkin.

Yil davomida griven kursining barqarorligini saqlash uchun Ukraina Milliy bankining o'sha davrdagi 2,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etuvchi rezervlari Ukrainaning banklararo valuta birjasiga joylashtirilgan edi. 1998-yilning oxirida AQSH dollariga bo'lgan talabning doimiy o'sib borishi natijasida valuta rezervlari hisobidan qoplangan summa 0,8 mlrd. AQSH dollariga qisqargan. Shuni aytib o'tish kerakki, Ukraina Milliy bankining valuta rezervi XVFdan olinadigan kreditning ko'proq qismini olishni ko'zda tutgan.

Kursni asossiz tarzda past darajada ushlab turish maqsadga muvofiq emasligi haqida ko'plab iqtisodchi va siyosatchilar 1997-yilda aytib o'tganlar va Ukraina Milliy banki 1 AQSH

dollari 2-2,1 grivendan yuqoriroq bo'lishi kerak, deb hisoblagan. Bunday siyosat valuta rezervlarining sezilarli qismini iqtisod qilishga imkon bergan. Biroq aksariyat iqtisodiy ko'rsatkichlar XVF orqali nazorat qilinadi va AQSH dollari kursi bilan hisob-kitob qilinadi.

1998-yilning avgust oyidan yuz bergan inqiroz davomida Ukraina Milliy banki tomonidan yangi valuta koridori joriy qilingan. Uning vazifasi o'sib borayotgan xavotirga qaramay, barqarorlikning muayyan kafolatlarini yaratish edi. U esa o'sha paytda moliyaviy bozordagi vaziyat batamom hukumat nazorati ostidan chiqib ketmasligining garovi bo'lgan. Yangi koridor to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi investorlarga kafolatni ta'minlashga qaratilgan edi. Bu esa, o'z navbatida, XVFning kreditlarni berish to'g'risidagi qaroriga ta'sir qiluvchi omil hisoblanardi. Lekin hattoki ancha past yoki yuqori chegaraga ega bo'lgan koridorning joriy qilinishiga usiz ham ancha kamayib qolgan Milliy bank zaxiralarining yetmasligi sababli Ukraina hukumati qo'shimcha moliyaviy va ma'muriy choralarni qo'llashga qaror qilgan. Bu choralar:

- valuta tushumini majburiy sotish;
- birjada valuta sotib olish tartibini murakkablashtirishga olib kelgan.

Valutani majburiy sotish eksport sotuvlaridan kelib tushadigan foydaning kamayishi natijasida eksportning kamayishiga olib keldi. Eksportning pasayishi, o'z navbatida, xorijiy valuta taklifini banklararo valuta birjasida tushib ketishiga olib keldi hamda kapitalning oqib ketishiga yo'l ochib bergan. Uning natijasida milliy valuta kursi pasayib ketgan. Shunday qilib, Ukraina Milliy bankining maqsadi valuta zaxiralarini to'ldirish bo'lganligi sababli majburiy sotishni joriy qilish eksportning pasayishiga va Ukrainaga dollar oqimining qisqarishiga olib kelgan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, odatda, valuta koridori valuta kursi ma'lum belgi atrofida tebrangan hollarda kiritiladi. Valuta koridori kiritilishining sababi shundaki, bozor ishtirokchilarini valuta risklaridan himoya qiladi va kurs tebranishi kurslarining qisqarishiga olib keladi. Valuta kursining bu holati valuta-rezervlari harakat kursining qarshiligi koridorning yuqori che-

garasiga nisbati holatida sarflanadi va harakat qarshiligi quyi chegara nisbatida hosil qilinadi.

Koridorni kiritganda o'zgarmaydigan valuta kursiga erishishning yuqori chegaradan chiqib ketishi o'rinsiz vosita bo'lib, ular valuta rezervlarining sarflanishiga olib keladi. Inqiroz holatida bu qulay usul bo'lib, valuta savdolarini o'tkazadigan vaqtda o'sish kursining limiti kiritilishiga olib keladi.

Valuta koridori kiritilgandan keyin rasmiy kurs tezda yuqori chegaraga yetadi va natijada uning talab-taklifdan o'sishi bilan valuta koridori mustahkam valuta kursiga aylanadi hamda muntazam ravishda quyidagilar vujudga keladi:

- qora valuta bozorining vujudga kelishi;
- milliy valutaning real narxlar aniqlanishi mexanizmining natijasida bozor iqtisodiyotining asosiy prinsiplarining buzilishi va iqtisodiyotning yomonlashuvi;
- investitsiyaning qisqarishi va chet el mamlakatlarining moliyaviy yordamiga muhtojlik.

Valuta koridorining yana bir salbiy jihati tijorat banklari faoliyatining diskriminatsiyasi bo'lib, valuta koridori banklarga sharoit yaratish, valutani savdoda boshlang'ich kursda sotib olish va qo'shimcha foyda olish maqsadida uni qimmatroq kursda qayta sotish usulidan foydalanishga olib keladi. Bunday holat ba'zida bank sohasida yaxshi raqobatning yomonlashishiga, qolgan banklarning inqirozga uchrashishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi davlatlarda boshlanishida banklarga ochiq valuta pozitsiyasiga ega bo'lish taqiqlangan holatlar mavjud. Bu holat moliyaviy mustahkamlikni pasaytiradi va bunday kursning tushib ketishi banklar uchun valuta riskini oshiradi.

Ko'p iqtisodiyotchilarning fikriga ko'ra, kelajakda Yevropa hamjamiyati bilan integratsiya talablarini bajarish MDH davlatlarida milliy valuta kursini takomillashtirib qolmay, balki ularning Yevropa tovar va xizmatlar bozoriga kirishiga keng yo'l ochadi. Buni shunday tushunish kerakki, Yevropa moliya bozori ba'zi MDH davlatlari iqtisodiyotiga juda yaqin hamda qulayroq. Bundan tashqari, Rossiya, Belarus va Ukraina kabi davlatlar tovar ayirboshlashning ko'p qismini Yevropa davlatlari bilan amalga oshiradi.

MDH davlatlari va boshqa Sobiq Ittifoq davlatlari valuta inqiroziga uchragan. Hukumat tomonidan tub islohotlar va iqtisodiy erkinlashtirish hech qanday risksiz olib borilishi, shuningdek, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratib berilishi inqirozning oldini olishi mumkin.

Ma'lum davlat doirasida valuta-moliyaviy inqirozning vujudga kelish sabablari valutani boshqarish siyosati, xususan, valuta kursining rejimi va to'lov balansini tuzishda yetarli choralarning ko'rilmaganligi, shuningdek, boshqa mamlakatlardagi valuta inqirozining asoratlari natijasi hisoblanadi.

Valuta kurslarining beqarorligi, inqirozlarning chuqurlashuvi valuta kursiga qattiq ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashga, intiluvchi valuta kursiga doir turli nazariyalarni rivojlantirishga olib keladi. Xarid qobiliyatining pariteti nazariyasini muvofiqlashtiruvchi valuta nazariyasi, asosli valuta nazariyasi, belgilangan kurs va paritet asosida valuta barqarorligi nazariyasi, suzuvchi valuta kurslari nazariyasi, valuta kursining normativ nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Bugungi kunda MDH davlatlarida qo'llanuvchi valutani muvofiqlashtirish siyosati tahlili uchun bu nazariyalarda tavsiflangan mezonlarni qo'llash mumkin. Xarid qobiliyati pariteti nazariyasi mamlakatlarda muomalada bo'lgan pul miqdorining o'zgarishi valuta kursining o'zgarishini keltirib chiqaradi va valuta kursining obyektiv qiymatini inkor etadi.

Muvofiqlashtiruvchi valuta nazariyasi yo'nalishiga ega siljuvchi paritetlar nazariyasi, paritetlar nazariyasi, pul birligining oltin paritetini boshqarish yo'li bilan kursga ta'sirini taklif etadi. Keyns milliy valuta kursini narxga, eksportga, ishlab chiqarishga, bandlikka, tashqi bozor uchun kurashga ta'sir etish uchun joylashtirishni taklif qilgan. Bu tavsiyalar 30-yillarda Buyuk Britaniyada va boshqa mamlakatlarda qo'llanilgan. Kurslar muvozanati nazariyasi «to'lov balans muvozanatini ta'minlovchi kurs muvozanat nuqtasi hisoblanadi» degan tavsiyani beradi. Keyns muvozanat prinsipini qoniqtiruvchi pullar operatsiyalar bo'yicha to'lov balans muvozanatini saqlashi va kapital harakati normal bandlik darajasini ta'minlashi lozim, deb hisoblaydi.

Asosli valutar nazariyasi valutarlarni asosli, qattiq va yumshoqlarga bo'lish shart deb, bozor iqtisodiyoti sharoitida rezerv valuta saqlash zaruratini tasdiqlaydi, hattoki bu milliy manfaatlar zid bo'lsa ham, belgilangan paritetlar asosida valuta barqarorligi nazariyasi belgilangan paritet va kurslar rejimini tavsiya qiladi. Faqatgina to'lov balansining sezilarli barqarorligida o'zgarishlarga yo'l qo'yadi. Bu nazariya tarafdorlari iqtisodiy matematik modellarga tayanib, valuta kursini o'zgaruvchan kurslarga mos holda jahon bozorida narxlar o'zgarishiga yetarli javob bermasligini inobatga olgan holda to'lov balansini muvozanatda saqlashning samarali vosita ekanligini e'tirof qiladilar.

Tayanch so'zlar: inqiroz, valuta inqirozi, kurs rejimi, valuta nazorati, valuta inqirozi manbalari, valuta inqirozi omillari.

Nazorat uchun savollar

1. Valuta inqirozi deganda nimani tushunasiz?
2. Boy va qashshoq davlatlar iqtisodiyotiga valuta inqirozlari ta'sir qiladimi, qay tarzda?
3. Valuta inqirozining oldini olish yo'llarini keltiring.
4. Valuta inqiroziga qaysi omillar ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi?

IX BOB. XALQARO KREDIT

9.1. Xalqaro kreditning mohiyati va tamoyillari

Xalqaro kredit — bu ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida valuta va tovar resurslarining qaytarishlik, muddatlilik va foizlarni to‘lash shartlari asosida harakat qilishidir. Qarz beruvchi va qarz oluvchilar sifatida xususiy korxonalar (banklar, firmalar), davlat tashkilotlari, xalqaro va hududiy valuta-kredit va moliya tashkilotlari namoyon bo‘ladi. Xalqaro kredit tovar ishlab chiqarish va pul muomalasi jarayonining rivojlanishi bilan paydo bo‘lib, boshlang‘ich kapitalni jamg‘arish vositalaridan biri hisoblangan. Uning rivojlanishining obyektiv asosi ishlab chiqarishning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, xo‘jalik aloqalarining baynalmilallashuvining kuchayishi hisoblanadi.

Xalqaro kredit kapital doiraviy aylanishining hamma bosqichida, ya‘ni import asbob-uskuna, xomashyo, yoqilg‘ilarini sotib olish orqali pul kapitalining ishlab chiqarish kapitaliga aylanishida, tugallanmagan ishlab chiqarishni kreditlash shaklida ishlab chiqarish jarayonida, tovarlarni dunyo bozorlarida sotish jarayonida qatnashadi. Xalqaro kredit ichki kreditlar bilan uzviy bog‘liqlikda qiymat shaklining o‘zgarishida qatnashadi va ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga xizmat ko‘rsatib, qayta ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlaydi.

Xalqaro kreditning manbalari sifatida korxonalarda doiraviy aylanish jarayonida vaqtincha bo‘sh bo‘lgan kapitalning pul shaklidagi qismi hamda banklar orqali harakatga keltiriladigan davlat va xususiy sektor jamg‘armalari xizmat qiladi. Xalqaro kredit ichki kreditdan davlatlararo migratsiyasi va bu an‘anaviy manbalarning qator mamlakatlardan jalb qilish hisobiga yirikligi bilan farq qiladi. Takror ishlab chiqa-

rish jarayonining ma'lum bosqichlarida xalqaro kreditga obyektiv ehtiyoj tug'iladi. Bu quyidagilar bilan bog'liq: 1) xo'jalikda mablag'larning doiraviy aylanishi; 2) ishlab chiqarish va mahsulotni sotishning o'ziga xos xususiyatlari; 3) tashqi iqtisodiy bitimlarning hajm va muddat jihatidan farqlanishi; 4) ishlab chiqarishni kengaytirish uchun bir xil muddatlarda yirik kapital qo'yilmalarining zarurligi.

Xalqaro kreditning tamoyillari (shartlari) uning iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq ochib berishi mumkin.

Xalqaro kreditning takror ishlab chiqarish bilan aloqasi uning quyidagi asosiy tamoyillari yoki prinsiplarida ko'rinadi:

1) **qaytarishlik**. Xalqaro kredit ham ichki kreditga o'xshab kelishilgan muddatga qaytarilishi lozim. Agar olingan mablag'lar qaytarilmasa, u holda qaytarilmas pul kapitalini o'tkazish xususiyatiga va moliyalashtirish ko'rinishiga ega bo'lib qoladi.

2) **muddatlilik**. Kredit shartnomasida o'rnatilgan muddatlarda kredit qaytarilishi lozim.

3) **to'lovlilik tamoyili**. Qiymat qonunini amal qilishini va kredit differensial shartlarini amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi va xalqaro kredit uchun o'rnatilgan foizlar shu kreditning bahosi hisoblanadi.

4) **moddiy ta'minlanganlik**. Kredit bo'yicha yuzaga keluvchi risklardan himoyalab, kreditni to'lab berish kafolatini anglatadi.

5) **maqsadga yo'naltirilganlik**. Ssudaning aniq obyektlarini aniqlash, buning qo'llanilishidan asosiy maqsad kredit oluvchi davlatning eksportini rag'batlantirishdir.

Xalqaro kreditning prinsiplari bozorning iqtisodiy qonunlari bilan uning iqtisodiy aloqasini aks ettiradi hamda bozor subyektlari va davlatning joriy va strategik maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladi.

9.2. Xalqaro kreditning funksiyalari va shakllari

Xalqaro kredit ssuda kapitalini xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida aylanish xususiyatini aks ettiruvchi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Kengaygan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish maqsadida ssuda kapitalining mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishi. Xalqaro kredit mexanizmi orqali ssuda kapitali foyda olishini ta'minlash maqsadida iqtisodiy agentlar ko'zlagan sohalarga yo'naltiriladi. Shu orqali kredit milliy foydani o'rtacha foydaga aylantirishga va uning massasini oshirishga yordam beradi.

2. Xalqaro hisob-kitoblarda asl pullarni (oltin, kumush) kredit pullar bilan almashishi, shuningdek, naqdsiz to'lovlarning tezlashishi va rivojlanishi, naqd valuta aylanmasini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashishi muomala xarajatlarini iqtisod qiladi. Xalqaro kreditlar asosida xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalari bo'lgan — veksel, chek, shuningdek, bank o'tkazmalari, depozit sertifikatlari va boshqalar vujudga keldi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ssuda kapitalining muomala vaqti tejalishi hisobiga kapitalning ishlab chiqarish funksiyasi yordamida ishlab chiqarishni kengaytirishga va foydani ko'paytirishga erishish mumkin.

3. Kapitalning to'planishi va markazlashuvining tezlashishi. Chet el kreditlarini jalb qilish hisobiga qo'shimcha qiymatni kapitallashtirish tezlashadi, individual jamg'arish chegaralari kengayadi, bir mamlakat tadbirkorlarining kapitali boshqa mamlakat mablag'lari hisobiga ko'payadi. Kredit ma'lum chegaralarda boshqa mamlakatlarning kapitali, mehnati va mulkiga egalik qilish imkoniyatini beradi. Imtiyozli xalqaro kreditlarning yirik kompaniyalarga berilishi hamda mayda va o'rta firmalarning jahon ssuda kapitallari bozoriga kirish imkoniyatini qisqarishi kapitalning to'planishiga va markazlashuviga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro kredit funksiyalarining mohiyati milliy va jahon xo'jaligining rivojlanishiga qarab o'zgarib boradi. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kredit iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasini bajaradi hamda o'zi ham tartibga solish obyekti hisoblanadi.

Xalqaro kreditning turli shakllarini umumiy ko'rinishda, kredit munosabatlarini tavsiflovchi alohida jihatlari bo'yicha tasniflash mumkin.

Xalqaro kreditni manbalari bo'yicha ichki, tashqi va aralash kreditlashga hamda tashqi savdoni moliyalashtirishga ajratish mumkin. Ular bir-biri bilan uzviy bog'langan va tovarning eksportyordan importyorga tomon harakatining barcha bosqichlariga — eksport tovarini ishlab chiqarish, uning yo'ldagi va omborga tushish jarayonlariga (shuningdek, chegaradan tashqarida ham), tovarning ishlab chiqarish jarayonida importyor tomonidan ishlatilishi va iste'mol qilinishiga xizmat qiladi. Tovar sotish jarayoniga qanchalik yaqin bo'lsa, qarzdorga uning shartlari shunchalik darajada ma'qul keladi.

Qarz mablag'lari qanday tashqi iqtisodiy bitimda belgilanishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

— tijorat kreditlari — tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'langan;

— moliyaviy kreditlar — har qanday maqsadlarga ishlatiladigan, shu jumladan to'g'ri kapital qo'yilmalar, investitsion obyektlarni qurish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, tashqi qarzni to'lash, valuta intervensiyasini o'tkazishlar;

— oraliq kreditlar — kapital, tovar va xizmatlarni olib chiqarishning aralash shakllariga xizmat qilish uchun tayinlangan, masalan, pudrat ishlarini bajarish shaklida bo'lishi mumkin.

Ko'rinishi bo'yicha kreditlar: tovar shaklida — asosan eksportyorlar tomonidan xaridorlarga beriladigan va valuta shaklida — banklar tomonidan pul shaklida beriladigan kreditlarga bo'linadi.

Valutasi bo'yicha xalqaro kredit qarzdor mamlakatning valutasida yoki kreditor mamlakatning valutasida, shuningdek, valuta savatida hisoblanadigan xalqaro valuta birligida (SDR, yevro va b.) berilishi mumkin.

Xalqaro kredit manbalariga ko'ra tashqi savdoni ichki, tashqi (chet) va aralash kreditlash hamda moliyalashtirish bo'yicha farqlanadi.

Xalqaro kreditni ko'rinishi bo'yicha 2 ta asosiy shaklga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1. Xalqaro bank krediti.
2. Xalqaro tijorat krediti.

Xalqaro bank krediti asosan valuta (pul) ko'rinishida bo'ladi.

Xalqaro tijorat krediti esa, odatda, tovar ko‘rinishiga ega.

Ana shu 2 ta asosiy kredit shaklidan kelib chiqadigan bir qancha kreditlar mavjud:

1. Firma (tijorat) krediti — odatda, eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to‘lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishi tushuniladi. Tashqi savdoda tijorat krediti tovarli operatsiyalarga bog‘liq hisob-kitoblarda keng qo‘llaniladi. Tijorat kreditining muddati (odatda, 2-7 yil) turlicha bo‘ladi.

2. Vekselli kreditda eksportyor tovarni sotish haqida bitim tuzib, o‘tkazma veksels (tratta)ni importyorga jo‘natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib akseptlaydi, ya‘ni unda ko‘rsatilgan muddatda to‘lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

3. Ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kredit. Bu kredit eksportyor va importyor o‘rtasidagi kelishuvga asoslanadi. Eksportyor jo‘natilgan har bir tovarlar qiymatini importyorning hisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko‘rsatilgan vaqtda kredit summasini to‘lab boradi. Ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo‘lgan firmalar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat kreditining yana bir turiga importyorning avans to‘lovi (sotib oluvchining avansi) ni kiritish mumkin. Bunda shartnoma tuzilayotgan paytda mol sotib oluvchi, ya‘ni importyor tomonidan chet ellik mol yetkazib beruvchiga, odatda, mashina, asbob-uskunalar (texnologiya) ning qiymatidan 10-15 foizi oldindan to‘lab beriladi.

Xaridor avansi eksportni kreditlashning bir shakli hisoblanadi va shu vaqtning o‘zida importyorning majburiyatini ta‘minlovchi vositadir. Chunki importyor o‘zi buyurtma bergan tovarni sotib olishga majbur bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shug‘ullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ravishda, xaridor avansidan shu davlatlarning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini olib chiqib ketishda foydalanmoqdalar.

Tijorat krediti sotuvchi va sotib oluvchi o‘rtasidagi munosabatni namoyon qilsada, bank krediti bilan qo‘shilib moslashadi.

Mashina va asbob-uskunalarini sotishda tijorat krediti uzoq muddatga beriladi (7 yilga), bu esa, o'z navbatida, eksportyorning anchagina mablag'ini jalb qilib oladi. Shu sababdan eksportyor bank kreditiga murojaat qiladi yoki o'z kreditini banklarda qayta moliyalashtiradi.

Tijorat krediti hajm va moliyalashtirish shartlari bo'yicha mashina va asbob-uskunalarining eksportini kreditlash muammosini to'liq yecha olmaganligi sababli, bank kreditlarining roli oshadi.

Bank krediti — eksport va importni kreditlashda ssuda shaklida namoyon bo'ladi va u tovarlar, tovar hujjatlari, veksellarni hamda trattani garovga olgan holda beriladi. Ba'zan banklar o'zlariga chambarchas aloqada bo'lgan yirik eksportyor-firmalarga blankli kredit, ya'ni rasmiy ta'minlanmagan kreditlar berishadi.

Xalqaro savdoda bank kreditlari tijorat kreditlariga nisbatan ustunlikka ega. Ular kredit oluvchini olgan mablag'laridan tovarlar sotib olishga mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratadilar, mol yetkazib beruvchi firmadan kreditga mol so'rashdan ozod etadilar, hamda oxirgi tovarlarga hisob-kitoblarni bank kreditidan foydalanib to'laydilar. Xususiy banklar ko'pincha davlat mablag'larini va uning kafolatini olgan holda eksport kreditlarini 10-15 yilga bozor stavkasidan pastroq stavkada beradilar.

Eksport krediti — eksportyor bankining importyor bankiga yetkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsiya qilingan tovarlarni kreditlashga aytiladi. Bank kreditlari pul ko'rinishida beriladi va «bog'liq»lik xarakteriga ega, chunki kredit oluvchi ssudadan faqatgina kreditor mamlakat tovarlarini sotib olishigagina beriladi.

Muddatlari bo'yicha xalqaro kreditlar: qisqa muddatli — 1 yilgacha bo'lgan, ba'zan 18 oygacha (juda qisqa muddatlilari — 3 oygacha, kunlik, haftalik); o'rta muddatlilari — 1 yildan 5 yilgacha; uzoq muddatlilari — 5 yildan yuqori muddatli bo'ladi. Bir qator davlatlarda o'rta muddatli kreditlar 7 yilgacha bo'lganlari, uzoq muddatlilari 7 yildan yuqorilari hisoblanadi. Qisqa muddatli kreditlar, odatda, tadbirkorlarni aylanma kapitali bilan ta'minlashda hamda tashqi savdo, xalqaro to'lov aylanmasida nosavdo, sug'urta bitimlariga xizmat qiladi. Uzoq mud-

datli xalqaro kredit asosan ishlab chiqarishning asosiy vositalariga investitsiya qilishda, mashina va uskunalar eksportining 85 % gacha bo'lgan qismiga, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllariga (yirik masshtabdagi loyihalar, yangi texnikani kiritish) xizmat qilishda ishlatiladi. Agar qisqa muddatli kredit prolongatsiya qilinsa (muddati uzaytirilsa), u o'rta muddatliga, ba'zi hollarda uzoq muddatli kreditga o'zgaradi. Qisqa muddatli kreditlarni o'rta va uzoq muddatliga o'zgartirishda davlat kafolat beruvchi sifatida aktiv ishtirok etadi.

Ta'minlanganlik darajasi bo'yicha kreditlar ta'minlangan va blankali kreditlarga bo'linadi.

Ta'minot sifatida tovarlar, tovar taqsimlovchi va boshqa hujjatlar, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqa qimmatliklar xizmat qiladi. Kredit olish uchun qo'yiladigan tovar garovi uch shaklda amalga oshiriladi: qat'iy garov (tovarning ma'lum qismi bank foydasiga qo'yiladi); aylanmadagi tovar garovi (ma'lum summaga to'g'ri keladigan tegishli assortimentdagi tovar qoldig'i hisobga olinadi); qayta ishlash jarayonidagi tovar garovi (bu qo'yilgan tovarlardan mahsulot ishlab chiqarish mumkin).

Kreditor sotishga imkoniyati ko'p bo'lgan tovarlarni garovga olishni afzal ko'radi va ta'minot hajmini aniqlashda tovarlar bozoridagi konyunkturani hisobga oladi. Ba'zan kredit ta'minoti sifatida o'rtacha bozor narxlarida baholanuvchi rasmiy oltin zaxiralari qismidan ham foydalaniladi (Finlyandiyada 1963-yil, Italiya, Urugvay, Portugaliyada 70-yillar o'rtalarida qo'llanilgan). Rivojlanayotgan davlatlar (asosan 80-yillar boshlarida) o'zlarining tashqi qarzlarini to'lash uchun oltinni garov sifatida qo'yishni keng qo'llay boshladi. Biroq oltin garovi asosidagi ssudalar ko'pgina xalqaro kreditlarga xos bo'lgan «salbiy garov sharti» kuchga kirishi bilan keng tarqalish kuchini yo'qota boshladi. Uning mohiyati shundaki, agar qarzdor boshqa kreditlar bo'yicha qo'shimcha ta'minotni kiritgan bo'lsa, u holda kreditor shu ta'minotni joriy kredit bo'yicha ham talab qilib olishi mumkin. Binobarin, agar mamlakat kreditni oltin garovi ostida olsa, undan oldin olingan boshqa kreditlar bo'yicha ham oltin ta'minotini talab qilish mumkin.

Shuning uchun ham, ba'zi mamlakatlar oltinni sotishni afzal ko'radi. Modomiki, garov kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning ta'minoti sifatida xizmat qilar ekan, kreditor bu majburiyatlarning qarzdor tomonidan bajarilmagan hollarda garov qiymatidan kompensatsiya summasini olish huquqiga ega bo'ladi.

Blankali kredit qarzdorning majburiyati ostida ma'lum muddatda to'lash sharti bilan beriladi. Odatda, bu kredit bo'yicha hujjat sifatida bir tomonli qarzdorning imzosi bilan beriladigan solo-veksel xizmat qiladi. Blankali kreditlarning boshqa ko'rinishlari sifatida kontokorrent va overdraftlarni keltirish mumkin.

Kreditlarni berish texnikasi jihatidan quyidagilar ajratiladi: moliyaviy (naqd) kreditlar — qarzdorning hisobvarag'iga muvofiqlashtirish uchun o'tkaziladi; akseptli kreditlar — importyor yoki bank tomonidan tratta akseptlanadi; depozit sertifikatlari; obligatsiyali zayomlar; konsorsial kreditlar va boshqalar.

Kreditor sifatida kim namoyon bo'lishiga qarab kreditlar quyidagilarga bo'linadi: 1) xususiy — firmalar, banklar, ba'zan o'rtada turadigan (broker) lar tomonidan beriladi; 2) hukumat; 3) aralash — bunda xususiy va davlat korxonalari qatnashadi; 4) davlatlararo kreditlar — xalqaro va hududiy valuta-kredit va moliya tashkilotlari tomonidan beriladi.

Firma (tijorat) krediti — firma tomonidan, odatda, bir mamlakatning eksportyori tomonidan boshqa mamlakatning importyoriga to'lov muddatini ortga surish ko'rinishida beriladigan kreditdir. Kreditlarning muddatlari turlicha (odatda 2-7 yilgacha) bo'lib, u jahon bozorlaridagi konyunktura shartlari, tovarlar ko'rinishi va boshqa omillar asosida aniqlanadi.

Firma krediti veksel orqali rasmiylashtiriladi yoki ochiq hisobvaraqq orqali beriladi.

Vekselli kredit — eksportyor tovarni sotish to'g'risida shartnoma tuzib, importyorga o'tkazmali vekselni beradi. Importyor esa tijorat hujjatlarini qabul qilib, vekselni akseptlaydi, ya'ni unda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Ochiq hisobvaraqlar orqali kredit — eksportyor importyor bilan bitim tuzib, unda tovar yetkazib beruvchi tovar qabul qilib oluvchining hisobvarag'iga uning qarzi sifatida sotilgan va tushirilgan tovarlarning qiymatini yozib boradi, o'z navbatida, importyor o'rnatilgan muddatda kreditni to'lashi kerak. Ochiq hisobvaraqlar orqali kreditlar tovarlarni muntazam yetkazib berishda hamda qarzni oyning o'rtasi va oxirlarida to'lashda qo'llaniladi.

Firma kreditlarining yana bir ko'rinishi sifatida avans to'lovli kreditlar ham keng qo'llaniladi. Bunda importyor tomonidan eksportyor foydasiga shartnomada ko'rsatilgan buyurtma berilgan mashina va uskunalarning qiymatining, odatda, 10-15 % miqdorida (ba'zan bundan ortiqroq) avans to'lov amalga oshiriladi. Sotib olish avansi eksportni kreditlash shakllaridan biri bo'lib xizmat qiladi va bir paytning o'zida chet ellik xaridor majburiyatini ta'minlash vositasidir, chunki importyor buyurtma bergan tovarini qabul qilishi shart.

9.3. Xalqaro kreditning xususiyatlari va imkoniyatlari

Rivojlanayotgan mamlakatlarga kelib tushadigan moliyaviy oqimlarning quyidagi xususiyatlari mavjud:

Birinchidan, bu mamlakatlar tashqi resurslarning asosiy qismini hukumatlararo bitimlar hamda xalqaro moliyaviy institutlarning imtiyozli kreditlari va subsidiyalari shaklida tashkil qiladilar («Rivojlanishni rasmiy moliyalashtirish» — RRM). Imtiyozli resurslarga nomzod mamlakatlarning tanlovi iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab amalga oshiriladi. Lekin siyosiy va harbiy-strategik omillar ham inobatga olinadi. RRM bo'yicha mablag'larni iqtisodiy inqirozni kechirayotgan mamlakatlar ham olishlari mumkin.

Ikkinchidan, har bir mamlakat uchun uning iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy vaziyati, ichki moliyaviy bozorining holati, xalqaro iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda olib borayotgan siyosatiga qarab o'zining maxsus xalqaro kreditlash va moliyalashtirish mexanizmi mavjud bo'ladi. Rivojlanayotgan

mamlakatlar ikki toifaga bo'linadi. Birinchilar (past rivojlanganlar) – tashqi resurslarni asosan rasmiy manbalardan oladilar. O'z resurslari qiyin sharoitlar tufayli yetarli emas. Bunday mamlakatlar xususiy investitsiyalar uchun noqulaydir.

Ikkinchilar (nisbatan rivojlangan) – xususiy resurslarni jalb qiladilar. Bular rivojlanayotgan moliyaviy bozorlarga ega bo'lgan mamlakatlardir. Bu mamlakatlarning moliyaviy bozorlari muayyan rivojlangan va ularning integratsiyasi xalqaro tizimga mos kelgan bo'ladi.

Uchinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarning kreditlanishi va moliyalashtirilishi asosan markaz hamda xalqaro xo'jaliklar o'rtasidagi munosabatlarga to'g'ri keladi.

Faqatgina kredit va subsidiyalarning uncha ko'p bo'lmagan qismi rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zaro hamkorlik doirasida beriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojida tashqi resurslarning ahamiyati birlamchi hisoblanmaydi.

Chunki ko'p mamlakatlar iqtisodiy yutuqlarga erishish yo'lida ichki jamg'armalarga tayangan bo'lsalar ham, tashqi resurslarni aktiv ravishda jalb qiladilar. Lekin ba'zi mamlakatlar yirik tashqi ta'sirga qaramay, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lida unchalik siljiy olmaganlar.

Tashqi resurslarni ishlatish samarasi asosan kreditor va kredit oluvchi (davlat institutlari hamda xo'jalik subyektlar) olib boradigan faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Xalqaro kredit quyidagilarga imkon tug'diradi:

1. Ishlab chiqarish va ayirboshlashning baynalmilallashuvi;
2. Jahon bozori va xalqaro savdoni tashkil qilish;
3. Rivojlangan mamlakatlar tovarlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish;
4. Urushlarni moliyalashtirish shakllarining turli xillarini tashkil qilish;
5. Iqtisodiy qoloq bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiyotini kuchaytirish.

Xalqaro kreditning ahamiyati u bajaradigan funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. Xalqaro kreditning funksiyalarini quyidagilarcha tasniflash mumkin:

1. Tovar va xizmatlarning eksportini rag'batlantiradi.
2. Xorijiy xususiy investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratadi.
3. Qarzdor mamlakatlardan foiz ko'rinishidagi daromadlarni chiqarib olish instrumenti bo'lib xizmat qiladi.
4. Qarzdor mamlakatlarda xorijiy monopoliyalar uchun qulay va foydali bo'lgan iqtisodiy hamda siyosiy rejimlarni o'rnatishga imkon beradi.

Ishlab chiqarish va ayirboshlash baynalmilallashuvining darajasi o'sishi bilan bir qatorda xalqaro kreditning ahamiyati ham oshib bormoqda. Buni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi kredit munosabatlari kengayib bormoqda.
2. Kredit munosabatlari jahondagi iqtisodiy chegara uchun bo'lgan kurashni olib borishga transmilliy korporatsiyalarga yordam beradi.
3. Jahondagi hukmron mamlakatlarning kredit ekspansiyasini oshiradi, chunki kreditlar rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lgan iqtisodiy va siyosiy qaramlikni oshirish sharti bilangina beriladi;
4. Xalqaro savdoni moliyalashtirish, to'lov balansini tartibga solish va asosiy rivojlangan mamlakatlarning valutasini qo'llab-quvvatlashga beriladigan kreditlar summasi sezilarli darajada oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligi quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ko'maklashish;
- milliy valutani mustahkamlash;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- raqobat muhitini shakllantirish;
- kadrlarni tayyorlash.

Bu choralar esa chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni dunyo bozorlariga chiqishini ta'minlovchi yangi darajaga olib chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

9.4. Xalqaro kredit bo'yicha foiz stavkasi va kredit bahosi

Kapital harakatining muhim shakli ssuda kapitalini xalqaro kredit ko'rinishida olib kelinishi va olib chiqilishi hisoblanadi. Korxonalar, aholi va davlatda bo'sh pul jamg'armalarining paydo bo'lishi, ularni banklar, sug'urta va investitsiya kompaniyalarida to'planishi, shuningdek, transmilliy kompaniyalar, banklar, xalqaro moliya-kredit muassasalarining ssuda kapitalining jahon bozorini shakllanishiga olib keladi. Bu bozorda turli-tuman davlatlardagi qarz beruvchilar va qarz oluvchilar kredit berish shartlari va kredit miqdorini belgilovchi shartnomalar tuzadilar.

Kredit munosabatlarining xalqaro miqyosda amalga oshirishi (mamlakatlar o'rtasida) xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Xalqaro kreditga xalqaro miqyosda harakat qiluvchi kredit munosabatlari to'plami sifatida qarash zarur. Kreditning bu shakli bevosita ishtirokchilari davlatlararo moliya-kredit institutlari, tegishli davlat hokimiyati, kredit tashkilotlari va alohida huquqiy shaxslar bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, huquqiy shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan kredit hisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat, tashkilot va muassasalar, huquqiy shaxslar, xalqaro valuta kredit tashkilotlari qatnashadilar;

- qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

- qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi.

Xalqaro kredit mahalliy kredit bilan bir qatorda fondlar aylanishining barcha bosqichlarida qatnashadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- mamlakatlar o'rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi;

- kapitalning konsentratsiyalashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;

- har xil vositalarda xalqaro hisob-kitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

- Valuta turiga ko'ra qarzdor mamlakat valutasida, kreditor mamlakat valutasida, uchinchi mamlakat valutasida, ma'lum davlatlar pul birligida (SDR, yevro va boshqalar).

Taklif etilishi nuqtayi nazaridan naqd akseptli (bank yoki importyor tomonidan akseptlanganda), depozit sertifikatli, obligatsiya zayomli kreditlarga bo'linadi.

Shu o'rinda xalqaro kreditlarning ayrim turlariga to'xtalib, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko'rsatib o'tsak. Masalan, faktoring — bu vositachi kompaniya tomonidan qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'lov uchun qabul qilib, uni tezda yoki o'rnatilgan muddatlarda mol egasiga to'lash hisoblanadi. Kreditlashning bu shaklining ustunligi shundaki, faktoring kompaniyasiga (vositachiga) hisob-kitob hamda bozorga chiqishning moliya natijalarini tahlil qilish funksiyalarining ma'lum qismi ham o'tadi. Kreditning bu shaklidan iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, eksport aylanmasi katta bo'lmagan firmalar foydalanadi.

Faktoring kompaniyalari tijorat banklari faoliyati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ulardan kredit yordami va xaridorlarning kredit qobiliyati haqidagi ma'lumotlarni oladi. Shuningdek, faktoring kompaniyalari o'zaro xalqaro guruhlarini, assotsiatsiyalarni tashkil etadilar. Bu kompaniyalar eksport qiluvchilarni kredit risklaridan va kreditni sug'urta qilish xarajatlari bilan ozod qiladi.

Forfeiting operatsiyasi 50-yillarda G'arbiy Yevropada paydo bo'lib, aylanishsiz moliyalashtirish deb atalgan baza asosida rivojlanadi. Bu usul AQSHda «Veksellarni qayta moliyalashtirish» nomi bilan qayta tarqalgan. Bu operatsiyaning mazmuni

shundaki, eksportyor tomonidan importyorga talab huquqi bank forfeytoriga beriladi, u esa, o'z navbatida, bu huquqni saqlashi yoki xalqaro bozorda sotishi mumkin. Bank esa eksportyorga bu qimmatli qog'ozlar qiymatini naqd pul bilan to'laydi. Bunday qat'iy hisob stavkasi, mukofot (bank majburiyatlarni to'lamaslik riskini o'z zimmasiga olgani uchun) chegirib tashlanadi. Forfeyting operatsiyalarida ishlatiladigan moliyaviy vositalar banklardagi an'anaviy savdo veksellari hisob-kitoblari kabi qo'llaniladi. Farqi shundaki, veksellari egasi importyor sifatida forfeytingda risk bilan bog'liq bo'ladi. Oddiy hisob-kitobda esa veksellari qonunchiligiga binoan ko'plab holatlarda qarzdorlik javobgarligi eksportyorning xaridorni kreditlashini uzaytirishga imkon beradi. Bankning forfeyting operatsiyalari bo'yicha riskni o'z zimmasiga olishi investorlar uchun o'z mablag'larini uzoq muddatga qo'shimcha joylashtirishga qiziqishni oshiradi. Forfeyting operatsiyalarida ishtirok etuvchi banklar uchun yevrovaluta bozori, moliyaviy vositalar bozori hisoblanadi. Shuning uchun forfeyting stavkasi bu bozordagi o'rta muddatli kredit foiz stavkasi bilan chambarchas bog'liq.

Xalqaro lizing — bu ijara operatsiyalarining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ijaraga beruvchining mulkka egalik huquqi saqlanib qoladi. Ijaraga oluvchi vaqti-vaqti bilan tovardan vaqtincha foydalanish uchun haq to'lab turadi. Lizing jihozlarni maxsus kredit muassasasining kompaniyasi tomonidan oldindan sotib olishni anglatadi. Asosan bunday operatsiyalarning obyekti turli xil jihozlar, transport vositalari, EHM va boshqalar hisoblanadi. Ijara kredit olishning o'ziga xos shakli bo'lib, eksportyor tovarining tashqi bozordagi harakatini yengillashtiradi. Oddiy tovar krediti bilan lizing ijara operatsiyalarini o'tkazish shartlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. Ijaraga oluvchi o'z mablag'larini markazlashtirishdan xalos bo'ladi. Ijara to'lovlari bo'lak-bo'lak shaklida butun ijara davrida to'lab boriladi. Ammo lizingning maqsadi tovarga egalik huquqini olish emas, balki tovarning iste'mol xususiyatlaridan foydalanish huquqini olishdir. Xalqaro savdo ijara operatsiyalarining hajmining oshishi ko'plab moliya mablag'larini jalb etishni taqozo etadi. Shuning uchun ham, ko'pchilik mam-

lakatlarning yirik tijorat banklari lizing kompaniyalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etadilar. Keyinchalik lizing kompaniyalari banklar ixtiyoriga o'tadi.

Xalqaro kreditning bahosi — bank bilan qarz oluvchi o'rtasidagi shartnoma asosida belgilanadi va bu kreditga oid foizlarni o'z ichiga oladi. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, kreditning bahosi bank tomonidan belgilangan foiz stavkasi hisoblanadi. Xalqaro kreditning bahosi ikkiga bo'linadi:

1. Kelishilgan kredit bahosi.
2. Kredit bahosining yashirin elementlari.

Kelishilgan kredit bahosiga foizlar, qarzni rasmiylashtirish uchun komission to'lovlar va boshqalar kiradi.

Kredit bahosining yashirin elementlariga esa kreditni ishlatish bilan bog'liq xarajatlar va shartnomada eslatib o'tilmagan to'lovlar kiradi.

Bevosita qarz beruvchiga to'lanadigan bu — foiz stavkasi hisoblanadi. Uning darajasi jahon, milliy pul bozorlarining ahvoliga, shuningdek, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi kelishuvlarga bog'liq. Foiz stavkalari qayd etilgan va suzib yuruvchi stavkalarga bo'linadi. Qayd etilgan foiz stavkalari kreditning barcha muddatiga belgilanadi.

Suzib yuruvchi stavka qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi kelishilgan muddatda (asosan 3-6 oydan keyin) kapital bozoriga ahvolga qarab, qayta ko'rib turiladi.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi ikki qismdan tarkib topadi:

1. Asos qilib olingan stavka. Bunday stavka sifatida AQSH banklarining birinchi darajali qarz oluvchilari uchun stavka (praym-reyt), shuningdek, London banklari tomonidan shu toifadagi mijozlarga qisqa muddatli ssudalarni berishda ishlatiladigan o'rta foiz stavkasi (LIBOR) qo'llaniladi. Rasmiy jihatdan LIBORning o'rnatilgan darajasi mavjud emas. Har bir yirik London banki bu stavkani valuta bozoridagi talab va taklifga qarab aniqlaydi. Libor valuta turlari va muddatlariga qarab (1, 3, 6 va 12 oy) tabaqalashtiriladi.

2. Ustamalar yoki marja. Uning miqdori qarz oluvchi va qarz beruvchi o'rtasidagi kelishuv bo'yicha aniqlanadi.

Komission to'lovlar bu qarz beruvchi bankka belgilangan muddat mobaynida zarur kredit resurslarini qarz oluvchi ixtiyoriga berish va rezervda saqlash majburiyati uchun to'lanadi. Shuningdek, komission to'lovlar agar kredit alohida banklar tomonidan emas, balki banklar uyushmasi tomonidan berilsa, kredit operatsiyalarini o'tkazishni boshqarish uchun ham to'lanadi. So'nggi holda yetakchi bank yoki uyushma ishni tashkil etuvchi menejer kreditlashda qatnashish hissasini hamda qarzni uzishdan, foizlarni to'lashdan tushadigan mablag'larni uyushma a'zolari o'rtasida taqsimlaydi. Buning uchun qarz oluvchidan boshqarish uchun bir martalik tartibda komission to'lovlar oladi.

Sug'urta mukofoti – bu maxsus sug'urta muassasalariga to'lanadi. Chunki ular yuz berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni sug'urta qiluvchi bilan kelishilgan miqdor doirasida qoplash majburiyatini o'z zimmlariga oladilar. Hozirgi vaqtda eksport kreditlarining sug'urta qilish miqdori ehtimoli bo'lgan yo'qotishlarning 80-90 %ini tashkil etadi, ba'zida esa hatto 100 %ini ham tashkil qilish mumkin.

Kredit bahosi ssuda kapitali bozoridagi talab va taklif asosida aniqlanadi. Kreditlarning barcha turlari, ya'ni xususiy, davlat va xalqaro tashkilotlarning kreditlari ustun ravishda bozor qiymati bo'yicha beriladi, biroq ba'zi hollarda qarz oluvchi tomonidan ma'lum shartlar saqlanganda hukumat kreditlari va xalqaro tashkilotlarning kreditlari bozor qiymatidan past bo'lgan imtiyozli narxda berilishi mumkin.

Xalqaro kreditning foiz stavkasi har xil usulda o'rnatilishi mumkin. Bularga «praym-reyt» va liborlarni misol keltirishimiz mumkin.

«Praym-reyt» asosida xalqaro kreditga foiz stavkasini o'rnatish.

Xalqaro kredit, masalan, AQSH dollarida Amerika banki tomonidan berilsin. Mahalliy valutada moliyalashtirilayotgan kreditni baholash uchun bank o'zining ma'lumot stavkalarini qo'llaydi. AQSHda bu rolni «praym-reyt» stavkasi bajaradi. Bu birinchi darajali talabgorlar uchun foiz stavkasi hisoblanadi. «Praym-reyt» stavkasi bank fondi uchun olinadigan ushla-

malarni, kredit bilan bog‘liq bo‘lgan bank operatsiyalarini, xarajatlarini hamda daromad marjasini qoplash darajasida baholanadi.

Bank uchun fond ushlamalari birinchi navbatda tez to‘lanadigan (qisqa muddatli) depozitlar stavkasi bilan shakllanadi. Bundan tashqari, mijoz hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish xarajatlari ham talab qilinadi. Chunki bank tomonidan hisobvaraqlar uchun alohida operatsiyalarga o‘tkaziladigan komission to‘lovlar buni qoplay olmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar banklari mahalliy depozitlarni sug‘urtalash uchun federal agentliklarga sug‘urta badallari to‘laydilar. Bu xarajatlarda albatta tijorat banklari uchun fond qiymatlarini oshirishga olib keladi. Bulardan tashqari, foiz stavkalari bank tomonidan baholanadigan kredit riskini ham o‘zida namoyon etishi kerak. Kredit bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim qo‘shimcha risklarni qoplash uchun «praim-reyt» stavkasi-ning ustiga qo‘shish orqali qoplash mumkin. Shularning hammasi umumlashtirilib, bank xodimlarining bilimlari va malakalari orqali kredit bahosi o‘rnatiladi. Bundan tashqari, bozordagi kredit beruvchilar tomonidan taklif qilinayotgan foiz stavkalari ham hisobga olinadi. Shunday qilib, mahalliy fondlar hisobidan moliyalashtirilayotgan xalqaro kredit foiz stavkasi yaxlitligicha bank tomonidan shunday e‘lon qilinadi: «Bizning praim-reyt plus X yillik foiz punktlari». Shu orqali foiz stavkasi o‘rnatiladi va bu kredit davrida «praim-reyt» stavkasi izidan yurib o‘zgarib turadi.

Yevrovalutani LIBOR stavkasi asosida foiz stavka o‘rnatish.

Libor stavkasi (London InterBank Offered Rate — LIBOR) bu Londondagi banklararo depozit bozori taklif qilgan stavka hisoblanadi. Xalqaro ssuda kapitallari bozorida kredit berishda eng kerakli va mo‘ljalli foiz stavka hisoblanadi. Bank banklararo bozordan yevrodollari Libor stavkasini to‘lagan holda qarzgaga oladi. So‘ngra bu pullarni mijoziga kredit qilib beradi. Yevrodollar qisqa muddatli depozitlar hisoblanadi va bank bularni 3 yoki 6 oyga oladi. O‘z-o‘zidan berilayotgan kredit revollover kredit liniyasi shaklini oladi. Ya’ni har chorak yoki yarimyillikda tiklanadi. Qarz-

dor tomonidan foiz stavka «LIBOR plyus X yillik foiz punktlari» tarzida e'lon qilinadi.

Bank daromadida «praym-reyt plyus» va «LIBOR plyus» stavkalari o'rtasida farq bor. «Praym-reyt» stavkasi o'zida bank uchun ushlamalar plyus xarajatlar qoplamasi plyus bankning aksiyador kapitali uchun daromadlarni namoyon etadi. LIBOR stavkasi esa faqat bank uchun fond qiymatini ko'rsatadi. Shunday qilib LIBOR stavkasi ustiga o'rnatilgan foiz bank sof daromadi hisoblanadi.

«Praym-reyt plyus» va «LIBOR plyus» stavkalaridan bank kredit bahosini pul bozorining instrumenti hisoblangan qimmatli qog'ozlarning foizlarini ustiga qo'shish bilan aniqlaydi. Misol qilib depozit sertifikatining foizini olishimiz mumkin. Bunda bank depozit sertifikatining foizini ustiga qo'shish orqali kreditni baholaydi. Bu stavka qaysidir bankning «praym-reyt» stavkasiga nisbatan ichki pul bozorining stavkasini aniqroq ifodalaydi. Bunday kreditning bahosini bank o'zining mijozlariga qimmatli qog'ozlar uchun to'laydigan foizlar bilan solishtirib turadi.

Yuqorida qayd etilgan «praym-reyt plyus», «LIBOR plyus» va boshqa stavkalar ko'p jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'ladi va ular o'zaro solishtiriladi. Masalan, bank akseptlarining foiz stavkasi depozit sertifikatlari va tijorat qog'ozlari foiz stavkasi bilan deyarli yaqin bo'ladi. Depozit sertifikati foiz stavkalari darajasi, qisqa muddatli bank depozitlari foiz stavkasiga qarab o'zgaradi. Yuqoridagi qayd etilganidek, «praym-reyt» stavkalari ana shu asnoda o'rnatiladi.

Xalqaro kreditni baholashda bir qancha omillar borki, ular kredit bahosiga ta'sir ko'rsatmasdan qo'ymaydi. Ana shu omillardan biri kredit olgan mijoz mamlakatining valuta-moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy holatidir. Bizga ma'lumki, ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar siyosiy jihatdan barqarordirlar. Lekin ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bunday emas. Bank mijozning moliyaviy holatidan qoniqqan bo'lishi mumkin, lekin u mamlakatning siyosiy holatini o'rganib chiqishi kerak bo'ladi. Chunki mijozning biznesini yomonlashuviga asosan shular sabab bo'lishi mumkin. Masalan, mamlakatda hukumat to'ntarilishi

sodir bo'lsa, yangi qonunlar qabul qilinishi mumkin va ayrim valuta cheklovlari o'rnatilishi mumkin. Natijada, mijoz o'zi xohlamagan tarzda kreditni qaytara olmaydi. Ana shunday to'satdan o'zgaradigan omillarga inflyatsiya sur'ati, valuta kursi dinamikasi, ssuda kapitali bozorining holati va boshqalar misol bo'la oladi.

9.5. Xalqaro kreditlar bo'yicha risklar va ularni boshqarish

Yuqorida ko'rsatib o'tilgandek, kreditning foiz stavkasi bu bank qo'ygan investitsiyaning bahosi hisoblanadi. Xalqaro bank krediti bahosi xuddi har bir moliyaviy aktiv bahosi singari o'zida ikki narsani, ya'ni risksiz komponent va risk uchun mukofotlarni mujassamlashtiradi. Risksiz komponentning bahosi o'z-o'zidan daromadning minimal stavkasi talabidan kelib chiqadi.

Bu bozor uchun normal hisoblanib, bunda inflyatsiyaning ham o'rni bo'ladi. Risksiz komponent uchun ko'pincha hukumatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari foizi olinadi. Risk uchun mukofotning bahosi o'zida 3 omilni mujassamlashtiradi:

1. Likvidlik riski uchun mukofot.
2. Foizli risk uchun mukofot.
3. Kursli valuta riski uchun mukofot.

Bularga izoh beradigan bo'lsak, masalan, likvidlik riski bu mijozning kreditni qaytarmasligining eng katta xavfi hisoblanadi. Bu yerda bankdan kredit xavfsizligini oshirish talab qilinadi. Chunki bu yerda mijoz kreditni butunlay qaytara olmaslik holatiga tushadi.

Foizli risk esa kelajakda foiz stavkasini oshirishning xavfini qoldiradi. Bu, albatta, kreditdan olinadigan daromadlarning tushishiga olib keladi. Foiz stavkalarining darajasi va harakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfi tug'iladi. Foiz riski debitorlarni ham, kreditorlarni ham o'z qa'riga tortadi.

Foiz risklarining boshqarilishi aktiv va passivlarni boshqarilishidan tashkil topadi. Foiz risklarini boshqarishning bir nechta tamoyillari mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

1. Bankning foiz marjasi qancha yuqori bo'lsa, foiz risk darajasi shuncha past bo'ladi.

2. «Spreed» tamoyili. Bunda olingan aktivlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka va to'langan majburiyatlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. Tahlil uchun ma'lumotlar, odatda, bankning statistik hisobotidan olinadi.

3. Bankning o'zgarmas va suzib yuruvchi foiz stavkalari bilan balansdan tashqari aktiv va passivlarni tahlil qilishdan iborat.

Foiz risklarning darajasi esa quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

– aktivlar tuzilishidagi o'zgarish, shu jumladan kredit va investitsiyalarning hajmi, aktivlarning qayd qilingan va suzib yuruvchi stavkalarda, ularning bozordagi narxining dinamikasi;

– passivlarning tuzilishidagi o'zgarish, ya'ni shaxsiy va zayom mablag'larining mutanosibligi, muddatli va jamg'arma depozitlar;

– foiz stavkasi dinamikasi.

Foiz risklari darajasini boshqarish va nazorat qilish uchun bank faoliyatining aniq bir holatiga bog'liq holda muhim strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Valuta riski – unchalik yaxshi bo'lmagan almashish kursi natijasida bank tomonidan boshqarilayotgan kreditga pul oqimini kamaytiradi. Xalqaro kredit mahalliy kreditdan farq qiladi, bunda bank boshqa davlatdagi kreditlash riskini ham baholashi kerak bo'lib hisoblanadi. Xalqaro kreditning deyarli barcha operatsiyalarida tomonlardan biri albatta valuta konversiyasiga, ya'ni konversiya riskiga to'qnash keladi. Shunday ekan, bunday riskning oldini olish uchun ko'plab banklar xalqaro kreditni chet el valutasida emas, balki o'z mahalliy valutarida berishni xohlaydilar. Bu harakati bilan bank valuta kursini o'zgarishidan ko'radigan xavfni va o'zining moliyaviy holatining yomonlashuvi oldini oladi.

Keyinchalik, olingan kredit mijozning o'z mamlakatida yoki boshqa mamlakatda ishlatilishi kerak bo'lsa, bunda kreditni olgan mijoz o'ziga kerakli valutaga almashtirib olishiga to'g'ri keladi. Agar kreditni olgan mijoz bank-kreditor mamlakatiga importni

moliyalashtirsa, u o'sha mamlakat valutasiga ega bo'ladi. Lekin bu valuta qarz to'lash uchun foydasiz bo'lishi mumkin, agar hukumat chet el valutasini chetga o'tkazish ustidan nazorat olib borayotgan bo'lsa, bu valuta riskini nazorat qilish deyiladi.

Bunday riskning oldini olish uchun kredit oluvchi mamlakatning valutasini holatidan boxabar bo'lishi kerak. Va oldindan bo'ladigan keskin devalvatsiyalarning prognozini qilish kerak. Chunki devalvatsiya qarzni qaytarish qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda mijoz kreditni yoki uning foizlarini chet elga to'lash uchun hukumatdan ruxsatnoma olishiga to'g'ri keladi. Albatta, bunday holatlar xalqaro kredit berishga to'sqinliklar qilishi mumkin.

Xalqaro kreditni baholashda moliyaviy risk ham muhim o'rin tutadi. Moliyaviy risk — bu xalqaro kredit berilgan vaqtdan so'ng kredit olgan mijoz qarzni to'lay olmaydigan holda, ya'ni to'lovga layoqatsiz bo'lgan holda yuzaga keladi. Bunday xavfni baholash uchun bank bir qancha omillarni tahlil qilib chiqadi. Bular xalqaro miqyosda «uchta C»: Character — reputatsiya, xarakter; Cash flow or capacity — pul oqimi va ishlab chiqarish quvvati; Capital — kredit oluvchi kapitali kabi ko'rsatkichlar bilan hisoblanadi.

Bank xalqaro kredit oluvchining faoliyatini baholashdan oldin uning jiddiy kompaniyami yoki yo'qmi, majburiyatlarini bajara oladimi va o'z biznesi to'g'risida yetarli malakaga ega ekanligi haqida ma'lumotlar to'playdi.

Kredit oluvchining faoliyatini baholash uchun bankning o'z tajribasi, boshqa banklarning kredit berish malakasi asosiy baza hisoblanadi. «Dun&Bradstreet» xilidagi firmalar yer yuzidagi barcha kredit oluvchilar, har xil kompaniyalar, xo'jalik va hukumat agentliklari haqida moliyaviy va tijoriy ma'lumotlarni beradi. Hozirgi kunda ko'plab banklar maxfiy ravishda mijozlarning operatsiyalari haqida ma'lumot almashadilar. Bundan tashqari, bank kredit tarixini o'zida mujassamlashtirgan kredit paketini ham yuritadi.

Bank kredit oluvchining pul oqimi, ishlab chiqarish quvvati va kapitalini baholash uchun moliyaviy hisobot talab qiladi (fir-

maning balansi, daromadlar haqida hisobot va pul oqimi haqida hisobot).

Firmaning balansi o'sha paytdagi moliyaviy holatini ifodalaydi. Daromadlar hisoboti esa firmaning o'sha yildagi daromadlari va xarajatlarini ko'rsatib turadi. Albatta, bu ma'lumotlar mustaqil auditorlar tomonidan tasdiqlangan bo'ladi.

Bank uchun hisobotlar olish oson bo'lmaydi. Chunki ularning shakllari hamma mamlakatlarda ham bir xil emas. Balansdagi moddalar va daromadlar hisobotidagi raqamlarni solishtirib, bank mijozning operatsiyalari haqida ma'lumot oladi. Balans va hisobotlarining bir necha yilliklarini tahlil qilish orqali moliyaviy ko'rsatkichlarni qay holda o'zgarayotganini ko'rishi mumkin va oxirida bu raqamlarni asosiy raqobatdoshlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslab, firmaning faoliyatiga va istiqboliga baho beradi.

Agar bank firmaning sho'ba korxonasi arizasini ko'rsatadigan bo'lsa, bu uchun firma miqyosidagi global operatsiyalari va umumiy moliyaviy holat haqidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi. Bu, albatta, qiyin bo'ladi, chunki dunyo mamlakatlarida ekkaunting (hisob-kitob) amaliyoti har xil va ular bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, kompaniya o'zining ichki operatsiyalari bilan bankni chalg'itishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan, kredit berishda ko'riladigan risklar bank tomonidan o'rganilib chiqilgandan so'ng, bu kredit bahosiga yo ijobiy, yo salbiy ta'sir etishi mumkin. Chunki bu risklardan himoyalaniish o'z-o'zidan kredit bahosining oshishiga olib keladi. Banklar va bankirlar boshqa kreditorlarga nisbatan riskdan ko'p himoyalalanuvchi yoki qochuvchi bo'lishi kerak. Buning sababi shundaki, bank boshqa kreditorlarga nisbatan o'z mablag'i bilan emas, balki jalb qilingan mablag'lar, ya'ni jismoniy, huquqiy shaxslarning vaqtincha bankda turgan mablag'lari bilan ishlaydi. Bankning kredit berish imkoni jalb qilingan resurslarga bog'liq bo'ladi.

Bank, o'z navbatida, bu jalb qilingan mablag'larni talab qilingan vaqtda mijozga qaytarib berish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu imkoniyat esa bank faoliyatida mavjud risklarni o'z

vaqtida aniqlash, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tayanch soʻzlar: xalqaro kredit firma krediti, rambursli kredit, eksportni kreditlash, importni kreditlash, xalqaro lizing, xalqaro kreditlar boʻyicha qarzdorlik, libor stavka, xalqaro foiz stavkalar, praym reyti, kredit bahosi.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro kredit nima, uning qanday turlari bor?
2. Xalqaro kreditning tamoyillarini sanang.
3. Xalqaro kreditning bahosini qanday aniqlanadi?
4. Xalqaro kredit boʻyicha qarzdorlik qanday sabablar tufayli yuzaga keladi?
5. Xalqaro kredit boʻyicha qarzdorlikning oldini olish yoʻllarini ayting.
6. Eksport va importni kreditlash usullarini gapirib bering.

X bob. TASHQI SAVDO OPERATSIYALARINI KREDITLASH

10.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi savdoning obyektiv zarurligi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir chet davlat boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatish, tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish, mamlakatga chet el investitsiyalarini jalb qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni mikrodarajada intensivlashtirish, tashqi savdo aylanmasida markazlashgan eksport va import ulushini kamaytirish, mijozlarga valuta xizmatini ko'rsatadigan tijorat banklari sonini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar eng dolzarb vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda nimani tushunish lozim? Bu faoliyat nima uchun qo'llab-quvvatlanadi?

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda ikki yoki undan ko'p mamlakatlar hyuududida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlari sifatida davlat organlari va davlat korxonalari ham ishtirok etishi mumkin. O'zaro iqtisodiy aloqalar faqatgina savdo operatsiyalarini o'tkazishdan iborat bo'lib qolmay, shuningdek kreditlash, investitsiyalar kiritish, qo'shma korxonalar vositasida bahamjihat iqtisodiy faoliyat yuritish ham shular jumlasidandir. Tashqi savdo esa tashqi iqtisodiy aloqalarning bir sohasi bo'lib, turli mamlakat xo'jalik subyektlarining savdo operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish davomida o'zaro xo'jalik munosabatlariga kirishayotgan xo'jalik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari deb yuritiladi. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari alohida ro'yxatga olinib ularga maxsus guvohnoma beriladi. Bunday holat tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, ishtirokchilarga maxsus imtiyozlar berish orqali mazkur faoliyatni rag'batlantirish, boj-

xona hisobini takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Hozirgi kunda pul-kredit va valuta siyosatining rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xos bo‘lgan usullaridan to‘laligicha foydalanish maqsadga muvofiq emas. Bunga sabab iqtisodiyotdagi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilmaganligidir.

Iqtisodiyotning noustuvor holati, unda tarkibiy qayta qurishning yakunlanmaganligi, ichki ishlab chiqarishdagi ma‘lum tarmoqlarning dunyo darajasiga yetishmaganligi amaliyotda alohida korxonalar, mintaqalar va birinchi darajali ijtimoiy dasturlarning asosan davlat tomonidan moliyalanishini saqlab qolishni talab qiladi.

Tashqi savdo sohasida muammolarning hal etilishida chet el valutasining muomalasida valuta munosabatlarini tartibga solishda maxsus valuta qonunchiligi muhim o‘rin tutadi. Valuta qonunchiligining eng muhim vazifasi chet el valutasining cheklangan muomalasi sharoitida O‘zbekiston so‘mini himoya qilishdir.

Tashqi savdo va valutadagi operatsiyalarini ko‘rib chiqishda avval rezidentlar, norezidentlar va vakolatli bank tushunchalarini ko‘rib chiqish lozim. Rezidentlar — O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yoki doimiy yashab turgan yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlar — chet elda joylashgan yoki doimiy yashab turgan yuridik va jismoniy shaxslardir. Chet el valutasida operatsiyalar o‘tkazish uchun litsenziya olgan tijorat banklari vakolatli banklar deb yuritiladi.

Tijorat banklarining tashqi iqtisodiy faoliyati tovarlar va xizmatlarning eksporti–importi, nosavdo xarakterdagi bitimlar va mamlakat hududida xo‘jalik faoliyati yurgizayotgan norezidentlar bo‘yicha so‘mda va chet el valutasida operatsiyalar o‘tkazish bilan bog‘liq.

Tashqi savdo bo‘yicha valuta operatsiyalar faqatgina vakolatli banklar orqali va to‘g‘ri rasmiylashtirilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Rezident yuridik shaxslar uchun chet el valutasining qonuniy manbalari quyidagilardir:

- respublika va mahalliy budjetlarning chet el valutasidagi mablag‘lari;
- nizom fondiga (kapitaliga) kirimlar;

– vakolatli va chet el banklari va moliya institutlaridan olingan kreditlar;

– ichki bozorda vakolatli banklar orqali sotib olingan valuta;

– xayriya fondlari.

Jismoniy shaxslar quyidagi valuta mablag‘lariga egalik qilishlari mumkin:

– bojxona qoidalari va bank qonunchiligiga muvofiq ravishda O‘zbekistonga olib kirilgan, o‘tkazilgan va jo‘natilgan valuta mablag‘lari;

– vakolatli banklardan sotib olingan naqd valuta;

– O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ishlaganligi uchun olgan ish haqi va boshqa mukofotlar.

Fuqarolarning valutadagi shaxsiy mablag‘lari joriy hisoblarga va omonatlarga erkin qabul qilinadi. Joriy hisobvaraqlarning rejimi qabul qilinayotgan valutaning kelib chiqish xarakteriga qarab o‘rnatiladi.

Rezidentlar tomonidan joriy valuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

– eksport-import bilan bog‘liq bo‘lgan chet el valutasini O‘zbekiston Respublikasiga va O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga o‘tkazish;

– moliyaviy kreditlar olish va berish;

– omonatlar, investitsiyalar, kreditlar va kapitalning harakati bilan bog‘liq boshqa operatsiyalar bo‘yicha daromadlarni O‘zbekiston Respublikasiga va O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga o‘tkazish;

– O‘zbekiston Respublikasiga va O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga nosavdo xarakterdagi o‘tkazmalar.

Rezidentlar o‘rtasida hisoblarning chet el valutasida o‘tkazilishi mumkin emas.

Valuta muomalasini tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ichki valuta bozoridir. O‘tish jarayonida uning muqobil faoliyati valuta mablag‘larini chet elga olib chiqib ketish bo‘yicha ma‘muriy cheklovlarining kiritilishini talab qiladi. Ichki valuta bozorida doimiy taklifni ta‘minlash quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

– korxonalar tomonidan eksport valuta kirimining 30 %ini vakolatli banklar orqali banklararo valuta birjasida majburiy sotish;

– vakolatli banklar vositachiligida korxonalarning o‘z valuta mablag‘larini ixtiyoriy ravishda sotishi;

– Markaziy bankning valuta intervensiyalari.

Chet el valutasiga bo‘lgan talab uning korxonalar va vakolatli banklar tomonidan sotib olinishini cheklash orqali tartibga solinadi.

Korxona, muassasa va tashkilotlarning (rezidentlar va norezidentlar) vakolatli banklardagi joriy valuta hisobvaraqlariga chet el valutasidagi quyidagi kirimlar hech qanday cheklovlarsiz qabul qilinadi:

– korxona joriy hisobvarag‘idan ilgari xizmat safari xarajatlari uchun olingan mablag‘larning sarflanmagan qoldig‘i;

– bojxona qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslardan qabul qilingan bojxona to‘lovlari;

– soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to‘lash bo‘yicha jismoniy shaxslardan qabul qilingan to‘lovlar;

– O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra musodara qilingan mablag‘lar.

Valuta operatsiyalarini o‘tkazish davomida valuta qonunchiligiga rioya qilinishi valuta nazoratining organlari va agentlari tomonlaridan nazorat qilinadi. Valuta nazoratining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

– o‘tkazilayotgan valuta operatsiyalarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligi va ularni o‘tkazish uchun barcha zarur litsenziya va ruxsatnomalarning mavjudligini aniqlash;

– rezidentlar tomonidan valutani ichki bozorda sotish bo‘yicha va davlat oldidagi majburiyatlarining bajarilishi tekshirish;

– chet el valutasidagi to‘lovlarning asosli ekanligini tekshirish;

– valuta operatsiyalari va norezidentlarning so‘mdagi operatsiyalari bo‘yicha hisob va hisobotning to‘liqligi va haqqoniyligini tekshirish.

Valuta nazoratining organlari O‘zbekiston Markaziy banki va O‘zbekiston Respublikasi hukumati hisoblanadi.

Valuta nazorati vazifasini valuta nazoratining agentlari bajaradilar, masalan: Markaziy bankka hisobot beruvchi va kolatli banklar. Davlat bojxona qo‘mitasi va uning tarkibiy tuzilmalari valuta qimmatliklarining O‘zbekiston Respublikasi chegaralaridan o‘tishini nazorat qiladi. Pul muomalasini, shu jumladan, valuta muomalasini tartibga solish maqsadida pul-kredit siyosati bo‘yicha respublika komissiyasi tuzilgan. Valuta qonunchiligi talablarining bajarilishini, shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasi nazorat qiladi.

Chet el valutasini bilan amalga oshiriladigan bank operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- mijozlarning valuta hisobvaraqlarini olib borish;
- nosavdo operatsiyalar;
- O‘zbekiston vakolatli banklari va chet el banklari bilan vakillik aloqalarini o‘rnatish;
- tovarlar va xizmatlarning eksporti va importi bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro hisob-kitoblar;
- ichki valuta bozorida chet el valutasini sotish va sotib olish;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida valuta mablag‘larini jalb qilish va joylashtirish;
- xalqaro pul bozorlarida kredit operatsiyalari;
- xalqaro pul bozorlarida depozit va ayirboshlash operatsiyalari.

Tijorat banklari yuqoridagi operatsiyalarni faqatgina Markaziy bankning mos litsenziyasi mavjud bo‘lgandagina amalga oshiradi.

Tranzit valuta hisobiga chet el valutasidagi tushumlar to‘la-ligicha kiritiladi. Joriy valuta hisobida esa eksport tushumining bir qismini majburiy sotishdan so‘ng korxonaning ixtiyorida qolgan valuta mablag‘lari hisobga olinadi.


Korxonaning valuta hisobiga quyidagi tushumlar kiritilishi mumkin:

- tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun chet eldan jo‘natilgan eksport tushumi;
- ichki bozorda amaldagi qonunchilikka mos ravishda sotib olingan valuta mablag‘lari;
- chet el valutasidagi dividendlar va foyda;

– qo‘shma korxona ishtirokchilarining korxona nizom fondiga qo‘shayotgan valutadagi ulushlari.

Milliy iqtisodiyotning barqaror sur‘atda rivojlanishi tashqi savdo va eksport sohasidagi faoliyat samaradorligiga ham bog‘liq. Tashqi bozorda konyunkturaning yomonlashuviga qaramasdan, tashqi savdo aylanmasi 2007-yildagi 15719,6 mln dollardan 2008-yilda 19077,0 mln dollar hajmiga qadar, ya‘ni 21,4 foizga oshdi (1-rasm).

Tashqi savdo aylanmasi hajmining o‘shishi, mlrd. AQSH dollari



1-rasm

Ayni vaqtda tovarlar va xizmatlar eksporti 28,7 foizga ortdi. Natijada tashqi savdo balansida ijobiy saldo hajmi sezilarli darajada o‘ydi. Bu esa ishonchli to‘lov balansi va iqtisodiyotimiz barqarorligining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulot salmog‘ining barqaror o‘shish tendensiyasi va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. 2008-yilda umumiy eksport hajmida xomashyo bo‘lmagan tovarlarning ulushi 71 foizdan ziyodni tashkil etdi. Ayni vaqtda O‘zbekiston uchun an‘anaviy eksport xomashyosi bo‘lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003-yildagi 20 foizdan 2008-yilda 9,2 foizga tushdi (6-jadval).

6-jadval

Tashqi savdo tarkibidagi o'zgarishlar

	2007-yil		2008-yil		O'sish sur'ati, %da
	mln AQSH doll	solish. salm., %	mln AQSH doll	solish. salm., %	
Eksport	8991,5	100,0	11572,9	100,0	128,7
Paxta tolasi	1127,4	12,5	1066,3	9,2	94,6
Oziq-ovqat tovarlari	761,0	8,5	513,8	4,4	67,5
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	613,4	6,8	642,7	5,6	104,8
Energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari	1818,2	20,2	2917,6	25,2	160,5
Qora va rangli metallar	1029,7	11,5	811,1	7,0	78,8
Mashina va uskunalar	932,0	10,4	873,5	7,5	93,7
Xizmatlar	965,3	10,7	1200,7	10,4	124,4
Boshqalar	1744,5	19,4	3547,2	30,7	203,3
Import	6728,1	100,0	7504,1	100,0	111,5
Oziq-ovqat tovarlari	483,0	7,2	609,3	8,1	126,1
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	882,8	13,1	975,1	13,0	110,5
Energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari	236,5	3,5	157,2	2,1	66,5
Qora va rangli metallar	504,8	7,5	507,8	6,8	100,6
Mashina va uskunalar	3340,0	49,6	4001,4	53,3	119,8
Xizmatlar	388,7	5,8	424,6	5,7	109,2
Boshqalar	892,3	13,3	828,7	11,0	92,9

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2008-yilda eksport tarkibida energiya tashuvchilar va neft mahsulotlarining solishtirma salmog‘i 2007-yildagi 20,2 %dan 25,2 %ga qadar oshgan. Shuningdek, eksport tarkibida xizmatlarning ulushi 10,4 % darajasida bo‘lganligi ham e’tiborga molik.

Import tarkibidagi yaqqol o‘zgarish – mashina va uskunalar importi ulushining 2007-yildagi 49,6 %dan tahlil davrida 53,3 %ga qadar o‘sganligidir. Bu holat mamlakatimizning asosiy soha va tarmoqlarida olib borilayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish jaryonlari bilan izohlanadi.

Ta'kidlash kerakki, tashqi savdo munosabatlarimiz geografiyasi, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobidan sifat jihatidan o'zgar-moqda.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulot ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday holat eksportimizning xomashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

10.2. Xalqaro savdoda import operatsiyalarini tashkil qilishning huquqiy asoslari

Xalqaro savdo munosabatlarida eksport-import operatsiyalarini tashkil qilishning huquqiy asoslari deganda, birinchi navbatda, mamlakatlarning ichki qonunchiligi (konstitutsiya, qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar), ikkinchidan, ikki tomonlama bitim, kelishuv va paktlar, uchinchidan, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqariladigan tavsiya, qo'llanmalar nazarda tutiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo munosabatlarini tashkil etish uchun konstitutsiyaning 17-moddasida quyidagicha yozilgan:

«O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektidir.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin».

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga qaratilgan qonun va qonun hujjatlari ishlab chiqilgan.

Ishchi va ko'p tomonlama kelishuv, bitimlar ham tashqi savdoni tashkil qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Bularga savdo bitimlari va shartnomalar misol bo'lishi mumkin. Ularga mahsulotlar va xizmatlar eksport importining umumiy

shartlari va tartibini aniqlovchi hujjatlardir. Ular qatorida alohida ahamiyatga ega mahsulotlar va xizmatlarga taalluqli maxsus bitimlar ajratiladi. Masalan, o'simlik va hayvonot dunyosining yo'qolib borayotgan turlarining xalqaro savdosi bo'yicha konvensiya, shuningdek, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar manfaatlarini ko'zlagan holda keskin narx tebranishining oldini olish yoki yumshatish maqsadida xomashyo resurslari savdosida qo'llaniladigan ko'p tomonlama shartnomalar. Bu bitimlar kontragentlar yoki xorijiy sheriklar o'rtasida xalqaro tijorat shartnomalari tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Turli mamlakatlar darajasida tenglashtirish va ikki marta soliq olishning oldini olish maqsadida xalqaro munosabatlar qatnashchilarining soliq solishning umumiy qoidalari, sharoitlari va tartibi to'g'risidagi soliq bitimlari ham mavjud. Hozirgi vaqtda barsa rivojlangan mamlakatlar o'zaro soliq bitimlarini imzolangan. Birinchi bor bunday shartnomalar IHTT tomonidan 1963 va 1973-yillarda ishlab chiqilgan va ular boshqa shu turdagi bitimlar uchun namuna sifatida hozirgi kunda ham qo'llaniladi.

Tashqi savdoning huquqiy asosining uchinchi tomoni xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar tashkil etadi. Hozirgi savdo va sanoat sohasida quyidagi yirik xalqaro tashkilotlar mavjud: Umumjahon Savdo Tashkiloti (WTO), Savdo va rivojlantirish bo'yicha BMT Anjumani (UNKTAD), Sanoat rivojlanishi bo'yicha BMT Tashkiloti (UNIDO) va boshqalar.

Umumjahon savdo tashkiloti 1995-yilning yozida tashkil etilgan bo'lib, muhim xalqaro tashkilot — savdo va tariflar bo'yicha Bosh bitim (GATT)ning davomchisidir. GATT ko'p tomonlama xalqaro bitim bo'lib, ishtirokchi mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soluvchi, shuningdek, savdo masalalari bo'yicha muzokaralar va maslahatlar o'tkazuvchi xalqaro tashkilotlar edi. Xalqaro savdo munosabatlari bilan shug'ullanuvchi ushbu xalqaro tashkilot 1947-yilda tuzilgan. Dastlab bitimga 23 mamlakat imzo chekkan, 1994-yilning oxirida unda 128 mamlakat qatnashdi.

Keyingi 30 yil ichida sanoat mahsulotlarga import tariflari rivojlangan mamlakatlarda 40 foizdan 5 foizgacha pasaygan. Bosh bitim o'z ichiga to'rtta katta qismni oladi:

- shartnoma tuzayotgan tomonlarning asosiy majburiyatlari;
- bu majburiyatlardan istisno;
- yillar mobaynida qo'shilgan tuzatmalar yig'indisi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning o'ta muhim muammlariga taalluqli moddalar.

Xalqaro savdoning rivojlanishida GATT muhim o'rin tutadi. Lekin jahon iqtisodiyotining o'sishi va jahon xo'jaligi aloqalarining murakkablashuvi, xalqaro investitsiyalar va xizmatlar savdosini kengayishi yangi tashkiliy tizim barpo etilishini talab etdi. 1995-yildan faoliyat ko'rsatayotgan WTO bugungi kunda GATT tomonidan olib borilgan hujjatlarning mantiqiy davomchisi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Jahon savdosini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar guruhiga savdo va rivojlanish bo'yicha BMT Anjumani (UNKTAD) kiradi.

U 1964-yilda BMT Bosh Assambleyasining domiy tashkiloti sifatida ta'sis etilgan bo'lib, BMT a'zolari bir vaqtning o'zida uning ham a'zolari hisoblanadi. GATTdan farqli ravishda UNKTAD savdo rivojlanishi uchun umumiy sharoitlarni yaratadi, xalqaro ayirboshlashni rag'batlantiruvchi va tartibga soluvchi chora-tadbirlarni qabul qiladi. Bunday chora-tadbirlarga jahon savdosi qoidalarini o'rnatish, BMTning boshqa tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, savdo sohasida turli mamlakatlar siyosatini muvofiqlashtirish kiradi.

UNKTAD doirasida davlatlarning iqtisodiy huquq va majburiyatlari Xartiyasi ishlab chiqilgan (1974-yil), shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni qayta qurish va Yangi Xalqaro Iqtisodiy Tartib (YaXIT)ni yaratishga qaratilgan bir qator muhim qarorlar qabul qilingan.

BMT tizimida YaXITni o'rnatilishiga ko'maklashuvchi boshqa qator tashkilotlar ham ish yuritadi. Ular jumlasiga sanoat rivojlanishini bo'yicha tashkilot – UNIDO ham kiradi. U 1966-yildan Bosh Assambleya doirasida tashkil etilgan bo'lib, 1979-

yilda BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi sifatida qayta tashkil etildi.

UNIDOning asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlar sanoati rivojlanishini rag'batlantirish va sanoatlashtirishni jadal-lashtirish hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan xalqaro tashkilot va bo'limlar xalqaro savdo munosabatlarida huquqiy asosni yaratishda muhim o'rin tutadi, ularning faoliyati xalqaro savdoni huquqiy jihatdan tartiblaydi.

Qadim zamonlardan tashqi savdo endi paydo bo'layotgan davrlarda ikki tomon o'zaro hisoblashishining ishonchli ta'minlanganligi muammosidan tashvishlanar edi. Ular hisoblashishning ikki turidan birini tanlash mumkin edi. Birinchisida eksportyor tovarni jo'natib, so'ng to'lovni olardi, ikkinchisida, xaridor to'lovni o'tkazib, tovarni olardi, lekin birinchi hamda ikkinchi hollarda eksportyor va xaridor qarama-qarshi tomon o'z majburiyatlarini bajarmasligi riskiga mahkum edi.

Bunday risklardan xalos bo'lish uchun xalqaro savdo munosabatlari amaliyotida hisoblashishning bir necha shakli ishlab chiqildi. Ular tomonlarning bir-biriga ishonch darajasiga qarab farqlanadi. Xorijiy sheriklar bilan hisoblashish shakllarining asosiylari quyidagilardir: akkreditiv, inkasso, cheklar bilan hisoblashish va hokazo. Ko'rsatilgan shakllarning bir qancha turlari mavjud.

Hisoblashish shaklini tanlashda sherik operatsiya shakllarining shartlarini, ishonchli va foydaliligini hisobga olishi kerak. Hisoblashishning tanlangan shakli tuzilgan shartnomada aks etiriladi.

Eksport-import operatsiyalari bo'yicha xalqaro hisoblashishning shakli hujjatli xarakterga ega, chunki u tashqi savdo shartnomasi bilan belgilangan tovar-transport hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Import operatsiyalarida moliyaviy hujjatlarni qo'llash bir necha asrlardan beri davom etib kelmoqda. Ushbu tizimning maqsadi tovarlarni oldi-sotdisi bo'yicha tomonlar majburiyatlarining bajarilmaslik riskidan himoyalashdir.

Xalqaro savdoda quyidagi eng muhim hujjatlar qo'llaniladi: veksel (tratta), yuklash schyoti, fizik tashishga oid hujjatlar-

konosamentlar, temir yo‘l yukxatlari, sug‘urta polisi, schyot-faktura, kafolat xatlari.

Veksel — bu qarz oluvchi tomonidan hujjatda o‘rnatilgan vaqt o‘tgandan so‘ng belgilangan summaning shak-shubhasiz to‘lash majburiyatidir. U boshqa shaxslarga o‘tkazilishi ham mumkin, qarzdor va veksel ushlovchilarning barchasi oxirgi veksel egasi oldida ko‘rsatilgan summani to‘lab berishga majburdirlar. Veksel o‘tkazilganda uning orqasiga yangi egasining nomi ko‘rsatilgan yozuv qo‘yiladi.

Xalqaro hisoblar amaliyotida o‘tkazma veksel (tratta)lar keng qo‘llaniladi. Bu xaridorning aniq belgilangan muddatda ma‘lum valuta summasini to‘lab berish majburiyatidir. Oddiy veksel dan farqli ravishda, trattalar kreditor tomonidan yozilib, kreditor qarz bo‘lgan uchinchi shaxsga mablag‘ni to‘lab berish talabi bilan yoziladi. Trattalar qimmatli qog‘oz hisoblanib, to‘lov vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin.

Kaliforniya Universiteti o‘qituvchisi Devid K. Eytman trattalarni muddatli va uzaytirilganlarga tasniflaydi. Muddatli trattalar egalariga vekselni taqdim etuvchiga to‘lab beriladi. To‘lovchi ehtiyot bo‘lishi kerak, chunki qalbaki hujjat bo‘yicha to‘lovni, amalga oshirish xavfi ham mavjud. Muddatli trattalardan farqli ravishda, uzaytirilgan trattada to‘lov qoldirilgan muddatdan so‘ng amalga oshiriladi. Xalqaro savdo amaliyotida to‘lov aksept (to‘lovni majburiyatni tan olishi) dan so‘ng 30, 60 yoki 90 kun muddatda amalga oshirishi belgilanadi. Odatda, akseptlangan qaytarilgan trattalar qisqa muddatli pul bozorida sotiladi.

Xalqaro hisoblashishlarda transport-tashish tashkilotlari tomonidan rasmiylashtiriladigan «qoplash schyotlari» alohida o‘rin egallaydi. Yuklash schyotlari 3 ta funksiyani bajaradi:

- 1) tovarni olish to‘g‘risidagi tilxat;
- 2) shartnoma rolida;
- 3) garov sifatida.

Tilxat sifatida ular tashuvchi yukni tashishga qabul qilishini tasdiqlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, tashuvchi o‘ram ichidagilarga javob bermaydi. Shartnoma sifatida yuklash schyotlari tashuvchi ma‘lum summa evaziga tovarni belgilangan joyga yetkazib

berishni bo'yniga oladi. Yuklash schyotlari xaridor tomonidan tovarga to'lovni ta'minlashda garov funksiyasini bajaradi.

David K. Eytman yuklash schyotlarining ikki turini farqlaydi: to'g'ri va buyruqli. To'g'ri yuklash schyotlari yuklangan tovarlar avans qilib oldindan to'langanida rasmiylashtiriladi. Buyruqli yuklash schyotlari ma'lum vakolatli shaxs nomiga yoziladi. Yuk yetib kelganda tashuvchi tovar ihtiyoriga yuborilgan shaxsni xabardor qilish kerak.

Xalqaro amaliyotda «sof yuklash schyoti», «bortda»gi yuklash schyoti kabi atamalar uchraydi. Birinchisi, tashuvchi tovarning sifatini tekshirishi shart bo'lmasa ham, yuk yaxshi holatda qabul qilingan bo'lsa, tashuvchi tomonidan to'ldiriladi. Agar tovar kema bortida bo'lsa, «bortda»gi yuklash schyoti rasmiylashtiriladi.

Tashqi savdoda konosament, temir yo'l yukxati, avia yukxati kabi transport hujjatlari uchraydi. Ular bir-biridan tashish vositasiga qarab farqlanadi. Ularning funksiyalari yuklash schyoti funksiyalari bilan bir xildir.

Sug'urta hujjatlari sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi orasidagi munosabatni aks ettiradi. Sug'urtalovchining roli sug'urta munosabatlari olish evaziga baxtsiz hodisa tufayli sug'urtalanuvchi ko'rgan zararni qoplashdan iborat. Sug'urtalovchi tomonidan beriladigan sug'urta polisi sug'urta shartnomasini tasdiqlaydi. Sug'urta polisi sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini to'laganidan keyin sug'urta kompaniyalari tomonidan yozib beriladi.

Kafolat xati – yukni oluvchi yoki uning bank tomonidan tashuvchi aylanma transport hujjati rasmiylashtirilmaganligi sababli yuzaga kelishi mumkin hodisalar uchun javobgar emasligini tasdiqlovchi hujjat.

Xalqaro to'lovlarda, shuningdek, ko'plab transport, moliya, bojxona va tijorat xarakteriga ega hujjatlar qo'llaniladi. Ularning barchasi turli shakldagi xalqaro to'lovlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: valuta munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, fraxta, eksport, import, gatt, erkin savdo zonalar, jahon savdo tashkiloti,

Nazorat uchun savollar

1. Tashqi savdo deganda nimani tushunasiz?
2. Tashqi savdoni tashkil qilish tamoyillarini keltiring.
3. Eksportni kreditlashni tushuntiring.
4. Savdo balansi va uning tarkibini tushuntiring.
5. Tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar to'g'risida tushuncha bering.
6. Tashqi savdoda qaysi hisob-kitob shakllaridan foydalanish qulay?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8 dekabr.
2. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun. — T.: «O'zbekiston». 1995-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 1996-yil 25-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. 2000-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining bank tizimida valutani tartibga solishga oid qonunchilik hujjatlari to'plami. — T.: «O'zbekiston», 2004.
6. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. — T.: «O'zbekiston», 2003-yil.
7. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. — T.: «O'zbekiston», 1996-yil.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: «O'zbekiston», 1997-yil.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. 1-jild, — T.: «Ma'naviyat», 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. — T.: «O'zbekiston», 2009.
11. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish — davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi «Turkiston» gazetasi, 2009-yil 14-fevral.
12. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash — barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O'zbekiston Res-

publikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2008-yil 9-fevral.

13. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. O'quv qo'llanma. — T. «Moliya». 2000-yil

14. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. — T.: «Moliya», 2002-yil.

15. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. — T.: «O'qituvchi», 2003-yil.

16. Abdullayeva Sh.Z. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Darslik. — T.: «Iqtisod-moliya», 2005-yil. 588 bet.

17. Абрамов В.Л. Мировая экономика. Учебное пособие. — М.: «Дашков и К», 2004.

18. Авдокушин Э.Ф. Международные экономические отношения. Учеб. пособие / 6-е Переработка и дополнение — М.: Изд. Дом. Маркетинг 2001 год.

19. Алексеев Ю.П. Международная торговля. — М., 2000.

20. Антонов В.А. Мировая валютная система и международные расчёты. — М.: ТЕИС, 2000 год.

21. Антонов В.А. Мировая валютная система и международные расчеты. — М.: ТЕИС, 2000 год.

22. Артемкина И.Е. Международные операции по коммерческим операциям, — М., 2000.

23. Базылев Н.И., Мишкевич М.В. Мировая экономика: Учеб. Пособие. — Мн.: «Мисанта», 2004.

24. Балабанов И.Т. Валютный рынок и валютные операции в России. М., 2000.

25. Банки и банковское дело /Под. ред. И.Т. Балабанова. — СПб. Питер, 2001.

26. Банковское дело. Под ред. проф. Лаврушина О.И. — М.: «ФиС», 2003 год.

27. Банковское дело: Учебник./ Под. ред. Г.Г., Коробовой. — М.: «Экономист», 2004.

28. Белоглазова Г.Н. Денги, кредит, банки. — М.: «Юрайт — издат», 2005.

29. Березина Э. Международные операции коммерческих банков. — М., 1999.

30. Burhanov U. Kredit inqirozi: mas'uliyatsizlik natijasimi? /Ilmiy-ommabop risola.— T., 2009.

31. Владимирская А.С. Валютные операции. М., 2001.

32. G'afurov U.V. «Prezident I. Karimovning Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarini o'rganish bo'yicha, o'quv-uslubiy qo'llanma. — T.: TDIU. -120 b, 2009-yil.

33. Эршев М.В. Валютно-финансовые механизмы в современном мире. — М.: ОАО НПО Издательство Экономика, 2000.

34. Jumayev N.X., Yuldashev M.I. Jahon moliyaviy inqirozi va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. // «Fan va turmush» jurnali, 2008. № 6.

35. Иванов Н.С. Международные кредитные отношения. — М., 1999.

36. Красавина Л.Н. Международные расчетные отношения. — М., 2001.

37. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения, М., 2001.

38. Круглов В.В. Основы международных валютно-финансовых и кредитных отношений. — М.: «Инфра-М», 1998 г .

39. Лаврушин О.И. Деньги, кредит и банки. Учебник. — М., 2002 г.

40. Международные экономические отношения. Учебник / Под. ред. Н.Н. Ливесева, — М.: Московский гос. институт международных отношений, Российская политическая энциклопедия, 2001 год.

41. Мировая экономика и международные экономические отношения. Серия учебники. Учеб. пособие. / Под ред. Акавоновой Э.С., О.Н. Воронковой, Н.Н.Гаврилко. — Ростов н/д. Феникс, 2001 год.

42. Xamidov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. Darslik / Mas'ul muharrir: X.Boboyev — T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamg'armasi» nashr., 2001-yil.

43. Xudoyberdiyev Z.Ya., G‘afurov U.V., Xomitov K.Z. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston». 2009-yil.

44. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Globallashuv jarayoni va moliyaviy inqiroz sabablari // Adolat, 2009-yil 27-fevral.

45. Internet saytlari

<http://cbu.st.uz/uz/press>.

<http://uba.uz/news.aspx?nidq584>.

<http://www.bfa.re.uz>

<http://www.bankir.ru>

<http://www.gov.uz>

<http://www.uza.uz>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I bob. VALUTA MUNOSABATLARI VA VALUTA TIZIMI

1.1. Valuta munosabatlari tushunchasi, ularning asosiy ishtirokchilari.....	5
1.2. Valuta munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi, maqsadlari va shakllari.....	7
1.3. Valuta tizimi tushunchasi. Milliy valuta tizimi va uning elementlari.....	9
1.4. Jahon va hududiy valuta tizimlari, ularning elementlari.....	14
1.5. Jahon valuta tizimining evolutsiyasi. 1867-yilgi Parij valuta tizimi.....	20
1.6. 1922-yilgi Genuya va 1944-yilgi Bretton-Vuds valuta tizimlari.....	22
1.7. 1976-1978-yillarda Yamayka va 1979-yilgi Yevropa (hududiy) valuta tizimlari.....	27

II bob. VALUTA KURSI VA UNING REJIMLARI

2.1. Valuta va uning iqtisodiy mohiyati.....	30
2.2. Valuta kursining mazmuni va uni kotirovkalash.....	32

III bob. VALUTA OPERATSIYALARI VA UNING TURLARI

3.1. Valuta bozori, uning turlari va ishtirokchilari.....	43
3.2. Valuta operatsiyalari va ularniig turlari. SPOT operatsiyalari yoki kassa bitimlari.....	47
3.3. Muddatli valuta operatsiyalari va ularning amalga oshirilishi.....	51

IV bob. VALUTA SIYOSATI VA UNING ASOSIY SHAKLLARI

4.1. Valuta siyosati va uning mohiyati.....	62
4.2. Valuta siyosatining maqsadi, vazifalari va asosiy shakllari.....	64
4.3. O'zbekistonda valuta siyosatining asosiy yo'nalishlari.....	66

V bob. MARKAZIY BANKNING VALUTA SIYOSATI

5.1. Markaziy bankning valuta siyosati mohiyati.....	74
5.2. Markaziy bank valuta siyosatining asosiy shakllari.....	78

VI bob. XALQARO HISOB-KITOB-LAR VA ULARNING ASOSIY SHAKLLARI

6.1. Xalqaro hisob-kitoblar haqida tushuncha. Tashqi iqtisodiy shartnomalardagi valuta-moliyaviy va to'lov shartlari.....	85
6.2 Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllari va ularning tavsifi.....	94
6.3. Xalqaro hisob-kitoblarda SWIFT tizimi.....	119

VII bob. TO'LOV VA HISOB-KITOB BALANSLARI

7.1. To'lov balansi, uning mohiyati, va tarkibi.....	128
7.2. To'lov balansini tuzish tartibi.....	134
7.3. To'lov balansi tuzishning metodologik asoslari.....	139

VIII bob. VALUTA INQIROZLARI VA ULARNING SHAKLLARI

8.1. Valuta inqirozi, uning mohiyati va turlari.....	146
8.2. Valuta inqirozida valuta kurslarining o'zgarishi va valutani boshqarish siyosati.....	150

IX bob. XALQARO KREDIT

9.1. Xalqaro kreditning mohiyati va tamoyillari.....	156
9.2. Xalqaro kreditning funksiyalari va shakllari.....	157
9.3. Xalqaro kreditning xususiyatlari va imkoniyatlari.....	164
9.4. Xalqaro kredit bo'yicha foiz stavkasi va kredit bahosi.....	174

X bob. TASHQI SAVDO OPERATSIYALARINI KREDITLASH

10.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi savdoning obyektiv zarurligi.....	179
10.2. Xalqaro savdoda import operatsiyalarini tashkil qilishning huquqiy asoslari.....	186
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	193

Z.Xudoyberdiyev, S.Qahhorov
Z.Umarov, O.Sohibov

XALQARO VALUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

O'quv qo'llanma

Muharrir: *H. Teshaboyev*
Badiiy muharrir: *M. Odilov*
Kompyuterda sahifalovchi: *A. Tillaxo jayev*

Nashr lits. AI № 174, 11.06.2010.
Bosishga ruxsat etildi 31.10.2013. Qog'oz bichimi $60 \times 84^{1/16}$.
Hisob-nashr tabog'i 12,5. Adadi 929.
56-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi. 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasida
offset usulida chop etildi.
100003. Toshkent. Olmazor ko'chasi, 171-uy.